

ZORA ALIMDJONOVA

SAHNA NUTQI (XRESTOMATIYA)

*san'at va madaniyat institutlari
talabalari uchun o'quv qo'llanma*



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI

RESPUBLIKA METODIKA VA AXBOROT MARKAZI

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT INSTITUTI

ZORA ALIMDJONOVA

**SAHNA NUTQI
(XRESTOMATIYA)**

*san'at va madaniyat institutlari
talabalari uchun o'quv qo'llanma*

Toshkent – 2007

Muharrirlar:

Hamdam Ismoilov,
filologiya fanlari nomzodi,

Dilafruz Karabayeva

Taqrizchilar:

Adiba Nosirova,
pedagogiki fanlari nomzodi

Mahkam Isroilov,
professor

«Sahna nutqi» fanidan tuzilgan mazkur o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Davlat san’at institutining Ilmiy Kengashi tomonidan 28.05.2007 yilda nashrga tavsiya etildi.

© Alimdjanova Z., 2007.

MUNDARIJA

So‘zboshi.....	6	
I. ASOTIR VA RIVOYATLAR		
Kun bilan tun.....	9	
Shoh vasiyati.....	9	
Luqmoni hakim.....	10	
Andijon haqidagi afsona.....	10	
Ibn Sino shogirdlari.....	11	
Boyo‘g‘li.....	11	
..		
Oy	va	12
yulduz.....		
Qaldirg‘och himmati.....	12	
Qaytar		13
dunyo.....		
Xirotning sultonи.....	14	
Do‘mbira.....	15	
..		
Bobur va kabutar.....	15	
Ibn Sino bilan ilon.....	15	

II. NASR NAMUNALARI

A.Navoiy. «Saddi Iskandariy» (Dostondan parcha).....				17
A.Navoiy. Lison ut-tayr (Dostondan parcha).....				18
O.Yoqubov. Ulug‘bek xazinasi (Romondan parcha).....	Ulug‘bek	xazinasi	(Romondan	19
R.Fayziy. CHo‘lga bahor keldi (Qissadan parcha).....				20
Mirmuxsin. Chotql yo‘lbarsi (Romandan parcha).....				20
Oybek. Navoiy (Romandan parcha).....		Navoiy	(Romandan	21
Oybek. Ulug‘ yo‘l (Romandan parcha).....	Ulug‘	yo‘l	(Romandan	22
Arab ertaklari. Ming bir kecha (Ertakdan parcha).....				23
S.Ahmad. Ufq (Romandan parcha).....	Ufq		(Romandan	23
S.Ahmad. Mangulik (Romandan parcha).....				26
S.Ahmad. Jimjilik (Romandan parcha).....				26
O.Yoqubov. Ulug‘bek xazinasi (Romandan parcha).....	Ulug‘bek	xazinasi	(Romandan	28
O.Yoqubov. Diyonat (Romandan parcha).....		Diyonat	(Romandan	30

parcha).....						
O‘.Hoshimov. Tushda kechgan umrlar (Romandan						31
parcha).....						
O‘.Hoshimov. Bahor qaytmaydi (Qissadan parcha).....						31
O‘.Hoshimov. Ikki eshik orasi (Romandan parcha).....						32
P.Qodirov. Yulduzli tunlar (Romandan parcha).....						35
CH.Aytmatov. Birinchi muallim (Povestdan parcha).....						37
CH.Aytmatov. Chingizxonning oq buluti (Qissadan parcha).....						38
CH.Aytmatov. Asrga tatifilik kun (Romandan parcha).....						39
A.Qahhor. Dahshat (Hikoyadan						40
parcha).....						
O.Qayumov. Dilbar (Hikoyadan						41
parcha).....						
M.Qoriyev. Spitamen (Romandan parcha).....						42
N.Gogol. Taras Bulba (Qissadan parcha).....						44
L.Tolstoy. Urush va tinchlik (Romandan parcha).....						45
R.Smirnova. Abu Ali ibn Sino (Romandan parcha).....						46
A.Pushkin. Qishloqi oyim qiz (Hikoyadan parcha).....						47
Xalq og‘zaki ijodi. To‘maris haqida afsona (Rivoyatdan parcha).....						48
X.Deryayev. Qismat (Romandan						50
parcha).....						
B.Vasilyev. Tonglar edi sokin bu yerda (Romandan parcha).....						50
A.Muqimov. Kelin (Hajviy hikoyadan parcha).....						51
A.Chekov. Latta (Hajviy hikoyadan parcha).....						53
O‘.Hoshimov. Millioner (Hajviy hikoyadan parcha).....						54
S.Ahmad. Karnaychi (Hajviy hikoyadan parcha).....						55
S.Ahmad. Xanka bilan Tanka (Hajviy hikoyadan parcha).....						56
T.Mahmudov. O‘n so‘mlik qizil pul (Hajviy hikoyadan parcha).....						58
A.Qodiriy. Mehrobdan chayon (Romandan						59
parcha).....						
I.Zoir. (Hikoya).....					Ro‘molcha	61
Mirmuxsin. Onaizor (Hikoyadan parcha).....						63
A.Isomiddinov. Uch kunlik oshiq (Hajviy hikoya).....						64
S.Azlarov. Poraxo‘rlik talabi (Hajviy hikoya).....						65
R.Tagor. Halokat (Romandan						66
parcha).....						
I.Zoir. Ichim kuyadi (Hajviy hikoya).....						67

III. NAZM NAMUNALARI

H.Olimjon. Zaynab va Omon (Poemadan parcha).....						69
A.Oripov. Tiyron ko‘zlar (She‘rdan parcha).....						72
E.Vohidov. Bizlar ishlayapmiz (She‘rdan parcha).....						73

E.Vohidov. Fidoiylik to‘g‘risida rivoyat (She’rdan parcha).....	74
E.Vohidov. Baxmal (She’rdan parcha).....	77
E.Vohidov. Istambul fojiasi (She’riy dramadan parcha).....	79
M.Yusuf. Amir Temur (She’rdan parcha).....	81
D.Fayziy. Onaizor (She’rdan parcha).....	82
A.Pushkin. Ruslan va Lyudmila (Poemadan parcha).....	83
A.Pushkin. O‘lik bekach va yetti bahodir haqida ertak (Parcha).....	84
A.Pushkin. Baliqchi va baliq haqida ertak (Parcha).....	85
S.Akbariy. Girdob (Dostondan parcha).....	88

IV. MUSIQALI PARCHALAR

Y.Shamsharov. Barqaror qo‘sishiq.....	90
T.Fozilov. Qo‘sishiq sehri.....	91
A.Qodiriy. Mehrobdan chayon (Romandan parcha).....	91
A.Qodiriy. O‘tgan kunlar (Romandan parcha).....	92
M.Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha (Romandan parcha).....	94
O‘.Umarbekov. Qiyomat qarz (Hikoyadan parcha).....	97
O‘.Umarbekov. Shirinsoy oqshomlari (Hikoyadan parcha).....	98
Oybek. Navoiy (Romandan parcha).....	99
M.Muhammadov. O‘g‘il (Hikoyadan parcha).....	100
A.Eshonov. Yigirma million oppoq kabutar (Hikoyadan parcha).....	101
M.Mahmudov. O‘lmas koyalar (Hikoyadan parcha).....	102
G‘.G‘ulom. Shum bola (Qissadan parcha).....	102
S.Zunnunova. Bo‘ylaringdan o‘rgilay (Hikoyadan parcha).....	104
A.Qahhor. Karovot (Hikoyadan parcha).....	105
M.Qoriyev. Spitamen (Tarixiy romandan parcha).....	107
Oybek. Ulug‘ yo‘l (Romandan parcha).....	111

V. MUSIQALI VA DRAMATIK MONOLOGLAR VA DIALOGLAR

K.Yashin. Nurxon (Musiqali dramadan parcha).....	112
K. Yashin. Oftobxon (Musiqali dramadan parcha).....	113
Hamza Paranjı sirlari (Musiqali dramadan parcha).....	113
Hamza. Maysaraning ishi (Musiqali dramadan parcha).....	116
Hamza. Boy ila xizmatchi (Dramadan parcha).....	117
H.G‘ulom. O‘g‘il uylantirish (Musiqali dramadan parcha).....	120

H.G‘ulom. Toshbolta oshiq (Musiqali dramadan parcha).....	120
S.Zunnunova. Ko‘zlar (Musiqali dramadan parcha).....	121
S.Abdulla. Muqimiy (Musiqali dramadan parcha).....	122
Z.Fatxulin. Yoshlikda bergan ko‘ngil (Musiqali dramadan parchar).....	126
SH.Sa’dulla. Vatan ishqi (Musiqali dramadan parcha).....	127
Uyg‘un.	
Parvona	(Dramadan
	129
parcha).....	
H.Olimjon. Muqanna (Tarixiy dramadan parcha).....	132
V.Shekspir. Romeo va Julyeta (Dramadan parcha).....	133
M.Shayhzoda. Mirzo Ulug‘bek (Dramadan parcha).....	134
U.Ismoilij. Rustam (Dramadan parcha).....	135
Xurshid. Layli va Majnun (Musiqali dramadan parcha).....	138
I.Sulton, Uyg‘un. Alisher Navoiy (Dramadan parcha).....	140
V.Shekspir. Qiyiq qizning quyilishi (Dramadan parcha).....	142
V.Shekspir. Yuliy Sezar (Tragediyadan parcha).....	143
N.Qobul. Na malakman na farishta (Musiqali dramadan parcha).....	146
A.Pushkin. Qizg‘anchiq ritsar (Pyesadan parcha).....	151
V.Shekspir. Hamlet (Tragediyadan parcha).....	152

VI. MUSIQALI KOMPOZITSIYALAR MATNI

Onani madh etuvchi musiqali kompozitsiY.....	155
Insoniylik, mehr-muruvvat, ma’naviyat-ma’rifat kompozitsiY.....	168
S.Abdullo. Mavlono Muqimiy (Badiiy lavhalar).....	170
O.Xalil. Oydin tunlar (Qissadan parcha).....	172
X.Saloh. Na’matak (She’riy asar).....	176
H.Olimjon. Zaynab va Omon (Poemadan parcha).....	181

SO‘ZBOSHI

Mustaqillik mamlakatimizning barcha sohalarida yangilanish sodir bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Har bir malakali mutaxassis o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondasha boshladi. Jumladan, teatr sohasida ham ko‘zga ko‘rinarli samarali ishlar qilindi.

Ma’lumki, sahna nutqi predmetini mustahkam egallash aktyorlik san’atida muhim o‘rin tutadi. Aktyor sahna nutqi texnikasi va badiiy o‘qishning sir-asrorlarini qay darajada o‘zlashtirganligi, uning badiiy adabiyotlardan olingan adabiy parchalar ustida ishlash jarayonida bilinadi. Ma’lumki, sahna nutqi texnikasida asosan aktyorning artikulyatsiya, diksiya va nafasi qolaversa, ovozi, talaffuzi ustida muntazam ish olib boriladi. Haqiqiy so‘z san’atini egallash, uning qadr-qimmatini oshirish, fikrni aniq ifodalash, so‘zning tub ma’nosini topish (aniqlash), ijro etish orqali tomoshabinga yetkazib berish alohida texnik jarayonlar orqali yuzaga chiqadi. Bu adabiy matn ustida ishlash jarayonidir.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, san'at məktəbida təhsil olayotgan tələba yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish, ularni ko'proq badiiy adabiyotga yaqinlashtirish mulohaza yuritishga o'rgatish mustaqil va malakali kadr qilib yetishtirish zamonamiz təlabidir.

Aktyorlik məktəbida sahna nutqi predmetini har tomonlama o'zlashtirish, professionalizm tomon yo'naltirish oddiydan murakkabga qarab olib boriladi. Adabiy matn ustida ishslash ham xuddi ana shu yo'nalishda olib boriladi, ya'ni izchillikka roya qilinadi.

Adabiy parchalar monolog va boshqa matnlar ijro uchun tanlanish jarayoni talabalarda ba'zan pedagoglarda ham biroz murakkabroq kechadi. Chunki tanlangan adabiy matnlar talabaning xarakteriga (tabiatiga) mos kelishdan tashqari, ijro orqali uning xulq-atvorusi, imkoniyatlarini tarbiyalash kerak. Eng asosiysi talabaning o'ziga tanlangan matn yoqishi kerak. Negaki ijro his-tuyg'u bilan bog'liq bo'ladi.

Sahna nutqi predmetining uzoq yillik tajribalaridan, tekshirishlardan quyidagi bosqichlar belgilab olingan. Bular birinchi kurslarda manzara va kam voqeali adabiy parchalar, ikkinchi va uchinchi kurslarda ko'p voqeali (personajlar ishtirokidagi) adabiy parchalar, mas'ul she'riy matn, monologlar tanlab, ular ustida ishslashdir.

Ushbu siz o'quvchilarga tavsiya qilinayotgan o'quv qo'llanma (xrestomatiya)da yuqoridaq bosqichlarga oid matnlar tanlangan. Bu matnlardan foydalanishda, tanlashda albatta o'ziga xoslik yoki boshqa ochilmagan xususiyatlarini ochish, imkoniyatlarini oshira olish kabilar hisobga olinadi.

Albatta bu jarayon qiyin kechadi. Ayniqsa hozirgi tələba-yoshlar bilan ishslash jarayonları mushkullashib ketayotganday tuyuladi. Chunki san'at məktəbida təhsil olmoqchi bo'lgan tələbəlarning aksariyati adabiyot o'qishdan yiroqlashib ketganligi tufayli chuqur mulohaza qilolmaydilar.

Ortiqcha musiqiy shovqinlar, yengil-yelpi ko'rsatuv va eshittirishlar ularning xayolidan keng o'rın egallagan.

Aktyorlik san'atini, ijodini ham ana shularga tenglashtirib «oson kasb» deb o'ylaydigan yoshlar ham uchrab turadi. Ular bilan ishlaganda, ularni haqiqiy mehnat mashaqqatiga o'rgatish mana shu matnlar bilan to'g'ri yondashilgandagina o'zgarish paydo qilish mumkin.

Aktyorlik məktəbinin mashaqqatini o'tagan, matn, so'z ustida saatlab ishlab xalq qalbidan joy olgan buyuk mashhur san'at darg'aları: M.Uyg'ur, A.Hidoyatov, O.Jalilov, O.Xo'jayev, Q.Xo'jayev, SH.Burxonov, R.Xamrayev, S.Eshonto'rayeva, Z.Sadriyeva, Z.Muhammadjonov, Y.Abdullayeva, SH.Ma'zumova, N.Aliyeva, R.Sayfutdinov, R.Ibragimova, O'.Jabirov, T.Yunusxo'jayeva, X.Umarov va boshqalar ham oddiydan murakkabga yetish bosqichlarini sinchkovlik bilan o'taganlar. Ularning ajoyib ijro etgan obrazlari teatr tarixidan mustahkam o'rın egallagan. Tanlangan asarlar matnining ahamiyati bo'lajak aktyorlarni har tomonlama yetuk (dunyoqarashi, ma'naviyati) o'qiyotgan matndagi voqealarni tasavvur eta bilishi, matndagi – monologlardagi ijro etayotgan

shaxs-obrazlarning ichki his-tuyg‘ularini, ichki kechinmalarini fikran anglab, o‘z shaxsiy munosabatini ifoda etib ijro eta olishiga erishish.

Xrestomatiyada har xil janrdagi matnlar, har xil yozuvchi, shoir, dramaturglarning asarlari saralab tanlangan, tasdiqlangan, janrlar, ijrochi talabani har tomonlama imkoniyatini (drama, komediya, tragediya, hajviyatda poeziyada (nazm-navo) aniqlashda nihoyatda muhim o‘rin egallaydi. Inson tabiatiga xos jihatlarini mustahkamlaydi. Imon-e’tiqod, mehr-muruvvat, insof-diyonat,adolat, matonat, odob-xislatlarini tarbiyalaydi va shu xislatlarga ega bo‘lishga chaqiradi.

Musiqali adabiy parchalarni ishlaganda (ijro etganda) olingan asarlar, matnlar, voqealaridan kelib chiqib musiqa qo‘shiladi. So‘z va musiqa bir-birini to‘ldirishi, ya’ni so‘zdan musiqaga, musiqadan so‘zga o‘tish jarayonida ijroda fikr mantiqdan uzilib ajralib qolmasligi shart. Musiqiy monologlarda ham, so‘z bilan musiqa (ya’ni aytildigan ariyalar) zanjir-ko‘prik uzlucksiz fikr orqali ijro etilishi talab qilinadi. Tanlangan asarlarni ijro etganda, so‘zdagi xatti-harakat, tasavvur, muomala, munosabat, ichki fikr, so‘z tagidagi fikrni aniqlash, oliv maqsad, yetakchi – xatti-harakat, g‘oya kabi sahma nutqi elementlari singdiriladi. Ushbu o‘quv qo‘llanma (xrestomatiya)ning aktyorning so‘zga bo‘lgan e’tiborini mustahkamlaydi. Uning his-tuyg‘usini tarbiyalaydi. Ular nafaqat teatrda, balki televide niye, radioda ham faoliyat ko‘rsatadilar. Shuning uchun bu tanlangan matnlar ularning qiziqishini oshirib borishga xizmat qiladi.

Musiqali kompozitsiyalarni ishlashdan maqsad, talabalarni ansanblga o‘rgatish, bir-birini eshitib fikrni davom ettira olishi maqsadni aniqlash, so‘z bilan musiqani mantiqiy, uzviy, ijro davomida silliq tiniq ifoda eta olishiga erishish.

Asosiy maqsad – musiqadan so‘zga, so‘zdan musiqaga to‘g‘ri o‘tishni egallash. Ushbu xrestomatiyaga ilova qilinajak matnlar ustida ishlaganda montaj masalasiga alohida e’tibor beriladi.

Adabiy montaj nima?

Adabiy montaj – katta bilim va mahorat talab qiluvchi san’atdir. Biror asarni montaj qilish uchun kirishgan kishi o‘sha asarni mukammal bilishi, o‘z oldiga qo‘yan ijrochilik vazifasini aniqlab olgan bo‘lishi, adabiyot va san’at nazariyasidan yetaricha ma‘lumotga ega bo‘lishi shart.

Matnlarni montaj qilishdan ko‘zlagan asosiy maqsad, ijroda yaxlitlikni ta’minlashdir. Chunki asardagi matnlar muallif uslubidan kelib chiqib ishlanadi. Shu bilan birga talabaning ijrosida uning so‘z mahoratini o‘zlashtirish masalasi ko‘zlanadi. Shunday ekan birinchidan talabaga voqealar ketma-ketligini ijro etishda qulaylik tug‘diriladi va ikkinchidan tomoshabinga asosiy g‘oya, maqsad va aytmoxchi bo‘lgan fikrni to‘la-to‘kis yetkazib berish, uning dunyoqarashiga ta’sir o‘tkazish mo‘jallanadi.

Adabiy montaj – ijrochilik uchun muhimdir. Tanlangan asarni qisqartirish, zarur bo‘lgan qismlarini ajratib olish, kompozitsion muvofiqlashtirish, xullas, ijrochilik uchun moslash demakdir. Shuni aytish kifoyaki, teatr, kino, televide niye, radio orqali ijro etiladigan asarlarning qariyb hammasi montaj qilinadi va ijrochilik maqsadida muvofiqlashtiriladi.

Xrestomatiyada tavsiya etilgan parchalarning hammasi ham montaj qilingan, hamma tanlangan matnlarda muallif tomonidan montaj qilish uslubiga qo'l urilgan. Shuning uchun ham adabiy montaj namunalari tarzida xrestomatiyadagi aksariyat asar va asarlardan keltirilgan parchalarga murojaat etish mumkin.

Ushbu xrestomatiyada madaniyat, san'at instituti va kollej talabalari uchun mo'ljallangan adabiy matnlar mujassamlashtirilgan. Ayniqsa, ijrochilik san'ati kursida tahsil olayotgan talabalar sahna nutqi mahoratini texnik qismini, o'zlashtirgandan keyingi jarayon, adabiy matnlar ustida ishslashda keng qo'llanishi mumkin. Mustaqil ishlovchi kishilar ham foydalanishlariga qo'l keladi.

I. ASOTIR VA RIVOYATLAR

*Malik Murodov,
Muhamarram Shayxova*

KUN BILAN TUN

Dunyoda bir-biridan go'zal, abjir, dovyurak farishtalar ko'p bo'lar ekan. Ular yerda ham, osmonda ham yurib, yaxshi odamlarga yaxshilik qilib, yomonlarga yomonlik qilishar ekan. Farishtalar xudoning qudrati bilan hatto hayvonlar, olov, shamol, giyohlar, yulduzlar, bo'ron, bulut kabilarning ham tiliga tushunib, ularni ham nazorat qilib turishar emish. Ayniqsa, Kun bilan Tun tortishib turishar emish. Ular quyoshni zanjirlab osmonga chiqishiga yo'l qo'yishmas ekan. Kun zo'r kuch bilan har kuni farishtalarning zanjirini uzib chiqar emish, ulardan xafa bo'lib, olishgani-olishgan emish. Farishtalar qanchalik zo'rlik ko'rsatib, Kunni bog'lab ushlab turishmasin, baribir u aytgan vaqtida chiqib, aytgan vaqtida uyquga ketarmish...

SHOH VASİYATI

Iskandar Zulqarnayi o'lar chog'ida yaqinlaridan birini chaqirib, shunday vasiyat qilibdi: «Meni shunday joyga dafn etinglarki, inson oyog'i tegmagan bo'lsin. O'shanda ming yildan keyin avlodlarimdan birontasi borib chaqirsa, tirilib go'rda chiqaman». Ulug' shohning bu vasiyatini bajarish uchun juda ko'p o'yabdilar va nihoyat, tog'ning eng yuksak cho'qqisini tanlashibdi. Mashaqqatu azoblar bilan cho'qqidan qabr qazib, Iskandarni dafn etibdilar.

Aytilgan muddat kelgach, bir kimsa Iskandar qabriga borib, uning nomimi ayrib chaqiribdi. Bir chaqiribdi, o'n chaqiribdi, biroq, Jahongir chiqmasmish. Achchig'i chiqqan chaqiruvchi: «E, sen yaxshi bo'lqaningda shoxli Iskandar (Iskandar Zulqarnayn) bo'larmidt», deb iziga qaytmoqchi bo'lqanida, qabrdan qahrli ovoz kelibdi: «Ey, mening vasiyatimni bajarmagan nomard, meni inson oyog'i yetmagan joyga qo'yinglar desam, nega bajarmadinglar? Bu yerga inson oyog'i yetibgina qolmay, balki Iskandar nomli kishilarning o'zidan mingta ko'milgan ekan. Sen har chaqirganingda biz, meni chaqiryapti, meni chaqiryapti, deb janjallashib qoldik. Qachonki, sen Iskandar Zulqarnayn deganidan so'ng meni chaqirganini bildim. Endi esa baribir vasiyatimni bajo etmaganliklaring sababli men bu yerdan chiqa olmayman», – debdi.

Shunda boyagi izlab kelgan kishi: «Ey, xudo, dunyo yaralgandan buyon cho'qqiga faqat Iskandardan mingi dafn etilgan bo'lsa, boshqalar qancha ekan? Demak, inson dafn etilmagan joy yo'q ekan-da», deb iziga qaytibdi.

LUQMONI HAKIM

Luqmoni Hakim dunyoga dong'i ketgan tabib ekan. U odamlarning dil-dilini, giyohlarning, jamiki hayvon, jonli-jonsiz mavjudotlarning tilini ham bilar ekan. Ular xastalansa, dardga chalinsa davolar ekan. Kunlardan bir kuni bir kishining ko'zi qattiq og'rib qolibdi. U ko'zini juda ko'p tabiblarga ko'rsatibdi, davo topa olmabdi, olimu ulamolarga boqtiribdi, shifolanmabdi. Oxiri izlab-izlab uzoq bir o'lkada yashovchi Luqmoni Hakim haqida darak topib, uning oldiga boribdi. Luqmoni Hakim ko'zi og'rigan kishining u yoq-buyog'ini ko'rgan bo'libdi-da, oyog'iga xina qo'yishni maslahat beribdi. Shunda bemor tabibga qarab:

– Ey, ulug' Hakim bu nima deganing, yo men bilan hazillashayapsanmi? Axir, mening oyog'im og'rigan yo'q-ku, unga xina qo'ysam. Ko'zim og'riyapti, ko'z qayoqda-yu, oyoq qayoqda? – deb xafa bo'libdi. Shunda Luqmoni Hakim bemorga shunday debdi:

– To'g'ri aytasan, men ham sening qayering kasalligini ko'rib-bilib turibman: sening ko'zing og'rigan, bizning fahmu farosatimizga ko'ra ko'zning bir tomiri oyoq ostida joylashgan. Sening o'sha joying, ya'ni ko'zingning oyog'ing ostiga ularshgan tomiri shamollagan. Shunga xina qo'ysang, zora ko'zing tuzalib, asli holiga qaytsa.

Ko'zi og'rigan kishi Luqmoni Hakim aytganday qilib, oyog'inining tigiga xina qo'ygan ekan, ikki-uch kun o'tmasdan ko'zi tuzalib, hech narsa ko'rmaganday bo'lib ketibdi.

ANDIJON HAQIDA AFSONA

Bobolarning aytishlaricha, Andijon qadimda Andijon bo‘lmay, aslida «Anda-jon», «Anda-jonim» degani ekan. Bir paytlar «Anda-jon» juda katta viloyat bo‘lib, aholisi ham ming-minglab ekan. Unda o‘zbeklar, qirg‘izlar, xitoylar, uyg‘urlar, tojiklar yashar ekanlar.

Andijonning yosh, baquvvat, adolatli, xalqparvar bir podshosi bor ekan. Kunlardan bir kuni podsho shahar aylanib borib, katta Shahrixon soyi bo‘yida majnuntol tagida qo‘shiq aytib o‘ltirgan go‘zal bir qizga ko‘zi tushib uni yaxshi ko‘rib qolibdi. Hali uylanmagan ekan. Yetti kechayu yetti kunduz to‘y-tomoshalar qilib, shu qizga uylanibdi. To‘yning ertasiga yov bostirib kelayotgani haqida xabar kelibdi. Podsho: «Shaharda turib yovni kutsak bo‘lmas. El-yurt, yorim aziyat chekar. Yaxshisi shahardan chiqib, bosqinchilarni uzoqroq joyda kutib olsak», – deb o‘ylabdi-da, hamma sarbozu lashkarboshlarni shahardan tashqariga chiqaribdi. Yov kelayotgan tomonga jadal ot choptirib ketibdi. Yo‘lda, shahardan uzoq bir joyda bosqinchi dushmanlar bilan to‘qnashib, qattiq jangda g‘olib chiqibdi. Biroq bir daydi o‘q kelib uni og‘ir yaralabdi. O‘limi yaqinlashib, oxirgi daqiqalarini boshidan kechira boshlabdi. O‘limi oldidan kun chiqish tomonni ko‘rsatib:

– Meni shu tomonga olib boringlar. Yo‘lda o‘lib qolsam ham o‘sha yoqqa olib borib ko‘minglar, – debdi.

Kishilar:

– Nega unday deysiz? – deyishgan ekan, podsho:

– U yoqda jon qoldi. Anda-jon qoldi, shaharda yorim, jonim qoldi, meni o‘sha yerga ko‘minglar, – debdi. Yigitning joni uzilibdi. Uni aytganiday qilib, xotini qolgan bir kunlik joyga olib borib izzat-ikrom bilan ko‘mishibdi. Shu-shu shahar Anda-jon – Andijon bo‘lib qolgan ekan.

IBN SINO SHOGIRDLARI

Tabiblarning tabibi, ulug‘ hakim Ibn Sino kunlardan bir kuni qattiq og‘rib, ko‘rpa-to‘shak qilib yotib olibdi. Ibn Sinoning shogirdlari, eng yaqin do‘st-birodarlari yig‘ilishibdi. Do‘st-birodarlari yaxshi so‘z aytib, ulug‘ tabibning ko‘nglini ko‘tarishga, kayfiyatini yaxshilashga harakat qilishsa, shogirdlari ustozlarini dori-darmonlar bilan davolashga kirishibdilar.

Ibn Sino do‘st-birodarlariga rahmatlar aytib, shogirdlariga esa shunday debdi:

– Ey, shogirdlarim, mening kunim bitgan ko‘rinadi. Shu boisdan meni davolayman deb behudaga harakat qilmanglar. Bordi-yu, kunim bitib, vafot etsam, yig‘i-sig‘i, oh-voh qilib o‘tirmanglar. Faqat haqqimga duo qilib, onda-sonda qabrimni ziyorat qilsanglar bas. Va yana, ustoz olamdan o‘tdi, endi tabobat oqsaydi, deb ham qayg‘urmanglar. O‘rnimga besh zo‘r tabibni qoldirib ketmoqdaman. Shu tabiblarning maslahatlariga o‘zingizlar ham doim amal qilinglar, boshqalarni ham ularga da’vat etinglar, – debdi. Ibn Sinoning shogirdlaridan biri:

– Ustoz, siz aytgan tabiblar kimlar? – deb so‘rabdi. Shunda Ibn Sino:

– Men qoldirib ketayotgan zo‘r tabiblarimning biri – *tozalik*, ikkinchisi – *parhez*, uchinchisi – *badan tarbiyadir*. Va qolgan ikkisi *mijoz* bilan *kayfiyatdir*. Doimo pokiza, ozoda bo‘lishlik, ko‘ringan narsani, ya’ni ovqatni kelsa-kelmasa yeyabermaslik, apil-tapil ovqatlanmaslik, ovqatlanishda parhez, meyorni bilishlik, ichkilikka ruju qo‘ymaslik, badan a’zolarini harakatsiz qoldirmaslik, mijozni unutmaslik va nihoyat, kayfiyatni yaxshi tutishga harakat qilish – mana shu aytganlarimga amal qilinsa, kasallanish u tyoqda tursin, bevaqt o‘lim ham orqaga chekinadi.

BOYO‘G‘LI

Boyo‘g‘li bir paytlarda dunyoga mashhur bir boyning arzanda o‘g‘li bo‘lgan ekan. U juda erkatoy bo‘lib o‘sganidan otasining gapiga hamma vaqt ham kiravermas ekan. Otasi: «Nomoz o‘qi» – desa o‘g‘il o‘qimabdi, «ro‘za tut» – desa tutmabdi, uni qil desa qilmabdi, buni qil desa – qilmabdi. Otasi qattiq ranjib, xudoning oldiga borib:

– Bolam aytganimi qilmaydi, shuni jazolagan bo‘lib, do‘q-po‘pisa qilib qo‘ysang, – debdi. Xudo: «Xo‘p», debdi. Bir payt mo‘jiza ro‘y beribdi. Boyning bolasi qushga aylanib qolibdi. Odamlar bu qanday qush deb so‘rashgan ekan, xudo: «Bu boyning o‘g‘li – boyo‘g‘li-ku», deb javob beribdi. Shu-shu boyning arzandası «Boyo‘g‘li» bo‘lib qolgan ekan. Boyo‘g‘li uyanganidan odamlarga, elga qo‘shila olmay, yolg‘iz yasharkan...

Boshqa afsonada aytlishicha, u yomonlik keltirarmish, tunda kimning xonadoniga kelib sayrasa, shu joydan o‘lik chiqarmish...

OY VA YULDUZ

Osmonda turib olam-jahonni yorituvchi Oy tun malikasi Yulduzni sevib qolibdi. Yulduzning ishqı ham Oyga tushibdi. Ikkalovi bir yostiqqa bosh qo‘yib, birga yashaymiz deb ahdu paymon qilishibdi. Buni Quyosh bilib qolibdi. Oy bilan Yulduzning bir-birini sevib, ahil oila qurishiga qarshi chiqibdi. Oyga: «Bu yo‘lingdan qayt», debdi. Oy: «Yo‘q qaytmayman. Ahdim ahd, Yulduzga uylanaman», debdi. Quyosh Yulduzga: «Bu niyattingdan qayt», debdi. Yulduz: «Yo‘q, bu yo‘ldan qaytmayman. Va’dam va’da», debdi. Quyosh: «Hali shunaqami, mana bo‘lmasa», deb Oy bilan Yulduzga tashlanibdi. Yulduz qochib qolibdi. Oy qocholmabdi. Quyosh uning yuzini timdalab olibdi. Yulduzning uchishi shundan emish. Oyning yuzida dog‘ bo‘lishi shundan emish...

QALDIRG‘OCH HIMMATI

Nuh payg‘ambar davrida qattiq yog‘ingarchilik bo‘lib, hammayoqni suv bosib ketibdi. Odamlar, hayvonlar, dov-daraxtlaru, tog‘u toshlar ham suv ostida

qolibdi. Shunda Nuh payg‘ambar bir kema yasatibdi. Unga dunyodagi jamiki hasharot, parranda va hayvonlardan bittadan olib, «biron bir joyda quruqlik qolgandir», deb yo‘lga chiqibdi. Ummonga aylangan yer yuzida suzib ketayotsa, sichqon qurmagurning qitmirligi tutib, kamani teshib qo‘yibdi. Teshikdan suv kirib, kema ichi suvga to‘la boshlabdi. Nuh qarab tursa, kemaga suv to‘lib, undagilar suvga g‘arq bo‘ladigan, shunda u: «Kimda-kim teshikni to‘sib, suvni to‘xtatib qolsa, dunyodagi eng shirin go‘shtni unga taqdim etaman», debdi. Shunda ilon: «Buni men bajaraman», debdi-da, kulcha bo‘lib teshikka yotib olibdi. Suv to‘xtabdi. Nuh payg‘ambar yanglishmagan ekan. Bir joyda quruqlik qolgan ekan, o‘sha joyga yetib borishibdi. Shunda ilon:

– Nuh, aytganingni bajar endi, – debdi. Nuh payg‘ambar «Dunyodagi eng shirin go‘shtni bilib kelinglar», deb u qushni u yoqqa, bu qushni bu yoqqa yuboribdi. Qaldirg‘ochni ham bir yoqqa jo‘natibdi. Ilon uch ko‘chaning boshida kulcha tushib, ularni poylab yotibdi. Bir payt qushlardan biri kelib qolibdi.

– Dunyodagi eng shirin go‘sht nima ekan? – deb so‘rabdi.

– Toshbaqa go‘shti ekan, – debdi qush. Ilon:

– Yo‘q, u sening go‘shting, – deb changal solib, uning o‘zini yutib yuboribdi. Keyin ari uchib kelibdi. Ilon aridan:

– Dunyodagi eng shirin go‘sht nimaniki ekan? – deb so‘rabdi.

– Dunyodagi eng shirin go‘sht itniki ekan, – deb javob beribdi ari. Ilon bir chang solib, uning tilini uzib olibdi. Bir payt qaldirg‘och uchib kelib qolibdi. Ilon:

– Qani, sen ayt-chi, dunyodagi eng shirin go‘sht nimaniki ekan? – debdi.

Qaldirg‘och hamma parrandayu darranda, odam go‘shtidan tatib ko‘rilganda, odamning go‘shti eng shirinligini bilar ekan. «Ilonga odam go‘shti shirin desam, u butun umr odamzodning go‘shti bilan ovqatlanadi, shundan keyin olamda odamzod qolmaydi», deb o‘ylabdi-da, unga qarab:

– Qurbaqaneng go‘shti dunyodagi eng shirin, totli go‘sht ekan – debdi. Ilon:

– Yolg‘on aytasan, – deb sapchib unga tashlangan ekan, qaldirg‘och epchillik qilib qochib qolibdi. Ilonning og‘zi uning dumiga tekkan ekan, qaldirg‘ochning dumi ayrilib, ochiq qaychiga o‘xshab qolibdi. Shu-shu uning dumi qaychisimon emish. Odamzodni o‘ziga do‘st-oshna qilib olibdi. Qaldirg‘ochning odamlar uyiga in qurishi, ulardan qo‘rmasligi shundan emish. Ilon bo‘lsa har doim undan qasdini olish niyatida yurarmish. Inini buzib, tuxumi yo bolasini yeb qo‘yishi ham shundan emish.

QAYTAR DUNYO

Qadim zamonda bir chol bilan uning o‘g‘li bor ekan. Cholning xotini o‘lib ketgan bo‘lib, o‘g‘li bilan qolibdi. O‘g‘lini nihoyatda ehtiyyotlab katta qilibdi. O‘g‘il voyaga yetgach, uni uylantiribdi. «Xudoga shukr, endi tinchidim, qo‘loyog‘imni uzatsam bo‘ladi», deb o‘ylabdi. Bu orada o‘g‘li o‘g‘il ko‘ribdi. Cholning shodlikdan quvonchi ichiga sig‘masmish. O‘g‘liga bir quvonsa, nevarasiga ikki bor quvonarmish. Ammo kelini hunar chiqara boshlabdi. Chol

o‘tirsa o‘poq, tursa so‘poq deyaveribdi. Buni cholning o‘g‘li payqamas ekan. Kunlardan bir kuni cholning qo‘lidan ovqat tushib ketib, chinni sinib qolibdi. Kelinniki tutib ketibdi:

– Sassiq cholni yo‘qotamanmi, yo‘qmi? Shu otang tufayli idishlarim singani singan. Agar uni tezroq ko‘zimdan yo‘qotmasang, o‘zim ketaman bu uydan, – debdi. Yigit xotinini tinchlantribdi. Kunlardan bir kuni chol yana ovqatni to‘kib yuboribdi. Chinni idish yana sinibdi. Kelini yana janjal ko‘tiribdi. Chol uydan chiqib ketay desa, boradigan joyi yo‘q ekan. Shu bolasi, kelini, nabiralaridan boshqa hech kimi yo‘q ekan. Noilojlikdan yana o‘g‘linikida qolibdi. Oradan bir necha kun o‘tib cholning qo‘lidan kosa yana tushib ketib, chil-chil sinibdi. Kelin yana jahl otiga minibdi. Qilibdi janjal... Yigitning jonidan o‘tib ketibdi, hovlisining to‘riga kichik bir xona soldirib, otasini o‘sha joyga ko‘chirib qo‘yibdi, ustaga borib yog‘ochdan kosa, qoshiq qildirib kelib beribdi.

Ota bolasi qurib bergen kulgada yolg‘iz o‘zi yashab, yog‘och qoshiqda kelin ovqat bersa ichib, bermasa ichmay yashayveribdi. Bolasi ham bolalari bilan o‘z holicha yashaveribdi.

Kunlardan bir kuni cholning vaqtisi-soati yetib, qazo qilibdi. Bolasi bolalari bilan bo‘lib, otasining o‘lganini ham ikki-uch kundan keyin bilibdi. Mahalla-ko‘y cholni ko‘mibdi. Kunlardan bir kuni yigit ishdan qaytsa katta o‘g‘li yog‘och o‘yib o‘ltirgan emish.

– Nima qilyapsan, bolam? – so‘rabdi u.

– Sizga atab yog‘ochdan kosa bilan qoshiq yasayapman. Qariganingizda bir uy qurib, unga sizni eltib qo‘yaman-da, shu kosa bilan qoshiqda bergen ovqatlarimni ichib o‘ltirasiz.

Yigit nima qilib qo‘yganini anglab, afsus-nadomatlар chekibdi. Ammo keyingi pushaymon o‘zingga dushman, deganlaridek, ming pushaymon qilmasisin, foydasi bo‘lmabdi.

XIROTNING SULTONI

Hirotning sultoni Husayn Boyqaro: «Dunyodagi eng xushbo‘y hidni keltiring», deb qolibdi. Unga quchoq-quchoq gul keltirishibdi, sulton: «yo‘q», debdi. Qalapirmunchoqni ro‘para qilishibdi, Husayn Boyqaro rad etibdi. Yer yuzidagi jamiki xushbo‘y hidni narsalarni muhayyo qilishibdi, sulton bo‘lsa: «Men aytgan bu emas», deb turib olibdi. Keyin: «Uch kun muhlat ichida topsalaring topdilaring, bo‘lmasa hammangni jazolayman», debdi. Vazirlar nima qilishlarini bilolmay o‘ylayverib boshlari qotibdi. Husayn Boyqaro istagan hidni topisha olmay, oxiri Navoiyning oldiga borishibdi: «Sultonimiz aytgan hidni topib, bizni halokatdan saqlab qoling», deyishibdi.

Do‘sning ko‘ngli qanday hidni istaganini bilolmay, Navoiyning ham boshi qotibdi. Dehqon bobodan so‘ragan ekan, u: «Yangi yopilgan nondan olib boringlar-chi, otam rahmatli, dunyoda eng lazzatli va yoqimli hid bug‘doy unidan

yopilgan tandir non, hech qaysi hid unga yetolmaydi, deguvchi edilar», deb maslahat beribdi.

Navoiy ursand bo‘lib, dehqon aytganini qilibdi, bir savat non yoptiribdi-da, saroya yetib boribdi. Bir zumda saroya ajib yoqimli hid tarqalib, barchaning dilini yashnatib yuboribdi. «Rahmat, do‘stim», debdi Husayn Boyqaro nonlarni ko‘rib. «Ko‘nglim yangi yopilgan non istayotgan ekan, topib kelibsiz. Dunyoda yangi yopilgan nonning isidan ko‘ra yoqimliroq hid yo‘q ekan». «Sultonim, rahmatni menga emas, dehqon boboga aytинг, ko‘nglingiz xohishini shu kishi topdi», deb javob beribdi Navoiy. Husayn Boyqaro dehqonga bosh-oyoq sarpo berishni buyuribdi.

DO‘MBIRA

Bulbul do‘mbira bilan bahslashib qolibdi: «Men mingta kuy na’ma qilaman», deb maqtanibdi. Do‘mbira bulbulga hech nima demay, na’masini chala boshlabdi. Ming bir na’maga yetganda bulbul do‘mbiraning qulog‘iga qo‘nib, shunday degan ekan: «Bas qil, senga qoyil qoldim. Menden ko‘ra ko‘p va xo‘p bilar ekansan». Shundan buyon do‘mbira tilga kirdimi, bas bulbul kuylashdan to‘xtarkan-da, sekingina uning yoniga uchib kelib, xomushgina quy tinglar ekan...

BOBUR VA KABUTAR

Mirzo Bobur yoshligidan ziyrak bola bo‘lib o‘sibdi. Kunlardan bir kun Umarshayx saroy ayonlari bilan qasrsa o‘tirgan ekan bir kabutar uchib kelib ayvon peshtoqiga qo‘nibdi-da «g‘ulu-g‘ulu-g‘u-lu» qilaveribdi. Umarshayx ayonlaridan: «Kabutar ne deydur?» deb so‘rab qolibdi. Anchadan buyon urush ko‘rmay, qilichlari qonsirab qolgan ayonlar: «Oliy hazrat, kabutar qilichlarni qindan sug‘urmoq kerak, deydur», deb javob berishibdi.

Gapga qo‘silmay bir chekkada jim o‘ltirgan Mirzo Bobur: «Yo‘q, kabutar unday demaydur. Bobo, u qovun sayliga chaqiribdur. Jonivor xushxabarni keltirubdur», debdi. Umarshayx kabutarni tutib keltirishni buyuribdi. Kabutarni tutib kelib, oyog‘idagi mis halqani olib qarashsa, ichidan bir xat chiqibdi. Xatda: «Oliy hazrat, qovun ayni pishdi. Kelib qo‘l urib bersalar», deb yozilgan emish. Mirzo Boburning gapi to‘g‘ri chiqqanidan hayratga tushgan Umarshayx o‘g‘lidan: «Bunchalik topqirligingga bois nedur?», deb so‘rabdi.

«Ota, – debdi Bobur – bu kabutarga e’tibor qilmadingiz. O‘tgan yili qovun sayli xushxbabini xuddi ana shu jonivor xabar qilg‘on erdi, kaminaning ko‘zi kabutarning o‘ng qanotidagi qora xolga tushgan zahoti ani tanidi va shu so‘zni taxmin etdi», deb javob beribdi.

Yosh Mirza hushyorligi, topqirligina qoyil qolgan Umarshayx ayonlarga qarab: «Qilichni emas, aql-idrokni ishga solmoq lozimdir. Xabar qilinglar, barcha qovun sayliga otlansin!», deb farmoyish beribdi.

IBN SINO BILAN ILON

Ibn Sino siz bilan bizga o‘xshagan odam ekan. Ammo juda yoshligidanoq zehni o‘tkir, didi baland, ishi bilan so‘zi bir bola bo‘lib o‘sgan ekan. Bir kuni otasi bilan gaplashib o‘ltirgan ekan, otasi: «Bolam katta bo‘lsangiz kim bo‘lasiz?», deb so‘rab qolibdi. Ibn Sino avvaliga nima deb javob berishni bilmay, duduqlanib qolibdi. Keyin:

- Tabib bo‘laman, sizni enamni davolab yuraman, – deb javob beribdi.
- Boshqalarni-chi, boshqalarni davolamaysizmi? – debdi. Ibn Sino:
 - Hamma-hammani davolayman, katta tabib bo‘laman – debdi. Ibn Sino kunu tun tabiblikni o‘ylabdi, o‘t-giyohlarni, meva-chevalarni yeb, suvidan ichibdi. Ammo tabib bo‘lomabd. Otasi katta-kichik shaharlarga olib borib, tabiblarga shogird beribdi, ammo ulardan biron-bir narsa o‘rganishga aqli yetmagan Ibn Sino qayerga borsa, u yerdan qochib kelaveribdi. Menden tabib chiqmas ekan-da, deb o‘ylabdi. Ota-onasi ham o‘g‘limizdan tabib chiqmas ekan, boshqa hunarga o‘rgatsak bo‘larkan, degan xulosaga kelishibdi. Shu orada Ibn Sino oltidan o‘tib, yettiga kiribdi. Yetti yoshga to‘lgan kuni kechasi tush ko‘ribdi. Tushida ilonlar ko‘p bo‘lgan «Ilon o‘rda»da yurgan emish. Oq ilon unga oq suv berib, u dardga davo dermish: qizil ilon unga qizil suv berib bu dardga davo dermish: qora ilon Ibn Sinoga qop-qora sut berib, falon kasalga davo dermish: sariq ilon sariq suv berib, piston dardga shifo dermish. Ilonlar bilan o‘ralib-o‘ralib, yumalab-dumalab, o‘ynab-kulib turib uyg‘onib ketibdi. Uyg‘onib ketgach, tundayoq ilon izlab ketibdi. Izlay-izlay ilonlardan bir-ikkitasini ushlab kelib, ulardan zahar olibdi-da, uni echki, qo‘ylarning sutiga qo‘shib, kasallarga davo bo‘ladi, deb beraveribdi. Keyinchalik esa har xil giyohlarni terib kelib, ezib, ilon zaharini qo‘y-echki sutlariga qo‘shib, kasalman deganlarga bera boshtagdi. Kim kasalman deb kelsa, Ibn Sino davosidan davolanaveribdi. Yetti yoshidayoq yetti iqlimga ovoza bo‘lgan Ibn Sino tabiblar tabibi degan unvonga sazovor bo‘libdi. Keyin o‘ylab-o‘ylab, tibbiyot timsoli sifatida ilon bilan uning zaharini tanlabdi.

II. NASR NAMUNALARI

Alisher Navoiy

SADDI ISKANDARIY (Dostondan parcha)

1. Bulbul hikoyati

Bulbul hikoyati: uning fig‘oni – gulbongidan bir qarg‘a bezor bo‘lib: «Bema’ni ezmalik», deb ta’na qildi va so‘ngra uning yoqimli javobidan o‘zgacha ma’no anglatdi.

Eshitishimcha, gul faslida bir bog‘ ichida bulbulning fig‘oni avjiga chiqibdi. Shunda ana shu bog‘da turadigan bir qarg‘a bulbul oldiga kelib, unga tubandagicha tanbeh beribdi:

«Hoy bema’ni ezma! Har yili o‘n bir oy chamanda hazin va xomush kezganining holda, bir oygina bunchalik jo‘sh urib, fig‘on chekib sayrashningning ma’nosi nima? Bir ishda chidam va saboing qani? Chaman qushlaridan uyalsang bo‘lmaydimi?» – debdi.

Shunda bulbul:

«Ey ishqdan bexabar! Mening kuyib-yonishimni sen qaydan bilasan?! Axir bog‘da o‘n bir oy gul bo‘limgach, mening hayotim ham senga o‘xshagan qora bo‘ladi-da. O‘sha kunlari men kechasi-yu kunduzi g‘am-alam chekaman. Ammo bahor nasimi esib, gul yana ochilib bog‘da jilva qila boshlagan, chin mushkiga o‘xshab hidini har yonga sochgan, uning go‘zal jamoli bilan hammani maftun qilgan paytda bulbulda tob-toqat qoladi deysanmi? Gulzor husnining bahosi sen kabilarga bir tanga yo bir chaqalik bo‘lsin, baribir, bulbul uchun u yer baland ovoz bilan xonish qiladigan maskandur. Gulzordan qizil – otashin gullar ketgach, uning o‘rnida qolgan qora ko‘mir bilan ulfatchilik qilishining ne zarurati bor? Sen hammayoqni sasitadigan qora qo‘ng‘izga o‘xshaysan, shu jihatdan gul isidan zahrang uchadi, uni xush ko‘rmaysan. Madomiki shunday ekan, mening hol-ahvolimni sen qayoqdan tushunasan? Qo‘y men sening suhbatingdan uzoqroq turganim durust», deydi.

Bulbul o‘z dardlarini aytib, uning savoliga keskin javob qaytargach, qarg‘a xijolatdan yana ham qorayib ketibdi. Bu so‘zlarga javob qaytarish qarg‘a uchun mushkul edi, binobarin, qish faslidagi bulbuldek jim va xomush bo‘lib qolibdi.

2. Hikmat

Iskandarning Arastudan, madomiki inson fahmi maqsadning asl va to‘liq haqiqatini idrok qilishdan ojiz ekan, o‘zga hayvonlardan ne farqi qoldi? – deb so‘ragani.

Xazina sochuvchi hukmdor yana so‘radiki: «Ey, nozik va ma’nosi chuqur, qimmatli so‘zlar aytuvchi ustoz! Barcha mahluqlarning eng sharaflisi bo‘lmish inson tabiatiga haqiqat siri pinhon etilgandir. Lekin kimningki shu shamda ko‘zi ravshan emas ekan, o‘z xazinasidan bexabar kishining o‘zginasidir. Madomiki shunday ekan, nechun «ilm-i iyqon»da (haqiqat nimaligini bildiradigan ilmda) inson bilan o‘zga hayvonlar orasiga farq qo‘yildi?».

Go‘zal nuqtalar so‘zlovchi oliv zot aytdiki:

– Inson hamma narsani idrok etish qobiliyatiga ega, boshqa hayvonlar esa bunday fazilatdan mahrumdir. Zero, inson barcha mahluqotlarning sarvaridir.

– Maqsad uchun kerakli bilimini kishi maxfiy saqlasa bundan ne foyda? – dedi shoh.

Dono aytdiki: – Jahon ahli o‘ziga qanchalik fazilatlar berkitilganini bilmagani holda, bilgandan ham afzalroq va ulug‘roqdir. Lekin inson o‘ziga biriktilganini bilmagani, o‘z maqsad va muddaolarini yetarlicha idrok etmagani holda shunchalar ko‘p narsa biladiki, o‘zini o‘zi yaxshi tushunmagani holda anglagan so‘zları – so‘zlaridagi ma’nolari, mudaoyu umidlari uni boshqa barcha mahluqlardan ajratib ulug‘lab turadi. Insondagi talabchanlik, bir narsani topish, qo‘lga kiritish uchun o‘z idroki bilan mehnat qilishi, mashaqqat chekishi – uning obro‘ va shavkatiga sababchidir. Xususan, birovlarning dilida ne muddaolari borligini bilish, bu haqda bosh qotirish – inson uchun nihoyatda noyob va ulug‘ fazilatdir.

Alisher Navoiy

**LISON UT-TAYR
(Dostondan parcha)**

Karaxtlikdan dong qotgan bir qalandar bo‘lar edi. U ertayu kech bang iste’mol qilardi. Ko‘rinishdan bu olamdan etak silkigan darvishlarga o‘xshar, ammo butun sir-asrori yonida bang idishi-jur’adonida yashiringan edi.

Bang tortgan damlarida o‘zini qo‘yarga joy topa olmay, har doim aysh qilmoq haqida turli xayollar surardi.

Kunlardan bir kuni u bir vayronaga kirib bangdan odatdagidan ko‘proq tortdi. Buzuq devorga suyangancha sirlar olamida sayr qila boshladи. O‘zini xayolan go‘zal gulshan ichra shod holda ko‘rdi. Atrofida ayshu ishrat ashyolari muhayyo edi, go‘yo yotgan maskani bir oliy qasr bo‘lib, bu qasr binosi mashhur musavvir Moniy suratxonasidek bezatilgan emish. O‘zi taxt uzra jamshiddek xurram, yonida oftob jamoli bir gulchehra ham bor emish. U oliymaqom podsho ayshu ishrat bilan mashg‘ul bo‘lib, har lahza Gulchehra yoridan bahra olayotgan emish. Shu xayollar bilan o‘zini koshonada his qilib vayrona ichida yotar edi.

Vayronada nishi uchida ajal zahrini saqlaguvchi bir chayon bor edi. U vayronani aylanish uchun chiqib, nishini har tomonga sanchgan holda u yoq-bu yoqqa yurar edi.

Xomxayol qalandar alahsiragan holda xayoliy gulchehrasining labidan bo'sa olayotib edi, shu payt labiga chayonning nayzasi sanchildi.

Qalandar beqaror holda chinqirgancha o'midan turdi, iztirob va alam ichra qarasa, yonida na gulshan, na qasru taxt va na xushbaxt sohibjamol bor edi. Shu tarzda uning behuda xayollari barham topdi, biroq u labidan ajal nishini yegan edi.

Qilgan barcha ishlari hato ekanligini angladi, ammo bu pushaymonlik unga foyda keltirmadi.

Odil Yoqubov

**ULUG'BEK XAZINASI
(Romandan parcha)**

Namozgar payti yaqinlashmoqda edi. Mirzo Ulug'bek tahorat olgani turdiyu, hovli eshigi sharaqlab ochilganini eshitib, seskanib ketdi. Zum o'tmay uy eshigi ham sharaqlab ochilib, ostonada egniga uzun qora chakmon, boshiga katta qora telpak kiygan, yag'rindor bir odam paydo bo'ldi. Mirzo Ulug'bek uni qayerdadir uchratgan edi.

— Sayid Abbas! — Mirzo Ulug'bek uni tanib, o'midan sakrab turdi. U bor kuchini yig'ib, Abbosning ko'ksiga zarb bilan musht urdi. Lekin Sayid Abbas tebranib ketsa ham, o'zini tutib Mirzo Ulug'bekning yoqasidan g'ip bo'g'di. Shu payt eshik yana sharaqlab ochilib, uyga mo'g'ul bashara suvori otilib kirdi-da, a'lo hazratlariga tashlandi.

— Xoji qayda? Bu mal'unlarning muddaosi ne? — Mirzo Ulug'bekning ko'zi yarim qorong'u xonaning burchagiga tiqib olgan xojiga tushdi. Xoji boshimi chakmoniga burkab g'ujanak bo'lib yotar, bo'layotgan olishuvga qaramas edi. Sayid Abbas bilan mo'g'ul bashara suvori Mirzo Ulug'bekning qo'llarini orqasiga qayirib, hovligi sudrab chiqishdi.

Poymol bo'lган g'urur va haqorat tuyg'usidan larzaga tushgan Mirzo Ulug'bek lablarini tishlab, ingrab yubordi. — YO parvardigori olam! Xuddi qurbanlik quyday sudraydilar. Qaysi yozuqlarim uchun bu nadomat, bu xo'rlik?... Qaydasan, o'g'lim Ali? — Ali qushchini eslashi bilan ko'ziga yana yosh keldi.

— Alvido Ali! Umidim yolg'iz sendan! Ilohim mening boshimga tushgan bu savdolar sening boshingga tushmagay!! YO rab, yozug'im nedur manim? — deb pichirladi.

Rahmat Fayziy

CHO'LGA BAHOR KELDI

(Qissadan parcha)

Ertalab yo‘l-yo‘l ko‘ylak ustidan paxtali fusayka kiygan qop-qora sochlarini moviy rang shoyi durracha bilan tang‘igan Yulduzxon, ayvon zinapoyasidan hovliga tushar ekan, o‘xtiy-o‘xtin sharq tomonga qarab qo‘yar ajablanardi, qani boyagi osmon?

Yulduzxon hovlidan ko‘chaga chiqliki, o‘ng tomondagi tepalikka ko‘tarildi, shunda allaqanday yoqimsiz shamol quloqlari tagida shovqin solayotganday bo‘ldi. Ikki ko‘zi osmonda. Durrachasi sirg‘anib, yelkasiga tushdi, sochlari to‘zib ketdi. U bo‘lsa parvosiz.

Tog‘ tomondan kelayotgan va tobora kuchayotgan sovuq shamol es-hushini allaqayoqlarga olib qochdi. Qimir etmay serrayganicha biroz turib qoldi.

Shamol ta’siridanmi yoki tashvishlanganidanmi ko‘z qorachig‘ida bir-ikki tomchi yosh paydo bo‘ldi. Ro‘molchasi uchi bilan artar ekan «murg‘akkina g‘o‘zalarни qaqsatib ketmasa yaxshi edi», dedi-yu pastlikda qatorasiga ketgan tut daraxtlarining nariji yoqasida tilimlangan qovundek bo‘lib, chalqancha tushib yotgan paxtazorga qarab yo‘l oldi.

Mirmuxsin

CHOTQOL YO‘LBARSI (Romandan parcha)

Sijjak qishlog‘i Piskom daryosining o‘ng qirg‘og‘i, Ugom tizma tog‘lari etagiga joylashgan. Ro‘parada Asqartog‘ qad ko‘tarib turibdi. Qishloq o‘rni qiyalik bo‘lib, to Piskom daryosi bo‘yigacha aylanma tor ko‘chalar bilan taqalib boradi. Hamma ko‘chayu ariqlarning nishabi daryoga qaratilgan. Bu daryo ancha chuqurlikdan oqib, Xo‘jakentda Ugom bilan qo‘shiladi. Chotqol, Ko‘k suvlar ham unga qo‘silib keladi. Sijjak bilan bog‘istonni torgina ko‘prik bog‘lab turadi.

Bog‘iston qishlog‘ida Shayx Umar vale maqbarasi bo‘lib, qadamjo hisoblanadi.

Sijjak qishlog‘ining yuqori qismi to Asqartog‘ orqasidan ko‘tarilgan oftob erta bilan birinchi galda Sijjakka tushadi. Bu payt Bog‘iston bilan Nanay tog‘ soyasida turadilar. Piskom daryosining ikki tomoni to Beshtorga borguncha yong‘oqzor, tolzor, terakzordir. Bu yerda ertalabdan boshlab turli qushlar qanot qoqib, sayrashadi, tinmay o‘z inlariga xo‘rak tashishadi. Zag‘izg‘on, ko‘k qarg‘a, mayna, yovvoyi kaptarlar juda ko‘p. Tog‘ni qalin qor bosgan qish kunlari ovqat izlab kelgan kakliklar tap tortmay qishloq hovlilariga ham kirib kelaverishadi. Ba’zan kechga yaqin tog‘ cho‘qqilari ustida kalxatlar suzib, aylanib yuradi.

Oybek

NAVOIY (Romandan parcha)

Qoq yarim kechada, burkanib o‘zini uyquga solib yotgan Dildor ko‘rpadan boshini chiqardi. O‘n ikki qizning barchasi dang uxlاب yotardi. Xurrakdan boshqa na urinish, na xo‘rsinish sezdi. Qorong‘uda jimgina kiyimlarini kiydi. Oqshom o‘rin solganda, yostiqning tagiga suqub qo‘yan xanjarini oldi. Buni u bir vaqtlar Xadichabeginning erkaklar ham ishtirok qilgan bir ziyofatidan so‘ng xonani yig‘ishtirarkan topib olgan, ham (vazirzodalar, bekzodalardan biri tushurib goldirgandir) deb qandaydir bir niyat bilan hech kimga ko‘rsatmay, yashirin saqlagan. Turtinib eshikka borarkan yuragi uzilganday birdan to‘xtadi. Devorga suyandi. U ko‘p yillar birga yashagan, birga yig‘lagan jonajon o‘rtoqlaridan ayrıldi. «Hayr darddoshlarim, o‘rtoqlarim! Agar o‘lsam, goh-goh meni yodlanglar! Tirik bo‘lsam, men sizlarni hech vaqt unutmayman». Kecha tim qorong‘u va izg‘irinli edi. Yurak kuchli urar, oyoqlari, qo‘llari titrar edi. Kichik darvozaga yaqinlashganda, chiyillagan tovush eshitildi: «Kimsan!».

Bu eng zomin it fe’l, qul edi. Shuning uchun kanizaklar uni o‘zaro Qopag‘on deb nomlar edilar. Dildor cho‘chib orqaga tislandi. Keyin o‘zini tutib oldi. Xanjarni yeng ichiga yashirib, dadil gapirdi:

- Men, men Olliyor! – yugurib, qulning pinjiga tiqildi.
- Tun o‘rtasida? Bu yoqqa qara!
- Olliyor xira fonusni, qizning yuziga tutdi. Dildor jo‘rttaga, hayojonini kuchaytirib xansirab gapirdi:
 - Och eshikni tabib movlono Abdulhayga kishi yubor!
 - A! Ne deydi o‘zi? Tushuntir.
 - Xadichabegin birdan xasta bo‘lib qoldilar. Voy o‘lay, ahvollari juda og‘ir. Tillari so‘zdan qoldi.
 - Davlatbaxt qani? Nega u kelmadi, – qopib gapirdi Olliyor.
 - Ah nega ahvolni tushunmaysan! SHo‘rlik, Davlatbaxt bemor bilan ovora. Eshik orqasida posbon bormi? Buyur unga! Olliyor nimadir po‘ng‘illab, darvoza tomon yurdi. Belidan kalitni olib, katta cho‘ng kulfga soldi. Darvozaning bir qanotini qiya ochib, asabiy qichqirdi:
 - Mizrob, hoy Mizrob!
- Qul ostonadan tashqariga bir qadam qo‘ydi. Yana Mizrobni chaqirdi. Dildor ostonaga chiqib qo‘lini orqasiga olib darvozaga suyandi.
- Posbon bo‘lmay o‘lib ket, har kecha mast, – vaysadi Olliyor. Dildorning kutgani bu edi.

Tezroq uni jo‘nat. Buncha beg‘amsen, – jo‘rttaga qistadi Dildor.

– Kir qorangi o‘chir! – Olliyor qizni ichkariga itarib darvozani yopmoqchi bo‘ldi. Dildor fursatni qo‘ldan qochirmslikka tirishdi, – Ollayorning ustiga birdan otildi-da, xanjar urdi. Uning ko‘kragini mo‘ljallagan bo‘lsa ham, lekin hayajondan tajribasizlikdan, xanjar qulning yelkasiga tegdi. Olliyor fonusni uloqtirib baqirdi. Dildor butun kuchi bilan qochdi. Orqadan baqir-chaqir Olliyor quvdi. Ellik qadamcha narida Olliyor Dildorning sochidan ushlab qoldi. Qiz orqaga qayrilib, uning duch kelgan a’zosiga shoshib-pishib, lekin g‘azab bilan, uch-to‘rt marta tig‘urdi. Olliyor, daxshatlari qichqirish bilan yerga yumaladi. Atrofdan hoy, tut, kabi

qisqa-kesik sadolar eshitila boshladi. Tamog‘i qaqragan g‘azabli, essiz, xushsiz Dildor bor kuchi bilan yugurdi. Ancha masofa bosgandan so‘ng, qorong‘uda pastgina devorga birdan urildi. Devordan chaqqon sakradi. Quyuq daraxtzor orasiga kirarkan, orqadan xansiragan, pishqirgan kimdir devordan yumaladi va quvdi. Dildor qutulishga iloj yo‘qligini sezdi. G‘azabi toshdi. Xanjarni ko‘tarib, quvlovchiga hamla qildi. Lekin, gurziday mushtning zarbasi bilan shu onda, yerga mukka yiqlidi.

Oybek

ULUG‘ YO‘L
(Romandan parcha)

Izvoshdon tushib, tashqariga kirar ekanlar, CHo‘tir kampirga qizni kichik xonaga olib kirishni imo qildi.

Unsin kichik hujraga kirganda shoshib qoldi: allaqanday elas-elas kulgi, dutor, qo‘sish ovozi quloqqa chalinardi.

Kampir qorong‘i uyning tokchagini timirskilab chiroq yoqdi. Naridan beri o‘rin solgach, Unsinni yotishga qistab, chiroqni o‘chirdi. Unsin orqasini o‘girgancha churq etmay yotardi.

Unsinni uxlab qoldi deb o‘ylagan kampir sekin o‘rnidan turib, yondosh xonaga, CHo‘tirning oldiga kirdi.

– Qo‘lga tushdi-ya kuldji piqillab CHo‘tir. – Butun eshiklarni taqa-taqa bekit, uyda qamalib o‘tirsin, juda asov ko‘rinadi.

– Boplab qo‘lga tushirdik, ha ish mundog‘ bo‘ladi, inim, endi atlas, shohidan yaxshilab kiyintiraylik, jannat hurlarining o‘zi bo‘ladi, qo‘yadi. Bu qiz boyvachchalarining eng asliga munosib. Qo‘lboladan jinday quyvorin, ichaylik, o‘ldik-ku charchab, sillamiz qurib.

CHo‘tir oldidagi choynakdan bir piyola musallas quyib, kampirga uzatdi:

– Iching, ichsangiz arziydi, bugun omadimiz keldi. Kampir piyolani boshiga ko‘tarib, musallasni huzur bilan qult-qult shimirgach, CHo‘tir bilan tag‘in bir-ikki og‘iz shivirlashdi va asta yurib Unsinning oldiga kirib ketdi.

Arab ertaklari

MING BIR KECHA
(Ertakdan parcha)

Kanizak Tavaddud: Hikoya qiladilarki, Bag‘dod shahrida qudratli, mol-mulki va yer-suvi ko‘p badavlat bir savdogar bor ekan.

Oolloh uning dunyosini keng qilibdi-yu, orzu qilgan farzandiga yetisha olmabdi. Ancha vaqt umr ko'ribdi-yu, na qiz, na o'g'il nasib bo'lmabdi. Oolloh Taologa yolvoribdi.

Xudoning una rahmi kelib, o'g'il farzand ato etibdi. Farzandga Abul Hasan deb ism qo'yibdi. U eson-omon otasi bilan bir qancha vaqt birga bo'lib, balog'atga yetguncha otasi u bilan shod va xursand umr kechiribdi. Oradan ko'p o'tmay, otasi xasta bo'lib, vofot etibdi. Abul Hasan otasining barcha vasiyatlarini unutibdi.

Mol dunyosi sovrilib, bor narsasidan ajrab, bir kanizakdan boshqa hech vaqosi qolmabdi.

Bu kanizak husnu jamolda, haddu kamolda va qaddu qomatda misli yo'q ekan. Go'zalligi, ilmu amali va nazokati bilan birga, o'rta bo'yli, peshonasi yangi tug'ilgan sha'bon oyidek, ikki qoshi ingichka va uzundan kelgan, ko'zлari ohu ko'zdek, qirraburun, yuzlari loladek qizil, og'zi Sulaymon payg'ambar uzugidek bejirim, tishlari ipga tizilgan dur donalaridek, kindigi bir bon yog'i siqqudek, beli esa ishq dardiga giriftor bo'lib, ozib ketgan kishining taniday ingichka.

Oq, tiniq badanli, havoni xushbo'y qiluvchi, go'yo nurdan yaratilib, billurdan paydo bo'lgandek, qaddu qomati kelishgan ekanki, issiq tabassumi bilan boqqan kishining aqlu hushini o'g'irlar, mijgon o'qi bilan otarkan; shu bilan birga, so'z intizomini yaxshi saqlar va chiroylisozlash mahoratiga ega ekan.

Said Ahmad

**UFQ
(Romandan parcha)**

1. Nizomjon muhabbat o'tida

Yigirma kun deganda Nizomjon qorayib, ozib qirdan qaytib keldi. Eshikdan kirib kelishi bilan dadasi uni koyib tashladi:

- Qanaqa beg'am bolasan? Ertaga to'y bo'lsa-yu, bu tentak qayoqlarda daydib yursa.
 - Qanaqa to'y?
 - Akangni uylantirayapmiz. Kecha to'y yubordik. Ertaga tumonatni boshimizga yig'amiz.
 - Akam kimni olyapti?
 - Xabaring yo'qmi! Yunusali otaning qizini kelin qilyapmiz...
 - Bu Dildor edi! Dadasingin gapi og'zida qolib Nizomjon sapchib o'midan turib ketdi, beixtiyor bir-ikki qadam bosdi. Uning bu holatidan oqsoqol hayron edi.
 - Nima gap o'zi? Jinni bo'lib qoldingmi, bola?! Nizomjon gapirolmas, dir-dir titrar edi. Shu payt kuyovlik sarpolarini kiyib olgan A'zamjon kirib keldi. Ukasini vajohatimi ko'rib hayron bo'ldi.
 - Senga nima bo'ldi, uka, tobining aynib qolmadimi?
- A'zamjon uning yelkasiga qo'lini tashlab, mehribonlik bilan yuziga tikildi. Nizomjon zarda bilan uning qo'llarini olib tashladi.
- Esing joyidami.

Nizomjon uning ko‘zlariga g‘azab bilan tikildi-da, ko‘chaga otildi.

Aka bilan uka bir-birini ko‘nglini bilmasdi. Nizomjon muhabbat bilan nomus o‘tida qovurilardi. A’zamjon bo‘lsa to‘y, tantana havosida o‘zini qo‘yarga jon topolmasdi.

Ammo ularning to‘ylari bu qadar tezlashib ketishini sababini Nizomjon tushunmasdi, hamon o‘z yog‘iga o‘zi qovurilar, alamini kimdan olishini bilmas edi. Hatto u akasining ko‘ziga tik qarab: «Dildorni men sevaman, uni o‘z holiga qo‘y!» deb aytishga tayyor. U uyidan chiqishi bilan telbadek kalovlab Dildorni uyiga qarab chopdi, birga tushgan suratini ko‘zi oldida burda-burda qilib yirtib tashlamoqchi bo‘ldi.

U jahl bilan ko‘cha eshigini ochganda supani to‘ldirib o‘tirgan keksalarni ko‘rib to‘xtadi. O‘tirganlardan biri:

E kel quda bola, – deb yonidan joy ko‘rsatdi. Nizomjon nima qilishini bilmay serrayib turib qoldi. Keyin o‘tirganlarni hayron qoldirib yana chiqib ketdi.

Birov undan nega keldingu, nega ketyapsan deb so‘ramadi.

2. Tursunboyning josusligi

Jannat xola endi cho‘ldan bir qadam ham boshqa yoqqa jila olmasdi. Uning yuragi shu cho‘lda.

To‘qayga pinhoniy qatnab yurishga, chodirda ustara yo‘qligiga sabab bor edi.

Tursunboy shu to‘qayda. Uning qamishlar orasida yashirinib yurishini Jannat xoladan boshqa hech kim bilmasdi. Kecha Jannat xola o‘g‘lining oldiga borganda soqoli o‘sib ketganini, sochlari quloqlaridan osilib vahshiy qiyofasiga kirib qolganini ko‘rgan edi. Shuning uchun ham u erining ustarasini oborib bergandi. Ikromjon qishloqqa ketdi. Endi tushlik paytida ham o‘g‘liga ovqat olib borsa bo‘ladi.

Hamma shudgorga chiqib ketgan. Chodirlar oldida hech kim yo‘q. Jannat xola shoshib un chalib quymoq soldi-da, boltani qo‘liga olib to‘qayga qarab ketdi.

Tursunboy qamish kapa oldida tizzasini quchoqlab darvish qiyofasida o‘tirardi. U turgan joyiga odam qadami yetmagan edi. U ko‘pdan beri birov bilan gaplashmagan, dunyoda nimalar bo‘layotganidan bexabar edi. Sovun tegmagan betlari kir, ham ko‘rpa, ham to‘sak o‘rnini bosgan to‘nining yenglari titilib, etaklari balchiqqa belanganidan dog‘ bosib ketgandi. Uning bir vaqtlar qizlarni shaydo qilgan qop-qora ko‘zları, endi mayus, atrofga ma’nosiz boqardi.

U kimdandir moxovlar yashaydigan orol haqida eshitgandi. Moxovlar oroliga hech kim kiritilmaydi, hech kim u yerdan chiqarilmaydi. Nahotki, Tursunboy ham o‘sha moxovlardek tanho yashasa? U ko‘pincha ertani emas, taqdirini emas, onasining olib keladigan ovqatini kutar edi. Shundan boshqa hayotdan ilinji qolmagandi.

Jannat xola chayla oldiga kelganda Tursunboy qimirlamay o‘tirardi. U shoshib ona qo‘lidan tugunchani oldi-yu, hech qayoqqa qaramasdan o‘zini ovqatga urdi. U bir umr ovqat ko‘rmagandek pishillab, shaloplatib quymoqni yeb bo‘ldi.

Yog‘ bo‘lib ketgan qo‘llarini yaladi. Unga qarab turgan onaning yurak bag‘ri ezilib, ko‘zlaridan mo‘lt-mo‘lt yosh yumalardi.

Tursunboy qo‘llarini to‘nining tagiga artib onasiga qaradi.

– Shattaligimni dadam biladimi? Unga aytma. Naq tutib beradi.

– Dadang bir oyoqdan ajrab kelgan.

– Bilaman, bilaman, – dedi Tursunboy yana labini yalab.

– Bir piyola achchiqqina ko‘k choy bo‘larmidi-Y.

– Qandoq qilib olib kelaman, birov bilib qoladi, sen sho‘ring qurg‘urga qumg‘on olib kelay desam, o‘t yoqolmaysan. Tutunidan bilib qolishadi.

Ona-bola uzoq gaplasholmadilar. Jannat xola bolasini qabrga qo‘yib kelayotgandek, yuragida og‘ir dard bilan orqasiga qaytdi.

3. Dildor umidsizlanishi

To uy ostonasiga yetguncha bola dada deb Dildorning sochlarini to‘zitib yuzlarini timdalab tashladi. Bola necha kunlardan beri sira ko‘rmagan dadasini kutardi.

Ularning orzu-xayollari bir zumda shamolga uchib ketganini bilmasdi. Yulduz pogonli dada, yulduzli shapka kiygan dada bir ko‘rindi-yu, yana yo‘q bo‘ldi.

Bola uyga ham dodlab kirdi. Ariq bo‘yida ketmon yuvayotgan Yunusali ota nevarasining bu xil tovushidan hayron qolib ketmonini joyida qoldirganicha eshikka chopdi. Nima gap?

Dildor javob bermadi. Bolani yerga qo‘ydi o‘zini ayvonga otib kulcha bo‘lib oldi. Bola ko‘chaga «dada»lab yugurdi. Chol uni yo‘lakdan tutib keldi, bola oyoqlarini tipirlatib unga so‘z bermasdi.

Yunusali ota qizi bir nima demagan bo‘lsa, ham uning ahvoldidan nima gap bo‘lganligini bilib, olgan edi. Ota bir zum o‘ylanib qoldi. Endi nevarasi ham surpayib olgan qaltirayotgan bobosiga, ayvonda to‘lg‘anib yotgan onasiga qarab barmog‘ini og‘ziga solgancha jovdirab turardi. Oxiri Yunusali ota qizining tepasiga keldi.

«Qo‘y qizim, qo‘y». Bu kunlar ham o‘tib ketar.

Shundoq bo‘lishimi bilgan edim. Ammo ering urush ko‘rdi, musofirchilik ko‘rdi, yo‘lini topib olgандir deb o‘ylagan edim. Bo‘lmaptida.

Dildor bosh ko‘tarib dadasiga qaramadi.

Said Ahmad

MANGULIK (Romandan parcha)

Hashar vaqtida Ma‘sud Dildorni bir necha marotaba ko‘rdi va har gal faqat ikkovlari tushunadigan sog‘inish, orziqish ko‘zi bilan tikildi. Uning bu o‘tkir boqishidan Dildor men seni sevaman, senga intilaman, degan ma’noni o‘qib oldida beorom ko‘ngil taskin topganday bo‘ldi. Dildor bugun Ma‘sud bilan albatta keldi.

ko'rishadi. U Ma'sudni butkul sehrlab qo'yish uchun yal-yal tovlanadigan atlas ko'ylagini kiydi, boshiga binafsharang shohi durra o'radi va burchakdagi tomosha qarshisida o'zini tomosha qildi.

Ko'zguda qiyossiz go'zal kelinchak ko'rindi.

U bugun hasharda aytgan qo'shiqni g'ing'illatgancha ayvonga chiqdi.

Chiqdi-yu, qavat-qavat ko'rpachada qovog'ini osiltirib, tasbeh o'girib o'tirgan onasini ko'rib nafasi ichiga qaytdi.

Fotima bibi qizini imlab chaqirdi va qarshisiga kelgach:

– O'tir, – dedi yetti yot begonadek sovuq uh bilan? – Nega quvonasan?

SHo'ro mol-dunyomizni tortib olganigami? Otamning avahtada yotganigami? Yoki akang tiriklay o'lganigami? Nimaga yasanib olding? Ersirab qoldingmi, juvonmarg?

Kutilmagan bu haqoratni eshitgan Dildor turgan joyida qotib qoldi, yuzidagi nur so'nib, ko'zlari jiqla yoshti.

– Bu nima deganingiz, onajon?! Nega qarg'aysiz, menda nima gunoh? Ketgan mol-dunyonigizni alamini mendan olasizmi? Otam qamalgan bo'lsa, o'zi javob beradi...

Hasharga chiqqanim sizga yoqmagan bo'lsa, yoqmay qo'yaqolsin. El-yurtga ergashdim. Men bu g'urbatxonada yakka-moxov bo'lib qolishni xohlamayman!

Dildor shunday dedi-da, ayvondan sakrab tushdi va zulmat qoplagan bog' eshigi tomon chopib ketdi.

Said Ahmad

**JIMJITLIK
(Romandan parcha)**

Mashina archazor orasida to'xtadi. Yetdik, tushaylik endi, – dedi Mirvali. Jayrona hayron bo'ldi. Bu qanaqa joy? Uy yo'q-ku. Hammayoq tosh. U mashinadan tushmay o'tiraverdi. Mirvali qorong'ida qayoqqadir ketdi, so'ngra qaytib kelgach, yuring dedi. Jayrona yuragi betlamayroq unga ergashdi. Ular uch metrcha qorong'i yo'lakdan o'tishgach to'xtashdi. So'ngra bir tavaqali temir eshik g'iyqilab ochildi. Yo'lak yorishib ketdi.

Zal arab mebellari bilan jihozlangan. Yonidagisi oppoq bulg'or mebellari qo'yilgan yotoqxona. Ajdar suratli xitoy choyshablari yopilgan qo'sh karovat. Kiraverishda oshxona. Umuman barcha xonalar nihoyatda did bilan bezatilgan edi.

Jayrona karidorda qolgan sumkasini ko'tarib yotoqqa kirdi. Zum o'tmay, uzun xalatining bog'ichini yo'l-yo'lakay boylab chiqib keldi. Mirvali qo'limi ko'ksiga qo'yib, yalingandek dedi:

– Agar malol kelmasa servantning pastki eshigini ochsangiz.

Jayrona eshikni ochdi. Ochdi-yu, hang-mang bo'lib qoldi. U yerda fransuz, armon, nemis konyaklari to'lib ketgan edi. Jayrona «Napoleon» degan fransuz konyagini olib, Mirvaliga uzatdi.

Mirvali shishani ochib, och havorang qadahning ikkitasiga to'ldirib quydi.

Jayrona qadahni oxirgacha ichib yuborgunicha qarab turdi-da, keyin bir zarb bilan qadahni bo'shatdi.

Mirvali shirakayf. Endi qarshisida o'tirgan tengsiz go'zal qizning zulukdek qoshlariga, mastona ko'zlariga, gordonida osilib turgan zulflariga mahliyo bo'lib o'tiribdi. Endi shu qiz uniki. Qiz nima deydi, ko'nadimi, ko'nmaydimi, unga baribir.

Mirvali qat'iy ishonch bilan o'midan turdi. Jayronaning oldiga kelib xalati yoqasidan salpal ko'rinih turgan yelkasiga qo'lini suqdi. Jayrona xushyor tortdi. Endi ko'zlar hirsiyotga to'lgan kishining hozir har qanday zarbaga tayyor ekanligini sezib turardi.

Jayrona o'zini burchakka oldi. Mirvali borib uni burchakka qisdi. Shunda tashqarida mashina signal berdi. Mirvali quloq soldi. Kimdir keldi. Mirvali kostyumini olib shoshilgancha tashqariga otildi. U yerda Rasulbek bezovtalanib turardi.

– Nega kelding? – dedi Mirvali.

– Sizni Shavkat Rasulov so'rayaptilar, – dedi Rasulbek. – Nihoyatda muhim gap bor ekan.

Mirvali Shavkat Rasulovning gapini ikki qilmas edi.

U shoshib ichkariga kirdi. Jayrona hamon burchakda ko'zlar jovidirab turar edi.

– Toleing bor ekan, Jayron. Ertaga kelaman. Har ehtimolga qarshi ustingdan qulflab ketaman.

U shunday deb, shoshilgancha chiqib ketdi. Tashqari eshikni qarsillab yopilishi-yu, kalitlarning shaqirlagani eshitildi.

Hammayoq jim-jit bo'lib qoldi. Jayrona bu yerdan chiqish yo'lini izlay boshladi. Chiqib ketishning sira iloji yo'q edi. Derazalarga yo'g'on-yo'g'on temir novdalardan panjara o'rnatilgan.

Jayrona nima qilishini bilmay vannaxonaga mo'raladi. U yerda odam bo'yidan balandlikda bir patnis eni deraza bor edi. Unga ham temir panjara o'rnatilgan.

Jayrona atrofni sinchiklab qaradi, shunda ko'zi yerdagi omburga tushdi. U omburni olib panjaradagi mixlarni sug'urishga kirishdi. Ikkita mixni arang sug'urib oldi.

Keyin panjarani bir tomonga surdi, panjara xuddi eshikchaga o'xshab bir chekkaga surildi.

U zalga kirdi-yu, divanga o'tirgancha o'yay boshladi. Birdan fikri tiniqlashib yotoqxonaga kirdi va ikkita choyshab ko'tarib chiqdi. Bir-biriga mahkam qilib bog'ladi va bir uchini panjaraga bog'ladi. So'ngra choyshabni ikki qo'llab qattiq ushladi-yu, butun gavdasini tashqariga oldi. Oxiri oyog'i yerga tegdi. Choyshabni qo'yib yuborib qaddini rostladi.

Birdan ko'zi kechagi archazorga tushdi va o'sha tomonga qarab chopib ketdi.

**ULUG‘BEK XAZINASI
(Romandan parcha)**

1. Xurshidabonu

Xurshidabonu sekin o‘rnidan turdi, unsizgina odimlab, eshik tomon yo‘naldi.

– Xurshida! Qizim...

– Bu bechora padaringni kechirgaysan, qizim... Taqdiri azal shu narsani lozim ko‘rsa ne chora? Enagang aytar... Afv et, qizim...

Xurshidabonu birdan yopirilib ketgan allaqanday shubhadan eti uvishib, gandiraklaganicha mehmonxonadan chiqdi.

Savalab yog‘ayotgan yomg‘irni sezmasdan hovlining o‘rtasidagi ishkomning muzday ustuniga suyandi.

Nogahon bonuning qulog‘iga kimdir «Xurshida»... Xurshidabonu deb shivirlayotganday tuyilib seskanib ketdi, ovoz bog‘ tomondan kelardi. Bog‘ eshik qiyg‘os ochiq edi.

– Bonu...

«Qalandar! Dadamlardan Mavlono Ali Qushchini so‘ramoq niyatida kelgandur». Shu payt eshikda Qalandarning novcha, zabardast qomati ko‘rindi.

– Bonu! To‘xtang, bir so‘zim bor sizga!

– Nechun keldingiz? – dedi Xurshidabonu.

– Men bechorani qiynab ne qilasiz?

– To‘xtangbonu! – dedi.

Qalandar to‘satdan amirona ohangda. – Dadangiz... sizga hech narsa demadimi?

– Aytdi... Siz haq so‘zni so‘zlabsiz. Biroq ne chora? Dadam... nogiron bir bechora...

– To‘xtang, bonu. Bu kun bu dargohga Ko‘ksaroydan birov keldimi?

– Keldi, – dedi. – Ular ne muddaoda kelganlar...

– Bilmasangiz, bilib qo‘ying, bonu battol padarkush jamolingiz ta’rifini eshitibdi, eshitib o‘z xaramiga olmoqni niyat qilibdi... Nechun indamaysiz, bonu? So‘zimni eshiting, bonu!

Agar... Agarda menga ishonsangiz shu bugun olib ketaman. Nechun so‘zlamaysiz, bonu?

Xurshida bonu to‘satdan ko‘ziga yosh olib:

– Siz, – dedi titrab, siz tashlab ketmaysizmi?

– Yorab! Men sizni tashlab qayga ketaman, bonu?

Xurshidabonu ko‘z yoshlarini artib, Qalandarga qaradi.

– Xo‘p. Qayga desangiz ketaman. Yonimda siz bo‘lsangiz sovuqdan o‘lmasmen...

Qarnoqiy indamay bonuni dast ko‘tarib oldi-da, sirpanchiq yerda sirg‘anib, jarlikka qarab ketdi.

2. Abdulatif sarosimada

Shahzoda Abdulatif kechani tun yarmidan oshguncha, to Mirzo Ulug‘bek orqasidan ketgan amir Sulton Jondor u kutgan xabarni keltirmaguncha mijja qoqmadi. Xabar kelgandan keyin esa, go‘yo yelkasidan tog‘ ag‘darilganday yengil tortib, o‘zini Amir Temurning oltin kursisiga tashladi-yu, uqlab qoldi. U qancha uxladi bilmaydi. Bir mahal, tepasida birov turganday cho‘chib uyg‘ondi. Shahzoda yuragi gura-gura urib, o‘rnidan sekin turdi. Nazarida o‘rdaday keng, shohona xonanining qorong‘i burchaklarida, gir aylana saf tortgan oltin kursilar tagida, to‘rga osilgan og‘ir darpara orqasida kimlardir yashirinib olganu, undan ko‘zlarini uzman, xatti-harakatlarini kuzatishar edi!

«YO xudovandan karim! O‘z panohingda saqlagaysen!»

Shahzoda xonani chulg‘ab olgan mudhish jimlikka quloq solib, tirnoqlarigacha jimirlab bir lahma turdi, keyin go‘yo burchakdagisi soyalarini cho‘chitib yuborishdan qo‘rqqanday, oyoq uchida yurib, tokchalardagi shamlarini yoqdi. Qorong‘i xona yorishib tilla suvi yuritilgan nozik bezaklar go‘yo jon kirganday yaraqlab ketdi. «Unga ne bo‘ldi!» Nechun yuragi tuzoqqa tushgan qushday tipirchilaydi. Nechun ko‘nglini bu mudhish qo‘rquv chulg‘ab oldi? U nedan qo‘rqadi?

Endilikda butun Movarounnahrga hokim mutloq bo‘lmadimi?

YO amir Sulton Jondor keltirgan shum xabar uni qo‘rqtib yubordimi?

Yo‘q u kunbo‘yi amir Jondorning yo‘lini ko‘zi to‘rt bo‘lib poyladidi-ku. Har safar eshik taqillab, ostonada balxiy saroybon ko‘ringanda yuragi bir xalqirib, o‘rnidan turib ketar undan «Amir Jondor!» degan so‘zni kutar, boshqa kishi tashrif buyurganini eshitganda esa hafsalasi pir bo‘lib, joyiga o‘tirib qolar edi.

Nihoyat, tun yarmidan oqqanda eshik to‘satdan shitob bilan ochilib amir Sulton Jondor kirib keldi.

Odil Yoqubov

DIYONAT (Romandan parcha)

Fazilat o‘zini qo‘yarga joy topolmay qoldi: Latofat yana tunov kungiday ichkari uysa qamalib, eshikni qulflab oldi. Na yig‘i-sig‘i qildi, na ko‘nglidagi alamlarini aytidi. Bundan ko‘ra yig‘lagani, ko‘nglidagi dardu hasratlarini aytib, yuragini bo‘shatgani ming chandon yaxshi edi.

YO tavba! Kap-katta yigit, olim odam, o‘z qallig‘ini kelib-kelib o‘ttizdan oshib ketgan shu ko‘rimsiz domлага rashq qilib o‘tirsa! Ichib kelib bezorilarday to‘s-to‘polon ko‘tarsa, el-yurt oldida oyyuhonnos solib, to‘y arafasida dilzorlik qilsa!

Yo‘q, uyam emas, buyam emas hammasiga sabab Otaqo‘zi! Otaqo‘zi Fazilatni ham, o‘g‘li Qodirjoni ham, qizi Latofatni ham odam qatorida ko‘rmaydi. Tilida qudag‘ay-qudag‘ay desa ham dilida sariq chaqaga ham olmaydi. Xudo

biladi, ehtimol Fazilatga quda bo‘lganidan or qilsa ajab emas. Qizi Tohira Karimjon bilan topishib o‘g‘li Xaydar Latofatni yaxshi ko‘rib qolganidan keyin noilojlikdan quda bo‘layapti.

Uning Jamol Bo‘riboyev bilan og‘iz-burun o‘pishib qolishining bir sababi ham shu. Demoqchiki, asl qudam sen emas, asl qudam zamministr Bo‘riboyev bo‘ladi!

Uning Bo‘riboyevni boshiga ko‘tarib yurishi, tog‘larga olib chiqib mehmon qilishining sababi ham shu. Kecha tog‘dan qaytgandan keyin qo‘y so‘yib mashshoqlar chaqirtirib bog‘da sahargacha bazmi jamshid qurdi, Fazilat bo‘lsa uyda o‘tmishini eslab yostiq tishlab yig‘lab chiqdi. Biroq Latofat ham Fazilatga o‘xshab kechasi bilan mijja qoqmay to‘lg‘anib chiqdi. Qizi buni bidirmaslikka harakat qildi.

Azaldan shunday u: o‘z yog‘ida o‘zi qovurilsa qovuriladi-ki, dardini birovga ayta qolmaydi. Shunday bo‘lsa ham Fazilat sezdi, qizining uxlolmay, chiroqni bir o‘chirib, bir yoqib, tong otgancha yurib chiqqanidan bildi: bo‘lg‘usi qaynotasining bog‘idan eshitilayotgan mastona qiyqiriqlar: «Qoyil Jamol Bo‘riboyevich! Qoyil!» degan xitoblar yolg‘iz Fazilatni emas, qizining yuragini ham qiymalab tashladi.

O‘tkir Hoshimov

TUSHDA KECHGAN UMRLAR (Romandan parcha)

Qurbanoy kechasi bo‘lgan voqeani eslamaslikka harchang urinmasin ayasining zor qaqqash yig‘lagani, anavi «Soat aka»ning dag‘dag‘alari yodiga tushib yuragiga vahima o‘rmaladi. Xadicha xolanikiga chiqqanlar, dedi o‘zini-o‘zi yupatish uchun pichirlab. Muzdek kalish ichida oyog‘ining barmoqlari battar sanchib og‘riy boshladи. Ayvon burchagida g‘ujanak bo‘lib o‘tirgani onasining anavi kishiga yalinganlari esiga tushdi. Yo‘lak tomon yurdi.

Ko‘cha eshik taqa-taq berk, tamg‘a bostirilgan edi. Vahimasi kuchayib ketdi. Oyog‘ining achishgani ham yodidan chiqib, kalishi qorga to‘lgancha hovli burchagidagi molxona eshigiga bordi. Qo‘rquv ichida molxona eshigini ochdi. Nimqorong‘u molxonadan chirigan xazon, eski go‘ng hidi kelar edi. Qor kechib bostirma oldiga bordi. Pastak eshigini tortgan edi, negadir ochilmadi. Eshik xalqasidan tutganicha kuch bilan qo‘sh qo‘llab sikta boshladи.

- Oching aya! Ayajon!

Jon jahdi bilan tortgan edi eshik ochilib ketdi. Qorong‘i bostirmaga bosh suqdi. Ichkari kirishga yuragi betlamadi, bir zum turib qoldi. Keyin dadillanib ostona hatladi. Ikki qadam qo‘yishi bilan ko‘kragi aralash yuziga muzdek narsa urilib pappillab ketdi. U boshini ko‘tarib qaradi-yu, shundoq tumshug‘i tagida ikki oyoq shalvirab turganini ko‘rdi. Sarpaychan oyoqlar qorong‘ida sarg‘imtir rangda ko‘rinar vazmin uyoqdan-buyoqqa borib kelardi.

Qurbanoy dahshat ichida orqasiga tisarilar ekan, vassajuftiga ilingan arqonni, arqonda osilib yotgan gavdani sarpaychang oyoqlarni changanlladi.

– Aya, aya! – dedi chirqillab. Unaqa qilmang ayajon, jon ayajon. Onasining oyoqlari muzdek sovuq, tayoqdek qattiq edi.

O'tkir Hoshimov

**BAHOR QAYTMAYDI
(Qissadan parcha)**

Muqaddam o'z darvozasi oldiga yetib kelganda tun yarmidan og'gan, oy allaqachon botib ketgan edi. Derazalarda ham, darvozada ham chiroq ko'rinnmasdi.

– Adang ishdan kelmabdilar, – dedi Muqaddam xuddi tushunadiganday Shavkatga qarab. U yo'lida uyg'ongan, ammo g'ingshimay jimgina kelayotgan edi.

Muqaddam darvoza peshtoqidagi teshikchaga cho'zilib qo'l suqdi. Kalit yo'q edi.

– Tashlab ketmabdilar-da, – dedi u pichirlab. – Voy, esim qursin, o'zimda ham bor-ku.

U ketayotganida kalitning bittasini tashlab ketganini, ikkinchisini plashining cho'ntagiga solib olganini esladi. Shosha-pisha eshikni ochdi. Chiroqni yoqdi. Xuddi shu payt yotoqxona ichida ham chiroq yongani eshik oynasidan ko'rindi. Ichkarida kalit shiqirlab, eshik lang ochilib ketdi.

Muqaddam qo'rqqanidan birdan orqaga chekindi. Bolani tashlab yuboray dedi. Eshik oldida ich kiyimdagি Alimardonning gavdasi ko'rindi.

– Odamning yuragini yorib yuboray dedingiz! – Muqaddam erkalash ohangiga to'lgan ovoz bilan Alimardonni koyidi. Keyin jilmayib Shavkatni baland ko'tardi. – Mana, bizlar keldik...

U Alimardonning chehrasiga qaradi-yu, qo'rqib ketdi. Erining turqi shu topda dahshatli bo'lib ketgandi. Uning rangi quv o'chgan, negadir titrar, ko'zlarining qorachig'i kichrayib, dum-dumaloq bo'lib qolgandi. Niroyat, uning tili kalimaga keldi:

– Muqad...

Muqaddam hayron bo'lib, ichkariga mo'raladi. Avvaliga hech nima tushunmadni. Divan-karavot ustida qo'rvuvdan shumshayib o'tirgan yarim yalang'och xotinni ko'rdi-yu, birdan hammasiga tushundi.

– A-a-a! – deb qichqirib yuborgancha, dahshat ichida orqasiga chekindi.

Shavkat qo'rqib ketib chirillab yig'lay boshladi. Muqaddam uni bag'riga bosganicha hovliga otildi.

...Alimardon turgan yerida haykalday qotib qolgan. Muqaddam uni hech qachon kechirmasligini endi aniq tushundi. Shavkatni endi hech qachon ko'rolmasligini o'yładi-yu, zinadan yalang oyoq pastga otildi. Yo'q, yalinib-yolvorib bo'lsa ham to'xtatib qolish kerak.

Muqaddamning ketidan yugurdi.

– Muqad... – dedi Alimardon qo'l cho'zib. – Men...

– Qoch, vijdonsiz! Yo‘qol, iflos! Yuvuqsiz! – dedi Muqaddam chinqirib. Birdan qo‘lidan Shavkat sirg‘ilib tushib ketayotganini sezib qoldi-da, ko‘tarib mahkam bag‘riga bosdi.

Eshikdan otilib chopib chiqib ketdi. O‘ksib-o‘ksib yig‘lab yubordi.

O‘tkir Hoshimov

**IKKI ESHIK ORASI
(Romandan parcha)**

1. Dahshatli sinov

Muzlagan daryo ustida haliyam son-sanoqsiz izlar tushib yotibdi. Sovuq shamol muzlagan daryo ustida uvillab, qor supuradi.

Chollar, xotinlar orasida turgan bolalar sovuq qotib ketdi shekilli, hiqillab yig‘lay boshlashdi.

Ofitserlardan biri allanima deb shang‘illagan edi, ikki soqchi bizdan nariroqda turgan cholning qo‘lini orqasiga qayirdi-da, ofitserlar tomonga sudrab ketdi.

Sohilga olib borib, qorga o‘tqazishdi, oyog‘idan eski piymasini yechishdi.

Keyin telpagini... paxtaligini... shimini... axir qip-yalong‘och qilishdida, daryo tomon sudrashdi.

Qirg‘oqdan o‘n qadamcha naridagi muzi teshib qo‘yilgan joyga avval e’tibor bermagan ekanman, odatda rus qishloqlarida suv olish uchun muzni teshib qo‘yishadi. Ammo bu bitta chelak sig‘adigan jo‘n teshik emasdi. Har tomoni bir metrda, tekis qilib kesilgan, to‘rtburchak teshik!

Ikki soldat boyagi odamni zo‘rlab teshikka tiqqi. Nemets ofitserlaridan biri hadeb tipirchilayotgan cholning bilagidan ushlab soatiga qaragancha tomir urishimi sanay boshladi.

– Zays seyen minuten ertreyxt er alms, – dedi ofitser uning bilagini qo‘yib yubormay. – Bitte ayne shprits, shneller.

Boshqa bir ofitser kursi ustida turgan portfelsi ochib, shprits chiqardi. Yugurib olib bordi. Ikki askar hushidan ketgan cholni muz orasidan sug‘urib oldi. Cholning badani go‘shtday qizarib ketgan edi. Ikki kishilanib bilagiga ukol qilishdi. Chol avval titradi, keyin (ab) ko‘zini ochdi.

– Hayvonlar! – dedi xirillab.

– Gut! – Ukol qilgan ofitser soldatlarga bir imo qilgan edi, endi hushiga kelgan cholni tag‘in suvgiga tifishdi.

– Nima qilishyapti? – dedim xuddi suvgaga o‘zim tushgandek vujudim muzlab.

Meni qo‘ltiqlab turgan leytinantga qarasam, rangi qordek oqarib, tishlari g‘ijirlayapti.

– Ablahlar, – dedi titrab – tajriba o‘tkazyapti, Reyning sovuq урган askarlarini qaysi dori bilan qutqarib qolishni sinayapti.

– Gut, – deb qichqirdi ofitser.

Ikki aftamatchi esa cholni muzlar orasidan sug‘urib olib, murdani muzlar ustiga uloqtirib yuborishdi.

Safda turgan chollar, ayollar va bolalar dod solib yig‘lab yuborishdi.

2. Noma'lum askar Kimsan Husanov hikoyasi

Kaluga shahrini Ugri daryosi kesib o‘tadi.

1942 yilning qahraton qishi edi. Hammamiz daryo bo‘yida tizilishib, nimalar bo‘layotganiga tushunolmay hayron bo‘lib turardik. Shu payt ikki nemis soldati oramizdan bir cholni sudrab olib chiqib, daryoni o‘rtasidan to‘rtburchak qilib kesilgan muz orasiga zo‘rlab tiqishdi. Ofitserlardan biri hadeb tipirgilayotgan cholning bilagidan ushlab, saotiga qaragancha tomir urishini sanay boshladi. Muzdan boshi chiqib turgan chol avvaliga «uvv» deb yubordi. Tipirchiladi, keyin rangi bir qizardiyu, bo‘zdek oqarib ketdi.

Fashistlar jasadni yirtqichlarga muz ustiga uloqtirdilar. Doktor ofitser bir nima deb buyurgan edi, «qassoblar» meni tanladi. Ikkalasi kelib ikki qo‘ltig‘imga yopishdi. Yarador oyog‘imni bosa olmasligimga qaramay muz ustida sudrab ketishardi. Esimni taniganimdan beri hatto ota-onamga ham yalang‘och ko‘rinxagan edim. Uyat bo‘ldi. Meni ham haligi muz orasiga tiqishdi.

Avvaliga butun vujudim muzlab ketdi. Muz ostidan oqim uncha tez emas edi. Oyog‘imni tipirlatib ko‘rsam, tagiga yetmadi, demak daryo chuqur. Avtomatchilardan biri qo‘ltig‘imdan tutib turdi, doktor ofitser esa ikkinchi bilagimdan ushlab tomirimni tekshira boshladi. Negadir eng avval yarador oyog‘im, keyin belim oxiri boshim qiziy boshladi. Ofitserning bilagimdan tutib turgan charm qo‘lqopni sovuq edi. Lekin zum o‘tmay, qo‘lqopni isib ketganday bo‘ldi. Entikib nafas olgancha uning yuziga qaradim. Sarg‘ish qoshlari chimirilgan, soqoli qirtishlab olingan, yuzi sip-silliq. Atir hidi anqib turibdi. Ko‘kish ko‘zlarida tabassum bilan saotiga qarab, tomir urishimni sanayapti. Xudi itni, maymunni tekshirayotgan olimdek. Hatto ora-chora mammun iljayib ham qo‘yadi.

«Shoshma, ablah! Tajriba qanaqa bo‘lishini ko‘rsatib qo‘yaman! Muzlab o‘lish qanaqa bo‘lmishni senam bir ko‘rib qo‘y!» Bu fikr xayolimga qayoqdan kelganini bilmaymanu, lekin to‘satdan vujudimga kuch yog‘ilib kirgandek bo‘ldi. «Amallab qo‘lidan ushlab olsam bo‘ldi!» Suv ostidagi qo‘limni sekin qimirlatib ko‘rsam hali jon bor. Yaxshi! Suvning ustki qismi yaxlab – ko‘kragim atrofimi darrov yupqa muz qatlami qoplabdi. Bo‘sh qo‘limni sekin yuqori ko‘tardim. Muzni shaldiraganini eshitgan doktor ofitser yarq etib bir qaradi-yu, parvo qilmay yana soatiga tikildi. Xotirjamlik bilan tomirimni o‘lchashda davom etdi. Bo‘sh qo‘limni muz qatlamidan sekin chiqardim. Ofitserning bilagimdan tutib turgan qo‘liga chang solib, jonim boricha yopishib oldim. U seskanib ketdi. Ko‘zlar ola-kula bo‘lib, saotini muz ustiga otib yubordi-da, ikkinchi qo‘li bilan bilagimga mushtlay boshladi. Dahshat ichida allanima deb qichqirdi. Avtomachilar shu tomonga yugurdi. So‘nggi kuchimni to‘plab bir siltagan edim, ofitser sirg‘anib muzga o‘tirib qoldi. Jonholatda sariq sochlariiga yopishdim. Soldatlar avtomatlar bilan bilagimga ura ketdi. Ammo sovuqdan tarashaga aylangan qo‘limga og‘riq ta’sir qilmas,

akashak bo‘lib qolgan barmoqlarim doktor ofitserning sochlariga changakday yopishib qolgan edi, ofitser shunday dahshat bilan dodlab yubordiki, ovozi xotinlarnikidek ingichkalashib ketdi.

O‘sha zahoti boshi bilan suvga sho‘ng‘iganini, og‘ziga muzday suv kirib, ovozi o‘chganini, «bulq-bulq» qilib qolganini idrok etdim. Yana bir marta hushimga keldim. Boshim qandaydir qirrali narsaga urilganini his etdim. Oqim suv tagidagi muzga oborib urgan ekan, Qiziq, suv tagida, oyoqlarim orasida qora govda jon talvasasida tipirchilar, qo‘lim changak bo‘lib, hamon sochiga yopishib qolgan, qo‘yib yubormas edim. Olisda yorug‘ tuynukdan ko‘kimir nur tushib turar, o‘sha tomonda avtomatlarning tirillagani, bo‘g‘iq-bo‘g‘iq, qiy-chuv, elas-elash eshitilar edi. Men shularni bir soniya his etdimu keyin... hammasi tomon bo‘ldi.

Pirimqul Qodirov

YULDUZLI TUNLAR (Romandan parcha)

1. To‘satdan ko‘prik sinishi

Saharlikni yeb yo‘lga tushgan yov qo‘shining oldingi to‘pi ko‘prikka chiqa boshlaganda tong qorong‘isi hali tarqalmagan edi.

CHo‘g‘urchuqday behisob qo‘shin otlari, tuyalari, aravalari bilan birga yomg‘irli tongda qop-qora selga o‘xshab ko‘prikni limmo-lim to‘ldirib kela boshladi.

Orqadagilar esa hech narsadan bexabar yopirilib kelmoqda edi. Bir lahzada ko‘prikning shu joyi haddan tashqari tiqilinch bo‘lib ketdi. Arra va bolta zarbalaridan nochorlashgan ko‘prik yog‘ochlari to‘satdan qarsillab sindi. Tiqin bo‘lib yotgan otlar, odamlar ko‘prik yog‘ochlariga qo‘shilib suvga qulab tushdi. Toshib turgan soyning suvi qulab tushganlarni lapillatib oqizib ketdi.

Ko‘prik ustida qolganlar jon holatda orqaga burilib, qochmoqchi bo‘lishdi. Ammo orqadan hamon otliqlar, aravalari, tuyalar ko‘chkiday bostirib kelishmoqda edi. Oldinda nima hodisa bo‘lganidan bexabar podshoh eng yaqin beklari bilan soyning narigi chetida turib, qo‘shinni ko‘prikka tomon yo‘naltirmoqda edi. Vahimaga tushgan qo‘shin birdan o‘zini orqaga tashladi, ammo ur-sur to‘polonda ko‘prikka sig‘may, ot ulovlari bilan suvga to‘kila boshladi.

Ko‘prik qanotlarining ancha joyi sindirib tashlangani ularning qulab tushishini osonlashtirardi. Tartibi buzilgan aravalari bir-birini itarib, ko‘prikning butun turgan qanotlarini ham sindirib qulamoqda edi.

G‘ich-g‘ich bo‘lib, qurt-qumursqaday qaynab yotgan qo‘shin ko‘prikka shunday tiqilib qolgan ediki, unga na qamchi kor qilar edi, na qilich. Suvga qulab tushganlarning cho‘kkani cho‘kib o‘ldi. Orqadagilar esa arqon tashlab ularning uch-to‘rtasini zo‘rg‘a qutqarib oldi. Boshqalarini esa qamishzor balchiq qa’riga tortib ketdi.

Shuncha odamning mislsiz qyinoqlarda jon bergenini ko‘rgan jangchilar mag‘lubiyatga uchragandan battar esankirab ruxsizlanib qoldilar.

2. Boburning zaharlanishi

Podshoh oshxonasida har bir taomni tekshirib totib ko'radigan maxsus bakavullar bo'lar edi.

Qozonda karundi daraxtining nordon mevasidan qo'shib tayyorlangan mazali qayla pishib turibdi. Bobur bu qaylani yaxshi ko'rishini Bahlul bilardi. U sekin qo'yin cho'ntagiga qo'l solib, to'rt buklog'liq qog'ozni oldi. Oshxonada hech kim yo'q. Bakovullar narigi xonada mast bo'lib ashula aytishyapti.

Bahlul zaharni qozonga solmadi. U zaharni Bobur ovqat yeydigan chinni lagandagi yupqa lochira non ustiga sepa boshldi. Shu payt, birdan shamol tashqi eshikni qarsillatib yopti. Bahlulga kimdir kelayotganday tuyuldi-yu, zaharning qolganini qozon tagida yonib turgan olovga otdi. Keyin chinni lagandagi zahar sepilgan lochira ustiga tez-tez qaylani soldi. Oradan sal vaqt o'tgach, savdar kirdi, quyon go'shtidan qilingan qovurdoqni va qayla solingan chinni laganni Bobur ovqat yeydigan xo'rakxonaga olib chiqib ketdi. Bahlul sir ochilguncha qo'rg'on darvozasidan chiqib ketish umidida edi. Ammo u oshxona eshididan chiqayotganda shirakayf bakovullardan biriga duch keldi.

– Qani, quyon go'shtidan bizga ham qoldirdingmi?

– O'zi oz edi, hammasini hazratga berib yubordim.

– Bo'lmasa hozir bizga quyon go'shtidan qovurib ber! Tez!

Bakovulning yo'g'on gavdasi eshikni to'sib turardi. Oshpaz orqaga qaytdi va sarosima harakatlar bilan yog' dog'lab, quyon go'shtini qovurishga tayyorlay boshldi.

Shu payt birdan xos navkarlar tabibga yugurib, bakovullar bir-birini chaqirib, oshxonaning ich-tashi to'palon bo'lib ketdi.

Bobur ustma-ust qayt qilib, yuzi ko'karib ketgan. U nafasi qaytib, tashqariga intildi, ammo ikki qadam qo'ymay gandiraklab ketdi. Buburni suyab ravonga chiqarib yotqizdilar. Tabib yurakka quvvat beradigan doridan hidlatdi.

– Sizga ne bo'ldi, hazratim?

– Ovqatda bir sir bor! – dedi Bobur va yana ko'ngli aynib, chinni toz ustiga engashdi, og'riq zarbidan ko'zlariga duv-duv yosh keldi. So'ng boshini yana yostiqqa qo'yib, ko'zlarini yumib yotganda ravonga tergovchi kirdi. U Baydani ham so'roq qilganini, narigi uchoviga shu badbaxt malika bosh bo'lganini, lekin tashqi dushmanlar bilan aloqasi borligini rad etganini va boshqa savollarga javob berishdan bosh tortganini aytib berdi.

– Mal'unlar!.. – dedi, Bobur yotgan joyida g'azabdan ovozi titrab, nariga uchovini qoidaga binoan qatl ettiring! Bayda... Keyin!

– Bosh ustiga! – deb tergovchi chiqib ketdi. Bobur bir piyola iliq sut ichgach yana yostiqqa bosh qo'ydi. U holsizlanib yotgach bolaligi o'tgan Andijonni eslab xayolga cho'mdi.

O'lim deb ataladigan zulmat qa'rige qulab tushishini ikki kun davomida muttasil his qilish, Boburda yashash istagini behad kuchaytirib yuborgan edi. Hayotning bir lahzasi, bir uchquni dunyoning barcha boyliklariyu, toju-taxtidan ham aziz ekanligi unga endi astoydil sezildi.

Har bir kishining faqat bittagina umri bor ekan va umrning har lahzasi shu qadar shirin ekan. Oradan yana ikki kun o'tgach, Bobur tantanali marosimlarda kiyadigan kiyimlarida devoniga chiqdi. U taxtga shoshilmay chiqib o'trgach, ikkita navkar malika Baydani poygohdagi eshikdan olib kirdi. Beklar Baydaning o'ldirilishini talab qilmoqda edilar.

– Janob beklar taklif qilgan jazolar barchasi asosli, – dedi.

Bobur malika tushunadigan forsiy tilda.

– Biroq xiyonatchi malikaga bundan ham og'iroq bir jazo bor. Malika to umrini oxirigacha tirik saqlansin. U bizning bundan keyingi zafarlarimizni ham ko'rsin. Yomonlikka yaxshilik qilish mard kishining qo'lidan kelishiga amin bo'lsin.

Malikaga bundan o'zga jazo munosib emasdir.

Chingiz Aytmatov

**BIRINCHI MUALIM
(Povestdan parcha)**

O'rnimdan turay desam holim yo'q, baqiray desam ovozim... Bir suyunib ketdimki, xayriyat, mualimim tirik ekan! Lekin e-voh! Yuragim jarohatlangan, nomusim poymol etilgan... Jonim xalqumimga kelib tiqilib qolganday, qulog'im bitib, a'zoyi badanim bo'shashib ketdi.

Yuz-qo'llari bint bilan bog'langan, chap qo'lini bo'yniga osib olgan Duyshen otdan tushib, eshikni oyog'i bilan bir itardi, shiddat bilan o'tovga kirdida, yuzi qizil odamning ustidagi ko'rpasini yulib olib tashladi.

– Tur o'rningdan! – dedi g'azab bilan. U boshini ko'tarib, ko'zini bir ishqaladi Duyshenga tashlammoqchi bo'lgan edi, miliitsionerlarning o'qtalgan to'ponchalarini ko'rib jim bo'la qoldi. Dushen chap qo'li bilan yoqasidan tortib, o'ziga yaqin keltirdi, ko'ziga tik boqib g'azabdan lablarining qoni qochib:

– Tur ablah! Qani, yur ko'ngling tusagan yeringga olib borib qo'yamiz! – dedi. U qarshilik qilmasdan o'rnidan qo'zg'aldi.

Dushen uni yana bir yoqasidan tortib ko'ziga tik boqdi-da, titroq tovush bilan:

– Sen uni shunday oyoq osti qildim, rasvoyi olam qildim, deb xayol qilgandirsan? Bilib qo'y, la'nat u zamonalr o'tib ketgan, hozir bizniki, shu bilan endi sening kuning bitdi, – dedi. Uning etigini yalangayoq qiydirib, ikki qo'lini orqasiga bog'lashdi. Miliitsionerlar uni otga o'ngarib, biri yetaklab biri haydab olib ketishdi. Men Duyshenning otiga mindim u yonimda ketdi. Dushen otni to'xtatdi, dard-alamli ko'zları bilan birinchi marta, menga tik qaradi.

– Oltinoy, kechir meni, seni bu kulfatlardan saqlay olmadim, kechir meni – dedi. Qo'llarimdan ushlab qattiq bir xo'rsinib oldi. Sen kechirganing bilan bari-bir o'zimdan bir umr damongir bo'lib yuraman. Xo'ngrab yig'lab oting yoniga yuzimni qo'yib oldim.

– Qo'y, Oltinoy, behudaga joningga jabr qilma. Yur endi ketdik. Adir oralab shildirab oqib turgan tiniq suvga yetganimizda Duyshen mehribonlik bilan menga qarab:

– Otdan tushib yechinib yuvinib olsangchi! – dedi. Keyin cho'ntagidan sovun olib menga uzatdi.

– Men nari borib otga o't yedirib turay, yechinib suvga tushib yuvinib ol. Oltinoy engil tortasan, ho'pmi? Ho'p deganday bosh irg'adim.

Chingiz Aytmator

CHINGIZXONNING OQ BULUTI

(*Qissadan parcha*)

Tun yarimga og'gach, yuzboshi Erdeney «zudlik bilan ishim chiqib qoldi, tumanboshining huzuriga boryapman», deb tashqariga chiqdi. Lekin bu lashkargohdan chiqish uchun bir bahona edi, xolos. Shu kecha u o'z ma'shuqasi bilan qochishni kelishib qo'ygan edi. U hali Do'g'o'lang bilan chaqalojni olib ketolmasligini bilmasdi. Erdene shuni yaxshi bilardiki, agar qo'lga tushib qolsa unga eng qattiq jazo berilardi yo kigizga o'rab bo'g'ib o'lidlardи, yo dorga osadilar. Yuzboshi otdan sakrab tushib qotdi. Ha ish chatoq edi. Uch yasovul esa otlaridan tushub, ular Do'g'o'lang bilan qochishga mo'ljallab qo'yishgan aravaga ot qo'shardi. Yuzboshi Erdene yasovullar Do'g'o'lang bilan chaqalojni aravaga o'tqazib, cho'ri Oltinni ham yoniga uloqtirib, tun qo'ynida alaqaygadir olib ketayotganlarini ko'rib turdi. Atrofga sukunat cho'mdi. Mana yana aravani suvoriyalar safi oldida to'xtatdilar va o'sha talabni takrorladilar. Ayt sharmanda, kimdan tuqqansan? Ayni mana shu safda Erdene o'zining oq yulduziga mingancha turardi. Do'g'alang bilan Erdeneyning ko'zлari to'qnashdi. Hushyor tortib, o'zimi qo'lga olgan Do'g'alang na'rador nuyonning savoliga qat'iyat bilan javob berdi: «Yo'q, yo'q bu yerda bolamning otasi». Yuzboshi Erdene boshini quyi egdi. Jalodlar xayt-xayt deb qichqirishib, quturib bo'kirayotgan tuyani uzun serjun, paxmoq oyoqlarini bukub, cho'kkalashga majbur qildilar. Dor tayyor bo'lgan edi. Shunda na'rador nuyon yana bir kara ermak uchun kashtachi ayoldan so'radi. Oxirgi marotaba so'zlayman, sen suyuqoyoq baribir o'lib ketasan. Bolangni kumi bitgan. Balki ahmoq kallangni joyiga qo'yib eslarsan. Shunda kimdir sipohilar orasidan ovoz berdi. Menman bolaning otasi! Kerakmi shu sizga. Bu mening o'g'lim. O'g'limning oti Qunan! Onasining oti Do'g'ulang! Men yuzboshi Erdene bo'laman. Atrof sukunatga cho'mdi. Odamlar o'limga azot yurib borayotgan kishini ko'z o'ngida ko'rib turardilar. O'lim ostonasida ular yana qovushib jonsiz qotdilar. Jallodlar darhol ishga tushdilar. Bir sirtmoqni yuzboshining bo'yniga, ikkinchisini kashtachi ayolga ildilar, va shosha-pisha tuyani oyoqqa turg'iza boshladilar. Jonvor o'midan turishni istamay qarshilik ko'rsatardi. Tuya o'kirar, og'zidan ko'pik sochar, g'ajib tashlamoqchi bo'lardi. Biroq kaltak zarbiga chidolmay, o'rnidan turishga majbur bo'ldi. Ikki o'rkachli nortuyaning ikki yonida

o‘la-o‘lguncha birga bo‘lamiz, deb ahd-paymon qilgan sevishganlar sirtmoqqa osilib qoldilar.

Chingiz Aytmatov

**ASRGA TATIGULIK KUN
(Romandan parcha)**

Ona ming xil o‘y va xayollar og‘ushida borarkan, yassi qum tepaliklar ortidan nogohon ko‘p sonli tuyalarga ko‘zi tushdi. Nayman ona Oqmoyasiga qamchi solib bor bo‘yicha choptirib ketdi. Uyurni izlab topgan kishiday quvonchi ichiga sig‘may nafasi bo‘g‘ziga tiqildi.

Ammo shu zaxotiyiq Manqurt qilib qo‘yilgan o‘g‘lini eslab a’zoyi badani muzlab ketdi, so‘ng yuragi yana quvonchga to‘ldi. Shu bilan ne ahvolga tushganini o‘zi ham anglayolmay qoldi. Mana tuyalar o‘tishib yuribdi. Tuyachisi qayerda ekan! Har holda shu atrofda yurgandir.

Shu payt yaylovnning narigi chekkasida yurgan odamning qorasi ko‘rindi. Olisdan uning kimligini tanib bo‘lmasdi. Tuyachi uzun tayog‘iga suyangan holda, ortidagi yuk ortilgan tuyasini tizginini ushlab, qosh ustiga bostirib olgan telpagi ostidan kelayotgan onaning yaqinlashib kelayotganini bilmay bamaylixotir kuzatib turardi. Nayman ona tuyachiga yaqin kelib, uni o‘z o‘g‘li ekanini tanidi-yu, tuyasidan qanday tushganini sezmadni. Yiqilib tushdimi, ag‘darilib tushdimi shu topda, onaga buning ahamiyati yo‘q edi.

– O‘g‘ilginam, qarog‘im, seni izlamagan joyim qolmadi. – Ona o‘g‘li tomon talpindi.

– Men seni onagman.

Shu payt ona bo‘lgan voqeani darhol tushundi-yu, depsinib qichqirganicha yig‘lab yubordi.

Alam va dahshatdan lablari dirillab, shuncha urinsa ham, o‘zini qo‘Iga ololmadi. Ona yiqilib tushmaslik uchun, loqayd o‘g‘lining yelkasiga yopishib olib faryod chekar, ko‘z yoshlari selday oqardi. Ona bo‘zlab yig‘lar ekan barmoqlari orasidan farzandini tanish nigohlari qiyofasiga boqar, uning o‘ziga nigoh tashlashini kutar va meni tanib qolar deb umid qilardi. Axir o‘zini tuqqan onasini tanib olish qiyin emas-ku. Biroq onasi kelgani, unga har doim va har kuni kelib ketib xabardor bo‘lib, zarracha ta’sir qilmasdi. U hatto onasiga:

– Kimsan?

– Nega yig‘layapsan? – ham demadi. Ma’lum lahzalardan so‘ng tuyachi onaning qo‘llarini yelkasidan surib tashlab, ustida yuki bor tuyasini yetaklaganiga odimlab ketdi. Nayman ona bukchayib o‘tirib qoldi. Xo‘rsinib-xo‘rsinib yig‘ladi va shu o‘tirishida yuzini changallaganicha uzoq o‘tirib qoldi. So‘ng bor kuchini yana to‘plab o‘zini xotirjam ko‘rsatishga urinib Manqurt o‘g‘li tomon yura boshladni. Manqurt hech narsani ko‘rmaganday, hech narsani bilmaganday, pinagini

buzmasdan kiyib olgan telpagi ostidan ma'nosiz qarab turardi. CHo'lda qorayib, dag'allashib, ketgan yuzida hiyol jilmayish paydo bo'lди. Ammo ko'zлari avvaliday dunyoni tark etgan kishining ko'zларидай loqayd boqardi.

– O'tir gaplashamiz, – dedi og'ir xo'rsinib ona. Ular yerga cho'kdilar.

– Meni tanimayapsanmi? – so'radi ona.

Manqurt «yo'q» deganday bosh chayqadi.

– Oting nima?

– Manqurt – dedi u.

– Seni hozir shunday deb atashadi. Asli ismingni eslab ko'rchi? Manqurt jim goldi. U asli ismini eslab ko'rishga harakat qilib ko'rdi, qynalganidan qoshlari ustida ter tomchilari paydo bo'lди, ko'z o'ngini tuman qoplaganini ona ko'rib turardi. Ammo qarshisida qandaydir to'siq paydo bo'lди. Uni yengib o'ta olmadi shekilli.

– Otangni ismini bilasanmi? O'zing kimsan, el yurting qayerda, qayerda tug'ilganigni bilasanmi?

– Yo'q, – Manqurt hech narsani tushunmasdi, hech narsani eslay olmadi.

– Hali shunchali ahvolga solishdimi seni, – pichirladi ona najotsizlikdan lablari titrab g'am-g'ussayu qaxr-g'azabdan o'zini tuta olmay yana qaytatdan o'ksinib-o'ksinib yig'ladi. Onaning ohu firog'iga Manqurt pinagini ham buzmadi.

Abdulla Qahhor

DAHSHAT (Hikoyadan parcha)

Unsin xuddi dadasidan katta hayitlik olib bozor boshiga ketayotgan yosh boladay chopqillab qarshisidan esayotgan shamolga so'z bermay, ba'zan irg'ishlab borar edi, biroq go'riston ko'chasiga burilib, salobat bilan tebranayotgan qop-qora keksa chinor ostida oqarishib turgan sag'analarни, belgisiz zulmatni ko'rganida yuragi uvishdi-yu, zovur ko'prigidan o'tib, ikki qadam qo'yaganicha to'xtab qoldi. Dahshat uning yuragiga rahna soldi. Uning eti jimirlashib, sochi boshidagi ro'molni bir qarich ko'targandy bo'lди.

Lekin shu ondayoq xuddi o'likdan qo'rmasligini birovga pisanda qilayotganday baqirib «O'likni joni yo'q! O'likni joni yo'q!», deb olg'a intildi, shu yugorganicha chinor ostidagi onhazratim sag'anasi oldida to'xtadi, ichida: «Ko'pi ketib, ozi qoldi», deb suyundi. Biroq uning suyungani behuda edi. Hamma narsani oliptiyu, eng zaruri – o'tin esidan chiqibdi! Unsin paypaslab qo'liga ilingan narsani etagiga soldi, qamish, yantoq, giyoh yuldi. Qo'llari qonab ketganini ham payqamadi. O't yoqdi. O't chirsillab gurkiradi. Uzoq yaqinda do'ppayib turgan go'rлar, xuddi birov go'mni tuprog'ini ko'tarib chiqayotganday harakatga keldi. Hayal o'tmay nimadur kelib Unsinni yelkasiga minib oldi. Unsin yelkasiga nihoyat og'ir bir zarb bilan urilganday seskanib ketdi-yu, yiqilmadi. Oyoq uzra turib hushidan ketdi. Oradan qancha vaqt o'tganini bilmaydi, ko'zini ochib qarasa Maymun. Dodxoni maymuni!

Unsin go‘ristondan chiqib, katta yo‘lga chiqib oldi. Yarim yo‘lga yetganda chap qo‘liga qattiq og‘riq kirganini sezdi. Og‘riq qumg‘onni eslatdi. Chap qo‘lida qumg‘on bor edi, qani? Unsin bir to‘xtadi-yu, choynakni ikkala qo‘li bilan bag‘riga bosib, darmoni yetguncha jadalladi. Qo‘lidagi choynak tobora og‘irlashib borar edi.

Unsin Nodirmohbegimning og‘ir eshigini zo‘rg‘a ochdi, ostonadan o‘tib, bir necha qadam bosganidan keyin, holdan toyib cho‘kkaladi va ne mashaqqat bilan intilib, jo‘magidan choy oqib bug‘lanayotgan choynakni sandalning bir chekkasiga qo‘ydi, umrlik orzusi ushalganday hordig‘i chiqib, o‘zini yerga tashladi.

Sandalda o‘tirib pinakka ketgan dodho uyg‘onib tamshandi, boshini ko‘tarib Unsinni ko‘rdi-yu «jon berayotibdi» deb o‘yladi, shekilli, undan ko‘zini uzmay sekin o‘rnidan turdi, huddi o‘lim xavfidan qochganday, o‘zini eshikka urdi. Unsin hushidan ketgan ekan ko‘zini ochib qarasa, tepasida Nodirabegim yig‘lab o‘tiribdi. Unsinning o‘ng ko‘zi mamataloq bo‘lib shishib ketgan.

Unsin Nodirabegimga ko‘zi tushgan zamoni undan dodhoning lafzi-lafz ekanini so‘ramoqchi bo‘lgan edi, uning ahvolini ko‘rib, eshitilar-eshtilmas:

– Sizga nima bo‘ldi? – dedi. Nodirmohbegim Unsinning savoliga javob bermadi, tovush chiqarmay yana ham qattiroq yig‘lab, uning boshini siladi, yuzini yuziga qo‘ydi.

– Menden qaytmasa xudodan qaytsin, endi Garjiravonga ketarmikanman?

– Ketasan, – dedi Nodirmohbegim yig‘lab, – sal o‘zingga kelgin ketasan...

Unsinning chaqnab ketgan ko‘zlarida yosh yiltiradi.

– Men tuzukman... Peshingacha tuzalamani, jo‘nasam bo‘ladi...Gajiravonga odam yuborsangiz... Ota, ona borishimni eshitsa, suyunsa.

Lekin Unsin peshingacha yetmadi, uzildi.

Odil Qayumov

DILBAR
(Hikoyadan parcha)

Bugun ham Dilbar odatdagiday azonlab turib hovliga chiqdi. Yuz qo‘lini yuvdi.

Qish chillasi: Achchiq izg‘irin Dilbarning yuzini achitardi. U samonxonadan bosib-bosib bir savat samonni oldida hovuz bo‘yiga chiqib ketdi. Dilbar tosh bilan muzni urib yorar ekan.

– Dilbar, ha Dilbar! – deb jahl bilan chaqirgan Saodat otinning ovozi eshitildi. Dilbar muzlab ketgan qo‘llarimi qo‘yniga suqub yugurib ichkariga kirdi va:

– Ha ayajon, – dedi unga tikilib.

– Nima qilyapsan?

– Tert.

– Avval samavorga o‘t tashlab yubor bosh yuvaman. Senga qachongacha o‘rgataman... Bugun iftorga borishimni bilmaysanmi?

– Mulla amakim o‘rningdan turgach avval qo‘ylarga qara deydilar, siz bundoq deysiz, – deb samovarni olib eshikka chiqayotgan edi.

– Nima deb ming‘irlayapsan, baxting qaro bo‘lgur... Avval mening aytganimni qilgin juvonmarg, – dedi.

Nafasi ichiga tushib Dilbar samovarni ko‘tarib hovliga chiqdi va unga o‘t tashlab yubordi-da, yana hovuz bo‘yiga chiqib ketayotgan edi.

– Sandalning kulini kim oladi, qavoq tumshug‘ingni osiltirmay o‘lgur, – dedi g‘azab bilan.

Dilbar so‘zon sovuqdan zirqiragan barmoqlarini og‘ziga tiqib sekingina kursi oldiga qayta o‘tirdi-da tancha kullarini ola boshladi. Xo‘rligi kelgan Dilbar ko‘ziga jiqla yosh oldi va o‘pkasi to‘lib tovushsiz piq-piq yig‘lay boshladi.

– Bekordan-bekorga nimaga yig‘laysan oting o‘chkur, yo birov seni uryaptimi?

Dilbar yig‘idan o‘zini to‘xtatolmas edi.

– Saodat otin g‘azab bilan engashib Dilbarning qulog‘ini yaxshilab buray boshladi.

– Sen kimga zarda qilyapsan. Nima deb g‘udurlayapsan. YO qorning nonga to‘yib qoldimi? Huv yer yutsin seni... Seni asragandan it asragan yaxshiroq edi. Hu bo‘shashmay bo‘yning go‘rda chirisin zotipas itvachcha.

Dilbar olovi chiqqan qulog‘ini hovichlab ko‘z yoshlarini artganicha asta o‘rnidan turdi va yana yumushini qilgani hovuz bo‘yiga chiqib ketdi.

Maqsud Qoriyev

**SPITAMEN
(Romandan parcha)**

Spitamen yosh boladek pishillab uxlamoqda. Odatda oyoq uchida xonaga kirib, uning tepasiga kelib to‘xtadi. Qarorgohning to‘rt chekkasiga qo‘yilgan mash‘alaning faqat bittasigina miltillab yonmoqda.

Ayol eriga termuldi. Uning qop-qora, baquvvat sochlari patila-patila bo‘lib yotar, yuzlariga qandaydir kulgi iz solgandi. Nima, undan kulayotibdimi? Na iloj, yovuz niyatli odamlar buloqdek tiniq, musaffo muhabbitiga og‘u soldilar. Mish-mish gaplarga avvaliga ishonmadni. Axir Odatidaning qalbi, taqdiri Spitamen bilan abadiy birlashib ketgandek edi... Lekin endi ana shu sevgiga rahna solindi. Bu ham yetmaganday farzandlarining hayoti ham qil ustida.

Odatida yana erining yuzlariga uzoq termuldi. «Nahotki shu bugun ham qal‘aga, ma‘shuqasi yoniga borib kelgan bo‘lsa?!» Noyob sevgi shafqatsiz nafrat bilan almashingandi. «Yo‘q, yo‘q, endi orqaga qaytish yo‘q...».

Odatida ko‘ylagi ichiga yashirgan shamshirni oldi-da, bir zarb bilan Spitamennenning kallasini uzib tashladi. Erining gavdasi bir silkinib tushdi... Chamasi, u turmoqchi bo‘lardi. Lekin bu intilish uzoqqa cho‘zilmadi, ag‘darildi.

Sarkardaning ko‘zлари баqraygancha qolgan, og‘zi kappa-kappa ochilardi. U nimalardir demoqchi bo‘lardi...

– Boshni mana bu ro‘molga o‘rab ol, – dedi Odatida xizmatkoriga.

Ular yarim kechadan oqqanda bargohdan chiqishdilar-da, Iskandar qarorgohi tomon yo‘l oldilar.

Shirin uyquda yotgan podshohga go‘zal bir ayol yo‘qlayotganini xabar qilishdi. Jahongirning hayotida bunday hollar tez-tez bo‘lib turardi. U shoshilmasdan o‘rnidan turib, ayol huzuriga chiqdi. Ayolning vajohati unga yoqmadi.

– Kimsan? – so‘radi Iskandar.

Odatida Iskandarga javob berish o‘rniga orqasiga qarab:

– Antik, bu yoqqa kir, – deb eshik tashqarisida turgan qulni chaqirdi.

– Qaranglar, Antik, kim o‘zi?! – Iskandar hech nimani tushunmay qarshisida turgan so‘g‘d ayoliga tikildi.

– Bemavrid qanday sovg‘a keltirding, yovvoyi ayol?

– Spitamenning boshi!

Ro‘molga o‘ralgan kallani ko‘tarib qul kirdi.

– Spitamenning boshi degin?...

– Spitamenniki, – dedi qul shoshilib.

– O‘zing kimning qulisan?

– Spitamenning...

– Anavi ayol-chi?

– Spitamenning suyuklisi.

– La’nat bo‘lsin senlarga... Suyukli bo‘lmay o‘l!... Alvasti...

Uning ko‘z oldi qorong‘ilashgan, yuragida qandaydir vahm paydo bo‘lgandi. Yana qarshisida turgan qotil ayolga razm soldi.

– Uni sevarmiding?

– Jonimdan ham ortiq sevardim.

– Bo‘lmasa nega o‘ldirding?

– Azbaroyi sevganimdan...

– Tushuna olmadim? – taajjublanib so‘radi Iskandar.

– Tushunmaysan, tushunishga qodir ham emmassan!...

Iskandar gangib qoldi. Shuncha jahongashtalik qilib, bunchalik mulzam bo‘lmagandi.

– Yo‘qoting ko‘zimdan bu jodurgarni! O‘z xo‘jasiga hiyonat qilgan qulning kallasi olinsin! Essiz Spitamen... Muhorabada o‘lishi kerak edi!

– Hammasiga sen aybdorsan! Odatidaning ovozi eshitildi. Mulozimlar umi sudragancha olib chiqib ketdilar.

Gogol

**TARAS BULBA
(Qissadan parcha)**

Kazaklar hech tutqich bermay olti kungacha dalama-dala, pastham yo'llar bilan qochedilar. Otlar bu chopishga zo'rg'a chidash bersalar ham, har qalay kazaklarni qutqazdilar. Ammo Pototskiy bu gal zimmasiga yuklangan vazifasini yaxshi ado qildi: kazaklarni sira qo'ymasdan hormay-charchamay quvalab berdi va Dnepr daryosi bo'yida ularga yetib oldi. Bunda vayron bir qo'rg'on bor edi. Bulba shu qo'rg'onga kirib oldi.

Dnepr daryosining labida baland tosh tepe ustidagi bu qo'rg'onnинг yiqilgan devorlari pastdan yaqqol ko'rinish turar edi. Tojdar getman Pototskiy Tarasni ana shu qirga qaragan tomondan o'rab oldi. Kazaklar g'isht bormi, tosh bormi otib to'rt kungacha olishdilar. Biroq kuchlari qolmadni, o'q-dorilar, ovqatlari ham sob bo'ldi; bundan keyin Taras o'zini dushman ichiga urib, o'tib ketishga qaror qildi. Kazaklar darvoqe o'tib ham ketardilar, yildirimdek uchar otlari yana bir daf'a vafodorlik ko'rsatsalar ham ajab emas edi, biroq juda jonu jahdlari bilan ot chopib ketayotganlarida Taras to'satdan: «To'xta! Trubkam tushdi! Trubkam dushmanga o'ja bo'lmasin!» deb qichqirib qoldi. Keksa ataman suvda bo'lsin, quruqda bo'lsin, urushda bo'lsin doim yonida olib yuradigan trubkasini engashib o't ichidan qidirib turgan bir paytda bir gala dushman uning azamat yelkasidan tutdi. Bor quvvatini yeg'ib bir zo'r urib, silkinib ko'rdi, lekin avvalgi kuchi qolmabdi, burungidek yopishgan dushmanlarni to'zitib yubora olmadi. Azamat mo'ysafid chol: «Qarilik qursin, qarilik!» dedi-da, yig'lab yubordi. Oz emas, ko'p emas, birdaniga o'ttiz kishi qo'l-oyog'iga yopishdi. «Qo'lga tushdingmi bachchag'ar, endi bu itga beriladigan jazoni o'ylab topish kerak» der edilar. Xullas, getmanning roziligi bilan olamon oldida uni tiriklayin o'tda kuydirishga hukm qiladilar. Shu yerning o'zida yalang'och bir daraxt bor edi, zanjirlarga bog'lab, shu daraxtga osdilar, ikki qo'lini mixladilar; keyin daraxt tagiga o'tin to'play berdilar. Ammo Tarasning o't bilan ishi yo'q, boyoqishning ikki ko'zi dushman bilan qochib ketayotgan kazaklarda edi.

Azamatlar, tezroq daraxtzor orqasidagi tepalikka chiqib olinglar, u yoqqa bular borolmaydilar! – deb qichqirar edi u.

Biroq shamol uning so'zlarini boshqa yoqqa olib ketdi. Chakalak orqasidan chiqib kelgan to'rt qayiqning tumshug'ini ko'rib qoldi va yana butun kuch-quvatini yig'ib bir baqirdi.

Azamatlar, suv bo'yiga tushinglar. Daryo bo'yida qayiqlar turibdi, hammasini olib ketinglar.

Bu gal shamol o'ngdan kelib, uning so'zlarini kazaklar aniq eshitdilar. Ammo bergen bu maslahati uchun kallasiga to'qmoq yedi; boshi aylanib ko'zi tinib hamma yoq ostin-ustin bo'lib ketdi.

Kazaklar jonlari boricha qochedilar. Hammalari bir nafas to'xtab: «O'rtoqlar bo'lganicha bo'ldi!» dedilarda, qamchilarini yuqori ko'tarib bir talpindilar... Ilondek cho'zilib jardan sakrab o'tdilaru, to'g'ri Dnepr daryosiga kirib ketdilar.

To'qmoq zarbidan bexush bo'lib qolgan Taras Bulba endi andak hushiga kelib daryo tomonga boqsa, kazaklar qayiqlarga o'tirib suzib ketyaptilar.

Og‘aynilar, xayr! Meni yodlab turinglar kelasি ko‘klamda yana kelib, yana bir sayil qilib ketinglar!

Tagidagi o‘t alangalab oyoqlariga, daraxtga tutashib bormoqda edi... Ajabo, rus kuchini yengishga qodir bo‘lgan kuch, o‘t, azob alamda bormi?!

Lev Tolstoy

URUSH VA TINCHLIK
(Romandan parcha)

Pyer qo‘rqqanidan es-hushini yo‘qotib, irg‘ib o‘rnidan turdi-yu batareya go‘yo atrofidagi barcha daxshatlardan asrovchi birdan-bir boshpana bo‘lganday, o‘zini orqaga, o‘sha yoqqa urdi. U okopka tushayotgan chog‘da batareya o‘q uzilmayotganini sezdi, lekin kimlardir batareya atrofida bir nima qilayotgan edi. Bular kimlar ekanligini anglashga Pyer fursat topolmadi, starshiy polkovnik orqasini Pyerga o‘girib xuddi okopning ichidagi bir nimaga qarayotganday tuproq uyum ustida uzala tushibyu yotganini bir necha kishi uning e’tiborini tortgan bir soldatning qo‘lidan ushlab turganini va bu soldat qochib qutulishga intilib «Birodarlar» deb baqirayotganini va yana ollanechuk g‘alati narsalarni ko‘rdi. Biroq uzala tushib yotgan polkovnik o‘lik ekanini «Birodarlar» deb qichqirgan soldat asir ekanini, ko‘z oldida boshqa bir soldat orqasidan nayza yeb o‘lganini fahmlab olishga Pyer hali ulgirolganicha yo‘q edi. U okopga yugurib kirishi bilanoq egnida ko‘k shinel, o‘zi ozg‘in, rangi zaxil, aft-basharasи terga pishgan bir odam qo‘lida qilich bilan allanimalar deb qichqirib unga tashlandi. Pyer beixtiyor o‘zini zarbadan saqlab unga tashlandi, qo‘llarini olg‘a cho‘zdi-da, bir qo‘li bilan bu odam keng yelkasidan ushlab ikkinchi qo‘li bilan tomog‘idan bo‘g‘ib oldi. Ofitser qilichini qo‘yib yuborib, Pyerning girboniga yopishdi. Ikkalasi ham vahimaga to‘lgan ko‘zlari bilan bir necha daqiqa bir-birining basharasiga qarab qoldi, chunki ikkalasi ham nima qilayotganini va nima qilish kerakligini bilmay, hangu-mang bo‘lib qolgan edi. Ikkovi ham o‘zicha: «Men asir tushdimmi, yo bu meni asir oldimi?» deb o‘ylar edi, lekin fransuz ofitser asir tushganiga ko‘proq ishonganga o‘xshardi, chunki Pyerning jon holatda kuchga kirgan qo‘llari uning bo‘g‘zini borgan sari mahkamroq bo‘g‘moqda edi. Fransuz bir nima demoqchi bo‘lgan edi, biroq shu choq bularning boshi osha to‘p o‘qi chiyillab o‘tdi va fransuz ofitseri shu qadar tezlik bilan boshini egdiki, Pyerning nazarida uning kallasi tanidan judo bo‘lganday tuyuldi. Pyer ham ofitserni qo‘yib yuborib boshini egdi. Fransuz kim kimga asir tushganligi haqida bosh qotirib o‘tirmasdan, orqaga batareyaga qarab yugurdi. Pyer esa o‘lgan va yarador bo‘lganlarga qoqilib surtilib tepalikdan pastga qarab yugurdi. Biroq u tepalikdan tushar-tushmas qarhisidan aralash-quralash, qoqilib, surtilib, qiy-chuv ko‘tarib batareyaga tomon chopqillab kelayotgan rus soldatlariga ro‘baru kelib qoldi.

Batareyani bosib olgan fransuzlar qochib ketishdi. Bizning askarlarimiz «ura» deb qichqirib fransuzlarni qurshab olgan, batareyadan shu qadar uzoqqa uloqtirib tashlashdiki, ularni to‘xtatish amrimahol edi. Asirlarni, shu jumladan,

yarador bo‘lgan va ofitserlar qurshab olgan fransuz generalini batareya oldidan olib ketishdi. Pyerga tanish va notanish bo‘lgan, jon azobida afti-basharalari o‘zgargan rus hamda fransuz soldatlari batareya oldidan o‘tib ketishdi, yurishga majoli yetadiganlar o‘zi sudralib borar, majoli qolmaganlarni zambilga solib ko‘tarib olishgan edi. Pyer bir soatdan ko‘proq vaqtini o‘tkazgan tepalikka chiqdi, uni o‘z oilalari a’zosidek qabul qilgan jangchilardan nom-nishon topolmadi. Tepalikda Pyer tanimaydigan o‘liklar juda ko‘p edi. Lekin Pyer bularning ba’zisini tanidi. Yoshgina ofitserta hamon qo‘silib tuproq uyumi ustida, okop chetida qonga belanib o‘tigan edi. Yuzi qip-qizil soldat hamon jon bermoqda, lekin uni olib ketishga hali ulgurganlari yo‘q.

Pyer pastga qarab yugurdi. U jang maydonidan olib ketilayotgan qator-qator zambillar orqasidan ergashib borarkan, o‘z-o‘ziga: «yo‘q, endi ular bas kelishadi, endi o‘z qilmishlardan o‘zлari dahshatga tushadi,» – der edi.

Biroq yuzini tutun qoplab olgan quyosh hali xiyla baland oldinda, ayniqsa so‘lda, Semenovskoye tepaligida tutun ichida qandyadir bir narsa jo‘sh urib qaynamoqda, miltiqlarning qasir-qusuri, to‘p-to‘pxonalarning gumburlashi bosilish u yoqda tursin, balki, xuddi so‘nggi kuchini yig‘ib joni boricha qichqirayotgan kishi singari borgan sari kuchayib, avjiga chiqmoqda edi.

Rakitina Smirnova

**ABU ALI IBN SINO
(Romandan parcha)**

Suvoriyalar yaqinlashganda Husayn razm solib qarasa, ular ilvosin emas, ikki otda kimnidir olib kelishardi. Husayn chopgancha borib Solihning oppoq oqarib ketgan yuzlarini ko‘rdi, uning ko‘zлari yumuq edi. Husayn dastlab uni o‘lgan deb gumon qildi, biroq o‘rtog‘ining yengil ingraganini eshitib, bu fikrdan qaytdi.

Mahmud otdan tusha solib, akasiga voqeа qanday ro‘y berganini uqtira ketdi.

– Ot ariqdan sakraganda Soliq yiqlilib tushdi. Uning oyog‘iga bir narsa bo‘ldi shekilli, nima qilishni ham bilmayman. Husayn! Husayn! Nima qilamiz? Qattiq uh tortib boshni ushladi Mahmud. – Uning oyog‘iga bir qarachi, Husayn, balki nimaligini bilarsan. Axir, sen ilmi tashrihga oid narsalarni ko‘p o‘qirding-ku!

Husayn yarim hushsiz yotgan o‘rtog‘iga qarab o‘yga toldi.

– Qanday qilib bunga yordam bersam ekan.

– Menga qara, – dedi Husayn xizmatkorlar boshlig‘iga. – Soliq mingan otni oborib bir chetga bog‘la, unga sirayam suv bera ko‘rma, faqat ikki-uch hovuchdan sho‘r arpa yedir. Eshityapsanmi? Ehtimol o‘shanda xo‘jayiningni davolay olarmiz.

Husayn o‘ylagan yo‘l qaltis edi, ammo Solihning endigina yetib kelgan otasi o‘g‘lining og‘ir ahvolini ko‘rib, bu tavakkalga rozi bo‘ldi.

Kechasi bilan hayajonlanib uxlamay chiqqan Husayn ertalab xizmatkorlarga Soliqni ko‘tarib kelib, otga mindirib qo‘yishni buyurdi. Yigitchaning nolishlari va o‘zidan ketib qolishga qaramay, xizmatkorlar buyruqni bajo keltirdi.

Tashvishdan rang-quti uchgan Husayn Soliqning oyoqlarini otning kechasi bilan ochiqib salqigan qorniga bog‘ladi. Keyin xizmatkorlarga, otga suv beringlar, deb buyurdi. Kamoli majoli qurigan ot svjni shunday ichdiki, qo‘yib bersa quduqni qurutgudek ko‘rinardi. Xizmatkorlar meshlarda to‘xtovsiz suv tashib turdilar. Suv ichgan sari otning qorni ko‘tarilib Soliqning oyoqlari asta-sekin kerilib, to‘g‘ilanib borardi. Husayn otning o‘ng tomonidan, o‘rtog‘ining chiqqan oyog‘i yonida turib, uni diqqat bilan kuzatib turardi. Otga yana ikki mish suv berishgach, u sonni xiyol bosgan edi, qirs etgan tovush eshitildi. Husayn xo‘rsinib yubordi: bo‘g‘in joyiga tushgandi!

Aleksandr Pushkin

QISHLOQI OYIMQIZ (Hikoyadan parcha)

Sharq tomonda tong shu‘la socha boshladi va oltin bulutlar turkumi go‘yo saroy ahli podshoni kutayotgandek, quyoshni kutayotganga o‘xshab ko‘rinadi: tiniq osmon, tong salqini, shudring, shabada va qushlarning sayrashlari Lizanining yuragini bolalik sevinchi bilan to‘ldiradi. U biron tanishining duch kelib qolishidan qo‘rqib, uchganday tez yugurardi. Uning yuragi qattiq tepa boshladi, sababini esa o‘zi ham bilmash edi. U sekin-sekin shirin xayollarga berila boshladi. U o‘ylardi... lekin, o‘n yetti yashar oyimqizning bahor tongida, soat otilarda, chakalakda yolg‘iz o‘zi nima to‘g‘risida o‘ylayotganini aniq belgilash mumkinmi? Birdan chiroyli bir ovchi it unga qarab hurib qoladi. Liza qo‘rqib ketadi va baqirib yuboradi. Shu paytda navnihol daraxtlar orqasidan ovchi yigit ko‘rinadi. «Qo‘rqma, nozanin, – dedi u Lizaga, – itim qopmaydi». «Yo‘g‘-e, barin, – dedi u, qo‘rqqansimon va uyalgansimon bo‘lib, – qo‘rqaman iting juda qopog‘onga o‘xshaydi. Yana menga o‘zini tashlamasin». Aleksey yosh qishloqi qizdan ko‘zini uzmay qarardi. «Agar qo‘rqsang, men seni kuzatib qo‘yaman, – dedi u Lizaga. – Yoningda borishga unaysanmi?»

«Kim senga xalaqit beradi? – deb javob qildi Liza. – Yo‘l elniki, xohlagan tomonga yurish mumkin». «O‘zing qayerdansan?». «Priluchinadanman, temirchi Vasiliyning qiziman, qo‘ziqorin terib yuribman. Senchi barin? Tugilovalikmisan deyman?» «Huddi shunday, – deb javob berdi Aleksey, – Men yosh barinning xizmatkori bo‘laman». Aliksey o‘zini qiz bilan teng qilib ko‘rsatmoqchi edi. Ammo Liza unga qarab, kulib yubordi.

«Aldaysan, – dedi u, – esi pastga ishing tushgani yo‘q, ko‘rib turibmanki o‘zing barinsan». «Nega sen bunday deb o‘ylaysan?». «Axir hammasi ko‘rimib turibdi-ku». «Nimadan?». «Barinni xizmatkordan ajratib bo‘lmaydimi? Kiyiming ham unday emas, gaping ham bo‘lakcha, itni ham bizdaqangi chaqirmaysan».

Liza tobora Alekseyga yoqib borardi. U chiroyli qishloq qizlari bilan betakalluf munosabatda bo‘lishga odatlanib qolganidan Lizani quchoqlamoqchi bo‘ldi. Lekin Liza sakrab o‘zini chetga oldi va birdan shunday jiddiy va sovuq tusga kirdi-ki, Aleksey kulib yubordi. Aleksey uning qo‘lidan ushlab qoldi.

«Jonginam, oting nima?» «Akulina, – deb javob berdi Liza barmoqlarini Alekseyning qo‘lidan tortib olishga urinib, – qo‘yvor-e, barin, uyimga ketishim kerak». «Men axir sen bilan, albatta tag‘in ko‘rishmoqchiman». «Men bo‘lmasa tag‘in bir kuni qo‘ziqorin tergani kelarman bu yerga». «Qachon axir?» «Xohlasang ertaga». «Ha, ha, sen meni aldamaysan-a?» «Aldamayman». «Ont ich». «Xo‘p xudo ursin, kelaman».

Xalq og‘zaki ijodi

**TO‘MARIS HAQIDA AFSONA
(Rivoyatdan parcha)**

Kaspiy dengizning kun chiqish tarafida qush uchib o‘ta olmaydigan bepoyon cho‘l va qirlarda massagetlar yashar ekanlar. Eron podshosi Kir ularning yerlarini bosib olmoqchi bo‘lib, safarga otlanibdi....

U zamonlarda massagetlarga To‘maris degan aqlli, dono bir ayol boshliq ekan.

Kir To‘marisni hiyla bilan o‘ziga bo‘ysundirmoqchi bo‘libdi. To‘marisni eri o‘lib ketganini eshitgan Kir uni o‘ziga xotin qilib olish yo‘li bilan massagetlar yeriga ega bo‘lmish rejasini tuzibdi. Shu mudao bilan u To‘marisga sovg‘alar, elchi sovchilar yuboribdi. Ziyarak To‘maris makkor podshoning yovuz niyatini sezibdi. Podshoga xotin emas, massagetlar yurti kerakligini payqabdi va sovchilarni qabul qilmadi.

Kir hiyla-nayrangdan ish chiqmaganini ko‘rgach, asl maqsadini oshkor etibdi. Arang daryosi tomon yurish qilibdi. U sollardan ko‘prik yasatib, behisob qo‘shini va asbob-anjomlarini sollarga solib, daryoning narigi qirg‘og‘iga o‘tkazshi chorasi ko‘ribdi.

To‘maris uning hamma ishlaridan xabardor ekan, tezlik bilan unga chopar yuborib, shu so‘zlarni yetkazibdi:

«Ey midiyalik maqtanchoq podsho! Bu niyatingdan qayt, chunki bu qilayotgan ishlaringdan o‘zingga foyda yo zarar tegishini bilmaysan. Tinchlik va osoyishtalik bilan o‘z yurtingda hukmronlik qil, bizning yurtimizni o‘zimizga qo‘yib ber. Ammo biz bilamizki, sen tinchlikni xohlamaysan, shu sababli, basharti maslahatimizga kirmsang, massagetlar bilan to‘qnashishni istasang ko‘prik yasayman deb ovora bo‘lib o‘tirma.

Bizga aytsang, biz senga halaqit bermay, daryodan 3 kunlik yo‘lga ko‘chib ketamiz. Bordi-yu agar biz bilan daryoning o‘zing turgan qirg‘og‘ida urushmoqchi bo‘lsang, uni ayt bunga ham biz rozi, faqat nomardlik qilma!».

Bu dadil gaplarni eshitib Kir sarosimaga tushibdi, shoshilinch sur’atda Eron sardorlarini to‘plabdi, ularni voqeadan xabordor qilib maslahat so‘rabdi. Ko‘pchilikning fikri To‘marisni Eronga keltirib jang qilishi ustida to‘xtabdi... Qahri qattiq vaziri Kriz bu fikrga qarshi chiqibdi. Krizning maslahati bilan massagetlarga hiyla tuzog‘ini quribdi. Noz-ne’mat va ichkiliklarni muhayyo qilib,

eng yomon askarlardan bir to‘pini orqada qoldirib eng yaxshi askarlar bilan oldinga jo‘nab ketibdi.

Massagetlar ziyofat ustidan chiqib tayyor noz-ne’mat va sharoblardan boshini ko‘tarolmabdi. Eroniyalar qo‘shni qaytib kelib, ularning ko‘pini o‘ldiribdi, ba‘zilarini asir qilib olibdi. Asirlar ichida massagetlarning boshlig‘i bo‘lgan To‘marisning o‘g‘li Sporganiz ham bor ekan.

To‘maris o‘z o‘g‘li va askarlari voqeasidan xabardor bo‘lib, Kirga chopar yuborib shu so‘zlarini yetkazgan ekan.

«Ey midiyalik qonxo‘r Kir qilgan ishing bilan maqtanmay qo‘ya qol. Sen mening o‘g‘imni yuzma-yuz jangda yengganing yo‘q, uni makkorlik bilan sharob ichirib, qo‘lga tushirding... Endi mening nasihatimga kir, o‘g‘limni menga topshirib ziyon-zahmatsiz kelgan yeringga qaytib ket, massaget qo‘shnining 3 dan birini qo‘lga tushirganinig bilan o‘z elingda kerilib yuraver. Agar so‘zimga kirmasang massagetlar tangrisi – quyosh nomi bilan qasamyod qilamanki, men senday ochko‘zni qon bilan sug‘oraman».

To‘marisning o‘g‘li yosh Sporganiz esa ertasi hushiga kelib hamma voqeadan xabardor bo‘libdi. O‘z qilgan xatosiga pushaymon yeb, nomus kuchlilik qilib o‘zini-o‘zi o‘ldiribdi.

To‘maris Kayxusravga qarshi jang boshlabdi. Shiddatli jang boshlanibdi. Jang juda uzoq davom etsa ham hech kim jang maydonini tashlab chiqib ketmabdi. Axir pirovardida massagetlar yengib chiqibdi.

«Bir kam 30 yil saltanat taxtida hukm surgan Kirni o‘ldirishibdi».

Xidir Deryayev

QISMAT (Romandan parcha)

Uzuk qorong‘i tushganda hushiga keldi. Yuzlarida qon qotib qolgan. A’zoyi badani zirqirab og‘irirdi. Devorni paypaslab sekin o‘rnidan turdi. Hayot unga hozir har qachongidan ham bema’ni ko‘rinardi. Boya Omonmuroddan Berdi bilan Turdining o‘lib ketganini eshitganda ishongisi kelmagan edi. Ammo endi butun vujudi toptalgan, hayoti og‘uga aylangan shu damlarda, ularning vafoti chindan tuyulib ketdi.

«Butun umidim shulardan edi. Endi ulardan ham ayrilgan bo‘lsam, bu jahannamda nega yuribman? Nega?»

Uzuk bu dargohda bir daqqa ham qolishni istamadi. So‘nggi kuchlarini to‘plab dalaga chiqdi. Uzoqda Murg‘ob daryosi hal toshlarga urilib pishqirib oqardi. Uzuk qorong‘ida turtina-turtina o‘sha shovullagan tovush eshitilgan tomonga ketdi.

– Oyijon – deb pichirlardi u, – baxtsiz qizingdan rozi bo‘l oyijon! Men otam ketgan joyga ukam ketgan joyga ketaman. Hammasiz o‘sha yerda yana topisharmiz.

Daryo bo'yida Begmurodboyning qaroli To'rli poda boqayotgan edi. To'rli g'ira-shirada Uzukni ko'rib qoldi. Uzukning sochlari yeyilib yelkasini qoplab turardi. To'rli uni «ajina» deb qo'rqib qochmoqchi bo'ldi. Ammo «ajina» etagiga tosh terar: Berdijon bu dunyoda taqdirimiz qo'shilmadi, narigi dunyoda qo'shilarmikin, – deb o'zi bilan o'zi gaplashardi.

Oyijon, meni kechiring! O'limdan boshqa najot qolmadni menga.

To'rli taajjub bilan ajinaga qaradi. Bu orada o'n kunlik oy bulutlar orasidan suzib chiqqan edi. Qoya toshda turgan Uzukni To'rli endi tanidi, ammo so'z qotishga ulgurolmadi.

Uzuk bo'g'iq tovush chiqarib o'zini daryoga tashladi.

Boris Vasilyev

**TONGLAR EDI SOKIN BU YERDA
(Romandan parcha)**

Liza o'rmondan qanot paydo qilgandek, uchib borardi.

«Sen bilan keyin birga qo'shiq aytamiz, Lizaveta – dedi starshina. – Oldin jangovor buyruqni bajaraylik, keyin....»

Liza uning gaplarini o'ylar va tarang yuzlarida aks etib, qalbida uyg'onayotgan notanish qudratli tuyg'udan uyalib, jilmayardi. Liza starshina haqida xayol surib tanish qarag'ay oldidan o'tib ketib qoldi, botqoqqa yetib borgach tayoq yodiga tushdi, lekin orqasiga qaytgisi kelmadi. Bu yerda singan daraxtlar yetarli edi. U bitta yog'ochni tanlab oldi.

Loyqa suvgaga tushishdan oldin diqqat bilan qulqoq soldi. Keyin kir qilmaslik uchun yubkasini yechib botqoqqa qadam qo'ydi. Bu safar hech kim oldinda yo'l ko'rsatib bormasdi. Suyuq balchiq beliga yopishar, orqasidan ergashar, Liza esa qiyinchilik bilan, hansirab, tebranib, olg'a bosardi. Sovuq suvdan qaltirab, oroldagi ikki tup qarag'aydan ko'z uzmay odimlardi.

U orolchaga qanday chiqib olganini eslay olmasdi. Tizzalab, emaklab chiqdi, chirigan o'tlar ustiga muk tushdi-yu, yig'lab yubordi. U sovuqdan, yolg'izlikdan va jirkanch qo'rquvdan qaltirab piqillab yig'lardi. O'rnidan turdi. Ko'z yoshlari hamon chiqmasdi. Endi u bu yog'iga qanday ketishni mo'ljalladi.

Dam olmay, kuch to'plamay turib botqoqqa qadam qo'ydi.

Yurish qiyinlashdi, botqoq tizzaga chiqqa boshladi. Lekin qadam sayin narigi qirg'oq yaqinlashardi. Oldinda ulkan qo'ng'ir pufak ko'tarildi. Bu shu qadar kutilmaganda yuz berdiki, Liza beixtiyor o'zini chetga oldi. Oyog'i esa darrov tayanchni yo'qotib qo'ydi, yopishqoq bo'shliq ustida osilib qoldi va o'pqon yumshoq ombur bilan belini qisdi. Allaqaqchondan buyon to'planib turgan dahshat yuragida qattiq og'riq qoldirib, tashqariga sanchildi. Liza nima qilib bo'lsa ham o'zini tutib qolishi, so'rmoqqa bir amalab chiqib olishga urinib, butun og'irligi bilan tayoqqa tayandi. Quruq yog'och qimillab sindi. Liza suyuq balchiq ustiga yuz tuban yiqlidi. Zamin yo'q edi. Oyog'ini ohista, dahshatl ravishda, sekin pastga tortib borar, qo'llari balchiqni bekorga surar, Liza balchiq ichida bo'g'ilib

tipirchilardi. So‘qmoq esa yonginasida, bir qadam, yarim qadam narida edi. Lekin shu yarim qadamni qo‘yishning iloji yo‘q edi.

– Yordam beringlar! Yorda-a-m.

Bu dahshatli qichqiriq anchagacha jaranglab turdi Liza moviy, go‘zal osmonni anchagacha ko‘rib turdi. Xirillab, og‘ziga kirgan loyni tuflab toshlar va osmonga intilar, intilar va umidvor edi. Daraxtlar ostidan quyosh ohista suzib chiqdi. Uning nurlari botqoqqa tushdi. Liza quyoshning issiq, ertangi kunni va’da qilayotgan yorug‘ nurini so‘nggi marta ko‘rdi. U ana shu ertangi kun o‘ziga ham ato etishiga so‘nggi daqiqagacha ishonardi.

Anvar Muqimov

**KELIN
(Hajviy hikoyadan parcha)**

Risolat xola magazindan chiqquncha ariq yoqasida bir guruuh yoshlar paydo bo‘lib qolibdi. Kampir zinada to‘xtab gurung ahliga tikildi. Voy Masturabonuning o‘g‘li kelibdi. O‘smani o‘rtaga olib turishibdi mahalla yoshlari. Lekin yonidagi qiz kim bo‘ldi ekan? Ha, Shokirjonning qaylig‘i! Xuddi shunday «Qishloq qizlariga hushim yo‘q, shahardan o‘ylanaman, suyganim bor», degan ekan oyisiga. Risolat xola borib ular bilan so‘rashdi, Shokirjon o‘rtog‘ini kampirga tanishtirdi. «Kursdoshim BorY.» «Ha yaxshi o‘z tengingni topibsan», Risolat xola darrov davradan chiqdi. Dugonasi Mastura xoladan suyunchi olishga shoshildi. Mastura xola so‘rida nosvoiyning kayfini surib o‘tirardi.

Voy turing – dedi Risolat xola xovliqib, – Shokirjoningiz keldi qaylig‘i bilan. Mastura xola nosvoyini zarb bilan tufladi.

– Nimalar deyapsiz, qaylig‘i bilan qanaqa qaylig‘i bilan?

– Voy aylanay keliningiz bilan-da.

– Voy sho‘rim endi nima qilaman. Voy qo‘shnijon o‘zi kultirni bosh yalang sochini yelkasidan qirqib opti. Bir xil qizlarday ishtonsiz emas, pochasi tor qora shim kiyvogan.

– Yo‘g‘-ye unchalik emasdир. E, unaqasini opkemagandir siz har doim gapga gap qo‘shib gapirasiz qo‘shnijon.

– Voy o‘lay oshirgan bo‘lsam. Iymonimdan ayrilay. Mastura xola doka ro‘molini naridan-beri qayta o‘rab ko‘chaga otildi.

– Hoy, Masturabon bu alfozda bormang, – dedi Risolat xola dugonasining orqasidan yurib. – Xafa bo‘ladiya o‘zi kultirni oti Bo‘yra. Buyraxon ekan papiros chekib o‘tiribdi.

– Qariganda ko‘rgan bitta-yu bitta o‘g‘lim edi. Shokirjon tufayli el-yurtga osh beraman, dasturxon solaman degan edim. Savrinisoning nabirasini kelin qilaman degan edim. Shunday qizni qo‘yib shahar qizini, chekadigan kashandani kelin qilamanmi. Mahalla nima deydi? Oti ham bir xunuk Bo‘yra. Kampirlar xallaslab yetib bordilar. Mastura xola o‘g‘liga ham qaramay qizga yuzlandi.

– Sizmi Bo‘yro? – dedi to‘satdan.

Hamma qarab turardi.

– Buyra emas Borya, – dedi kimdir.

– Nima? – kampir ovoz kelgan tomonga qulog‘ini tutdi.

Risolat xola uning qulog‘iga baqirdi.

– Bo‘yra emas. Bo‘ri ekan.

– Bo‘ri! Ana endi meni yeysi bu urg‘ochi bo‘ri! Kutilmagan vaziyat qarshisida Borya dong qotib qoldi.

– Hoy oyi nimalar deyapsiz axir, – Shokirjon yig‘lamsiradi. – Axir bu o‘g‘il bola, kursdoshim oti Borya birga o‘qiymiz oyijon. Kampir yalt etib Boryaga qaradi.

– Voy o‘lmasam ko‘kragi yo‘q-ku. Voy o‘lmasam sho‘rim qursin, – Mastura xola uyalib qoldi. Odamlar orasidan Risolat xolani qidirdi. Risolat xola allaqachon juftakni rastlab qolgan edi.

Anton Chexov

**LATTA
(Hajviy hikoyadan parcha)**

Yaqinda men bolalarimning murabbiysi Yuliya Vasilyevnaga haqini berish uchun kabinetimga chaqirdim.

– O‘tiring, Yuliya Vasilyevna! – dedim.

– Sizga pul kerak bo‘lsa ham, soddadilligingizdan o‘zingiz so‘ragani uylasiz... qani o‘zaro hisoblashib chiqaylikchi. Biz sizning maoshingizni har oyga o‘ttiz so‘mdan gaplashgan edik.

Xo‘s-h-o‘s-h, siz biz ikki oy turdingiz... Demak sizga oltmish so‘m tegadi... Siz Kolya bilan yakshanba kunlari mashg‘ulot o‘tkazganingiz yo‘q, shuning uchun to‘qqiz yakshanbani olib tashlaymiz... Uch kun bayram bo‘ldi.

Yuliya Vasilyevna bordaniga qizarindi, ko‘ylak burmasini g‘ijimpladi-yu, lekin g‘ing demadi. Kolya kasal bo‘lib qolib, to‘rt marta dars bo‘lmadi, o‘sha kunlari siz mashg‘ulotni faqat Varya bilangina o‘tkazdingiz... Uch kun tishingiz og‘ridi, xotinim peshindan keyin uyga ketishingizga ruxsat berdi... O‘n ikki so‘m va yetti so‘m demak yana o‘n to‘qqiz so‘mni chiqarib tashlaymiz. Qoladi qirq bir so‘m. To‘g‘rimi?

Yuliya Vasilyevnaning chap ko‘zi qizarib, yoshga to‘ldi. Iyagi titradi, asabiylashib yo‘taldi, ammo g‘ing demadi.

– Yangi yil oldidan bir talinkacha bilan chashkani sindirdingiz. Buni ikki so‘m deylik, so‘ngra sizning beparvoligingiz natijasida Kolya daraxtga chiqib,

kamzilni yirtib tushdi, bu ham o'n so'm. Axir siz maosh olasiz, shularning ustidan nazorat qilib turishingiz kerak.

O'ninchиyanvarda mendan o'n so'm qarz oldingiz...

Men olganim yo'q, - dedi Yuliya Vasilyevna sekingina.

- Menda hammasi yozilgan. Qirq bir so'mdan yigirma yetti so'mni chiqarib tashlasak o'n to'rt so'm qoladi.

- Bekachingizdan faqat bir marta uch so'm olganman, xolos... Shundan boshqa pul olganim yo'q.

- Hali shundaymi? Men buni yozib qo'yмаган ekanman! O'n to'rt so'mdan uch so'mni chiqarsak - o'n bir so'm qoladi... Oling pulingizni jonim!

Pulni titroq qo'llari bilan olib, cho'ntagiga soldi.

- Mersi, - dedi pichirlab.

Men o'rnimdan sakrab turib, uy ichida yura boshladim, juda jonim chiqib ketgan edi.

- Nega menga mersi deysiz?

- Pulingiz uchun.

- Axir, pulingizni o'g'irlab o'tiribmanku, men sizni taladimku! Nega tag'in menga mersi deysiz?

- Boshqa joylarda menga shuni ham berishmas edi.

- Berishmas edi? Men sizga hazillashdim, sizga unutilmas saboq berdim. Men sizning sakson so'm pulingizni beraman, ana konvertga solib qo'yganman. Odam ham shunaqa latta bo'ladi? Nega haqingizni talab qilmaysiz? Nega tik turasiz? Bu zamonda odam o'tkir tishli bo'lish kerak.

U bo'shashib qoldi. Uning yuzidan «bo'lishi mumkin» degan ma'noni o'qidim.

Unutilmas saboq uchun undan kechirim so'radim-da qo'liga sakson so'm pulni berdim. U qo'rqa-pisa chiqib ketdi...

Uning ketidan qarab turib: bu dunyoda kuchli bo'lish oson ekan! - deb o'yladim.

O'tkir Xoshimov

MILIONER (Hajviy hikoyadan parcha)

Avvallari, milioner degani qanaqa odam bo'larkan, kechasi qo'rqlas qandoq uxlarkan, deb hayron bo'lardim. Bugun o'zim milioner bo'ldim. Yangi chiqqan kitobimga million so'm oldim. Bir vaqtlar besh yil mehnat qilib yozgan xuddi shunday kitobim chiqsa, o'n ming so'm olardim. Atigi o'n ming! Hozir esa jaraqlatib million sanab o'tiribman. Bir vaqtlar o'n ming so'mga atiga bitta mashina berardi. Hozir millionga yaraqlab turgan ikkita quling o'rgilsin velosipid olish mumkin. Avvallari o'n mingga bor-yo'g'i besh tonna go'sht berardi. Hozir millionga yigirmata tovuq beradi. Avvallari o'n mingga atiga o'nta to'y qilsa...

Eshiq qo‘ng‘irog‘i jiringlab, shirin xayollarimni to‘zishib yubordi. Chiqsam, sakkiz yoshlardagi bola. Qo‘lida kattakon so‘mka.

- Suv keyyakmi amaki? – dedi «r»ni yaxshi aytolmay.
- Qanaqa suv?
- Miniyol suvda.
- Voy shumtaka – ye! Chanqaganimni qayoqdan bildi bu.
- Kerak. – deyishim bilan sumkasidan bir shisha suv chiqarib eski lattaga hafsalal bilan artib menga uzatdi. Suvni cho‘lpillatib shishaning og‘zidan ichib qo‘yaqoldim. Bolakay ko‘zlarini lo‘q qilib.
- Ming so‘m – desa bo‘ladimi.
- Jahlim chiqib ketti.
- Chayqovchilik qilish yaxshi emas, – dedim nasihat qilib.
- Men sayqovchimasman amaki tadbiykoymen.
- O‘rgildim sendaqa tadbirkordan! Shu qilganingga bir adabingni bermasam! Sanab o‘tirgan o‘n ming so‘mliklardan birini uzatdim. Bolakay pulni olib uyoq-buyog‘ini o‘girib rosa tekshirdi. O‘ng cho‘ntagiga qo‘l suqqan edi. Bir pochka o‘n ming so‘mliklar ilashib chiqdi. Chap cho‘ntagidan besh ming so‘mliklarni chiqardi. Ko‘krak cho‘ntagidan ming so‘mliklarni oldi. Bitta besh ming to‘rtta ming so‘mliklarni erinmasdan sanab uzatdi.
- Yana suv keyakmasmi?
- Keyakmas! – dedim men ham beixtiyor «r» ni aytishga tilim kelishmay.
- Siz shoyiyimisiz amaki?
- Voy xuvoriyey! Kitob ham o‘qirkan-da bu. Men bolalarga yozmayman-da, yozsam senga berardim.
- Kitobmas. Zelyoni y boymi?
- Xayron bo‘ldim.
- Qanaqa «zelyoni»?
- Dollay boymi? U barmoqlarini ishqalab tushuntirdi.
- Dollar? Menda nima qiladi?
- Umuman senga dollarni nima keragi bor?
- Uch milyonim boy edi. Shuni dollayga almashtiyamoqchiman! – dedi.
- Eshikni qarsillatib yopdim. Narigi yoqda shishalarning sharaqa-shuruqi eshitiladi.

Said Ahmad

**KARNAYCHI
(Hajviy hikoyadan parcha)**

Muzeyni tomosha qilgani kelganlar «Muzey berk, remont» degan yozuvni o‘qib, qaytib ketaverishardi. Ammo soqoli ko‘ksiga tushgan, ikki lunji filning qulog‘iga o‘xshab osilgan bir chol eshikni ochasan, kirib karnayimni ko‘raman, deb ikki oyog‘ini bir etikka tiqib turib oldi. Qorovul tushuntirsa ham tixirlik qilib tushunmay turaverdi.

– Kiraman, ko'raman, vasalom!
Oxiri qorovul uni ichkariga kiritishga majbur bo'ldi.
– Boring, direktor bilan o'zingiz gaplashing.
Chol ichkariga kirdi. Direktor qog'ozlarga ko'milib nimalarnidir yozib o'tirardi. U boshini ko'tarib cholga qaradi.
– Keling, otaxon!
– Men Buvaxon karnaychi bo'laman.
– Juda soz, – dedi direktor. – Karnaychi chaqiranimiz yo'q edi-ku. To'y qilish niyatimiz ham yo'q.
– Buvaxon karnaychini bilmasang, dunyodan bexabar odam ekansan-ku.
To'yga emas, karnayimni ko'rgani keldim.

Direktor qoshlarini kerdil.
– Qanaqa karnay?
– Muzeyingda karnay bormi axir?
– Bor, – dedi direktor.
– O'sha mening karnayim bo'ladi. Ellik yil chalganman uni.
– E, shunaqa demaysizmi? Qani, o'tiring, otaxon.

Otaginang aylansin, gapimga ishon. Lunjim biron kun bekor turganini bilmayman. Kechasiyu kunduzi puflaganim-puflagan. Vodaqashqaning tepasiga chiqvolib shaharning to'rt tarafiga qarab bir puflardim, yo bafarmoni xudo, bu tomoni Xasti imom, bu tomoni Jarariq, bu tomoni Zangi ota, bu tomoni Yalang'och pirim alg'ov-dalg'ov bo'lib ketardi.

Inqilob bo'lgandan keyin ham bir kun bekor turganim yo'q. Qayerda metinka bo'lsa, qayerda yig'in bo'lsa Buvaxon akangning karnayi bilan lunji ish beraveradi. Hozirgi Sverlov teatri Yupatov serki edi. Katta majlislarga odam yig'ib bering, deyishdi. Tomga chiqib qadrdon lunjim bilan karnayimni ishga soldim. Bedabozordagi Dom dehqonga Butunitifoq oqsoqoli kelganlarida ham karnay chalib, odam yig'ib berganmiz. Toshkent atroflarida kolxozi tuzilib birinchi hosildan «Qizil karvon» qilib shaharga qovun-tarvuz olib kelingan. O'shanda ham Buvaxon akang karvon oldida Chig'atoy darvozadan to Eski Jo'vagacha tinmay karnayini vatillatib kelgan. O'shanda Oxunboboyev karnayimga lenta taqib qo'yganlar.

Tekstil kombinati ishga tushganda ham Buvaxon akang karnayini chalib, odamlarni ishga chaqirgan. Gidroistansa ochilganidayam, Selmash zovuti bitgandayam, qishloq xo'jaligi Vistavkasi ochilgandayam shu Buvaxon akang karnay chalgan. Budyonniy I.Rahmatni otga mindirganda ham Buvaxon akang istadionda rosa karnay chalgan.

Yigitlarimiz Gitlerning onasini Uchqurg'onidan ko'rsatib, g'alaba bilan qaytganlarida bir oy vokzalda qolib ketganman. Bu karnay Hamza bilan Xorazmdan to Qoraqlpoqqacha borgan. Bu karnay Muhiddin qori truppassi bilan Farg'ona vodisini aylanib Tamaraxonimni yo'rg'alagan.

«Xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi» unvonini har kimgayam beravermaydi. Usmon Yusupov bekordan-bekorga «BFK» nishonini ko‘kragimga taqib qo‘yarmidi?

Qo‘y, ukam, meni ko‘p javratma. Eshikni och. Qadrdon karnayimni bir ko‘rib ketay. Iloji bo‘lsa, ruxsat ber, bitta puflab qo‘yay.

– Yo‘q, otaxon, mumkin emas, muzeyning yonboshida tug‘uruqxona bor. Homilador xotin bola tashlab qo‘ymasin.

– Yuring, ota, o‘scha qadrdon karnayingizni ko‘rsatib qo‘yay. Chol oynavon javonda yashil duxoba ustiga yonboshlatib qo‘yilgan karnayini darrov tanidi. Ko‘zlar yashnab, beixtiyor, bormisan qadrdon, deb yuborganini o‘zi ham bilmay qoldi.

Said Ahmad

XANKA BILAN TANKA (Hajviy hikoyadan parcha)

Olimboy aka kelinini kutib olish uchun raisdan «Volga»ni so‘rab, qoq peshinda stansiyaga chiqdi. Poyezd kelib vagon eshididan o‘g‘li Tantiboy bilan kelinining qorasi ko‘rinishi bilanoq peshonasiga shart etib bittani tushirdi! Bay-bay-bay! Kelin degan shundoq, latta qo‘g‘irchoq bo‘ladimi? Oydekkina ekansan-ku, ola-bayroq kiyimlarga balo bormi? O‘zing-chi, homiladorsan, siporoq kiyinmaysanmi, qiztaloq!

Olimboy aka o‘zidan o‘zi g‘o‘ldirab, vagonga yaqin borishni ham, bormaslikni ham bilmay, kelinining «qaddi-qomati»ga mahliyo bo‘lib qotib turardi. O‘g‘li Tantiboy vagon zinasidan yubkasi torligidan tusholmay qiynalayotgan xotimini qo‘ltiqlab tushirdi-da, har biri sandiqdek-sandiqdek ikkita chamadonni arang sudrab, dadasi tomonqa yura boshladi. Olimboy aka ichida «e, diding qursin», dedi ensasi qotib. U, bu «bedavo»larni qishloq guzaridan qandoq qilib olib o‘taman, degan xayol bilan band edi. U o‘g‘lining oldida pisanda qilayotgandek qornini chiqazib, pista chaqib kelayotgan keliniga boshdan-oyoq razm soldi. Sochi erkakcha qirqilgan, ikki qulog‘ida rediskadek qip-qizil zirak, labini shundog‘am bo‘yaptiki, xuddi pomidor tishlab kelayotganga o‘xshaydi. Shimning pochasidek tor yubkaning yon tomoniga qatorasiga yigirmatacha qora tugma qadalgan. Bo‘ynida har biri yong‘oqdek keladigan jo‘n sariq munchoq. Yupqa kapron ko‘ylakdan yelkasidagi husunbuzarlari bemalol ko‘rinib turibdi. Olimboy akaning unga qarab turib, dod deb yuborishiga oz qoldi. O‘g‘ilchani – farzandi qobilni aytmaysizmi, oldida ikki bukchayib, pildiraganicha chamadon ko‘tarib kelyaptilar. E, sho‘ring qursin, adoyi tamom bo‘psan-ku!

Farzand ekan. U noiloj turqi-tarovati g‘uli-g‘uli tovuqqa o‘xshagan o‘g‘lining qarshisiga chiqib, quchoq ochib ko‘rishdi. Kelin unga qiraverib ipdek-ipdek ingichka bo‘lib ketgan qoshini kerib salom berdi. Kelinni hurmat yuzasidan mashinaning oldiga o‘tqazishdi. U yo‘lda: «Mashinani qachon oldinglar», deb qoldi. Chol o‘zini eshitmaganga solib, o‘g‘lidan kelinining ismini so‘radi.

– Hanifa, yangichasiga Xanka, – dedi Tantiboy «bizning xotin shunaqa» deb pisanda qilayotgandek, gapining oxirini jingalak qilib.

Kelinning ismi Olimboy akaga Xanka emas, Hangi bo‘lib eshitildi shekilli, bir sakrab tushdi.

– Biz eskichasiga Hanifa deyaveraylik, o‘g‘lim, qishloqchilik emasmi, bilgan undoq deydi, bilmagan mundoq deydi.

Kelin cholning gapiga hayron bo‘lib, yelka uchirib qo‘ydi. Chol o‘z o‘yi bilan o‘zi ovora edi. U qishloqdagi jamiki askiyabozlarning serqochiriq, serpayrovi edi. Askiyabozlarning hammasiga o‘zi laqab qo‘yan, to‘yu ma’rakalarda, gapu gashtaklarda pand yemay, sovrun olgan askiyabozlardan edi. Ana endi «bejirim» kelinni ko‘rgan hazilvon oshnalari nima deyarkin? Cholni mana shu tashvish qiyndardi. Uning ustiga shaharga o‘qishga ketib to‘rt yilda mulla bo‘lib kelish o‘rniga Tantiboy otini Tanka qilib o‘ziga o‘xshash beo‘xshov xotin olib kelayotgan o‘g‘lini butun qishloq to‘rt ko‘z bo‘lib kutib o‘tirgan edi. Chol to‘y tadorigini ham ko‘rib qo‘yan. Shu bugunroq uyni odam bosib ketadi. To‘yni qoldirsammikin, deya dildan o‘tkazdi chol. U yer ostidan keliniga razm soldi. «Tavba, «Mushtum»dagi suratlarga ishonmasdim. Endi ishondim, mayli, bo‘lar ish bo‘libdi, to‘y bo‘lmasa ham, to‘ycha qilib berib qutulmasam...»

Chol noiloj ertaga tushdan keyinga hammani to‘yga xabarlab keldi.

Tilab Mahmudov

O‘N SO‘MLIK QIZIL PUL (Hajviy hikoyadan parcha)

Qumri va Toshgul kampirlarning ota-onalari bir paytlar qarshi quda bo‘lishgan. Toshgulning akasiga Qumrini, Qumrining akasiga Toshgulni berishgan. Ikkalasi bir-biriga yanga emas, egachiday gap. Toshgulning akasi qulqoq bo‘lib, dom-daraksiz yo‘qolgan. Qumrining akasi payg‘ambar yoshida olamdan o‘tdi. Ularning hasratlashadigan dardi gaplashadigan gaplari ko‘p edi. Ikkala ovsin-yanga erlarining G‘azalkentdag‘i tanish Mirzaahmad akani ko‘rib kelishmoqchi. Mirzaahmad aka og‘irlashib qolgan ekan. Kampirlarni ko‘rgan zahoti:

- Qumrimisan, umringdan baraka top.
- Xudo xohlasa tuzalib ketasiz, Mirzaahmad aka.
- Mana Toshgul ham yonimda, birga keldik sizni ko‘rgani.

Vaqt allamahal bo‘lganda ovsinlarga yonma-yon joy solishdi, yonboshlab, choy sovutayotgan odamday «puf-puf»lab uxlab qolishdi.

Nonushta risoladagiday o‘tdi. Kampirlar xayrashib bekat tomon jo‘nashdi. Hamma gap kassaga yaqinlashganda bo‘ldi.

– Hoy, Qumri qilig‘ingiz qursin, pulimni bering, kechasi pulimni olib qo‘yibsiz, bering hazillashmang, – dedi Toshgul kampir o‘pkalanib. – O‘n so‘mlik qizil pul edi. Qariganda birovning cho‘ntagidan pulini olgandan ko‘ra o‘lgan yaxshi. Men uni ne azoblar bilan topganman-a. Bir oylik nosvoyning puli-Y...

– Qumri kampir, – qaltragan qo‘llari, charm hamyonni olib, ichidagi qog‘oz pulu tangalarni etagiga to‘kdi. – Mana, mana qarang, qizil pul bormi, hammasi yashil-ku, ko‘zingizni kattaroq oching.

– Birovning pulini olasiz yana tilingizni bermaysiz?

Kampirlar ming‘illab, vaysashganicha, avtobusga chiqishdi. Toshgul kampir ovozining boricha

– Nega tutoqmayin, yolg‘iz o‘n so‘mligim yo‘qoladi-yu indamaymanmi?

Avtobus to‘la odam, Qumri kampir uchun bundan ortiq haqorat yo‘q edi. Avtobusdan tushib qolay desa, odamlar nima xayolga boradi deb o‘yladi. Rost ekan, yuzi chidamadi, deyishmaydimi? Qaysi biriga borib «Hoy muslimmonlar, men o‘g‘ri emasman, kelib-kelib ovsin yangamning pulini olamanmi»desinmi?

Avtobus Xumsonga yetib, odamlar tushayotganlarida Toshgul kampir Qumrining katta qizini ko‘rib qoldi. Oyog‘i yerga tegar-tegmas:

– Mahbuba xudoyo onangni fe‘li qursin, kechasi o‘n so‘mimni o‘g‘irlab qo‘yibdi-ya, – dedi.

Mahbuba dam ammasiga, dam onasiga olazarak qarab turgan edi, Qumri kampir qizining yoniga keldiyu yosh boladay xo‘ngrab yubordi.

Qirq yillik qadrdon kampirlar birinchi bor bir-birlari bilan xayr-xo‘shlashmay qishloqning ikki ko‘chasiga burilib ketishdi.

Toshgul kampir uyiga kelib ham ko‘ngli joyiga tushmadi. O‘limlik narsalari turadigan qutichaniyam ohib ko‘rdi. Hech yerda o‘n so‘mlik qizil pul yo‘q edi. «Olgan, yashshamagur», dedi pichirlab. Toshgul kampir ovqatga unnamoqchi bo‘lib o‘choqboshiga borgan edi, tutantiriq yorishga tesha kerak bo‘lib qoldi. Kecha pomidor ko‘chatlarini tagini yumshatganini eslab, hovliga qarab o‘tdi. Ariqlar orasida, kesaklar ichida uchi chiqib turgan qizg‘in narsaga ko‘zi tushdi. Ko‘rsatkich bormog‘i bilan kesakni turtib yuborgan edi, o‘n so‘mlik qizil pul tovlanib ketdi. Uni jon holatda qo‘liga oldi-yu, «SHo‘rim qursu-un»dedi va pomidori ko‘chatlari ustiga yalpayib o‘tirib qoldi.

Abdulla Qodiriy

**MEHROBDAN CHAYON
(Romandan parcha)**

Anvar supada, O‘rda yumushlaridan ba’zisini tahrir qilish bilan mashg‘ul ekan, ichkaridan Ra’no chiqib keldi. Go‘yo Anvar Ra’noning chiqishidan xabarsizcha o‘z ishiga qattiq berilgandi. Ra’no ohistagina Anvarning yoniga kelib supaga suyandi, ikki qo‘li bilan iyagini ko‘tarib, oraliqdan Anvarning tahririga qaradi. Anvar ham muloyimgina kulimsib Ra’noga ko‘z qirini tashlab olgach go‘yo iltifotsiz, yana qalamini qoralab, qog‘oz ustiga bir ikki kalima yozdi. Ammo uchinchi kalimaga o‘tganda qalami qo‘lida o‘ylanib qoldi va boyagidek Ra’noga kulimsib qaradi. Ra’no ham ko‘zi unga to‘qnashib, biroz bir-birlariga kulimsiragan holda tikilishdilar...

– Nega to‘xtadingiz, yoza bering!

– Endi boshqa narsa yozaman.

– Mayli yozing!

– Sen ham javob yozsang, xo‘pmi?

– Xo‘p.

Anvar qalamin qoralab yozdi:

– Agar Farhodning Shirini bo‘lsa Majnuning Laylosi.

Nasib o‘lmish menga gulshan aro gullar Ra’nosi.

Anvarning qalamidan qog‘ozga tushib borgan so‘zlarni ta’qib etgan Ra’no, qog‘ozdan ko‘zini olib qizargindi va bosh chayqab teskari qaradi.

– Qani javob Ra’no!

– Uyat qilmaysizmi?

– Mening yozganimni uyat qilmasang men ham sening yozganiningni uyat qilmayman. Lekin shart shuki, mening yo‘limga ayni javob bo‘lsin!

Ra’no bir oz o‘ylanib Anvardan yashirinchha yozdi:

– Agar or etsa Layli haqlidir Qaysining jununidan.

Ne baxt, Ra’no xaridoring talab ahlining «Mirzosи».

Ra’no javobni Anvarning oldiga tashlab, qizargan va kulimsiragan holatda chopib gullar yoniga ketdi.

Anvar yozuvchi o‘qib zavqlandi.

– Mana, men yana yoza boshladim...

Javobga hozirlan, Ra’no!

Hamisha xavfda ko‘nglim bu muhabbat intixosidin,

Meni ham etmasa Majnun debon Ra’noning savdosi.

Ra’no keyingi misrani o‘qib o‘ylanib qoldi.

– Javob qiyin keldimi, Ra’no?

– Qalamni bering! O‘ylagani ham fursat bermaysiz! Yozdi.

Muhabbat jomidan no‘sh aylagan ahli zako bo‘lmish.

Fununi tibda majnundor kishining kuysa safrosi.

– Yengding Ra’no, yengding!

– Yengilgan bo‘lsangiz yutug‘imni bering? Anvar yuzini tutib berdi.

Ra’no uning yuziga bo‘shgina urib qo‘ydi.

Men... men sening yuzingga qo‘lim bilan emas, labim bilan urardim...

Ra’no qizarib yerga qaradi.

Yuzga lab bilan urishni u o‘z umrida birinchi martaba eshitganligi uchun qizarishga va yerga qarashga haqli edi.

O‘zi yozgan muhabbatga oid she’rlari va Anvarga bergan haligidek javoblari bilan chin bir mahbuba va ma‘shuqa bo‘lib ko‘rinsa ham, lekin keyingi gaplarga hanuz oshna emas va yuzga lab bilan urishlardan tamom begona edi. Bu gap Anvarning ham birinchi jasorati bo‘lib, ikkisida bu yangilikning o‘ng‘aysizligida qoldilar...

O‘ng‘aysizlikda qolgan Ra’no, xijolat aralash Anvarga kulimsib bosh ko‘tardi.

– Sen eshitdingmi, yo‘qmi bilmadim, ular ikkimizni juftlashtirmoqchi bo‘lib, bu kun mendan kishi orqali, to‘y vaqtini belgilashni so‘ratgan edilar. Men ertaga javob bermoqchi bo‘ldim.

Nega yerga qaraysan Ra’no?

Sen uyal-uyalma, barbir ular bizni juftlashtiradilar. Ularga bir muxlat ko‘rsatishimiz kerak Ra’no!

Anvar kului va surilib Ra’nuning yoniga keldi. Go‘yo uni o‘ziga qaratmoqchi bo‘lgandek yelkasiga qo‘l yubordi...

Javob ber, Ra’no!

– Bu holda men javob berolmayman...

– Javob bermasang, men ham seni bo‘shatmayman.

– Dadam kelib qoladi...

– Dadangdan bu kun javob oldim.

Ra’no, Anvarning iyagi ostiga so‘l chekkasini qo‘yib chetga qaradi.

– Siz xohlagan vaqtda bo‘lsin!

– Menga qolsa ertaga...

– Mayli.

Anvar iyagi ostidagi muloyimlashgan qizning yuzidan o‘pdi va uning to‘zg‘igan sochlarini hayotbaxsh kokillarining muattar bo‘yini uzoq hidldadi.

Chin so‘zla men sening raying bilan ularga javob aytmoqchiman.

– Ko‘klamga.

Xo‘p bo‘lgay. Men ertaga to‘yimiz ko‘klamga bo‘lsin deb javob aytaman.

Ilhom Zoir

**RO‘MOLCHA
(Hikoya)**

O‘sha kuni Otello ko‘chadan kayfiyati buzilib keldi. E yo‘q, be yo‘q, eshikdan kira solib oshxona kuymalanib yurgan xotiniga baqira ketdi.

– Dezdemona, ro‘molcha qani?

– Qanaqa ro‘molcha? – dedi Dezdemona qo‘rqa-pisa.

– To‘y kuni senga bergandim-ku!

– A, – dedi Dezdemona eslagonday bo‘lib, – o‘shani so‘rayapsizmi? Bironta bo‘g‘chaga tiqib qo‘ygandirman. Nimaga kerak bo‘lib qoldi? Ertalab cho‘ntagingizga tozasini solib qo‘ygandim-ku...

– Yo‘q! Menga o‘sha ro‘molcha kerak! Hozir topib ber!

– Sabr-toqat degan narsa yo‘g‘-a, sizda, – dedi Dezdemona erinchchoqlik bilan javondagi bo‘g‘chalarini bir-bir titkilar ekan. Aksiga olib birorta bo‘g‘chadan chiqmadi. Kechgacha uyning barcha teshik-tuyunklari qarab chiqildi, lekin ro‘molcha topilmadi.

Toqati toq bo‘lgan Otello masalani ko‘ndalang qo‘ydi.

– Ertagacha ro‘molchani topib bermasang, bilib qo‘y – katta ko‘cha!

U yuzini devor tomonga burib, divanda g‘ujanak bo‘lib yotib oldi.

– Bitta ro‘molchaga shunchami!

Hayriyat, kattaroq narsa emas ekan. Bira to‘lasi urib o‘ldirarkansiz-da, a – degan Dezdemona, arazlagan bo‘lib yotoqxonaga kirib ketdi...

Otello tong saharlab xizmatga jo‘nadi. U qanchalik erta kelmasin, qo‘li ishga bormadi. Ich-etini nimalardir kemirar, lekin nimaligini o‘zi ham bilmasdi.

Kechadan beri tuz totmaganidan qorni tatalab ketdi. Biror yegulik yeb olgani qahvaxona tomon yurarkan, yo‘lakda – o‘zini Otelloga yaqin do‘sit deb yuradigan, doimo po‘rim kiyinadigan olifta Yago uch-to‘rtta yosh xodimni og‘ziga qaratib: «Fabrikaning yo‘lidan, ro‘molcha topib oldim», deb aytgan gapi noxos qulog‘iga chalindi va Dezdemonaning: «Fabrikadan ish qidirib ko‘rsammikan. Uyda o‘tiraveramanmi, ishlasam, harna ro‘zg‘orga foyda», deganlari esiga tushdi.

Otelloning qarashlariga dosh berolmagan Yago esa «topib olgan» ro‘molchasini shosha-pisha cho‘ntagiga tiqdi-da, baland ovozda:

– Topib oldi demanglar, mehnatga sotib oldim – dedi.

Yagoning avvaliga «topib oldim», so‘ng «sotib oldim», degan tuturiqsiz gapi Otelloning xayolini ayqash-uyqash qilib yubordi.

Otelloning tomog‘idan yana hech narsa o‘tmadi... Tushdan so‘ng mazasi ochayotganini bahona qilib ketdi.

Dezdemona, kecha mendan nimani yashirding?! – dedi , Otello eshikdan kira solib.

– Nimani yashiribman? – dedi hayrati oshgan Dezdemona. – Sizdan bemaslahat biror ish qilibmanmi?

– Kecha fabrikaga ish qidirib borganmiding?

– Yo‘q, bormadim. Hozir fabrikada ish yo‘q ekan. Ishchilarga ham olti oydan beri maosh berolmayotgan mish. Dugonamga qo‘ng‘iroq qilsam, shunaqa dedi.

– Kim u – dugonang?

– Siz bilan birga ishlaydigan, do‘stingiz Yago akaning singlisi Nazmioy-da.

– Yago! – Otelloning yana shaytoni qo‘zidi. – Yagoning singlisi fabrikada ishlarkanmi? Yolg‘on gapirma!

– Biror marta yolg‘on gapirganmidim sizga?

– Gaplaring yolg‘on! Sen fabrikaga borgansan, singlisi bilan emas, Yago bilan uchrashgansin!

Bu gap Dezdemona tamoman gangitib qo‘ydi.

– Tuhamat qilmang! Men hech qachon sizga xiyonat qilmaganman. Bu gaplarni qayerdan oldingiz?

– Ro‘molchani Yagoning qo‘lida ko‘rdim! Hammaga maqtanib yuribdi! Dezdemonaning ich-ichidan allaqanday og‘riq bo‘g‘ziga keldi.

– Yolg‘on!!!

– Yolg‘on bo‘lsa, ro‘molcha qani? Ayt, qani ro‘molcha! – Otelloning ko‘zlariga qon quyildi. Panjalari changakka aylandi. – Kechki ibodatni qilganmiding! Ayt, qilganmiding?!

– Nima qilmoqchisiz meni, Otello aka? – Dezdemona orqaga tisarilmochchi edi, karovotga urilib, o‘tirib qoldi. – Arzimagan ro‘molchani deb, meni o‘ldirmoqchimisiz hali?

– Men bilmayman! Kalimangni keltir! Seni bo‘g‘moqchiman!

Jazavaga tushgan Otello Dezdemona tomon bostirib borarkan, tuyqus eshik qo‘ng‘irog‘i jiringlab qoldi. Dezdemona jon holatda yugurib borib eshikni ocharkan, ostonada onasini ko‘rdi va o‘zini uning bag‘riga otdi. Yelkalari titrabtitrab ketdi.

– Voy, onaginang girgitton! Ko‘zlaringga nega g‘am? – dedi onasi Dezdemona ko‘zlariga tikilaran. – Tinchlikmi ishqilib?

– Tinchlik, – dedi Dezdemona qo‘li bilan ko‘z yoshlarini artarkan, – sizlarni sog‘indim...

– Ma, obidiydangni artib ol – dedi onasi, cho‘ntagidan ro‘molcha chiqarib berarkan. – ol, o‘zingni ro‘molchang, uya borganingda qoldirib kelgan ekansan.

O‘jasiga yetolmagan sherdek bir chekada hansirab turgan Otello yugurib kelib, qaynonasining qo‘lidan ro‘molchani tortib oldi va yosh bolalardek sakrab ketdi.

– Ro‘molcha! Ro‘molcha! – Otelloning quvonchi ichiga sig‘masdi.

Mirmuxsin

ONAZOR (Hikoyadan parcha)

Alqantara shahri yana bombardimon qilindi. Qulagan mayda-chuyda uylarning hisobiga yetib bo‘lmashdi. Sichqondek Ismoil, fildek Misrni xuddi yutib yubormoqchiday jon-jahdi bilan kuchanardi. Kechga yaqin portlashlar, otishmalar tindi. Shahar jimjit, go‘yoki kimsasiz qolgandek.

Mana shu shahar chekkasida, chuqur podval ichida qimir etmay o‘tirgan ojiza – Shamsiya yarim kechaga borib, negadir bezovta bo‘la boshladi.

Odamlarning aytishlariga qaraganda bu kampir, qahatchilik yili, bir varakayiga uch farzandini yo‘qotib, ikki ko‘zi ko‘r bo‘lib qolgan ekan.

Ba’zan rastadagi qator do‘konlar yonidan tilanchilik qilib o‘tarkan. Kechgacha bir hovuch chaqa yig‘ib o‘z go‘shasi zax podvalgi qarab jo‘narkan. Ba’zan nodon bolalar, kampirning orig va titroq qo‘llariga kesak qo‘yib ketisharkan. Kampir kesakni paypaslab, uni haqiqatan kesak ekanligini bilib, uni otib yubormay, sekingina yerga qo‘yib ketarkan.

Bir ozdan so‘ng uning quoqlariga ingragan bo‘g‘iq ovoz eshitildi. Shamsiya jadal yuqoriga chiqdi. Xuddi bir narsani ko‘rmoqchiday nursiz ko‘zlarini osmonga tikdi. U biroz yurdi. Lekin qandaydir, hayajonu hovliqish ichida har kuni o‘zi qatnab yurgan yo‘lda ham bir yog‘ochga urilib ag‘anab tushdi. U o‘rnidan turib, yana ovoz kelayotgan tomonni aniqlab yurib ketdi. Shamsiya rastalarga yaqinlashgan sari, o‘sha vayronalar ichida najot so‘rab ingrayotgan, bo‘g‘iq ovoz eshitilardi. Madorsiz, holdan toygan Shamsiya, yurib kela boshladi, lekin hovliqish

bilan qo'llarini oyna sinig'i tilib ketganini ham sezmadı. Shamsiya yer timirskilab, yerda yotgan inson bolasining boshini ikki qo'li bilan ushladi. Uning ustidan ezib yotgan yog'och va kesaklarni olib tashlay boshladı. Uning soqol, mo'ylovi yo'qligidan yosh bola ekanligini darhol payqadi.

«Kimsan bolam?»

Faud, – dedi bir oz qo'rqb jovidirab bola. Lekin kampir bolaning javdirab, najot istayotganini ko'rmasdi. Oting Faud-mi?

Hozir seni tortib olaman, – dedi kampir.

Shamsiyaning dimog'iga qo'lansa hid urildi, u o'liklar hidi anqiyotganini darhol payqadi. Men Shamsiya xolang bo'laman. Qo'rqma bolam.

Bu tom senlarni bosmay, meni bosib o'ldirsə bo'lmasmadi. Somonli kesaklar tomom bo'lgach, chuqur ichidan Faudni olib chiqishga urindi. U har zamonda Faudning peshonasini ushlab qo'yar, Faud bo'lsa yuzlariga tushayotgan ter tomchilarini xayol qilib artayotgan edi, qarasa ter emas, shirali qon...

U kampirning qo'llari qonab ketganini payqadi. Lekin qancha qiynalib, azoblansa ham Faudni kesak va yog'ochlardan tozalab uni chiqarib oldi. Faudni opichib oldida, ming mashaqqat bilan o'z go'shasi tomon yo'l oldi. Kampir qoqilib, sudralib, necha bor peshonasini devorlarga urib bo'lsa ham, baribir Faudni omon saqlab, o'z go'shasiga olib keldi. Podval burchagida turgan xumchadan unga suv ichirdi. Shu suv bilan birga qalbidagi samimiy mehrni qo'shib berdi. Shundan so'ng o'tirib birinchi «tinch tong»ni ottirdi.

Abdumalik Isomiddinov

UCH KUNLIK OSHIQ (Hajviy hikoya)

Kinoteatr oldida turgan qizil ko'ylakli «Montana» markali jinsi shimdagi qiz «lop» etib ko'zimga cho'g'dek ko'rindi. Qomati kelishgan, istarasi issiq, bellari xipchagina...

– Har qalay bizning yasan-tusan ham undan kam emasku deb, sinab ko'rishga gap otdim:

– Sizni qayerdadir ko'rgandekman-da, yaxshi qiz?

– Balki... tushingizda ko'rgandirsiz?

– Xotirangizga balli!

Farhodni tushiga kirgani yetti uxbab Shirinning xayoliga ham kelmagan...

– Ha, endi u Shirin-da.

– Juda to'g'ri! Xo'sh sizning ismingiz nimaydi?!

– Zarifa.

– Meniki Shodi... Shodibek! – deya bor rasmiyatçılıkni yig'ishtirib, dangal qo'l cho'zdim. Adabiyot fakultetida o'qiyotganim ancha asqotdi. Hozirgi zamonning qizlariga bir siqim shirin gap kifoY. Ular shu so'zlarni bitta-bitta mag'zini chaqqunicha, uch-to'rt marta uchrashib ko'nglini olgani ulgurasan.

Xo‘rozqanddek gerdaiyib yurgan har qanday yigit gapga chechanlikda menga qulliq qilaversin. Omadni qarangki, dadasi qayerdayam «kattakon» ekan. Taniysizmi, deb allaqanday baobro‘ familiyani aytса bo‘ladimi! O‘zi ToshmIda o‘qirkан. Tish do‘xtiri bo‘lib chiqaman dedi. O‘zimni past olmay raisning o‘g‘liman devordim. Shu kuni Zarifaxon bilan kinoga kirdik, restoranda ovqatlandik, taksida uyining oldigacha kuzatib qo‘ydim. CHo‘ntak baquvvatligini ko‘rsatish uchun, nuqul o‘n yigirma beshtaliklarni ayamadim. Ancha tantiqroq qiz ekan – katta odamning qizi bo‘lgach shu-da, chidaysan. Ertasiga Zarifa yangi ko‘k ko‘ylay kiyib chiqibdi. Mening egnimda vilvet shim, neylon ko‘ylak. Kechasi bilan mijja qoqmay unga she‘r yozdim, sirkka olib tushdim. Keyingi kuni atlas ko‘ylak kiyib chiqdi. Men bo‘lsa yangi «importniy» oq ko‘ylakka jigarrang galstuk taqib, kremlin kostyumshim kiyganman. Zooparkka bordik, taksida shunaqayam aylandik. Tobora birbirimizga yoqib borardik. Lekin... keyingi kuni uchrashuvga chiqa olmadim. Chunki yaqin kursdoshlarimda boshqa «modniy» ust-bosh qolmagan, qarzlarim ham yuz so‘mdan oshibdi.

Chindanam 13 chislo bebaxt kunda! Axir o‘ninchida olgan stipendiyang shundan-shungacha yetmasa-ya, deb so‘nggi tangalarimga, uyga telegramma jo‘natdim.

Sunnat Azlarov

**PORAXO‘RNING TALABI
(Hajviy hikoya)**

Menga poraxo‘r so‘zi yoqmaydi. Aslida pora yomon narsamas, buni hamma ham tushunib yetmaydi-da. Jamiyatimizda bu so‘zni qayta-qayta g‘azab bilan tilga olib, xuddi chayonga tenglashdirib qo‘yishdi. Porasiz biror ish bitganni? Bolani bog‘chaga joylashtirish, institutga opkirish, tuzukroq ish topish, ishxonani favqulotda komissiya tekshirib qolishi bor. Shunday ekan, ko‘pchilikning og‘irimi yengil qiladigan bu narsaga munosabatimizni o‘zgartirishimiz kerak. Avvalambor bu so‘zning shakliga yangilik kiritish kerak. Poraxo‘r so‘zidagi «xo‘r» qo‘srimchasi ko‘proq salbiy otlar yasashda qo‘l keladi. Jumladan, odamxo‘r, aroqxo‘r, tekinxo‘r, qonxo‘r, sudxo‘r. Shuning uunga «chi» qo‘srimchasi ni qo‘shsak, ishchi, kolxozchi, konchi, o‘qchi, so‘zları bilan ma’noli va jarangdor chiqadi. Ikkinchidan, yuqorida aytganimdek, biz shu paytgacha poraga nafrat bilan qaradik, uni oladiganlarni ta’qib etdik, jinoyatchi deb qamaldi, unvonlaridan mahrum qilindi. Shunday mushkul sharoitdayam poraxo‘rlar o‘z e’tiqodlariga sodiq qolib, faoliyatlarini keng ko‘lamda olib borishga harakat qildilar. Bu qutlug‘ yo‘lda qurbanlar ham berdik. Ha, azizlar, men ularning nomidan ko‘plikda bo‘lsa ham gapirayapman. Bekitadigan joyi yo‘q, o‘zlarining tushunib yetgandirsizlar. Men shunday mushkul va sababli kasbning kamtarin vakiliman.

Nima deyayotgandim... Ha, bizlarga doim qiyin bo‘lgan. Qurbanlar ham berdik. Ne-ne zo‘r arboblarimizni oyog‘ini yerga tekkizmay olib ketishgan. Qayerdaligini tushungandirsizlar.

Agar bilsalaring poraxo'rlar juda kuchli psixolog bo'lishi kerak. Oldingga kelishadi. Olish kerak. Ba'zilarning o'zлari qo'yishmaydi. O'rganib qolasan kishi. Keyin ko'ngling tusayveradi. Bir xillaridan hech vaqo chiqmaydi. Har xil yo'llar bilan imo qilasan. So'zda nihoyatda ustasi farang bo'lishing kerak. Bu ishga birinchi bor qo'l urib, picha mazasini totganimda, hech esimdan chiqmaydi, katta ko'chadan ketayapman, avtobusga chiqdim nazarimda har bir yo'lovchi cho'ntagimga haligi... o'shani solib qo'yayotganday. Buni psixologlar kasb kasalligi, kuchli ruhiy tolqish deyisharkan. Boshqalarda bu ahvol qay tarzda kechganini bilmaymanu, mening nazarimda oxir-oqibatda har bir simyog'ocham menga iljayib, yana haliday... taklif qilayotganday tuyuldi. Yurgan yo'limda... Ey «quysangizchi»... qo'ymadingiz-qo'ymadingiz-da deb yuradigan odat chiqardim.

Rabindranat Tagor

**HALOKAT
(Romandan parcha)**

Kamola Xemnolinining gullaridan katta gulchambar qildi, uni yana savatga solib, suv purkadi-da, Nolinakxaning kabinetiga olib kirdi. Bu gullar Xemnolinining xayrashish oldidagi sovg'asi ekanini o'ylab, ko'zлari yoshga to'idi. Qiz o'z xonasiga qaytib o'yga toldi: ajabo, Nalinakxaning qarashlarini nima deb tushunsa bo'ladi. Nalinakxa uning sirlarini payqagandek tuyuldi. Ilgari, deyarli uni ko'rmay yurgan chog'larida yaxshi edi.

Endilikda bo'lsa, u og'ir ahvolga tushib qoldi. Bu Nalinakxadan haqiqatni yashirib yurgani uchun balki unga jazodir. Ehtimol Nolinakxa, onam bu Xaridasini qayerdan topdi deb o'ylar. Men bundan ko'ra behayoroq kimsani ko'rgan emasman, der... Agar u meni to'g'rimda bir lahza shunday fikrda bo'lsa, bu – dahshat.

Kamola shu kechasi uyquga yotib, ertaga unga hamma sirni oshkor qilishga qat'iy ahd etdi. Undan keyin nima bo'lsa bo'lar.

Kamola azonda turib cho'milgani ketdi. U har kun Gangdan kichik bir ko'zada suv keltirib ishga tushishdan ilgari Nolinakxaning kabinetini supurardi. Bugun ham kundagidek, uning kabinetiga kirdi-yu, Nolinakxaga duch keldi, ilgari bunday ilk saharda u bu yerda ko'rinnmasdi.

Ishga xalaqit bergenlari uchun noliganday, qiz ohista orqaga qaytdi. Ammo bir necha qadam yurgach, birdan to'xtab, bir nima o'ylab qoldi. So'ngra sekin orqaga qaytib, kabinet eshigi oldida qotib qoldi. Eshik oldida xuddi soya singari qancha vaqt turib qolganini o'zi ham sezmadi. U kutilmaganda kabinetdan chiqib, ro'parada to'xtagan Nolinakxani ko'rib qoldi. Shu onda Kamola tiz cho'kib, uning oyoqlariga bosh qo'ydi, qizning hali qurimagan nam sochlari Nolinakxani oyoqlari ustida patila-patila bo'lib sochilib ketdi. Keyin qiz o'midan turib, uning oldida haykaldek qotib qoldi.

Boshidan ro‘moli tushib ketganini ham sezmadni, Nolinakxanining tikilib turganini ham payqamadi. Uning hamma xavfsirashlari yo‘qolgan edi, go‘yo vujudini ilhom nuri yoritgandi. Nihoyat u dadil ovoz bilan:

– Men Kamolaman, – dedi.

Ilhom Zoir

**ICHIM KUYADI
(Hajviy hikoya)**

Gazetada tanqidiy maqola bosilib chiqdiyu, teatr jamoasining tinchi buzildi. Teatr direktori Shafiyev jamoani xonasiga to‘pladi.

– Qachongacha erka buzoqqa o‘xshab teatrni emib yotaverasanlar? – dedi surnayday chiyillab. – Hammagni quritish kerak!

Shafiyev boshqa gapirolmadi. Vaziyatni ilg‘agan bosh rejissyor Erkayev dik etib turdi.

– Mening ham ichim kuyadi, – dedi u qo‘lidagi gazetani «shap» etkazib stol ustiga tashlarkan. – Hayriyatki, muxbir bolaning ko‘p narsadan xabari yo‘q ekan. Latifjon, qaynim bo‘lsangizam, bir gapni bilib qo‘ying! Teatr bozor emas. Sahnada partnyoringiz bilan nimalarnidir savdolashasiz. Baxtingizga hozirgi tomoshabinlarning fikr-xayolini bozor chulg‘ab olgan. «Bozorda yurgan bo‘lsa kerak», deb sizning aljirashingizga e’tibor berishmadi... menga unaqa qaramang! O‘scha Xitoydan olib kelgan botinkangizning pulini opangizdan berib yuborganman. Nimagaki, bir kun ichib olib, «sizga botinka sovg‘a qilganman» deb, yuzimga solishdan ham qaytmaysiz. Ko‘zingizni olaytirmang, men bor gapni aptyapman. YO teatrni deng, yo tijoratni! Gapni «shaftolisi» ham shu.

Siz piqillamang, Salimjon, sizga ham shu gap. Slishkim mehringizni otarga berib yubordingiz. To‘g‘ri, to‘ylarga butunlay bormang, demoqchi emasman, boring, ammo-lekin teatrni ham o‘ylang-da bundoq. Gamletni «O‘lish yo qolish!» monologini «Otish yo qotish!» deb boshladingiz. Sezdim, o‘scha kuni mast edingiz. Zalda odam siyrak deb sahnaga chiqqargan edim, aslida chiqarmasligim kerak ekan...

Kulmanglar, qarindosh bo‘lsalaring ham, Shavfoat, Qanoat, Barno, Dilbar, Ro‘ziqul, Fazliddin, Xayriddin – bu gaplar senlarga ham tegishli!

Xo‘s, bularni bola desam, sizga nima bo‘ldi, Tamara opa? Dezdemonani maromiga yetkazib o‘ynardingiz-ku! Aksiga olib muxbir kelgan kuni... Tushunolmay qoldim! Otello peshxezlik qilib, bo‘g‘gani bermaysiz, «senga ro‘molcha kerakmi» deb yuz-betini yumdalab tashladingiz. Singlingiz to‘yes, suflyorning gapini eshitmaganga oldingiz... Xo‘p, xo‘p, rolga berilib ketgansiz deb faraz ham qilaylik. Unda, o‘tgan ishingizni nima deb tushunmoq kerak? Dugonamming to‘yiga boraman deb, «Hamlet»ga kelmadningiz. Ofeliyan qizingiz, to‘yes, dublyoringiz Malohatxon o‘ynadilar. «Shoh Edip»da ham shu ahvol. Qirolichani ammangizni qizi Surayyoxon o‘ynadi... Ha, kuling, kuling! Sizga kulgi bo‘lsa bo‘ldi. «Kelinlar qo‘zg‘oloni»ni eslang. O‘scha kuni bir soatga kechikib

keldingiz. Zal liq to‘la odam. Birinchi pardada Farmonbibini qaynanangiz, to‘yes, Saltanat onamiz o‘ynadilar. Kechikib kelganingiz yetmaganday, «Qo‘ying, oxirigacha endi o‘zлari o‘ynasinlar», deyishimizga qaramay, ikkinchi pardada sahnaga yugurib chiqdingiz. Tomoshabinlar: «Farmonbibi ikkita ekan», deb rosa kulishdi. To‘g‘ri, kuldirdingiz, lekin Sotti Suvonning «Inidan chiqqan sichqon» asarida nima bo‘ldi?... To‘g‘ri, «mazam bo‘lmadi» degansiz, ammo kech aytgansiz. Biz esa o‘sha kuni asarni bosh qahramonsiz qo‘yishga majbur bo‘ldik. Xayriyat, buni zritellar sezmay qolishdi...

Gap, gap bilan-u, Tamara opa, sal mas’uliyatni... To‘g‘ri, Shafiyev: «Men direktorman», Siz: «Men o‘sha direktorning xotiniman», Men: «Direktorning kuyoviman», deb yuraversak, bu teatr – teatr emas, otbozor bo‘lib ketadi-ku! Shukr qilinglar, ichimizda begona yo‘q, bo‘lmasa, uydagi gap allaqachon tashqariga chiqib ketar edi...

III. NAZM NAMUNALARI

**ZAYNAB VA OMON
(Poemadan parcha)**

1. Zaynab opasini ko‘ndirishi

Yerda ekan ko‘zining nuri,
Zaynab hamon jim, faqat Huri
Davom etar savol-javobda,
Jaranglaydi chalg‘isi tobda.
«To‘g‘ri, opa, senga ham qiyin,
Birovga so‘z bergandan keyin
Uddasidan chiqmoq yaxshidir,
Andishamning sababi budir:
Zaynabning ham tanlagani bor
Opa, faqat qizishma zinhor!
U Omonni sevib qolyapti,
Sevib qolib, va’da olibdi.
Opa, bu ish qizning haqqidir,
Andishamning sababi budir.
Bunda yo‘qdir hech qanday gunoh.
Zo‘rlik bilan tegib, so‘ngra oh
Tortganning hech foydasi bo‘lmas,
Qiz ham odam; u bir mol emas,
So‘zda turmoq qiz uchun ham farz
Odamgarlik qiz uchun ham qarz.
Poymol qilib bo‘lurmi buni?
Qaysi nomard istagay shuni?
Zaynab turar, qora ko‘zidan
Jovdiragan yoshi tirqirar,
Qani qochiб oppoq yuzidan
Talvasada ko‘kragi urar,
Huri jimdир. Zaynab bepoyon
Alamini qilgali bayon
Bir chimrandi, silkindi boshi,
So‘z boshladi, ko‘zda yoshi.
«To‘g‘ri, opa, butun baxtsizlik,
Xo‘rliklarning boisi shudir.
Xotin-qizga xos bo‘lgan qullik
Shu odatda emishdir zuhur.
Butun qizlar, butun juvonlar
Chimildiqda erni ko‘rdilar.
Kuya-kuya kul bo‘ldi jonlar,
CHO‘ri bo‘lib yig‘lab yurdilar.

CHo‘ri eding, qul eding boring,
Rohat ko‘rdi qaysi biringiz?
Odam emas, ayiq bilan teng,
Yovuz edi topgan eringiz.
Har nomardga cho‘kar edi tiz,
Erksiz edi sizning hammangiz.
Hammagizning taqdiringiz qul,
Hammagizning ollohingiz pul.
Hammagizning bulutda oyi;
Hammagiz ham bahor gadoyi.
Kechdim, opa, shunday odatdan,
Tamom kechdim bu saodatdan.
Opa, o‘sha sevganim – Omon,
Opa, o‘sha o‘rtaguvchi jon.
Buni etib senga oshkora,
Yetishgali qilarkan chora,
Iqror bo‘lkim, gunohim yo‘qdir,
Ochiq yurib topgan kishimdan
Va beizn qilgan ishimdan
Pushaymonim va ohim yo‘qdir.
Nima qilay, uzoq gapirdim.
Tushunchangni har tomon burdim.
G‘araz shulkim, qaytmay yo‘limdan,
Kelganini qildim ko‘limdan.
Qancha olim, dono bo‘lsa ham,
Sobir uchun meni qiynama,
Meni o‘tga tashlama yana
Menga yolg‘iz Omonimni qo‘y.
Menga o‘sha yomonimni qo‘y.
U kam emas hech bir odamdan,
Men ul bilan uzoqman g‘amdan.
Insof kelsin, opa o‘zingga.
Tutqun bo‘lib o‘sgan ko‘zingga,
Rozilik ber, odam bo‘l sen ham,
Saodat top va bo‘limagin kam».

2. Zaynabning Sobirdan najot so‘rashi

Tun ustiga kun nuri yotdi,
Bir ajoyib go‘zal tong otdi!
Huri, Zaynab turib ikkovlon,
Sobir tomon bo‘ldilar ravon.
Sobir ko‘zi tushdi eshikka,
Qizlar tomon qo‘zg‘aldi tikka

Ota-onas qotib qoldilar,
Taajjubga botib qoldilar.
Zaynab, sekin so‘zga kirishdi,
Hikoyaning boshdan tushdi:
Sobir, yolg‘iz senga suyandim,
Eshit meni, bir o‘tda yondim.
Boshim uzra sindi og‘ir tosh,
Seni deya qavmu qarindosh.
Ixtiyorim olgan ekanlar,
Va kishanga solgan ekanlar.
Men Omonga ko‘ngil beruvdim,
To o‘lguncha o‘shani devdim.
Sevganimni bilib Omonni.
Oqizdilar bag‘rimdan qonni
Yetsang deya dodimga zora,
Izlab keldim o‘zingdan chora
Men, hech sening tenging emasman,
Omonim bor, seni demasman.
U kam emas hech bir odamdan
Men u bilan uzoqman g‘amdan,
Bahor payti otlar chopilur,
Sen deganda bir yor topilur
Sen deganda har qiz, har juvon,
Ko‘ngil berur, fido qilur jon.
Qutqar meni, keldim o‘zingga,
Muhtojdurman sening so‘zingga.

3. Sobirning Zaynabga dalda berishi

Sobir tamom hayratda qoldi,
Bir iztirob, bir dardda qoldi.
O‘rtandi-yu achindi joni,
Joni emas, butun jahoni.
Yuragida boshlandi bir g‘am,
G‘ash ichida qizg‘in bir otash.
Achchiq-achchiq bir so‘z boshladi.
«Qarindoshlar yig‘sinlar esin,
Shu choqqacha inson sezchisin.
O‘yin, mazax bo‘lgani basdir,
Endi dunyo bozor emasdир.
Endi odam quldek sotilmas,
Endi odam o‘tga otilmas.
Endi unga qafas bo‘lmas jon,
Endi dunyo bo‘lmaydi zindon.

Endi odam istar bo'lsa yor,
O'z sevganin qilsin extiyor.
Mening ham bir suygan gulim bor,
Mening ham bir o'z go'zalim bor.
Kerakdirkim qavmu qarindosh,
Rozi bo'lib birga qo'shsa bosh.
Endi shunday odat kerakdir,
Xohishlaring bo'lmasin uvol
Ota-ona istagin ado
Qilib sening erkingni paymon
Etsam agar bo'layin gado.
Bor, azizim, yosh ko'ngling to'lsin,
Bor, suyganing o'zingga bo'lsin».

Abdulla Oripov

TIYRON KO'ZLAR
(She'rdañ parcha)

Sizga boqib turgan bu tiyron ko'zlar,
Meniki emas do'stlar onamnikidir.
Dunyoga ko'r bo'lib kelgan edim men,
Bechora derdilar qismating ekan.
Bilmasdan oy nima, yo yulduz nima,
Bahor nima o'zi, yo kunduz nima.
Ertalabdan kechgacha o'tirardim jim,
Axir yumuq edi mening ko'zlarim.
Bir kun ilk bahorda Toshkentdan dadam
Doktor olib keldi, quvondim biram.
Professor ekan, ko'rdi ko'zimni,
Tingladi hasratim, mungli so'zimni
Davolayman dedi, ammo juda qiyin
Dilim tug'yon urar daqiqa sayin
Buning bir yo'li bor birorta odam,
O'z ko'zini bersa dahshat bo'lsa ham.
Tezda do'stalarimni to'pladi dadam
So'radi, ammo kim ham ko'z bersin
Debdilarki «ko'z berish» dahshatku axir
Qarindoshlarni ham to'pladi dadam,
Ko'z in'om etmabdi qarindoshlar ham,
Bir sukutda o'tirardim, hayhot
Uydan eshitildi bir achchiq faryod.
Voy onam faryodi nechun qichqirdi
Irg'ib turgan edim, kimdir o'tqizdi.

Keyin-keyin bilsam bechora onam
Men uchun beribdi o‘z ko‘zini ham
Doktor nigoh bojin o‘yib olibdi
Darddan munisginam faryod solibdi.
Operatsiyadan besh hafta o‘tgach
Va ulug‘ rus olimi ijozat etgach
Ko‘zimdan dokani yechdimu shartta
Men dunyonи ko‘rdim birinchi marta.
Oh, oshifta dunyo, osmon, yulduz, oy,
Odamlarni ko‘rdim, hoynohoy.
Onajon deb unga qo‘ysam ot,
Oh men bu noshudga harom bu hayot.
Onajonim ko‘zlar hali ko‘r edi
Bechora ingrardi, dardi zo‘r edi.
Onajonim paypaslab boshimni tutdi
Yangi ko‘zlarimdan mehrla o‘pdi.
Sizga boqib turgan bu tiyron ko‘zlar
Meniki emas do‘stlar, onamnikidir!

Erkin Vohidov

BIZLAR ISHLAYAPMIZ
(She’rdan parcha)

Gaping bo‘lsa mendan to‘g‘richa so‘ra,
Mikrofoningi qo‘y, muxbir ukajon.
Men uchun temirga so‘zlashdan ko‘ra
Ertadan kechgacha yer chopish oson.
Bizning ishimizni «soxovat» deding
«Dala polvonlari» atading bizni.
Buncha balandlarvoz so‘zlamas eding
Bilsayding ko‘nglimiz, odatimizni.
Bizga to‘g‘ri kelmas «g‘ovandoz» so‘zi,
«Jonbozlar» deganining erishroq bir oz.
«Zafar marrasini quchmoq» ne o‘zi.
Bizlar ishlayapmiz, bu mehnat, xolos.
To‘g‘ri biz ko‘plardan erta turamiz,
Boshqalardan ko‘ra yotamiz kechroq.
Yozu qish dalada «javlon uramiz» -
Sening so‘zing bilan aytganda -
Biroq, paxtakor kasbinining shox-butog‘i yo‘q,
Faqat mehnatimiz sal o‘ziga xos.
Qo‘l qadog‘i bor ish adog‘i yo‘q,
Bizlar ishlayapmiz, bu mehnat, xolos.

«Bobodehqon» emas, biz oddiy dehqon,
 Shuning uchun gapning to‘g‘risi ma’qul.
 «Paxta ishqisi» deding, bu ishqmas, ishon,
 Paxta jononamas, gul ham emas ul.
 U peshona teri, mashhaqqat, ozor,
 Yelkadagi yuk u bizlarga meros.
 Asalari uchun «balli» na darkor,
 Bizlar ishlayapmiz, bu mehnat, xolos.
 «Chopiq gashti» deding, eh bu ne rohat,
 Bilmoq bo‘lsang, sezmoq bo‘lsang ne huzur,
 Kunbo‘yi demayman, bir-ikki soat
 Lolaqizg‘aldoqning aftobida tur.
 Bu ish «po‘lat otni mag‘rur surishi»mas,
 Rost gapni aytaver, uyaltirmas rost.
 Dalada chang yutish «javlon urish»mas,
 Bizlar ishlayapmiz, bu mehnat, xolos.
 Ha, biz ishlayapmiz, chunki bu mehnat
 O‘zbek shuxratiga shuxrat qo‘sadi.
 Yurtning g‘aznasiga bizning barakat
 Jaroq-jaroq oltin bo‘lib tushadi.
 Olamda bormi hech bunaqa farah?
 Lekin yashayapmiz beayuhannos.
 Hayot – jannah emas, ish emas do‘zax
 Bizlar ishlayapmiz, bu mehnat, xolos.
 Kamimiz yo‘q, uyga kelganda mehmon,
 Bitta qo‘y so‘yishga yetar qurbimiz.
 Faqat tilagimiz – el bo‘lsin omon,
 Omon bo‘lsin doim ona yurtimiz.
 Senga aytadigan gapim shu, ukam,
 Jimjima gapni qo‘y, to‘g‘risini yoz,
 Toki ko‘rsin, bilsin, anglasin olam,
 Bizlar ishlayapmiz, bu mehnat, xolos.

Erkin Vohidov

FIDOIYLIK TO‘G‘RISIDA RIVOYAT

Qadim zamon,
 Ayol dini
 Fidoyilik, deganlar.
 Eri o‘lsa, xotinini
 Qo‘shib ko‘mar ekanlar.
 O‘tib necha avlod umri,
 O‘tib cheksiz ko‘p zamon,

Hech bir davr
Bu udumni
Qilolmadi qatog‘on.
Dahshat edi bu chinakam,
Bilar edi odamlar.
Lek odatga qarshi ne ham
Qilar edi odamlar?
Ham ota,
Ham onaizor
Go‘rga kirib barobar,
Qola berdi chirqirab zor.
Bola chaqa
Darbadar.
Asli o‘sha zamonda ham
Donishmandlar bor edi.
Lekin ular ichra mard kam,
Ko‘p – ehtiyyotkor edi.
Bosh ko‘tarmas erlar,
Isyon – ayollar ham qilmasdi.
(Chunki ular eri qachon o‘lishini bilmasdi.)
O‘tib ketdi
Ming yil fursat,
Qarshi qudrat yo‘q edi.
Kimda shavqat,
Kimda himmat,
Kimda jur’at yo‘q edi.
Bir kun
Jangga keta turib
Bosh ko‘tardi bir o‘g‘lon.
Ot boshini shartta burib,
Yeldi tikka
Shoh tomon.
Dedi: «Ey, shoh, oldimda bor
YO, hayotu, yo o‘lim.
Qolayotir rafiqam zor,
Qizalog‘im va o‘g‘lim.
Agar men bu jangda o‘lsam,
Sodiq qolib udumga,
Farzandlarim onasin ham
Hukm etarsan o‘limga.
Men-ku, ular erki deya
Jangga ketayotirman.
Farzandlarim mehri deya,

Fidoiyiman, botirman.
Shu-chun, o'lsam, kunim bitib,
Vasiyatim shu bo'lsin,
Yorim emas, hamroh etib
Jang qurolim ko'milsin».
Bu so'z misli ochiq kunda
Bo'ldi momoguldirak.
Keltirdilar
Bolta...
Kunda...
Bas,
Tafsilot ne kerak...
Bechoraning ochiq qolgan
Ko'zlarini yumdilar.
Mozoriga
O'zi bilan
Qilichini ko'mdilar.
Bo'lsin deya tavqi la'nat,
Avlodlarga ta'limot,
Qabri uzra
Yozdilar xat:
«Bunda yotar manfur zot!
Ko'ring bu kas holatini,
Yotar misli xoru xas,
Bobolarning odatini
U bilmadi muqaddas.
His qilmadi
U yurakdan –
Ayol uchun dunyoda
Eri bilan ko'milmakdan
Saodat yo'q ziyoda!»
Qurban bo'ldi
Bir mard yigit,
Qoldi tavqi la'natga
Lekin ilk bor hukm o'qildi
Ul kun mash'um odatga.

Erkin Voxidov

BAXMAL

(She'rdan parcha)

Bir kun majlis uzoq cho‘zilib
Uyga yolg‘iz qaytib kelardim
O‘z-o‘zimcha xirgoyi qilib
Qo‘srig‘imni aytib kelardim
Kuyni tinglab ot ham beozor
Qadam tashlar edi so‘qmoqdan
Bir vaqt to‘xtab pishqirdi tulpor
Qamchi bossam yurmas jonivor
Uchta otliq men tomon ajab
Soy bo‘yidan kelardi asta
Avval hayron bo‘ldim – nima gap?
So‘ng birini tanidan qarab -
Ha, u o‘sha Holmaxmud arab.
Xotiramga keldi da’faton,
Ilk yig‘ilish hayratli ko‘zlar.
Holmaxmudni istexzo bilan
Aygan gapi og‘uli so‘zlar.
«Qiz bolasiz, bo‘lmasin kulgi
Mauzer osib qo‘ysak kamarga».
Sezar edim u katta tulki,
Oshno qilar bir kun xatarga.
Yaqin kelib to‘xtadi ular
– Ha, yo‘l bo‘lsin, tinchlikmi o‘zi?
Xolmaxmud jim miyig‘ida kular.
Sovuq yonar qizg‘imtir ko‘zi.
Endi menda ayb yo‘q, yaxshi qiz,
Qilgan edim xatardan ogoh,
Siz-chi, meni kulgi qildingiz,
Qazidengiz o‘zingizga choh.
Mening bunda aytgan so‘zlarim,
Endi hech kim eshitmas tayin.
Bilib qo‘ying qotilingiz kim,
O‘zni sizga tanishtirayin.
Muallimning bunda birovin,
Gumdon qilgan asli tegi man.
Roysavetda kunduz muvojin,
Tunda esa qishloq begiman.
Endi uni bog‘lang,
Lek darhol yo‘q qilmaymiz,
Suqsurday qizni
O‘lmay turib bu sohibjamol,

Xursand qilsin uch-to‘rt kun bizni.

Bog‘ladilar qo‘limni mahkam,

Tirab turib ko‘ksimga ko‘ndoq.

Eshit meni, ey sotqin odam,

Ikki yuzlik, yurtfurush olchoq!

Chiyabo‘ri, ko‘rshapalakday,

Qaro tunga oshno bo‘libsan.

Atabsanku sen o‘zingni bek,

Qiz bolaga zo‘rlik qilibsan.

Yetdim dema murodga bir kun,

Vaqt kelarki qilamiz hisob.

Unutma hech qilmishing uchun

El oldida berursan javob.

Borardilar otimni surib,

Payt topib chirt ko‘zni yumib.

Qiyalikni mo‘ljallab turib,

Ot ustidan otdim o‘zimni.

Eh chiqmadi mo‘ljalim maning,

To‘kilmadi jarlik qonim.

Yon bag‘rida o‘sgan archaning,

Shoxlariga ilinib qoldim.

Bildim ko‘rdi meni Xol arab

Darhol butalarni ushlab qiyalab,

Menga qarab kela boshladi.

Ostga boqsam tubsiz qora jar,

Meni yutmoq bo‘lib turardi.

Ustga boqsam qo‘lda besh otar,

Qotil tutmoq bo‘lib turardi.

Dahshat edi ikki tomon ham,

Lek uyatdan abzalroq o‘lim.

Siltanaman qani yiqlsam,

Archa qo‘ymas bog‘langan qo‘lim.

Yov yaqinlab kelmoqda hayhot,

O‘lgan yaxshi emasmi bundan.

Archam meni o‘zing jarga ot,

Xalos etib nomusli kundan.

Atrofimda aylanar qotil,

Kela olmas o‘rtamizda jar.

Ko‘zi yetmay olmoqqa axir,

Beshotarni menga to‘g‘irlar.

– Ot, benomus ot yuzi qora,

Sendan xayot so‘rmasman yo‘q!...

Sado berib tog‘u tosh aro,

Shunda birdan qarsilladi o‘q.
 O‘ldim deya xayol qilgandim,
 Hanuz aqlim hayron qoladi,
 Qotil nogoh chayqalib xayol,
 Ko‘ksin ushlab jarga quladi.
 Qochib ketdi ikki otliq ham,
 Osilgancha qoldim men esa,
 Bir vaqt qarasam,
 Tog‘dan tushib kelar bir odam.
 Bu o‘zimizning Maqsud «Melisa».
 Tik qoyadan o‘zni otdi u,
 Pisand qilmay aniq o‘limni,
 So‘ng archaga minib oldiyu,
 Tishi bilan yechdi qo‘limni.
 Men chayqalib boraman otim,
 So‘qmoq yo‘ldan asta ketmoqda,
 Maqsud esa oldda borar jim.

Erkin Vohidov

ISTAMBUL FOJIASI
(She’riy dramadan parcha)

Nega hayron bo‘lasizlar? YO chet ellarda
 O‘zbeklarning borligini bilmasmidingiz?
 CHo‘chimangiz. Men xoin yo josus emasman.
 Men bir xazon yaprog‘iman. Taqdir shamoli
 O‘z bog‘imdan yiroqlarga uchirib ketgan.
 Tanitmoqchi emas edim. Lekin o‘ylasam,
 Keyin armon bo‘lar ekan. Mayli, aytaman.
 Lekin bitta shartim: gap shu yerda qoladi,
 Na bu joyda, ne Vatanda biror kimsaga
 Men to‘g‘rimda so‘zlamaysiz.
 Tanimading, yo tanishni istamading. Sen -
 Qahramonning akasisan, shunisi ma’qul.
 Qabih chindan ko‘ra ezgu yolg‘on yaxshiroq.
 Sen aytgancha bo‘lsin, gapim yolg‘on, afsona.
 Hech cho‘chima. Sha’ningga dog‘ tushurmayman. Yo‘q!
 Men o‘lganman. O‘lganimcha qolaman. Ammo,
 Bir o‘tinchim – onam tirik bormi – shuni ayt.
 Ayt, yashirma. O‘zimni fosh qilmayman ishon.
 Faqat onam o‘lgan bo‘lsa, aza ochaman,
 Yig‘lab-yig‘lab yuragimni yozaman, xolos.
 Agar tirik bo‘lsa, sendan bitta iltimos:

Jigarlik qil, ukang ado eta olmagan
Vasiyatni sen bajargin.
(Qo‘ynidan tumor oladi)
Mana bu – tumor
Meni jangga kuzatarkan, onam bechora
Shuni tikib bergen edi. Aytgan ediki:
«Sen kemjamsan jangdan omon qaytasan. Axir,
Meni go‘rga qo‘yadigan o‘zingsan, bolam!
Bolam! Sening diydoringni ko‘rmagunimcha,
To qiyomat ilhaq bo‘lib yotaman. Bilki
Bo‘yningdagi tumor emas, onang yuragi.
Tilagim ham vasiyatim shuki, sen qaytgach,
Qachon vaqt qazo yetib dunyodan o‘tsam,
Shu tumorni o‘zing boshim ostiga qo‘ygin.»
(Sukut)
Onaginam, yuraging-ku meni asradi,
Men sutingni oqlolmadim. Beomon qismat
Bolangni o‘z Vatanidan benasib qildi.
(Jalolga)
Agar onam tirik bo‘lsa, jigarim, endi
Manna – tumor, vasiyatni o‘zing ado et.
(Saodat devorga suyangancha, Jalol boshini ushlab tebrangancha
lol. Sukut)
Demak... Onam o‘lgan. Meni kuta-kuta u,
Ilhaqlikda ado bo‘lgan. Kechir, onajon!
Kechir meni! Kechir meni! Men odammanmi?
Egasi yo‘q, sanqib yurgan bir qari itman.
Benavoman, bedavoman.
Qani endi, halok bo‘lgan do‘stlarim kabi
Mangu sukut og‘ushida, rohatda yotsam.
Endi kimman? Na o‘lik, na tirik bir vujud,
Ko‘zi ochiq, qadam tashlab yurgan qabrman.
Men tanlagan dunyo? Menda tanlash huquqi
Bormi edi? Sargashta jon uchun dunyo – bir.
Ummonlar bir, sahrolar bir, daryolar ham bir,
Odamzod boshidagi savdolar ham bir.
Dunyo ikki bo‘sa, sarhod bormi o‘rtadi?
Bir otayu bir onaning ikki farzandi
O‘rtasida, demak, endi tubsiz jarlik bor...
Qani ayt, men qaysi olam, qaysi jamiyat,
Qaysi vatan odamiman? Ajrim qilib ber:
Meni o‘zbek ona tug‘ib, alla aytdiyu
Nemis ona olib chiqdi ajal domidan.

Bir olamda ko‘z ochdimu boshqa olamda
Umrin o‘tdi – endi qaysi dunyo nomidan
So‘zlamog‘im kerak? Menga tushuntirib qo‘y.
Sen emasmi u?
Sen-ku meni o‘z uyimdan begona qilgan.
Ukang sevgan qizni xotin qilib yashashga
Hech bo‘lmasa elu yurtdan uyalmadingmi?
Xalq ko‘ziga qanday qarab yuribsan? Uyat!
Uyat! Sendek aka bilan bir uyda emas,
Bir zaminda yashamoqdan nomus qilaman.
Nega bunday qilding? Nega? Javob ber hozir!
Nega meni yuragimni sug‘irib olding?
Meni kechir, tanalarim bari alamdan,
O‘z yurtimga qaytaman, bas, meni olib ket.
Kemada bir joy topilar, o‘rin bo‘lmasa,
It singari bir burchakda yotib ketaman.
Bu yerlarga tashlab qo‘yma meni, jigarim.
Vatan, meni tuprog‘ingdan begona etma,
Zarin xatli sag‘analar menga kerakmas
Oq marmardan pog‘onalar menga kerakmas,
Menga faqat bir quloch yer bersang, kifoY.

Muhammad Yusuf

AMIR TEMUR
(She’rdan parcha)

Jahongirning qabrin ochgan kazzoblar,
Biri olim, yana biri arboblar.
Jondek yashab o‘tdirlaru olamdan,
Amir Temur ruhi meni azoblar.
O‘shal kun sen qayda eding bolam der,
Qo‘log‘inga yetmadimi nolam der.
Meni qo‘zg‘ab nima topdi olam der,
Amir Temur ruhi meni azoblar.
Tirik ersam tinmasdiku yarog‘im
O‘lik jondin na istarlar qarog‘im
Qo‘lim qayda, der qayda bosh chanog‘im.
Amir Temur ruhi meni azoblar
Bu qandayin ko‘rgulik, yo rabbanoh,
Yovuz yotdan yer ostida yo‘q panoh.
Bobur qayda, der, qayda Mironshoh
Amir Temur ruhi meni azoblar.
Dunyo topdim, deydi dunyo yig‘madim

Men el uchun ot ustida uxladim.
Nahot endi o‘z go‘rimga sig‘madim
Amir Temur ruhi meni azoblar.
Men, ne qilay
Men bir ojiz bandaman
Ruxlar bilan bir jonusi bir tandaman
Uzr so‘rab har kun Samarqanddaman
Amir Temur ruhi meni azoblar.

Dushan Fayziy

ONAIZOR
(She’rdan parcha)

«O‘g‘lim kelar» degan shirin xayolda
Orziqib o‘tkazdi ona kunlarni.
Eshikka tikilib, shunday axvolda
Sanadi necha kun, necha tunlarni.
Umid qilgan edi: balkim tuzalib,
Gospitaldan chiqib kelib qolar deb
Hech bo‘lmasa, axir otpuska olib
Biror xaftagina mehmon bo‘lar deb,
Yaxshi niyat bilan o‘g‘liga atab
Uzum, qovun osdi uyni to‘ldirib.
O‘zining bog‘idan bir-bir saralab
Olma terib qo‘ydi parvona bo‘lib...
Yo‘q! Sarob bo‘lishdi tilak-orzular,
Bir oqshom o‘g‘lidan yana keldi xat.
-Nahot, hat ortidan o‘zi ham kelar,
Nahotki yaqindir sevinchli soat?
Xatni ochib o‘qir shu dam shoshilib:
«...Onajon, yo‘l usti shu xatni bitdim
Gospitaldan chiqdim... sog‘lom ishqilib,
Yana jang qilishga, frontga ketdim...»
Shundan so‘ng o‘g‘lining o‘chdi daragi
Mana, ikki oyki – na xat, na xabar.
Endi o‘g‘liningmas, titrab yuragi
Har kun pochtalyonning yo‘liga qarar.
Kuz ortidan sekin o‘tmoqda qish ham.
Ammo, xamon xabar yo‘qdir o‘g‘lidan
Ona idoraga qatnar dam-badam
G‘aroyib fikrlar o‘tib ko‘ngidan.
O‘sha kuz oqshomi, umid yulduzi
Charaqlab ko‘ringan ekan so‘nggi bor.

Shundan so'ng onaning intizor ko'zi
U yulduzni qaytib ko'rmadi takror.
Shunda singan ekan ko'ngil oynasi
Uchib ketgan ekan qo'lidagi qush.
Tamom bo'lган ekan shunda hammasi
Endi ular bari go'yoki bir tush!
Go'yo to'xtab qoldi chalib turgan soz,
Qurib qoldi go'yo oqib turgan suv.
Go'yoki uzilgan yangragan ovoz,
Go'yoki ko'rsatishdan to'xtadi ko'zgu!
Ona o'ylov bilan kunni kech,
Uzun kechalarni o'tkazar uyg'oq.
O'ylab oxiriga yetolmaydi hech.
So'ngra o'z-o'zini etadi so'roq:
Tirik bo'lsa, nega qilmaydi xabar!
Nahot, so'ngan bo'lsa mening quyoshim!
Nahotki kuyida bo'lsam darbador,
Og'zimda oshim-u, ko'zimda yoshim?!

Shum xayollar, keting mendan yiroqqa!
Teskari aylanmas hech qachon quyosh!
Faqtat ona qalbi chidar firoqqa.
Ko'zim ochiq ekan qilaman bardosh!

Aleksandr Pushkin

RUSLAN VA LYUDMILA
(Poemadan parcha)

Sohibjamol, suluv Lyudmila,
Kun tig'ida yugurding xiyla,
Hording, tindi ko'z yoshlaring ham,
Va ko'nglingda o'yladingki: bas!...
Maysazorga cho'kdi; shu nafas –
Yoyiladi oq chodir shinam,
Bosh ustida salqin soyabon;
Ham oldida to'kin dasturxon,
Tovoq-qoshiq billurdan nuqlu.
Jimjit shohlar ichra noguhon
Chiltor yangrab qoldi shu zamon.
Tutqun beka xayratda butkul.
Lekin, o'zi maxfiy o'ylardi:
«Asiraman, yiroqlarda yor,
Ortiq hayot menga na darkor!
O, yovuz hirs, faje ishq dardi,

Sen, e ko'zdan g'oyib jafokor,
Ham umid, ham berguchi ozor,
Qo'rqinch emas na hukm, na hiyla,
Va pok o'la olur Lyudmila!
Darkor emas na soyaboning,
Na kuy va na mo'l dasturxoning,
Tinglamayman, tuz ham totmayman!
Bog'laringda o'lib ketgayman!»
Beka shunday o'yldardi yakka,
O'yldadi-yu – tushdi yemakka...

Aleksandr Pushkin

**O'LIK BEKACH VA YETTI BAHODIR
HAQIDA ERTAK
(Parcha)**

Yuz ko'rishga otlanib,
Malika xo'b bezanib.
Ko'zguga telmuribdi,
Unga savol beribdi:
«Men emasmi dunyoda
Hammadan ham ziyoda.
Oppoq go'zal va yaxshi
Yuzim yuzlarning naqshi?»
Ko'zgu depti shu mahal:
«Hech shubhasiz sen go'zal,
Lekin bekach dunyoda,
Hammadan ham ziyoda!
U oq, go'zal va yaxshi
Yuzi yuzlarning naqshi».
Malika sapchib ketishi,
Qo'llarini musht ketmish,
Ko'zguga bir tushirmish,
Yer tepinib do'q urmish.
«Ax past ko'zgu yaramas,
So'zlarining bari g'araz.
Qanday menga teng bo'lsin?!

Tazirin beray o'lsin.
O'smay o'lgur yaramas!
Oqligi bejiz emas:
Onasi ekan bo'g'oz,
Qorga termulgan, xolos.
Ayt mumkinmi hech mahal,

U bo'lsa mendan go'zal?
 Uning qanday haqqi bor?
 Men go'zalman: bo'l iqror.
 Elu-yurtni izlasang,
 Jahonni sinchklasang.
 Yo'qdir menga teng suluv.
 Shundaymi?»
 Depti ko'zgu:
 «U baribir dunyoda,
 Hammadan ham ziyoda,
 Oppoq go'zal va yaxshi,
 Yuzi yuzlarning naqshi!»
 U, nihoyat o'rtanib,
 Hasad o'tida yonib,
 Ko'zguni tez olibdi,
 Ham sandiqqa solibti.
 Chaqirib qora qizni
 Ham shoh qizi uksizni
 «Olib borib to'qayga,
 Odamsiz xilvat joyga.
 Oyoq-qo'lini bog'la,
 Tiriklay bag'rin dog'la!
 Deb aytibi cho'riga -
 Yem bo'lsin u bo'riga».

Aleksandr Pushkin

BALIQCHI VA BALIQ HAQIDA ERTAK
(Parcha)

O'tdi hafta ketidan hafta,
 Kampir tag'in mindi qahriga.
 Baliq tomon yo'lladi cholni:
 «Tez bor, ta'zim qilgin baliqqa,
 Ortiq men begoyim bo'lmayman,
 Poshsho xotin bo'l mish xohlayman!»
 Qo'rqib ketdi chol, shunday dedi:
 «Eshak miya yedingmi, kampir?
 Yurish-turish nima – bilmaysan,
 Poshsholik masxara bo'ldimi?»
 Kampir battar mindi qahriga,
 Chol yuziga tarsaki urdi:
 «Qora dehqon, qanday botinding,
 Kim qo'yipti senga so'z aytmoq,

Menga, menday begoyimga-ya?
Yaxshilikcha jo'nab qol deyman,
Jo'natgayman bog'lab bermasang».
Chol dengizga qarab yo'l oldi,
Moviylengiz qora rang oldi.
Chaqirdi u baliqni suvdan,
Baliq chiqib so'radi undan.
«Nima kerak senga, chol bobo?»
Ta'zim qilib so'z aytadi chol,
«Poshsho baliq, holimga achin!
Kampir tag'in boshladi g'avg'o?
Bo'lmas emish ortiq begoyim,
Bo'lur emish erkin malika!...»
Oltin baliq beradi javob:
«Qayg'urmagil, tangri yor bo'lsin!
Mayli, kampir bo'lur malika!»
Chol qaytdi tez kampir yoniga,
Qarasaki shohona qasr,
Qasr to'rida ko'rinar kampir,
O'tirardi malika bo'lib,
Xizmatida beklar, amirlar
Asl sharob quyib bermoqda,
Ham malika quymoq yemoqda.
Atrofida talay yasovul,
Yelkalarda oyboltalari,
O'rab turar edi bahaybat,
Buni ko'rib qo'rqib ketdi chol.
Va so'z aytar yetti bukilib.
«Savlatli malikalar, salomalaykum
Shoyad endi to'Igandir ko'ngling!»
Qayrilib ham boqmadikampir:
«Tez haydang!» deb buyurdi, xolos.
Sakrab turib beklar, amirlar
Cholni sudrab hayday soldilar.
Yasovullar eshik yonida
Sal bo'lmasa chalayozdilar.
Mazax qilib qoldi oloman:
– Qilig'ingdan topting nodon chol.
Bundan keyin bo'lg'usi saboq,
O'z ko'rpaningga qarab cho'z oyoq!
O'tdi hafta ketidan hafta,
Kampir battar mindi qahriga,
Erini izlatlar chopar yuborib,

Cholni topib keldilar axir!
Kampir shunday dedi choliga:
«Jo‘na tag‘in baliq yoniga
Ta’zim qilib, o‘tingin darrov,
Bo‘lmaqayman ortiq malika,
Dengiz shohi bo‘lish istayman,
Xizmatimda tursin baliq ham,
Baliq bo‘lsin menga chopovul!»
Botinolmas so‘z aytishga chol.
Bo‘laolmas kampir so‘zini;
Tag‘in bordi moviy dengizga,
Qora quyun ko‘rar dengizda;
To‘lqinlar o‘shqirar g‘azabkor
Ham to‘lg‘anar, ham uvlar tinmay,
Chol chaqirib baliqni suvdan,
Baliq chiqib so‘radi undan:
«Nima kerak senga chol bobo?»
Ta’zim qilib unga aytar chol:
«Poshsho baliq, holimga achin,
Jonga tegdi la’nati kampir,
Ortiq bo‘lmas emish malika
Dengiz shohi bo‘lmish istarmish.
Va dengizda yashay istarmish,
Sen ham borarmishsan xizmatga,
Bo‘larmishsan, unga chopavul».
Bitta so‘z ham demadi baliq,
Suvga urib dumini faqat,
G‘oyib bo‘ldi dengiz tagiga.
Javob kutib turdi sho‘rlik chol
Uzoq qolib dengiz bo‘yida
Qaytdi kampir yoniga axir,
Ko‘rsa: tag‘in o‘sha yerto‘la,
Bo‘sag‘ada o‘tiraz kampir,
Qarshisida teshik tog‘ora.

Sulton Akbariy

GIRDOB

(Dostondan parcha)

...Chotqol tog‘larining bir hovuchida
Gulkosaday turgan Bahmal qishlog‘i,
Tungi zilzilaning devkor kuchidan
Tars ajralib ketgan devorlar og‘zi,
Ohori to‘kilmagan kallaqand cho‘qqi,
Harsang yorig‘ida ochilgan tosh gul,
Ishqning yozilmagan baytini o‘qib,
Gul hofizi bo‘lgan betoqat bulbul,
Qiz tanasin o‘pgan oyna buloqlar,
Hammasini Nigor xotirda saqlar.

Tog‘lar o‘rkachidan tun qorong‘usi
Ko‘tarilib, qushlar rizq tilaganda,
Yiltillarkan soylar, o‘zgarib tusi,
Yaproqlarni shamol tortqilaganda,
Ashulaga solib qalbin, havasin,
Yolg‘izoyoq yo‘ldan soyga tushardi.
Qayqdandir yelib kelgan nay sasin
Mushtoq bo‘lib tinglab, hissi jo‘shardi.
Soy labida suvga barg tashlab xushhol
Qiz tushmagur, nenı ochar edi fol.

Umr-oqizoqdir. Tog‘ suvlarida
Bolaligi oqib ketdi xas kabi
Hayo sultanatin qo‘rquvlarida,
O‘pich bermas edi qimtilgan labi.
Bo‘yi yetib, yumshoq ko‘ksi qabarib,
So‘lqillashi bir «oh» uzgudik bo‘lgach,
Sevgi kurtaklarin qobig‘in yorib,
Qiz jamoli tiniq ko‘zgudek bo‘lgach,
Jo‘raqul-la uni so‘kmoqda xoli
Uchrashtrigan edi taqdir shamoli.

Jo‘raqul ham uzoq yerdan keladi
Yelkasida to‘ni, boshda tagdo‘zi.
Birdan... kimni ko‘rdi? Tushimi o‘nggi?
Mayin taralardi ashula mungi.
Yora yurgan ko‘chalarini
Supurib sochim bilan
Changi chiqsa suv sepayin
Ko‘zdagi yoshim bilan.

– Tasaddug‘ing bo‘lay!
Nigor alqarday
Bir seskanib tushdi hayo, hayiqish...
Xayollari to‘zg‘ib kapalaklarday
«Voy, o‘lmasam, kimsiz?» dedi boyaqish.
– Shaharlikman. Ish-pish topilmikin?
– Qaydam.
– Suvingizday xo‘play, yaxshi qiz.
Va Jo‘raqul unga yondoshdi sekin.
– Ayamga aytaman... yomon ekansiz...»
Umidlari qalbdan shivirlagan sas
Va’da qilar edi muhabbat, havas.

IV. MUSIQALI PARCHALAR

BARQAROR QO'SHIQ
(To 'ychi Hofiz xotirasiga bag 'ishlanadi)

Bir necha xonanda, qo'shiq aytdi. Shu payt bug'doyrang, qosh-ko'zi tim qora, qomatdor, mardona yuz bir notanish yigit o'rnidan turdi. U bosh egib hukmdorga ta'zim bajo keltirdi-da, qo'lidagi torni sayratib yubordi. Uning ovozi baland, juda yoqimli edi. U hozir kuyi-qo'shig'idan boshqa hech nimani eshitmas, ko'rmas, o'zidan mumnun. Kuyga mahliyo edi. Hukmdor qo'shiqnini ayni avjida qo'l ko'tardi, keyin chapak chaldi, unga hamma vazirlar ergashdi. Xonanda dovdirab alangladi, hushimi yig'ib oldi-da, qasrdan chiqib ketdi. Hofizning yuragi achishdi, yigit uchun, qo'shiq jangini boshlashga qasd qildi.

Qora ko'zim kelu mardumlig' emdi fan qilg'il,
Ko'zim qarosida mardum kibi vatan qilg'il.
Yuzing guliga ko'ngul razvasin yasa gulshan,
Qading niholiga jon gulshanin chaman qilg'il.

Tanbur sasi qasri birdaniga egallab oldi, go'yo bu sado hukmdorni bahslashuvga chorladi. Tug'yonkor kuy kulgi va g'ovurni bosib ketdi. Hofizning sehrli nafasi qasrdagilarni tobora hayratga solardi. Sarxushlikdan hukmdor tebrana boshladi. Hammaning ko'zi unda edi. Endi butun qasrdagilar barovar tebranar, hamma baravar qo'shiq aytayotganday edi. Go'yo Hazrati Navoiy asoga tayanib jilmayib turar, ohang maqomiga o'zlarini hamdamlashardilar:

Gulob ila yuvu gul bargidan kafan qilg'il,
Navoiy anjumani shavqijon aro tuzsang yoray.
O – o – o.

U qo'shiqnini to'xtatganida odamlar go'yo ulkan belanchakda tebranayotgandek edilar. Hukmdor boshini ko'tardi. Hali sarxushligi tarqalmagan edi. Shu oromni buzgisi kelmadimi, har qalay jilmayib asta chapak chalib qo'ydi. Sersoqol xudoysi irg'ib turib, navkar ko'tarib chiqqan zarbon to'nni hofizga kiydirdi, barkashdag'i bir siqim tillani uning kaftiga to'qdi. Hofiz kutilmagan voqeadan hayratda edi. U qaddini g'oz tutib, hukmdorga ta'zim qildida, qasrnining yumshoq gilamini bitta-bitta bosib, viqor bilan chiqib ketdi.

T.Fozilov

QO'SHIQ SEHRI

Mahallamizda Murodjon degan bir ajoyib bola bor. U bola dutor chertib qo'shiq aytganda barcha tashvishlar esdan chiqib ketadi go'yo. Murodjon

mahalladagi 32-maktabning 10-«B» sinfida tahsil oladi. U ko‘p qiynalgan, onasidan erta ajralib yetim qolgan, otasi bo‘lsa, onasining vafotidan keyin ancha siqilib yurak xastaligi dardiga yo‘liqdi va tez-tez yuragi sanchib kravatga mixlanib, uch-to‘rt kun yotib qoladigan bo‘lib qoldi. Murodjon har kun mактабдан kelar va choy damlab otasi bilan birga tushlik qilishar edi. Murodjon maktabga ketganida men uning otasidan xabar olib turar edim. Juma kuni edi. Murodjon maktabga ketgandi. Men Murodjonning otasi Marifjon akadan xabar olgani chiqdim va achninarli bir holni guvohi bo‘ldim. Murodjonning otasi kravatda g‘ujanak bo‘lib yotar, timmasdan ingrardi. U meni ko‘rgach, Murodjonni chaqirib keling deb iltimos qildi. Chunonam chopdimki qanday maktabga chiqib qolganimmi bilmayman. Murodjon darsda ekan. Men uning domlasidan so‘rab, Murodni uygatuz olib keldim. Murodjon tezda otasiga dorisini ichirib tinchlantirdi. Murodjon otasining har xastalanganida qo‘shiq aytib tinchlantirishga harakat qilardi. Bu gal ham u so‘riga osib qo‘yilgan dutorini olib shunday kuyladiki, otasi ham og‘riqni unutgandy bo‘ldi. U shunday deb kuylar edi:

Kuyla dilkash, kuyla dilkash dutorim,
Tinglab orom olsin sevikli yorim.
Qalb sadosi bo‘lib yangra qo‘limda,
Tinglab orom olsin sevikli yorim.

U qo‘sinqdan to‘xtaganda otasi uxbab qolgan edi. U dutorini qo‘yib dars tayyorlashga kirishdi. Kun ham o‘tdi. Ertasiga tong otgach, otasi o‘rnidan turdi va ko‘rmaganday bo‘lib ketdi. Murodjon shunda qo‘sinqning sehriga chindan ham amin bo‘ldi.

Abdulla Qodiriy

**MEHROBDAN CHAYON
(Romandan parcha)**

Xuftondan keyin uylardagi qizlar birin-ketin katta tanobiyga yig‘ila boshladilar. Keyin childirma qizitildi va dutor, tanbur, g‘ijjak, chang kabi cholg‘ular sozlandi. Qizlar o‘zaro bazmga hozirlanar edilar va har kech ham bazm bilan ko‘ngil yozar edilar. Qizlar maxsus nazokat bilan chalar edi. Sozga yo‘lboshchilik qilgan childirma yarim tovushda gumburlar, qo‘ng‘iroqlari shing‘irlar edi.

O‘rtadagi o‘yinchil qulliq qilib sahnadan tushdi. Uning o‘rniga Nozik qo‘zg‘oldi. Nozik sahnaga chiqishi bilan childirma ham boshqa kuyga o‘tdi.

– Bak-bakang, bak-bakang...

Childirmaga qizlar zamonlangandan keyin, ikki o‘rtadan uzun va sho‘x bir kuy tug‘ildi. Nozik o‘rtada, xiromon bir tarafga o‘tgan edi, qizlarning ba’zisidan soz kabi sho‘x va nafis ohang eshitildi:

Ochilganda lolalar, terib olgan bolalar,
Ayting-chi xolalar, o'tgan do'ndiq sozmidir?
Termulganim bilmasa, pisandiga olmasa
Rahmi kela qolmasa, menga qilgan nozmidir
Chekkan jabrim ozmidir?

Nozik o'ynar, qizlarning ashulasiga a'zo harakati bilan tasdiq ishorasini berar va bunda nafis bir san'at ko'rsatar edi.

Abdulla Qodiriy

**O'TGAN KUNLAR
(Romandan parcha)**

Qizlar majlisi – gullar, lolalar, to'tilar, qumrilar majlisi!
Uyda Kumushbibining tog'asini uyida, qizlar majlisi, gullar majlisi!

Bu uyga 30,40 chandalik qizlar, yigitlar yig'ilishidan maqsad: qizlar o'zlarining eng latif, eng go'zal bir a'zolarini bugun xotinlik olamiga uzatmoqchidirlar. Bu uzatish majlisini jonli, ruhli o'tkazmoq uchun barcha qizlar o'zlarining eng asl, eng nafis kiyimlarini kiyib favqulodda yasanib husn olamini yana bir qat, yana bir qayta bejabdirlar. Agar bu uyga kirib bu majlis a'zolarini bir marotaba ko'zdan kechirsangiz, hozirdanoq aytib qo'yish mumkinki, albatta esingiz chiqib ketar.

Bu gulmi ko'hli, yo'q narigisi? Yangalar Kumushni hovlidan turib qizlarga topshirdilar:

Qutlug'...

Kumushbibi uyning to'riga o'tkazildi. Qizlar uning tevaragiga o'tirishib olganidan keyin nima uchundir bir jumjitlik kirdi. Qizlar ma'noli qilib yer ostidan Kumushga qaraydilar. Majlisda bir xil mayuslik! Qizlar nimani o'ylaydilar va nima to'g'risida mayuslanadilar, bu esa qizlarning bizga noma'lum bo'lgan ichki sirlaridir.

Majlisning bunchalik ruhsizlanib, mas'uliyat ichida qolishiga Gulsunbibi chidab turaolmadi:

– Biz nima uchun yig'ildikda, nimaga yer chizishib o'tiribmiz?! – dedi, –
Biz bu yerga aza ochgali keldikmi?

Gulsunbibining yoniga Xonimbibi qo'shilishdi:

– Ko'p o'ylashmang o'rtoqlar, baribir bu gap hammamizning boshimizda bor. Tur Sora! Hovliga olov yoqib childirmani qizit! Anorgul, sen dutoringni ol!
Kumushbibi siz uncha xayol surmang, kulib o'tiring.

Kumushbibi ham ixtiyorlik, ixtiyorsiz – bu kulgulikka tortinib u yuvvoshgina iljaydi, yoqutdek lablari ostidagi sadaf kabi oq tishlari bir oz ko'rinib qo'ydi. Shu gapdan keyin majlisga kutilmagan bir ruh kirdi. Anorgulning qo'lidagi dutor «O'rtoqlar» kuyin tanlarga larza bo'lib tarona qildi. Xonimbibi qizlarga

qistanib o‘tirmay, o‘rnidan sakrab turdida, o‘ynab ham ketdi. Dutor yoniga childirmaning chertmachi kelib qo‘shilgandan keyin:

«O‘rtoqlarim qo‘lga olsam torimni,
Baxtiyor yodlaydurman yorimni.
Shu choqqacha mo‘ltayib xayol,
Ichida sho‘ng‘ib o‘tirgan».

Kumushbibi bir seskandida qo‘shiqchi qizlarga qaradi. Qizlar 2-chi baytga o‘tdilar:

Bir ko‘rinib maftun qilgan ko‘nglimni,
Qaytib yana ko‘rolmadim norimni.

Shu payt kutilmagan joyda Kumushning ikki ko‘zi yoshga to‘lgan edi. Uchinchisiga o‘tdilar:

«Agar ko‘rsam edi yana yorimni,
Bag‘ishlardim hamma yo‘g‘i-borimni?»

4-chi!
Bilurmikan, bilmasmikan u zolim,
Kunlar, tunlar tortgan ohu zorimni.

Kumush toqatsizlangandek edi. 5-chi!

Chinni aytинг, o‘rtoqlarim men sizga,
Qayta boshdan ko‘rарманни yorimni.
Ketdi toqat, ketdi sabrim ketdilar,
Sindirарман yerga urib torimni..

Bu keyingi baytga qulоq soluvchi qolmади, chunki yонидаги qizga ochilib yig‘lay boshlagan Kumushbibiga har kim taajjubda, har kimning ko‘zi-qulog‘i shunda edi.

- Nima bo‘ldi, Kumush?
- O‘zim, – deydi.

Kumush juda hafa ko‘ringanlikdan uning ko‘nglini ochmoqqa to‘g‘ri kelar edi. Shuning uchun boshqa o‘yinlarni qo‘ya turib majlisning eng qiziq tarafi bo‘lib sanalgan lapar aytishga ko‘chdilar. Shu yo‘sин qizlar o‘zlarining bir o‘rtoqlarini xotinlik dunyosiga uzatib majlisdan tarqalishdilar.

Mirzakalon Ismoiliy

FARG‘ONA TONG OTGUNCHА

(Romandan parcha)

1. Oydin kechada

G'ulomjon tilga olinmagan, lekin hammalari tushunib turgan dahshatli zARBANing og'ir yukini hujrasiga ko'tarib kirdi. Tokchadagi chiroqni yoqib, xontaxtaga keltirib ko'ydi. Kechadan beri g'ashlik kemirib kelgan qalbining yig'isini eshitayotgandek, ko'zlarini yumib, bir zum xontaxta ustida turdi. O'z ahvoli, hayotining ahvoli, onasining yotib qolgani yoqasiga chang soldi. «YO Olloh iltifotingda yana qanday zarbalarin bor?» deb o'yladi-yu, sekin xontaxta yoniga o'tirdi. Oldiga oq qog'oz qo'yib, dovotni yoniga surdi. Ichida qaynagan xislar bulog'i qo'liga qalam oldirdi. Dilidan o'pirilgan faryod qog'ozga ko'cha bordi.

Ko'ngil, yig'la fig'oning ko'kka chiqsin!
O'ting olsin falakni, osmonni yo'qsin!
Yovuz taqdir tig' urdi qalbima, dod!
Netay endi tugadi sabrim, hayhot!

Dilim dardli, tilimda ohu zorim,
Qorardi tolsimdan ro'zg'orim,
Safolat boshimni yerga qaratdi,
Shirin orzu-umidlarni taratdi.

Qayon ursam fig'on birlan boshimni?
Qayon borsam to'kib ko'zdan yoshimni?
Sevarga sevdirib, tangrim qilib xor,
Ochiq ketkizmagin ko'zimni zinhor!

G'ulomjon navbatdag'i satrga qalam urganda hujrasining eshigi sekin ochildi. U yalt etib qaradi-yu, otasini ko'rib, qalamini xontaxtaga qo'ydi, o'rnidan qo'zg'olib, otasiga joy ko'rsatdi.

– Ha huzur o'tiravering, – dedi otasi o'tirishga ko'nmay, – bir og'iz gapim bor, aytamanu chiqib ketaman. Hayriyat, onangizning ahvoli ancha tuzuk bo'lib goldi, isitmasi ham qaytdi. Boya achchiqqina xo'rda qilib qo'yuvdim, ichib oldi. Inshoolloh, ertaga turib ketar, bamaylixotir yotavering.

Otasi chiqib ketgandan keyin G'ulomjon bo'linib qolgan satrni davom ettirmoqchi bo'ldi. Lekin miyasiga bir o'y keldi-yu, satr davomi kelmadi. Onasining ahvoli yaxshilangani bezovtaligini birmuncha pasaytirdi. U o'rnidan turib tashqariga chiqdi. Osmonda yulduzlar charaqlar, to'lin oy sharqdan chiqib kelar edi. Oyni ko'rib, yuragi oydin bo'ldi.

2. Talpingan qalblar oromi

Oydin kecha, hammayoq oppoq sutga cho'mganday. Osmon g'ubosiz – bir pacha bulut yo'q.

G'ulomjonlar katta yo'l bilan emas, dala yo'li bilan sekin-sekin gaplashib bordilar. G'ulomjon vujudni yondiruvchi hislar bilan to'lib toshmoqda, yurak o'ynashi oshmoqda edi. Orqasidagi og'ir yukni tashlab, ovozining boricha: «Men baxtiyorman, axir baxtimni topdim!» – deb butun dashtga qichqirgisi, yonida jimgina borayotgan sevgilisining bag'riga o'zini otgisi kelardi.

Bir-biriga talpingan, zoriqqan ikki qalb so'zsiz, oh-vohsiz bir-biriga yopishdi. Ko'zlar yonar, yurak o'ynar, baxt qaynar edi.

– Nahot, nahot kechamizning tongi keldi, Hayotim? – deydi harorat bilan G'ulomjon. – Endi biz qafasdan uchgan qush, parvozimiz, navozimi o'zimizda, o'z ixtiyorimizda, istagan yerga qo'nish baxtiga egamiz, azizim!

G'ulomjon sevgilisining yuzini silab o'tirarkan, bir mahal Hayot hujrada aytgan ashula esiga tushib ketdi.

Yor, seni izlab ushal borgan kezim yodingda tut,
Ko'zdagi yoshlar bilan bergan so'zim yodingda tut.
Rozidil qilgan o'shal ohu ko'zlaringga termulib,
Lola yanglig' la'l olib yongan yuzim yodingda tut.
Ne jafo hajringda chekdi bir g'arib xovdek kuyub
O'zgamas kuygan ko'zim, kuygan o'zim yodingda tut.
E, G'ulom bilsam agarki sidqu ishqning zurrasin
O'lganimda ketmagan ochiq ko'zim yodingda tut.

Ashula oxiriga yetay deganda, shahar tomondan bir ot chopib o'tdi. G'ulomjonning yuragi nima uchundir shig' etib ketdi. Hayot ham darrov boshini ko'tardi. Unda ham g'alati xislar paydo bo'ldi. Havotirlanib G'ulomjonga qaradi. Shu payt shahar tomondan yana bir otliq chopib keldi. G'ulomjonning ko'ngliga xunuk gaplar kelib, ko'ngli bejo bo'lmoqda edi.

– Xilvatroq joy bo'lsa o'tib olsakmikan-a? – nihoyat so'radi Hayot. G'ulomjon xilvat joy axtargani ketdi. Lekin tez qaytavermadidi. Hayot havotir bo'lib o'tirdi. Oy allaqachon G'arbg'a o'tib, qir orqasiga cho'kaboshlagan edi. Hayot oyga qaradi. Qaradi-yu, qir tepasida kelayotgan otliqni ko'rib esi chiqib ketdi. Otliq to'g'ri Hayotga qarab tushib keladi. Hayotning yuragi chiqib ketayozdi. Yo'q ellik qadamcha qolganda, hayriyat, otni chapga burdi-da, shahar tomonga choptirib ketdi. Bir vaqt G'ulomjon hovliqib keldi.

– Endi adirdan oshib qochamiz, naryoq tinch, qishloq yaqin, ketdik, – dedida yigit, yukni orqalab qirga tirmashdi. Hayot G'ulomjon orqasidan yetib bordi. Qir baland edi. Yarmiga yetmay halloslab qolishdi – yuk, vahima tepa ham baland. Nafasni o'nglab olmoqchi bo'lishdi. Otlar dupuri yaqinlashib qolmoqda edi. G'ulomjon o'midan sakrab turdi, butun vujudi g'azab bilan, inson nomiga isnod keltiruvchi mahluqlarga nafrat bilan to'lgan edi. U o'zini shu qadar tetik-dadil his qillardiki, Hayot uchun o'lim sari boruvchigina o'zini shunday tutishi

mumkin edi. Darhaqiqat uning uchun qolish yoki o'lish payti kelgan edi. Otliqlar hamma yoqdan qurshab olishdi. Mirqosim zug'um boshladi:

– Birovning xotinini qayoqqa olib qochmoqchi eding it qori! – dedi u, masxarali g'azabni qilib.

G'ulomjon Hayotni ikki qo'llab bag'riga oldi. – Bu mening Hayotim! Sen, iflos og'zingni yum! – dedi u, so'nggi jumlaga butun g'azabini nafratini joylab, Ot bostirib kelaverdi. G'ulomjon otni jilovidan ushlab to'xtatti. Shu vaqt orqadan boshiga qamchi tushdi. Hayot dodlab yubordi. G'ulomjon qizni qo'yib, orqasiga tashlandi. U yerda otliq Mirqosim. Ikkinchı qamchi tushirishga shaylanib turardi. G'ulomjon qoplondek sakrab Mirqosimning yoqasiga chang soldi, tortib otdan ag'dardi.

Hayot faryod solib Soli Sovuqqa tashlandi. Uning yuzini timdalab, ko'ziga chang soldi. Lekin qo'li o'tib borolmadi. Soli Sovuq qiz ko'kragiga musht urdi, keyin yuz ko'ziga qaramay qamchilay ketdi. Hayot faryod qildi.

– Dod! O'ldirdi!

G'ulomjon Mirqosimni bo'g'ib yotgan yerida Hayot tomonga qaradi va Hayotni Soli Sovuq shafqatsiz qamchilayotganini ko'rib, unga tashlandi. Gardaniga gurziday mushti bilan tushirdi. Soli Sovuq munkib borib yerga qapishdi. Qo'lidagi qamchisini tortib olib, Hayotga berdi.

Orqadan Juman Pismiq bilan yana ikki kishi kelib G'ulomjonga yopishdi. Mirqosim G'ulomjonning yuziga zarba bilan qamchi urdi. G'ulomjonning ko'zlarida dahshatl o't chaqnadi. Qulqlari juda qattiq zing'illadi. Ana shundan keyin ko'zlarini ochaolmadi. U nihoyat gandiraklab yiqildi. Shunda ham tinch qo'ymadilar. G'ulomjon, nihoyat hushidan ketdi. Undan keyin uni qamchi urdilar, Hayotni dod solib yordamga intilganini, mahluqlar qo'lidan chiqoalmaganini bilmadi. Mirqosim G'ulomga talpingan Hayotni otga o'ngarib, Soli Sovuq G'ulomni otga o'ngarib qishloqqa qarab ketishdi.

3. G'ulomjon hayot kuyini tinglashi

G'ulomjon uyga kelgani uchun, onasini sog'-salomat ko'rgani uchun xursand edi. Qorong'i bo'lsa ham hovlisiga, xosli to'ridagi sevgili majnuntolga sog'inib qaradi. Majnuntolni, qurg'ab yotgan bechora hovuzini ko'nglida har xil shirin so'zlar bilan ardoqladi – «Yaqinda sizga hayot keladi, yana yashnab ketasiz!» – deyar ekan, «Hayot so'zimi yo xayol ko'zimi», Hayotini ko'z o'ngiga keltirdi. Hayot xuddi shu yerdadek, xuddi nafasi kelib turgandek bo'lib ketdi. Hatto quoqlariga hayotbaxsh, dilkash qo'shig'i ham eshitilganday bo'ldi.

«Nahotki», – deb yuborganini o'zi ham bilmay qoldi G'ulomjon. Undan, yopiq darcha orqasidan Hayot tovushi kelmoqda edi. Go'yo G'ulomjon yuragi chiqib ketishidan qo'rqiayotgandek qo'lini ko'ksiga bosdi, juda asta, sharpasiz qadamlar bilan darcha oldiga keldi. Darcha tirkishlaridan chiroq yorug'i tushib turardi. U kelganida ichkaridagi ovoz, go'yo sharpadan hadiksiragandek to'xtadi.

G‘ulomjon darchani ochishga ham, kirishga ham qurbi yetmay, turgan yerida turib goldi. Bir ozdan keyin dutor yana yangradi. G‘ulomjon butun vujudi bilan darchaga yopishib tingladi. Kuy etishilmagan, g‘amgin mungli edi. Unga payvand bo‘lib shu so‘zlar oqib chiqdi.

Yor seni izlab o‘shal borgan kezim yodingda tut!
Ko‘zdagi yoshlar bilan bergen so‘zim yodingda tut!
Rozidil qilgan o‘shal on ko‘zlaringga termulib,
Lola yanglig‘ la’l olib, yongan yuzim yodingda tut!
Ne jafo jahringda chekdi bir g‘arib kovdek kuyib,
O‘zgamas kuygan o‘zim, kuygan ko‘zim yodingda tut!
Ey G‘ulom bilsam agarki, sidqi ishqing zarrasin,
O‘lganimda ketmagan ochiq ko‘zim yodingda tut!

G‘ulomjon nafas olmay tingladi. Nafas olsa jon bahshidan, dilkashidan ayrilib qoladigandek jim eshitdi. Shu g‘azaldan keyin yana jimlik cho‘kdi. Dutor ham, shirin ovoz ham tindi. Keyin dutorning devorga suylagani, Hayotning o‘rnidan turgani eshitildi.

O‘lmac Umarbekov

QIYOMAT QARZ
(Hikoyadan parcha)

Ular zalga kirishdi. Liq to‘la odam. Sahnada uch g‘ildirakchali aravachada bir yigit o‘tirib kuylardi. Mirsidiq avval qanday ashula ekanligini anglay olmadi. Sahnaga ko‘zi tushdi-yu, yuragi orqasiga tortib ketdi. Umrida yig‘lamagan odam, ko‘zlaridan yosh chiqib ketganini bilmay qoldi. Yoshini artib ashulaga qulq sola boshladni. Xotamjon «18 yoshimdadir»ni aytar edi. Ha, Abduqodir aytganicha bor ekan. Bu yigit go‘yo ashula uchun yaralganday edi. Birdan qarsak ko‘tarildi. Zalga yoshgina bir qiz chiqib zalga nimadir e’lon qildi. Xotamjon aravachasining g‘ildiraklarini g‘ildiratib itarib, oldinga chiqdi, zalga qandaydir iliq bir nazar bilan ilmayib boqdi-da, yangi qo‘sishq boshladni. Zalga jimlik cho‘kdi. Xotamjonning nihoyatda shirali, tiniq ovozi qo‘sishq so‘zlarini kishi yuragiga quyib, hayajonga solardi:

Kuyla, sozim, kuyla, tinma,
Kuyla, kuy bu – shodligim.

Bog‘laru qirlar, adirlar
Senga jo‘rdir shodligim.

Mirsidiq qo‘sishq tinglar ekan, allanechuk bo‘lib ketdi, so‘zlari tanishdek tuyuldi. Qachon, kimdan eshitgan ekan. Bu qo‘sishqni? U diqqat bilan Xotamga

qaradi. Qirra burni yonidagi moshdek xoliga ko‘zi tushdi-yu, hang-mang bo‘lib goldi. Nahotki... nahotki o‘sha, bundan 7-6 yil ilgari o‘zi operatsiya qilgan yigit shu bo‘lsa?! Mirsidiq zarb bilan sherigini turtdi.

- Menga qara, Xotamjon Toshketda davorlanganmidi?
 - Ha, – dedi Abduqodir.
- Mirsidiq yanglismabdi. Bu o‘sha, Xotam... Xotamjon Do‘sinboyev...
- Ha, bu yigit unga tanish.

O‘lmas Umarbekov

SHIRINSOY OQSHOMLARI

(Hikoyadan parcha)

Qishloq qizlarining sho‘x-o‘ynoqi yallalarini etishsang, Shohimmardonning shifobaxsh buloqlaridan to‘yib-to‘yib suv ichgandek bo‘lasan, g‘uboring tarqalib, rohatlanasan.

Nazira qishloqqa tushib kelgan kunning ertasigayoq qizlar uni o‘rtaga olib, qo‘sish ayttirishgan edi. Yo‘q deganiga qo‘yishmadi. Shunda u qandaydir laparni utila-tutila aytib, zo‘rg‘a qutilgan edi. Hozir u ikki qo‘lini iyagiga tirab, deraza yonida o‘tirarkan, daladan qaytayotgan qizlarning yallalarini eshitib, negadir shu voqeani esladi. O‘shanda bir chekkada daraxtga suyanib turgan Qosimjon ham: «Yo‘q, demang, aya qoling. Baribir qutulmaysiz» – degan edi. Qosimjon shunday demaganda, Nazira qizlarga quloq solmasdi. Bilmayman, deyardi-qo‘yardi. Lekin nega Qosimjonning so‘zini qaytara olmadи? Yaxshi ko‘rinmoqchimidi unga?

Nazira bir xo‘rsinib qo‘ydi. Yo‘q yaxshi ko‘rinaman desa, bilmagan narsasini aytarmidi? Ishqilib, nima bo‘lsa ham lapar Qosimjonga yoqdi. Qizlarga qo‘silib chapak chaldi. Keyin... Keyin... Mehamxonagacha kuzatib qo‘ydi. Xayrlasha turib, qo‘lini mahkam siqdi. Endi-chi. Endi bunday qilmaydi... Kechqurunlari qolmaydi. Qolsa ham endi baribir Naziraga buning ahamiyati yo‘q. U uylanyapti. Boya to‘yga aytib ketdi. «O‘zingiz bosh bo‘ling», dedi. Bosh bo‘ling, emish. Nimaga? O‘zining eshsiz sevgisigami? Yo‘q, u ketadi, ha ketadi.

Nazira derazani berkitdi, siqilib ketdi shekilli, yana ochdi. Chuqur ux tortdi, boshini kichkina qo‘llari ustiga qo‘ydi.

Shu payt kimdir deraza oldidan o‘tib ketdi. Ketidan yana kimningdir sharpasi eshitildi. Ko‘p o‘tmay, mehmonxona qarshisidagi klub odamlar bilan to‘ldi. Kimdir dutor chala boshladи. Bu Sherali bo‘lsa kerak, Nazira darrov angladi. Sherali dutordan hech ajralmaydi. Ishga ham olib boradi. Bo‘sh qoldi deguncha, ting‘illatgani-ting‘illatgan. Ana, kimdir ashula aytib yubordi. Kim bo‘ldi ekan? Biram yaxshi aytayaptiki... Nazira beixtiyor quloq soldi.

Quralay ko‘z yigitga
Ishqim tushdi,
Tush ko‘ribman tushimda
Meni quchdi.

Meni quchma, topganing

Men emasman.

Va'dasi yo'q yigitni

Yor demasman.

«Va'dasi yo'q yigitni yor demasman»... Va'da... Va'da bergenmidi?
Shunchaki, keling, birga ishlaymiz degan edi, xolos. Birgina shu gapi bilan
kelaverdimi?

Nazira oldida turgan Qosimjonning suratiga tikildi va beixtiyor xayol surib
ketdi.

Oybek

NAVOIY
(Romandan parcha)

Arslonqul xali o'tirgan joyiga keldi. Uyoq-buyoqni aylanib, havoza
bo'yicha yuqori chiqqanini o'zi ham sezmay qoldi. So'ng gumbaz atrofiga
o'rnatilgan yog'ochga suyanib uzoqlarga ko'z tikdi. Azamat qo'rg'onlarning
qo'ng'iralari yashilliklar orasida diqqat bilan qaragan sari birin-ketin gavdalanadi.
Arlonqulning ko'zlariga, nogohon, uzoqda sarv yog'ochlari bilan band katta soxa
ochildi: «Ha, bu «Bog' jahon aro» emasmi? Naq o'zi... Ana, hiyobonlar» dedi, o'z-
o'ziga. Boshini yog'ochga tirab: o'zini yo'qotgan kishiday uzoq tikildi: «Kim
biladi, Dilorim balki shunda yashar. U hozir yasanib-tusanib, pariday, shu hiyobon
salqinida kezib yurar. Podshoning garchi yuzinchi xotini bo'lsayam, meni
batamom unutib yuborgandir, balki!» Yigitning ko'kragini qayg'u to'lqini qopladi.
U chuqur xo'rsindi. Keyin o'z-o'zini ovitmoqchi bo'lganday birdan kuyladi:

Ko'zingni qarosi balo,

Netay men unga shaydo!

Arz-xolim yetkur

Chamandan esgan sabo!

Borib ayting turgaylar,

Bu g'arib kimni poylar.

Mendan kuyganmi Majnun,

Shuncha yil shuncha oylar.

Chertma do'stim torimni,

Elga yoyma zorimni.

Tushda ham ko'rolmayman,

Xirotdagi yorimni!

Murod Muhammaddo 'st

O'G'IL
(Hikoyadan parcha)

Ona-bola dahlizdagi muzdek suvgaga yuvinib olishdi. So'ng bostirma tagidan aravachani chiqarib, unga to'rtga alyumin bidonni joylashtirishdi.

Ko'p o'tmay, ular yo'lga tushdilar. Tolmas aravachani sudrab ketayotgan otasini yetaklab borardi, yo'l notejis edi. Aravachaning ko'pdan beri moy ko'rmagan g'ildiraklari ayanchli chiyillar, u har silkinganida ustidagi bidonlar taraqlab ketardi. Guzardagi kimsasiz choyxona yoniga yetishganida, ota qadamlarini sekinlatib, xazin ovozda ashula boshladi.

Bu g'ariblik kulfati ko'nglimga ko'p kor ayladi,
Qildi bag'rim poralar, jonimni afgor ayladi.
Yordi ko'ksim, ezdi bag'rim, oh, bu dardi firoq,
O'rtadi minkin tanim, yer birla hamvor ayladi...

«Mashrab g'azali»

– Ota, shu qo'shiqni qori buvayam aytadi-ya?... – bola qo'qqisdan savol berib, ashulani bo'ldi.

– Uyam menga o'xshagan so'qir, shunga aytadi-da... – ota shunday deb jim bo'lib qoldi.

– Faqat u bizday yaxshi aytolmaydi... – dedi bola bir ozdan so'ng.

– Nega?

– Bilmasam... Ishqilib, u yaxshi aytolmaydi...

– Qori buvang onadan ko'r bo'lib tug'ilgan. U daraxtning yashilligini, oftobning nurlarini hech mahal ko'rmagan, shu tufayli ehtiros bilan qo'shiq aytolmaydi.

– Ehtiros nimadir?

– Ehtirosmi? U nimadandir zavqing oshganida, kayfing chog' ekanida paydo bo'ladi. Qori buvangga osonroq, o'g'lim. U ranglar nimaligini bilmaydi, unchalik o'kinmaydi, unchalik o'kinmaydi ham. Men ko'zim ochiqligida hamma narsani senga o'xhab ko'rardim, endi bo'lsa... – ota og'ir xo'rsindi...

Anvar Eshonov

YIGIRMA MILLION OPPOQ KABUTAR
(Hikoyadan parcha)

O'sha kuni Sumbula ham tuni bilan uxmlay olmadi. Ko'zlarini yumgan sari Orif ro'yrost ko'rinar edi.

Daryolarning narigi boshi,
Bergi boshi, yor-yor.
Suvda bitgan qamishmikan,
Qizning qoshi, yor-yor.
Qoshlarining orasiga,

Olsa meni yor-yor.
Oshiqlikning bozoriga,
Solsa meni yor-yor.

Orif qo'shiq dil-dildan aytardi. Eshitganni sel qilardi. Bu qo'shiqni necha bor eshitib, qiz ham qo'lidagi o'smasini qoshiga qo'yolmay, qotib qolardi.

Orif askarlikka chaqirilgan kuni, ular daladan xomush qaytishdi.

– To'xtang. Sizni ham olib ketishadimi? – deb so'radi Sumbula.

– Boshqalardan nimam kam?

Qiz indamay qoldi. Qo'llari titrar, yuragi gupillar edi.

– Men sizni... – qiz so'zining u yog'ini aytolmadi.

– Men ham... – yigit ko'zları yonib, yalt etib qaradi. Orif qizga tasalli berib gap boshladi.

– Sumbula bu katta urush bo'ladi. Xali dunyo bunaqasini ko'rghanmas. Lekin biz bo'sh kelmaymiz... Meni kutasanmi?

– Yo'lchibekdek sarg'ayib kutaman. Bemor tongni kutgandek kutaman.

Ilojimiz qancha, ko'pga kelgan to'y ekan.

– O'qning ko'zi yo'q-da.

– O'q nomardni quvlaydi.

– Xovotir olma. Nomardlik qilmayman. Yoshgina umrimga, senga, muhabbatimga achinaman, xolos.

Orif ayasini bag'ridan chiqib, qizning yelkalariga boshini qo'ydi. Sitilib ketay deb turgan oq kuylagiga ikki qatra yosh tomdi.

Bu qizning butun vujudini o'rtab, yelkasini kuydirgandek bo'ldi.

– Xayr. Oy borib omon keling, – qizning ko'zlarida yosh qalqidi.

Mahkam Mahmudov

O'LMAS QOYALAR (Hikoyadan parcha)

Hozir O'rta Osiyoda kuz hukm surardi. Sibirda qish... Bunday kezda yo'l yurish xavfli edi. Shul boisdan Bo'ronbek bilan Xolbek Kattabog'ga qaytishni bahorga qoldirishdi. Ular boshqa-boshqa hujralarda yashardilar. Ammo tez-tez suhbatlashib turardilar. Xolbek tuyakash o'z xonasida yolg'iz onlarda yurakni tilkalovchi hazin ohangda mana bu qo'shiqni yig'lab-yig'lab aytgani-aytgan edi.

Oq ilon oppoq ilon,
Oydinda yotganing qani?
Men yomondan ayrib,
Yaxshini topganing qani?

Tuyakash 40 yoshlarga kirgan: uvoq, ozg'in, ajinsiz yuzi suvi qochgan nondek qattiq, qora, yumaloq, kichkina ko'k ko'zi odamga qo'rqqanday, yalinganday boquvchi bir kishi edi. U kuylaganda ko'zlar benihoya g'amgin tus olar, yoshta to'lar edi. Bo'ronbekning derazasi unikiga burchak shaklida ro'baru bo'lidan u buni ko'p marta ko'rgan edi.

Sababsiz qo'shiq, yig'i, dard tug'ilmaydi. Buni Bo'ronbek bilan undan: «Nechuk doim shul qo'shiqni aytasiz, og'a?» deb so'rар, ul esa har gal gapni boshqa yoqqa burar edi.

G 'afur G 'ulom

**SHUM BOLA
(Qissadan parcha)**

Xayr-xo'shni nasiya qilib, biyobonga yo'lga soldim. Osmon uzoq, yer qattiq. Qayerga yetib borayotganimi o'zim bilmas edim. Oldinda biror mo'ljallagan niyatim ham yo'q edi.

Asr bilan shom o'rtasida ro'paramdan katta bir daryo chiqib qoldi. Men bu yerlar bilan tanish bo'lmanim uchun, bu daryoning qaysi daryo ekanini va ismini ham bilmas edim. Daryodan kechib o'tish mashaqqat ko'ringanday, suzib o'tish ham qiyin edi. Orqaga qaytuv mumkin emas edi. Daryo qirg'og'ida birorta ulovli yo'lovchini kutar edim. Oldindan katta daryo chiqib qolgan mashhur sayyohlarning ashulalarini suvning sharqiroq oqinlariga qarab kuylar edim:

Daryo toshqin, suvlar to'lqin
O'tolmaymana-a, yor-yor...

Otim oriq, manzil uzoq
Yetolmayman-a, yor-yor.
Otginamni oriq qilgan
Shu mayda tosh-a, yor-yor.
Rangginamni sariq qilgan
U qalamqosh-a, yor-yor.
Oppoq uring-a,
Hech tommasin-a.
Jonom yorim-a, yor-yor.

Daryolarning ul yuzida
O'ylaringiz-a, yor-yor.
Oqarishib ko'rindi
Bo'ylaringiz-a, yor-yor.
Ipdanmidi, ipakmidi
Kiyganingiz-a, yor-yor.
Bizlardan ham ortiqmidi

Sevganingiz-a, yor-yor.
Oppoq uring-a,
Jonom ko‘zim-a,
Alyor bo‘lsin ey, yor-yor.

Daryolarning ul yuzida
Oltin ko‘za ey yor-yor.
Oltin ko‘za taglarida
Bir juft g‘o‘za ey yor-yor.
Oltin ko‘za ko‘tarmakka
Bilak kerak ey yor-yor.
Bu daryodan kechish uchun
Yurak kerak ey yor-yor.
Oppoq uring-a,
Jon musofir-a,
Chanqov ketsin ey yor-yor.

Deb bir hovuch suvni lazzat bilan shimirib turgan edim, gard namoyon bo‘ldi. Gard orasidan oq baytalga mingan bir uzumchi paydo bo‘ldi. Suvdan kechmoqchi bo‘ldi. Men uning bariga yopishib, meni ham o‘tkazib qo‘yishni iltimos qila boshladim. Uzumchi: «Otim oriq, yangi qulunlagan, yukim ko‘p, ikkita devday kishi bitta baytalga mingashga uyat bo‘ladi», – deb bahona qilsa ham, xiralik qila berdim. Noiloj qolib, o‘tkazib qo‘yishga majbur bo‘ldi.

Bu daryoning nomi Kalas deb atalar ekan.

Saida Zunnunova

BO‘YLARINGDAN O‘RGILAY
(Hikoyadan parcha)

Men uzoqda tiniq osmonda qalqib yurgan oppoq bulutlarga tikilar ekanman, qo‘nimiz Tojixon bilan Jo‘ra akani o‘ylardim.

U paytlarda Tojixon 16-17 yoshlarga kirgan, chiroli qiz edi. Men Tojixonlarnikiga juda ko‘p kirardim. Bir kuni ularnikiga kirganimda Tojixon devor teshigidan qo‘snnisi Jo‘ra akalarnikiga mo‘ralayotgan ekan. U meni ko‘rib, qip-qizarib ketdi.

– Tag‘in birovga aytib yurmang, xo‘p-mi? – dedi hijolatlik bilan yalingan ohangda va chiroli ko‘zlariga allaqanday bir xayol cho‘kib, sekin ashula boshladi.

Bo‘ylaringdan o‘rgilay,
Ko‘zimga o‘tdek yonasan.

O'sha kurnlardan birdaniga mahallamizdan ancha yigitlar armiyaga ketishdi. Jo'ra aka ham ketdi. Shundan keyin Tojixon uzoq vaqt ashula aytmadni, men uning kulganini ham ko'rmadim.

Shunday kunlarning birida Tojixon juda zerikkan ekanmi kinoga boraylik deb qoldi. Kechasi kinoni ko'rib, qaytayotib sekgingina Tojixondan so'radim.

– Dunyoda toq o'tasizmi? Jo'ra aka kelmadilar-ku...

Tojixon ancha fursatdan keyin bir xo'rsindida, mayin, o'ksik ohangda dedi,

– Nima qilay, har kimning ko'ngli har xil bo'lar ekan... Boshqa birovni ko'nglimga sig'dirolmasam, nima qilay.

Kunlar bir xilda o'tib borardi. Keyin urush tugadi. Mahallamizdan ketgan yigitlarning ko'pi kelmadi. Jo'ra aka qaytmadi. Lekin undan qora xat ham kelmadi. Undan hech qanday xabar yo'qligidan Tojixon u tirik, albatta keladi deb tunu-kun kutardi. Biroq kunlar, hatto yillar ham yorug'lik xabar keltirmadi.

Yoz edi. Ariq bo'yida behi tigiga qo'yilgan chorpoymada Tojixon bilan suhbatlashib o'tirgan edik, qo'shni yo'lakdan odamlarning g'o'ldir-g'uldir ovozi eshitildi. Shu payt darvoza sekin taqilladi-da, asta ochildi. Qorachadan kelgan, kunning issig'iga qaramay kostyum kiygan barvastagina qirq yoshlarga borib qolgan bir kishi kirdi. Uning ko'zları menga juda-juda tanish edi.

– Jo'ra aka, – Tojixon uning istiqboliga yurdi, keldingizmi, hayriyat... U entikib boshqa gapirilmadi. Jo'ra aka sog'inch nazari bilan unga uzoq tikildi.

Abdulla Qahhor

KAROVOT (Hikoyadan parcha)

G'anijonning xotini tug'may yurib-yurib birdaniga qo'chqorday o'g'il tug'ib berdi.

Mana shu G'anijon shu o'g'ilchasisiga karovot olgani rayon markaziga bordi, ko'ziga eng chiroyli ko'ringan karovotchani oldi va otiga o'ngarib qaytib olib kelmoqda edi.

Yo'l bo'yidagi ariqlar afti burishganicha muzlab qolgan daraxtlar cho'ltoq supurgiga o'xshaydi. Qisqasi kishini bahri dilini ochadigan hech narsa yo'q. Shunday bo'lsa ham G'anijon gasht qilib otining oyoq tashlashi va suvlikning ishqalishi maqomiga ashula aytib borar edi.

Hay-hay mening yorimsan,
Tanimdagi jonimsan,
Qorong'u kechalarda
Yondirgan chirog'imsan.

Paxtaobod qishlog'inining chiqaverishida yo'l bo'yida o'tirgan kimdir qo'lini ko'tarib G'anijonga bir nima dedi. Shu onda orqadan gurillab avtomobil kelib qoldi-yu, G'anijon uning nima deganini eshitmadni. Ot avtomobildan hurkib, hiyla yergacha surib ketdi. G'anijon qaytishga erindi-yu, ketaverdi. Biron kilometr yo'l bosgandan

keyin shu yaqin o'rtadan miltiq tovushi chiqdi. Tepalikdag'i baqaterakdan gurr etib ko'tarilgan bir to'p qarg'a qag'-qug' deganicha har tomonga uchib ketdi. Qarg'alarning qag'illashi G'anijonning sovuqni va yo'l bo'yicha o'tirib haligi qo'lini ko'targan kishini eslatdi. Kim ekan u, shu sovuqda ko'chada o'tirgan. Nega qo'lini ko'tardi-yu, nima dedi. Bemahalda yo'lga chiqqan biron yo'lovchi ekanu, otinga mingashtirib ol dedimikan? Unday bo'lsa o'rnidan turmadi, G'anijon beixtiyor orqasiga qaradi-yu, yana yo'lida davom etdi, biron ashula boshlamoqchi edi, ko'ngli tinchimadi. Nega yo'l bo'yida o'tiribdi? Mingashtirib ol demoqchi bo'lsa, nega o'rnidan turmadi? YO kasalmikan. Agar shunday bo'lsa yaxshi bo'lmadi. Bordi-yu askarlikdan bo'shab kelayotgan biron invalid bo'lsachi? G'anijon darhol otini boshini burib orqasiga chopdi, lekin haligi joyda hech kim ko'rinnadi. Tovush chiqardi hech kim javob bermadi. Shu atrofni ko'p qidirdi, topolmadi. Negadir o'sha odam albatta invalid degan fikrga keldi. Nazarida u oqsoqlanib qishloqqa kirib borayotganday bo'ldi. Ot qo'yib qishloqqa kirdi. Bir necha kishini to'xtatib so'radi. Hech kim o'sha odam men yoki shunday odamni ko'rdim demadi. G'anijon piyoda jo'nagan ekan ko'rmabman degan gumon bilan yana orqaga qaytdi, yaqin 2 km yergacha yo'lning ikki tomonini sinchiklab ko'zdan kechirib ot chopdi, yana qaytdi. Shunday qilib G'anijon uyiga yarim kechasi keldi. Uning avzoyi shunday ediki, xotini qo'lidagi chiroyli karovotga ham qaramay,

– Voy o'lay nima bo'ldi? – deb so'radi.

– Hech... charchadim – dedi G'anijon, lekin bo'lgan voqeani xotiniga aytgani uyaldi. Bir uyquni olib turgan xotini yana uyquga ketdi hamki, G'anijon kiprik qoqmadni. U ko'zini yumishi bilan shinel kiygan oqsoq kishi ko'z o'ngiga kelar, ro'parasida qo'ltilq tayoqqa suyanib turib, «hali shumi mehru oqibat» deyayotgandek bo'lar edi. G'anijon tamaki chekkani turib, tokchadagi patnisni tushirib yubordi. Xotini uyg'ondi.

– Ha, nima qilib yuribsiz? Chiroqni ko'tarsangiz-chi!

– Tamaki qayerda?

– Nima qilasiz?

– Minib bozorga borib kelaman. Tamakini nima qiladi kishi? Chekadi-deddi G'anijon bo'g'ilib.

– Ha, namuncha kechasi tamaki chekadigan odatingiz yo'q edi, shunga so'radim, – erini bunday kayfiyatda hech ko'rmagani uchun xotini ko'ngliga g'ulg'ula tushdi. O'rnidan turib yonboshladi.

– Biron joyingiz og'riyaptimi? – Yo'q.

– Birov xafa qildimi? – Yo'q.

– Nega bemaxalgacha qoldingiz?

– Yo'lda ish chiqib qoldi.

– Nima ish? Nima bo'ldi? Ayting o'rgilib ketay ayting menga, aytmasangiz kimga aytasiz. G'anijon xotinining juda katta tashvishda qolganini payqab gapni uchini chiqardi.

– Kelayotsam yo'lda birov o'tirgan ekan. Qo'lini ko'tarib jon aka meni mingashtirib oling deganday bo'ldi.

- Kim ekan-u?
 - O‘rnidan turmadi, shundan gumon qildimki askarlikdan bo‘sab kelayotgan biron invalidmi... invalid ekanligi aniq!
 - Darrov mingashtirib oldingizmi?
 - Ot xarom o‘lgur surib ketib qoldi, qaytib borib topa olmadim. Chaqirdim, uyoq, bu yoqni qidirdim. O‘tirgan joyini otdan tushib qaramabman shunga yuragim g‘ash bo‘layotibdi. Yarasi yomonroq bo‘lsa ko‘ngli ozib, o‘sha yerda yotib qoldimi.
 - Voy, odam ham shunchalik beg‘am bo‘ladimi? Otdan tushib paypaslab qaramaysizmi? Endi nima bo‘ldi? G‘anijon irg‘ib o‘rnidan turdi.
 - Borib kelsammikan?
 - Shu vaqtgacha yotarmidi?
 - U-ku yotmas, birov olib ketar, lekin bu ahvolda biz yotolmaymizda. G‘anijon darrov kiyinib chiqdi va borib kolxoz otboqari Nasibalini uyg‘otdi. Nasibali mast uyquda yotgan ekan malol kelib gaplashdi.
 - Qayoqqa borasiz shu mahalda? G‘anijon gapni cho‘zmaslik uchun yolg‘on gapirdi. Amakimni o‘g‘li askarlikdan bo‘sab kelibdi, shuni ko‘rib kelaman. Nasibali darrov oxonaga kirib bitta otni yetaklab chiqdi.
 - Ot minganda odam sal orqa-oldiga qarab yuradi, – dedi qorin bog‘imi tortayotib, hali sal bo‘lmasa avtomobil urib ketayozdi.
 - Qachon?
 - Halichi, hali Paxtaoboddan chiqaverishda.
 - Qo‘l ko‘targan sizmidingiz, yerda nima qilib o‘tirgan edingiz?
 - Arpaga borgan edim.
 - E, salomat bo‘ling. Bo‘ldi ot kerak emas. Nasibali hayron bo‘lganicha qolaverdi. G‘anijon yugurbanicha uyg‘a keldi.
 - Nasibali ekan, Nasibali!
 - Bola emizib o‘tirgan xotini o‘rnidan turib beixtiyor.
 - Voy o‘lsin.
- Bir pasdan keyin er-xotin mojaroni unitishdi. G‘anijon karovotni bir tomondan ko‘tarib, – bu karovotni ko‘rdingmi, karovot olish mana mundoq bo‘ladi. Tug‘ishni senga-yu, karovot olishni menga chiqargan ekan, – dedi.
- Er-xotin xotirjam bo‘lib uyquga ketishdi.

Maqsud Qoriyev

SPITAMEN
(Tarixiy romandan parcha)

1. Iskandar va Dariyod

Dariyod Iskandarga e’tibor qilmadi, go‘yo hech narcha bo‘lmaqandek so‘zida davom etdi:

– Bu dunyoga kimlar kelib, kimlar ketmadi deysiz. Buyuk shoh-sarkardalar, allomalar... Siyovushdek jahon pahlavoni ham bir chaqmoqdek yonib o‘chdi. Kimlar jahonga hokim bo‘laman deb qanchadan-

qancha begunoh qonlarni oqizmadilar, ne-ne qishloqlarni, shaharlarni vayron qilmadilar!... Ammo yana xarobalar, kultepalar o‘rnida hayot paydo bo‘ldi, suv oqdi... Shunaqa, dunyoda hamma narsa o‘tkinchidir. O‘zimdan qiyos: bir go‘sht edim, o‘sib undim; kuchga to‘lib, hayot qurdim; yaxshi-yu yomon kunlar o‘tdi-ketdi... Mana endi, na bichim bor, na kuchim. Dariyod qo‘liga torini olib kuylay boshladi.

Yillar o‘tar asrlarga bo‘shatib yo‘lin,
Koshonalar, saroylar ham huvillab qolgay.
Gado shamdek so‘nib bitar, tutib shoh qo‘lin,
Shu yo‘sinda tengsizlikning o‘zi yo‘qolgay.

Iskandar yonida turgan tilmochga bir narsalar dedi-da, o‘tib ketdi. Kechqurun Dariyodni uning huzuriga keltirdilar. Qariya boshidan kulohini olib, Maroqand taxtida savlat to‘kib o‘tirgan Iskandarga «Meni nega taklif etding» degandek sovuq nazar bilan qaradi.

- Xas-cho‘pdeq qadrsiz mendek odamning jahon shohiga darkor bo‘lib qolganligidan taajubdaman.
 - Tilmoch uning so‘zlarini tarjima qildi. Iskandar miyig‘ida kului.
 - Dunyoda taajjublanarli ishlar ko‘p, – dedi u. – Mana sen, hozir borsan, hayotsan, bir daqiqadan so‘ng yo‘qsan... To‘g‘rimi?
 - Haq gapni aytding, ulug‘ shoh. Bu gap faqat mengagina emas, anovi kazokazolarningga, hatto o‘zingga ham aloqador.
 - So‘zga usta ekansan. Ayt-chi, ustozing kim?
 - Hayot sabog‘i-yu, xalq dahosi!..
 - O‘tkinchi dunyo haqidagi fikrlaring bilan nima demoqchisan? YO menga shama qilayapsanmi?
 - Hayotning qahri qattiq, shafqatsizdir. Qaytar dunyo deydilar... Kuni kecha shahanshohman deb pishqirib yurgan Dariyovush qani? Besschi? U xiyonatchi edi. Qilmishiga yarasha xor bo‘ldi...
 - Bas qil, juda haddingdan oshib ketding!
 - Ulug‘ shoh, mendan hafa bo‘lma. Lekin o‘zing ayt-chi, nega insonlar bir-biriga yov, bir-birini bo‘ridek g‘ajiydi? Nega?.. Chunki odam xam bir mahluq, unda barcha jonivorlarning belgilari bor. Birini ko‘rsang bo‘ri – tishini g‘ijirlatadi, biri qo‘y, biri tulki – dumini qisib yuradi... Mayli, bu gaplarim uchun boshimni kes, roziman, dunyo bir o‘ksikdan xalos bo‘ladi!
 - Tiling juda zaharli ekan!
 - Haqiqat achchiq bo‘ladi.
 - Tiling boshingga yetgusidir.
 - Bu yo‘lda ko‘p boshlar ketdi, ammo haqiqat qoldi, ulug‘ shox!
 - Sen kim bilan so‘zlashayotganiningni unutding chamamda?
 - Boshim ustida yalang‘och qilich turgandan voqifman.
 - Tilingni kesib tashlasam, nima qilasan?

– Dilim bilan so‘zlayman, haqiqat egiladi, ammo sinmaydi. Istahrada o‘n ikki mingta buzoq terisiga oltin va qon bilan yozilgan muqaddas kitob yondi. Bu bilan, bilsang aql-idrok yondi. Tarix buni kechirarmikin?!

2. *Sherdorning g‘alaba qo‘shig‘i*

Massagetlar sardori Xamuk bir so‘zli, abjir pahlavon, hech qanday dushman unga teng kelolmaydi. Agar jang maydonida na‘ra tortsa, dushman saflarida parokandalik boshlanadi. Qilich uning chap qo‘lida ham, o‘ng qo‘lida ham birdek o‘ynaydi.

Tariq bo‘lsa, janglarida pishib yetildi. Uni hamma yaxshi ko‘radi. Zo‘rtosh, Kamaklarni hech kim esidan chiqarmaydi. Ular So‘g‘diyonaning asl o‘g‘lonlari...» Sherdor ham ular bilan orqada kelardi.

– Hoy Sherdor, qayda qolding? – Spitamenning g‘o‘ldiragan ovozi eshitildi.
– Axir bugun ishlarimiz chakki bo‘lmadi-ku, nega jimsan? Qani, boshla, bu ezilgan yuraklarga orom ber! Orqada kelayotgan Sherdor bir oz oldinroqqa o‘tdi-da, xalq jangchilariga yoqib qolgan o‘zining shirali ovozi kuylay ketdi.

Boshim olib qayga yo‘l tutay,
Ayirsalar o‘z qavmimdan va kazolardan?
Jamoatda tan olmasalar, men neni kutay
Rad etsalar men soxta shohlar, kazzoblar.

Ibodating qanday ado aylay, ey Xormuzd?
Dilda ayon nochorligim, o Mazda, menga!
Podalarim kamdir mening, kamdir sodiq do‘sit,
Do‘siga yordam bergen kabi qo‘llagil meni.

Halq qasoskorlari o‘rtasida mashhur bo‘lgan bu qo‘shiqning oxirgi bandlarini hamma jangchilar barvariga aytishardi. Qo‘shiq vodiy bo‘ylab go‘yo qanot bog‘lab uchayotganday...

3. *Spitamen va Sherdor*

Spitaman o‘z lashkarlari bilan cho‘l oralab Maroqand sari borardi. Tun. Mayin shabada yuzlarga uriladi. Kecha jimligini qurol-yarog‘larining sharaq-shuruqi, otlarning kishnashi buzzdi. Oqliqlar orasida kimdir qo‘shiq boshladi:

Nurafshon Yimaning shohlik zamoni,
Na sovuq bor edi va na bir issiq.
Ko‘rmasdi kasallik odamlar joni,
Bo‘lmasdi devlardan paydo bo‘lgan suq...

Hoy qo‘shiqchi, qayerdasan, nega jim bo‘lding? Ayt, baraka topkur! – dedi kimdir baland ovozda.

Otlar tuyog'idan chiqayotgan tovush go'yo qo'shiqqa jo'r bo'layotgan do'mbiraning gumbur-gumburidek eshitilardi. Spitamenga qo'shiq qattiq ta'sir qildi.

– Bo'sh kelma, azamat!

Bu gap qo'shiqchining zavqiga zavq qo'shdi:

Javob ushbudir: men – Zardo'sht, imon menga tug‘,

Seni sharaflayman, dushmanim – durug‘!

So'rigan chog'ingda: «Qaroring nedir»

«Olovga sig'inmoq uzra xayolim...»

Qo'shiqchining mayin va sehrli ovozi ulug‘ maqsad yo'lida bel bog‘lagan dovyurak qahramonlar qalbiga ilhom baxsh etardi. Qorong'u kechada Somon yo'li yulduzlariga qarab borayotgan oqliqlarning yuzlari dagi hayajonni bilib bo'lmas, ammo ularning qalb urishlari, fikr-tuyg‘ulari bir-birlariga ma'lum edi.

– Hoy, qo'shiqchi, rahmat senga, qani bu yoqqa kel-chi, – chaqirdi Spitamen.

Suvoriy safdan chiqib, Spitamenga yaqinlashdi.

– Sherdormisan?! Taajublandi Spitamen.

– Ha men...

– Seni suratkash desam, yaxshi qo'shiqchi ham ekansan-ku!

4. *Navro'z*

Birdan qiy-chuv bo'lib qoldi, ovqat tayyorlayotgan qiz-juvonlar bir-birlarining yuzlariga un surtishmoqda edi. Hammaning diqqati endi o'shalarga qaratildi.

– Ravshanakning yuziga sur! – dedi cho'pchakli ayol.

– Kimdir o'choq tepasida turgan eski ko'za, tovoqlarini sindirishga tushdi.

Boshqalar ham unga qo'shilishdi. Navro'z kuni eski-tuski narsalar qolmasligi kerak. Uylardagi yirtiq-yamoqlar ham gulxanlarga tashlandi. Sindir-sindirdan keyin Axuramazdaga iltijo qilish boshlandi. Sochlari to'zib ketgan, semiz bir ayol o'rtaga tushib, jazavasi tutguncha har xil harakatlar qila boshladi. Boshqa ayollar ham unga qo'shilishdi. Ular terlab-pishib, og'izlaridan ko'pik sachratib iltijo qilardilar. Birdan shu g'aroyib harakatga mos mungli qo'shiq yangradi. Qo'shiqni olcharang uzun ko'yak kiygan xushro'ygina ayol aytardi:

Tog'larda tuman o'ynasa-yo, xo‘,
Ostida arslon ingrasa-yo, xo‘,
Ajdaho-ilon sachrasa-yo, xo‘,
Qo'rwmagan odamni ko'rsam-o, xo‘!...

Boshqalar qo'shiqning so'nggi bandini bor ovozda takrorladilar. Ayol davom etdi:

Iliq suv bilan yuvsalar-ye, xo‘,

Yoqasiz to'n kiydirsalar-ye, xo',
Egarsiz otga mindirsalar-ye, xo',
Minmagan odamni ko'rmasam-o, xo'!...

Ular faryod chekishar, go'yo yuraklaridagi g'am-anduhlarini qo'shiq bilan,
talvasali harakatlar bilan to'kib solmoqda edilar. Kim holdan toyib yiqilib qolgan,
kim kular, kim yig'lardi...

Sopol idishlarida ivitilgan turshak, olma qoqi, shaftoli qoqi suvi keltirishdi.
Ular bundan yutoqib ichib, o'zlariga kela boshladilar.

Oybek

ULUG' YO'L
(Romandan parcha)

Umarali yuragidagi ishqini otashin so'zlar bilan qiz oldiga to'kdi, keyin dedi:

– Ha, biz kambag'allarning dardimiz ichimizda. Lekin, inoning Zumradxon, tunu kun xayolim sizda. Ishq devonasiman, kecha-kunduz ishq g'amini chekaman.

Ko'rdim ul xurshid husnin, ixtiyorim qolmadi,
Soyadak bir yerda turmoqqa qarorim qolmadi.
Bir o'zim o'lmaz tal'ating ko'rmaq tuyassar, ohkim,
Zarracha ul kun yoninda e'tiborim qolmadi.

– Yaxshimi? Go'zal va chuqur ma'noli nazm... – uzun uh tortib, so'zdan to'xtadi Umarali.

Zumrad tabassum bilan javob berdi:

– Mavlono Fuzuliyning g'azallari, dardli dillarga malham. Qani men ham siz kabi hamisha kitob o'qisam. Peshonam qursin. Kunbo'yi sillam qurib igna bilan ipak chatiyman... – dedi qiz mayus.

Boshimda sho'rim ko'p, bilmadim bu falokatdan nechuk qutulaman?

Umarali peshonasini ushlaganicha jim o'tirardi. U qattiq iztirob chekar, ammo noilojlikdan, nochorlikdan talvasada, sarosimada edi.

– Ishq dardi yomon narsa... dedi yonib Umarali, – Men ishqingizni mubtalosiman. Nahotki baxt qo'limdan ketdi!

Umaralining bu so'zi Zumradning barcha umidlarini ko'kka sovurib yuborganday tuyuldi. Bir zum sukutdan so'ng xo'rsinib o'midan turdi, «Xayr mulla aka!...» dedi faqat va tez yurib ketdi. Qizning yuzini yuvib, quyilayotgan qaynoq ko'z yoshlарini Umarali ko'rmadi. Ammo «Xayr, mulla aka!...» deganida qizning ovozi alamlı titrab ketganini sezdi...

V. MUSIQALI VA DRAMATIK MONOLOGLAR VA DIALOGLAR

Komil Yashin

NURXON (Musiqali dramadan parcha)

1. Artistlik osonmi?

Umr qanday shirin dunyo kelinchakdek yasangan. Qarang, quyoshning nurida oltin tasmaday yarqirab turgan shu ariqlar, hu yon bag'irlardagi serbargalar, maymalar. Qanday dilbar, qanday ishvakov. Men xuddi mana shu ko'm-ko'k parda ichida qanot yozgan ozod kabutarga o'xshayman. Har taraf bahor, ko'nglimda bahor, qo'shig'imda bahor.

Gul sochar el bog' aro, sarviravonim keldimu,
Jon isi guldin kelur oromijonim keldimu.

Qani endi bir rolimni ham ko'rib olay. Yergina yutsin, ro'dapo paranjini. Yergina yut... yut... Daftarim qayerda qoldi. Artistlikni oson ish deb o'ylar edim, o'larcha mushkul hunar ekanda. Ha, yergina yutsin soqov devor. Jonim men seni sevaman. Men seni... Ux, bu rolni tayyorlash juda qiyin bo'ldi-da. E... Haydar akam bilan bir ishlab ko'raychi.

2. Nurxon monologi

Nima?! Yo'lingdan qaytasan?!

Men ozodlikni mana shu yo'ldan topdim. Aka, o'zingiz aytinchchi, qafasdan bo'shalgan qush, yana qayta o'zini qafasga uradimi? Andisha qiling! O'zingizni ham, meni ham yosh halok qilmang. Dushman ig'vosiga uchmang! Akajon, qayting bu qo'rqinchli yo'ldan! E... tentak qiz... kelib-kelib shu munofiqqa yalinib, uning marhamatidan sadaqa so'rab shunchalik past ketdingmi? Yo'q, men bunga ko'rsataman! Bundagi ma'nosiz g'ururlik menday bir qizning mardligi oldida omonsiz yakson bo'lsin!

Aka, sen o'ta chirigan, uzilgan zanjirni qayta ulashga urinma! Men bu sovuq basharangdan mozor jimpitligidan ham qo'rqinchli bir sharpani sezayapman. Shumi bilki, jon berishga tayyorman, lekin yo'limdan qaytmayman! Hayot bilan mening o'rtamga baland tog'lar tikka qilsang ham, yuragimni bo'g'ib ozodlik qo'shiqlarimni uchirsang ham, yuragimdag'i orzu-rmonlarimni o'limning o'tli omburlari bilan o'yib-yulib tashlasang ham men bu yorug' yo'ldan qaytiayman!

Mana, o'ldir! Sanch pichog'ingni zolim!

O'rgilay onajon, sizga ko'p tashvish soldim. Bolalik qarzimni uzolmadim... Onajon, mehribon ko'ksingizga bir boshimni qo'ysam.

Yuzingdan bir o'psam.
Oh Umr qanday shirin.

Komil Yashin

OFTOBXON
(Musiqali dramadan parcha)

Oftobxon: Uh.. Etlarim jimirlab, yuragim allaqanday bo'lib ketdi. Hayriyat... Shunday qo'rqedimki. Ko'nglimga qanday xunuk gaplar keldi... Nega men qo'rqedim, a?... Nega yuragim o'ynadi?... Yo'q, hech gap yo'q. Hammasi vahima. Xat-xabar yo'q... Temirjon, koshkiydi, xatingiz kelsa, ko'zlarimga sursam, to'kilgan yuragimga darmon bo'larmidi. Kecha-kunduz fikru xayolim sizda. Uyga kelaman – siz yo'qsiz. Dasturxon yoziladi – siz yo'qsiz. Bir qoshiq oshni ham ilinib ichganimni bilmayman. Na ko'zimda uyqu bor, na jonimda halovat. Axir nega xat yozmaysiz! Yoki... Biron qanotli o'lim! Yo'q, yo'q, bunday xunuk o'ylarni boshimga keltirmay. Albatta qahramon bo'lib kelasiz, faqat ikki enlik xatingizga intizorman, xat yozing, jonim, xat!

Musiqqa

Ey, go'zal qushlar, beringiz mehribonimdan xabar,
Sevganim, kulgan bahorim, baxtu jonimdan xabar...
Ayriliqning otashida kuysa ham jonu tanim,
Sabr etay, kelsa Vatanga posbonimdan xabar.
Xushxabar kelsa quyoshday bo'lgum boshim baland.
Sog'inib, bitdi qarorim, bormi jonimdan xabar?

Hamza

PARANJI SIRLARI
(Musiqali dramadan parcha)

1. Xolisxon monologi

Bundan ancha yil ilgari buvim gaprsa yuziga qarab turolmasdim. Muhabbat bilan g'urbat bir tutsa o'limdan boshqa har kuyga kishi tushmay iloji yo'q ekan. O'zingning o'ldirishni iloji bo'limgandan keyin nima bilan yupanish odamga odat bo'lib, hud-behud nima qilganiningni bilmay qolar ekansan. Mening hozirgi ahvolimni ko'rgan kishi har nima desa rost. Lekin u tarafini bir yaratgan xudo bilan o'zim bilaman.

Qora sochim o'sib, qoshimga tushdi,
Na savdolar mani boshimga tushdi.
Ketma yorim, ketmayo, (jonim berayino ajab yora,
Sen ayrilding, men ham, sendan ayrildim ha do'st yora).

Oh, buvijon sizlar bilan o'ynab-kulib o'tirgan chog'larimni shunday sog'indimki, o'ylaymanki, kuya-kuya jigarlarim kuyundi bo'lgandir. Koshki gunohlarimni kechirishingizlarni ishongan bir kishim aytса edi. Supurundilaring bo'lishga ham rozi bo'lar edim. Bu iflos g'urbatxonaga rozi bo'lmay nima qilayki, xudoyimming rahmati, ota-on, qavmu-qarindosh, elu-yurt, sevgim tushgan, bo'yim tushmagan Rustambegimdan, hammaning dargohidan mahrum bo'ldim. Balki o'la-o'lguncha ham sizlar tugul yurtimning bir siqim tuprog'ini ham nasib qilmas.

2. Mastura va Norboyvachcha dialogi

Sahna ko'rinishi: yallachilarning boshlig'i Mastura yallamning uyi bo'lib, oliv darajada bezalgan. Shoyi, baxmal, adres ko'rpa va ko'rpachalar, ipakli gilam, toza parqular, harir odiyal, ipak qoziq ro'mol, pocha-po'stinlar o'z o'rinlarida to'shog'liq bo'lur. O'zining boshida chorsudan salla, belida kumush kamar, ko'ksida kumush tumor, qo'lida oltin uzuklar, oyog'ida amirqon etik, chorpahlu, Norboyvachcha bilan so'zlashish oldida parda ochilur.

Mastura: Kishi qo'ydirsangiz bo'lmaydimi?

Nor: Sizdan ortiq qanday kishi qo'yaman.

Mastura: Men sovchi deyman.

Nor: Ular menga ikki dunyoda bermaydi.

Mastura: Sababi?

Nor: Sababi, ikki xotinin bor, ikki kundoshning ustiga kuyov ko'rmagan qizni uncha-muncha odam, albatta bermaydi. Ikkilamchi, akasi bilan bo'lsa gostinitansa-gostinitsa otishganim-otishgan. Men nima ekanligim xo'p ma'lum. Uchlamchi, ular bizdan boyroq kishilardan ham, ularga bizning hech bir vaj bilan aloqamiz yo'q. Xullas, o'smoqchilab meni ermak qilmasdan, gapni ishkak kushodini gapira bering. Nima qilasiz, o'lishimga bir bahya qoldi. Paranjisi qursin, qaydanam shu pesni pinib Suqmozorga bordimu, o'zimga dardisardi ortdirdim keldim!

Mastura: Axir, siz qiziqsiz! Besh kun sabr qiling, kuyov-puyovga chiqsin, bir oy, yarim oy o'tsin, undan keyin asta-sekin qo'shlab ishga solaylikda... Hozirda u ko'z ochmagan qiz bolani men sizga qaydayam ro'para qilaman. Azizim karvonga ro'para qilib yegan tanbihim ham yetar! Pok Sibirga jo'novdim. Xudo xayrimi bersin shu zamonning amaldorlarini. Har qaysisiga birda-yarim ro'para qilib ham pulning kuchi bilan arang qoldim. Koshki, siz mundog' salvorlik, qimsinib o'tiradigan yigitlardan bo'lsangiz. Sizniki hammavaqt bor-baraka top, och bo'ridek tikka tashlaysiz.

Nor: Bir oy, yarim oy! Omon bo'!!... Bir kun, yarim kundan keling!...

(Turmoq istab). Xolajon, birgina arzim bor-da!...

Mastura: Hmm, bilaman, dardingizni uchrusqiz aytavering.

Nor: Endi...

Mastura: Ular katta dargoh, hazilni ko'tarmaydi, inim. Bir bevara bechoraning qizi bo'lsayam go'rga edi!

Nor: Ha, bunint shoxi bormi?!

Mastura: Albatta, hech narsasi bo‘lmasa pulning kuchi bor, o‘rgulay. Osonmi ular bilan kurashmoq!

Nor: (yana turib). Keling, xola. Hammaga siperish qilsangiz ham menga savdoni ochiq aytavering. Siz tikilgan ish belbog‘ yechilmay bitadi. Hammaga qorong‘i bo‘lsa ham menga oydin. Shu narsaga oxirgi chog‘da yetishtiring... Bizning uchun ham umringizda bir jafo ko‘rsangiz ko‘rbsiz-da.

Mastura: Voy, aylanay, olifta yigit, qizning huzurini siz ko‘rib, «olma-anori»ga biz uyinga tushar ekanmiz-da!

Nor: Qo‘ying, xola, mayda gapni! Hammaga hunar bo‘lsa, sizga meros. Sizning tor ko‘chalarlingizda shayton qanqiydi. Sog‘ini ko‘p tarang qilmay, narxini gapirishavering.

Mastura: Men aytdim-ku, yaxshi yigit! Sabr qiling, kuyovga tegib olsin. Bir yil desangiz ham qo‘yningizga qo‘shib yo‘rgaklab qo‘yay.

Nor: Sizning muddaongiz boshqa narsada. Bo‘lmasa, sizga buning hech qiyinlik joyi yo‘q. Og‘zingizga siqqanicha so‘rangu, yetishmog‘ning chorasi ni qiling!

Mastura: Jonim tasadduq, undan emas. Nima bo‘ldi, pisanda qiladigan bo‘lsak bu ko‘chalarga kirmas edik. Biz bu ko‘chalarda ko‘ngil gadosi bo‘lib yuribmiz, buyingdan xolang aylansin, Norboyvachcha!... Xotin qilib-ku ololmagandan keyin uzoq vaqtlar oshnachilikni o‘ylab ish qilish kerak. Yo‘q judayam agar ko‘nglingiz qiz tilasa, men bundan chiroyliroq biror kambag‘alning qizini topib beray.

Nor: Qarigan sari joningizga isitma kirayapti.

Mastura: Undanmas, o‘rgulsin.

Nor: Bug‘doydanmi? (Kulish). Nimadan bo‘lsa ochib gapiravering! Yuragim shu to‘g‘rida pista-po‘choqcha andisha qilmaydi. Mol u yoqda tursin, jon ketguncha borman. Nima qilasiz meni muncha kavlab!

Mastura: Axir, bo‘yidan, mening besh kunlik kunimniyam ko‘p ko‘rasizlarmi?!

Nor: Ey, men yana birini aytaymi, o‘sha sizga bir gap bo‘ladigan bo‘lganda yigirma beshining boshini yemagan nomardni hamma xotini uch taloqdan bo‘lsin, tuzukmi! O‘zingiz bilasizki, bu ko‘cha kimlarni kafangado qilmaydi, kimlarni yosh jonidan ayirmaydi. Uch yuzta so‘mni oltita yalang‘oyoqqa berib, Sultonamindek odam jallodining qiziniyam bajardim-da. Qanday ajdaholarning ko‘ksidagi qizjuvonlarni ilma qilgan Mastura xola bugun anchayin bir qizga, bezgakman, deb o‘ltirguncha belbog‘ni yechib qo‘ysin!...

Mastura: (qizib ko‘rsatib). Olifta yigit, quruq qochirimga bu belbog‘lar yechilmaydi. Ikki dunyoni sotib bu belbog‘ni olganmiz, Norboyvachcha! Biz maydonda qolurmiz, siz chakalakka o‘tarsiz.

Nor: Sizning belingizga qirq kunlik sholipoyamning kuchi yetmasmikin?! Yetmagan joyiga jon ularmiz.

Mastura: Vasiqalik movazaga shaftoliquqi olib yeysiz-da, bo‘yidan!...

Nor: Xola, meni ko‘p charxlamangu uvrangizni kesavering! Og‘zingizga siqqanini uch kunda laqqa jigardek qanorangizga ilib qo‘yaman.

Mastura: Xo‘p, bo‘yidan gavhar, men kechqurun pochchangiz bilan shu to‘g‘rida maslahatlashib, ertaga javobini olib qo‘yaman.

Nor: Haligacha maslahatingiz bitgani yo‘qmi?

Mastura: Ey, o‘rgulay, moziminan saqichmi bu! Bu ishlar o‘limning ko‘lagasida bitadi, jonim. Har kasbning o‘ziga yarasha silsilasi bor.

Nor: Hammaga qiladigan silsilangizni menga qilmay ertadan etak qayirib ishga kirishing! (Ellik so‘m tashlab). Uchidan manavi ko‘rmanani olingu, chimildiqni bog‘latavuring. Sizga kushoyish, bizga baraka bilan sabr bersin. (Qo‘l ochib). Qani, bir yog‘liq fotiha bering!...

Mastura: Fotihani ertaga beray.

Nor: Ko‘ngil uchun bugunam bering, ertagayam bering,

Mastura: Uyalib qolmay deyman-da.

Nor: Nima bo‘sa toleyimdan ko‘rdim.

Mastura: Hayr bo‘lmasa, (Fotiha o‘qib). Azizlar yor, pirlar madadkor bo‘lib, suyaningizga gul yor bo‘lsin, bo‘yidan gavhar.O‘ynaylik, kulaylik davron suraylik.

Ot mindim ola qashqa,
Sakrayman tog‘u-toshga.
Hammaning yori boshqa,
O‘xshamas qalam qoshga.

Hamza

MAYSARANING ISHI (Musiqali dramadan parcha)

Mullado‘st: Shu dargohga kelganimga ikkikam o‘ttiz yil bo‘pti-yu, tunukun ishim mulozimligu, uy supurish, otxona tozalash, osh pishirish, balo qilish, battar qidirishdan boshqa biror martabaga minmapmana! Sal bo‘sadimmi ikki qo‘lim qaysi bir ochiq mozordagi xudoning g‘azabiga uchragan qarzdorning yoqasida-yu, shilq-shilq ko‘cha changitgan-changitgan. Obro‘rog‘i bo‘lsaku bir miri, olti pul berib oldimga tushib keladi-yu, non yemas, qurumsoq, shilqim, muttaham, surri olipta-yu, kallakchi peshtaxamlariga uchradingmi, og‘zi burning qonga yasanib, hayit bo‘lib ketgani ortiqcha tag‘in.

Olma anoringga balli,
Yakdoni xolingga balli.
Tangrim meni sho‘r loydan yasagan,
Usta kulolingga balli.

Bilmayman, muchalim to‘ng‘iz bo‘lib, safar oyining o‘n birida tug‘ilibmanmi, bu dunyoda hamma yog‘idan bizni safar qochdi qilgan o‘shaning uchun ellik to‘rtga kiribmanki, iqbolim nahs falokatidan sira ajralmaydi. Betlarimiz tirishdi, bizning tenglar eshigi shuvaladigan hovliga kirishdi, bizgayam ajal degan ro‘dapo devorning orqasidan qarab turibdi. Soql oqarib, oziq tishlar to‘kilib, nozik bu bel degan jonivor ham eski maxsidek bukuldi-yu, haligacha parichehrai-yu, bog‘i gul andom, yuzi to‘linoy, zulfi parishon, qoshlari kamon, ko‘zлari bodom, tillari asal, lablari shakar, bo‘ylari ra’no, o‘zлari dono degan qiz-juvonlar u yoqda tura bersin, ko‘zi shishgan, tishi tushgan, betlari shaftoliqoqidek tirishgan, qabristonga qarab lahad uchun kirishgan og‘zi go‘rdek, burni quvurdekkina, beli kamalak, yuzi sumalakkina bir bedavo, saksonni, yuzni urgan bir kampir bilan ham o‘ynashni xudoyimiz ko‘p ko‘rdilar. Buni qarangki, ikkikam o‘ttiz yildan baqa mana shu bexosiyat ostonayi nomuborakda loaql mingdan ortiqroq xotin-xalaj bo‘ldi, bizdaqa peshonasi to‘mtoq, qurumsoqqa biortasi ham tegmayapti-Y.

Voy seni bekorchilikda yaratgan xudoyimdan o‘rgilay. Hammasini qo‘yaver kechasi kelgan Boymatni aytgin! Endigina elikka kirgan Nodira, o‘rgulsin qulingni... oldi, ketdi. Biz bo‘lsak-ku, honsorga o‘xshab, mana shuni olsak to‘qson to‘qqizi qoladi, deb havolanganim-havolangan. Bu bizning peshonamizga xotin yozishga kelganda yo qalami qudratni siyohi ado bo‘lib qolgan, yo bu murodning tuprog‘ini tuz konining chuqur joyidan olib, loyfurushiga hojilar bitgan sho‘r daryoning sernamokob joyidan olib qo‘shgan-qo‘ygan-da!

Hamza

**BOYILA XIZMATCHI
(Dramadan parcha)**

1. Xolmat va Xonzoda dialogi

Xonzoda. Chaqirgan sizmi?

Xolmat (shoshib) A? Ha! Ha! Men – Xolmatingiz... Qani ikkita...

Xonzoda (shavq bilan bir oz o‘ynar) Hech kim yo‘q-ku? Muncha titramasangiz... Chaling, yigit! Xo‘jayiningiz qayoqqa ketdi?

Xolmat (dutorni berkitib) Akam saroyga ketganlar, hozir bu yerga qozi, domla kelisharmish, palov qilar emishsiz, maslahatlari bor ekan. Shoshmang, darvozaga tamba solib kelay. (Xolmat darvozaga borib qaytadi.)

Xonzoda (cho‘chib) Nima maslahatlari bor ekan, payqamadingizmi? Tag‘in qozi pochchangiz sizga yangi ayacha topgan bo‘lmasin, Xolmatjon!

Xolmat (uyalib), Yo‘g‘ye! Qo‘ying... Unday demang!..

Xonzoda. Maslahatlarining nimaligini bilsangiz, menga aytasizmi yoki siz ham yashirasizmi?

Xolmat. Esimni yebmammi sizdan yashirib!

Xonzoda. Bir bilsak edi. Qozingiz yoki anavi yalmog‘iz kampir yangi bir qiz topgan deyman-da!

Xolmat. To'y bo'lsa sizga nima g'am, ayajon? Siz ham tarallani vang qo'yib yura bermaysizmi? YO to'yni to'xtatib qolarmidingiz?

Xonzoda (jiddiy) To'xtataman! Azaga aylantiraman! Shuning uchun anig'ini bilishim kerak! Men kim? Miyonbuzruk hazratning qizi, qamchisidan qon tomgan Qodirqul dodxohning singlisi Xonzoda bo'laman! Kundoshning biridan zo'rg'a qutuldim! Jondan kechaman, moldan kechaman, ustimga xotin keltirmayman. Kimki boyga xotin bo'lib tepamga kelar ekan, uning holiga voy! Ilgariroq go'r kafanini hozirlasim. Azroil bo'lib joniga changal solaman.

Xolmat. Voy-voy, men sizni ipakday muloyim xotin desam... Hali shunaqamisiz?

Xonzoda. Mening sevganim, himoyachim bor-da, aylanay! O'shang ayanaman, u ham bo'lsa siz! YO yolg'onmi?

Xolmat. Voy o'rgilib ketay... Rost... Rost!.. (O'zi-cha.) Bu har baloning o'zi-ku!

Xonzoda. Bordi-yu, siz ham tisarilsangiz, sizdan qo'limni yuvib, qo'ltig'imga uramanu boshimni olib hayyo-hayt deb chiqaman, ketaman!

Xolmat. Hay-hay... Unday demang! Siz bo'lmasangiz men nima qilaman? Men sizning amru farmoningizga hamisha tayyorman, xonim, podshohim!

Xonzoda. Nima buyursam bajo keltirasiz?

Xolmat. Bekamu ko'st!

Xonzoda. Bordi-yu, falon odamning do'ppisini olib keling desam-chi?

Xolmat. Tasaddug'ingiz ketay. Do'ppisini olib kel desangiz, axir biz jallod, murg'isalovot, qilichi burro zaboni go'yo, kimning ajali yetsa, poyqadamingizda ostobni soyaga yetkazmay, boshini kesib keltiramizda!

Xonzoda. Sizdan shunday javobni kutgan edim, opasi jonidan. Bu kecha mening aziz mehmonim bo'ling. (Ishva bilan). Bo'ptimi? Qani, chaling!

Xolmat chaladi, Xonzoda o'ynaydi.

Xolmat. Xolmatingiz qomatingizga qul bo'lsin! (Qizz'in quchoqlab o'par, sharpa eshitilar, Xonzoda qochib chiqar. Uyni supurib.)

Voy seni izlab topganda, yallavon yorim aylanay.

O'ng betingdan o'parman...

2. *Xolmat monologi*

Xolmat (supurib turib)

Voy olma guli nopalmon, yallavon yorich aylanay,

Voy seni izlab toparman, voy jonim o'rgulay!

Voy seni izlab topganda, yallavon yorim o'rgulay,

O'ng betingdan o'parman, yallavon yorim aylanay!

Voy o'ng betingdan o'parman, voy yorim, aylanay.

Bu xo'jayinda dunyo to'plash, xotin olish g'ami. Menda-chi? Ichkaridagi ikkita eski mijozdan ayrilib, mana shu yangi poshshaxonni o'zimga qanday qilib ilaktirishning g'ami. Nimaga desangiz xo'jayinning yoshlari bir joyga borib, qaramay qo'yaniga, bir yoqdan o'zimning ham birorta dilkushoni olishga qurbim

yetmaganidanmi, bilmayman, bir oz girdgasht qilib kelar edik. Mana endi shuhratingdan o'rgulay, mo'jizagina, u tizzadan bu tizzaga uchib qo'nadigan Jamilaxonning daragini eshitib qolgandan buyon, boy pochchadan ham ilgari, bizning yuragimiz diring-dirnig o'ynaydi. Bilmaymanki, u jonimni olg'ur, boyga tegib olib, bizning bu kir chopon bilan, yog'liq do'ppini nazarlariga ilarmikan? Mana bizda bu yangi ishq mijozining g'ami... Buning ustiga, qomatining qurboni bo'lib ketay Xonzodaxonning hajru firog'i! Bunisi kundan-kunga yuragimda chigirtkaday tuxumlaydi. Bunday o'ylab qarasam, boshimdan oyog'imgacha, kiprigimdan tirnog'imgacha ishq-muhabbat degan jonivor, o'likning kafaniday qilib o'rav olgan. Qayoqqa qarasam, hur bilan g'ulmon quchaman-a! Tasaddug'ing ketay! Endi ichkaridagi oyimlardan so'rasangiz, bir yoqdan kundoshlikning g'ami bo'lsa, bir yoqdan meni ham o'sha tomonga oz-moz yoki butunlay qiyshayib ketishimning g'ami! Ishqilib ichimizda beg'am odam yo'q-da. Oxiri baxayr bo'lsin. (O'ylanib) Shoshmang, Xolmatjon to'ra, o'zingcha nima deb vaysayapsan? Hadeb boyga pishang berasan! Boy kimni olmoqchi! Jamilani-ku... O'z G'ofigrimizning xotini... Kambag'alning og'zi oshga yetganda, burni qonaydimi? A? Shu insofdan emas-da! Boy boyga boqar, suv soyga oqar... Sen kambag'alsan, kambag'alga qayish-da, xumpar! Nafsingga ur! Munaqangi Xonzodaxonga o'xshaganlar bo'lsa u, boshqa gap! Qancha belini egsang, ularga shuncha xush yoqadi. Ha, xudo, baxtimdan bo'lib chiqib qolarmidi-ya! (Dutorni olib «As bo'laman»ni chaladi, to'xtab.) Shoshma, birov shu yoqqa kelyapti! Xuddi o'zi! (O'zimi tuzatar, dutorni yana chalar.)

3. Xonzoda monologi

Xonzoda (o'zi yolg'iz). Meni Xonzoda poshho deydar! Sen gadoning qizi, men bilan teng bo'lmoqchimisan? Boshingga shunday maymun o'yinlarini solayki, o'zing turib balli degin! Bir haromi bola bilan boyni o'zingga rom qilib olding? Bola bahonasida uning molu dunyosiga ega bo'lmoqchimisan? Xo'sh... Men bu dargohda nimaga ovunib yuribman? Boyning husnigami? Shirin so'zlarigami?... Butun vujudim bilan jirkanaman u po'rdoq, ziqna boydan! Menga uning molu dunyosi kerak! Lekin nima qilayki farzand yo'q. Hammasiga, hammasiga sen chang solmoqchisan! Sen! Yo'q! Men bu ishga yo'l qo'ymayman. Merosga uzatilgan o'sha panjalaringni jodu bilan qirqaman! Bolangning bir kun emas, bir kun boshini chaynayman. Zeb-ziynatimni sotaman! Qoshimni qoqaman! Seni yo'q qilaman!

4. Boy monologi

Ha, mayli, yuz ko'rishib qo'ya qolaylik! Ha, barakalla, qizim... Barakalla! Qani yuzingni ochib yubor, qizim! (Jamila yuzini ochadi).

Barakalla... Bar-a-kal-la qizim-m-m-m... (Jamilani husni-jamolini ko'rgan boyning hushi boshidan uchadi. Qo'lidan tasbehi yerga tushadi. Unga tikilgancha jim qoladi, so'ng o'zini tutib). G'ofigron, baxting bor, o'g'lim! Yuz ming xarjasang ham arziydi! Endi otasimiz, xizmatga buyura beramiz-da. Qani, bir

chilim chektirib yuboring-chi, qizim... (Jamila ketadi). Vo ajabo! Bu kim bo'ldi? CHo'rimi yoki bir ofatijon farishtami? Yuzlari xuddi olmaday tarang. Bir juft quralay ko'zi surma bosganday qora, bir qarashi bilanoq yuragimni taka-puka qilib tashladi. Ana qaddu, ana qomat! Ana husnu, ana malomat! Hisobsiz kokil, qo'ng'ir sochlariqa nima deysan? Taqimini o'padi-ya, taqimini! Seni tuqqan onangga rahmat! He attang! Gulni gulga qo'shmay, gulni sassiq alafga qo'shib qo'yibman! He, pishmagan, xomkalla! (Peshonasiga urib) Bu nozanin uvol! CHo'rilikka emas, bekachlikka arziydi-ya!

Hamid G'ulom

**O'G'IL UYLANTIRISH
(Musiqali dramadan parcha)**

Bozorxo'ja: Ko'rinmaydi... Uxlayapti... Biz, akang qarag'ay-da kallayi saharlab uyg'onib, fan cho'qqilarigacha intiladigan... Ammo, o'lay agar, kechasi o'qiganlarimdan zig'irchasi miyamga kirgan bo'lsa... Hayronman, mening o'qishim dadamga nega kerak bo'lib qopti? Uylantirib qo'ya qolsa bo'lmasmikan-a? Nozik... ismi ham Nozik, o'zi ham nozik, masala ham nozik Bu Salimov degan, singlisimi menga beradimi yoki laqillatib, restoranma-restoran sudrab yuraveradimi? Nozik... Turkov kiyikday qochgani, qochgan, mendan... Nozik, yurakni isitmeydigan bir parcha o't...

Sensan go'zalim,
Nozik, qandu asalim, Nozik,
Doim kutaman kelmas, dardu go'zalim Nozik.
Sevdim sevaman, Nozik,
Yondim, yonaman, Nozik,
Doim kutaman kelmas, sensan, go'zalim, Nozik.

Jimjit... Shuncha nola qilsam ham, jimjit. Labbay, degan so'z kimni o'ldiribdi? Axir mana bu devorni yorib, ichidagi olovni ko'rsang-chi, Nozik!...

Hamid G'ulom

**TOSHBOLTA OSHIQ
(Musiqali dramadan parcha)**

Toshbolta: Shu bir parcha hovlim – katta bog'. Gullar ochilgan. Bulbullar sayragan. Allaqayerda sivizg'a chalinib tambur unga jo'r bo'layapti. «Navo»mi, «Bayot»mi aniq esimda yo'q. Men hovuz bo'yida o'choqda osh damlayotgan emishman. Bir vaqt jonon piyolaning jarangiga o'xshash sho'x kulgu eshitildi. Bundoq qarasam, qo'lida patnis – Risolat pari... Patnisda to'rtta jiyda gulli qora likopcha, birida – qazi, birida pamidor, yana birida bodring, to'rtinchisida – patinson, ikkita ryumkachasi ham bor. Uzunroq shishada bir balo qizil narsa.

Parixonning egnida – qora xonatlas, lozim ham shu materiyoldan. Oyog‘ida – amirqon kovush. Bossammikan, bosmasammikin, deb bitta-bitta kelayapti. Men bir qo‘lim bilan parixonning chumoli belidan ushlab, ikkinchi qo‘lim bilan haligi shishadan ryumkachalarga quydim. Urishtirdik. Ichdik... Fu... zaxri qotil: Boshim aylandi. U yog‘ini eslolmayman, hushyor tortib qarasam, baland so‘rida uxlab qolibman. Parixon yonimda alla aytib o‘tiribdi.

Alla bolam, allayo,
Uxlar olam allayo.
Hamma yoqda qizil gul,
Lola gilam allayo.
Ko‘kda suzar to‘lin oy,
Uxlay qolsin, ko‘lintoy.
Allamga qo‘shiladi,
Tinimi yo‘q tentaksoy.

Qulog‘ining yumshoq yerini chimchiladim. Yuzimga bir shapati tushsa bo‘ladimi. Ko‘zimni ochsam tushim ekan... Qani shu tushim o‘ng bo‘lib qolsa!... Erkaklarning tushi, indallo o‘ng keladi. Ammo o‘zi ham bir jahonda ana nazokat, ana latofat, ana odob! Ikki yorti bir bo‘lib, o‘g‘ilchani o‘ylab qo‘yar edik. Keyin nabiralar, hovlida xuddi jo‘jalarday sakrab yurardi. Jo‘jalarim, jip-jip-jip. Men ular bilan quvalashaman. Jo‘jalarim jip-jip-jip.

Saida Zunnunova

KO‘ZLAR
(Musiqali dramadan parcha)

Matlyuba: Kim aytgan? Nima deb aytgan? Qanday yaramas odamlar bor-a! Nahotki, Yoqub aka shunday deb gap tarqatgan bo‘lsa?... O‘ktam akaning menga yoqishini qayoqdan bila qoldi? Yoki uni ko‘rganimda rostdan ham o‘zgarib ketamanmi?... Mana Layli opa ham uyini kelib-kelib menga tashlab ketdi. Mening uchun bu dargohga hatto xayol bo‘lib kirish ham qanchalik baxt ekanligini u qayerdan bilsin... Uh, odam topilmaganday, bu ko‘nglim qurg‘ur kelib-kelib bolaschaqalik odamga tushib qolganichi! Sezdirmaslikka shuncha urinsam ham baribir bilinib qolyapti shekilli. Qayoqdan ham o‘sha joyga ishga bordim-a. (Yozuv stolining yoniga borib, kitoblarni silaydi, yuziga bosadi) Har kuni shu yerda o‘tiradi, ishlaydi, mutolaa qiladi. Yuz ko‘zlarini hamma vaqt jiddiy, lekin biram mehribon, biram muloyim. Ko‘ngil pokligini hech qaysi ko‘z bunchalik aytib turmasa kerak.

Qani endi shu stollarning changini artsam, sekingina oyoq uchida kelib yoniga choy quyib ketsam, orqasidan o‘ziga bilintirmay termulib o‘tirsam. Ana xolos, birov senga ishonib, uyiga poyloqchi qilib ketsa-yu, sen... sen bo‘lsang uning uyiga bekalikni orzu qilsang-a! Xudo saqlasin. Bir umr esimdan chiqarolmasam

ham, bir umr o‘tda qovurilsam ham bunday pastkashlikni qilmayman... Xudo saqlasin... Bir umr unutolmasam-a!...

Ne qilay shaydo bo‘libman bo‘ylari barvastaga,
Bo‘ylari barvasta boqmas hajrida men xastaga.
Bo‘ylari barvastani har kun borib ko‘rgim kelur,
Kunda-kunda ko‘rmasam, o‘zimni o‘ldirgum kelur.
Yaxshisi ko‘rmasligim, uni ko‘rmaydigan joyga ketishim kerak.

Sobir Abdulla

MUQIMIY
(Musiqali dramadan parcha)

1. Muqimiylar va Obida dialogi

Muqimiylar: Nahotki munkcha oh-faryodlar men uchun bo‘lsa... Olam o‘zi turma bo‘lgandan keyin, uning quyosh burchagiga bormay, ko‘ngil bechora bu yerda turma, deb, meni ogohlantiradi, hatto, qashshoq kosib Ubaydullanining tor hovlisida ham turma demoqchi.

Obida: Salom.

Muqimiylar: Vaalaykum assalom...

Yuzlaring, bu she’r bilan ishlgan kitobimdir mening
Ko‘zlarining har boqishi yuz iztirobimdir mening.

Obida:

Sochlarmi boshda parishondir xayolimdek mudom
Kiprigimda tomchilar behad hisobimdir mening.

Muqimiylar:

Ayriliqda bu hayotim, achchig‘u baxtim qora
Qon sharob ichsam, jigarlardan kabobimdir mening.

Obida:

Menga sanchilgan tikan albatta sizga sanchilur,
Cheksangiz siz gar azob chekkan azobimdir mening.

Muqimiylar:

So‘rasangiz holing nechukdir deb agar e Ofarin,
G‘ussali har satr – she’r, yozgan javobimdir mening.

Obida: (Yig‘lab) Jon ustoz. Meni kalxatning changalidan xolos qiling.
Hayotim jar labiga yaqinlashib bormoqda, madad qiling.

Muqimiy: Nima gap bo‘ldi? Ayting?

Obida: Sovchi, keldi... Meni...

Muqimiy: Bas!... Bo‘ldi... Bildim... Munofiq, Xoji Muxsin kelgan.
Dodxohga!

Obida: Shunday! (Yig‘lab ketadi).

Muqimiy: Azizim yig‘lamang, to men hayotman judo qilmoqchi
bo‘lganlarga yotmen.

Umidim bor jahondan, bo‘lsam obod,
Kelib xursandchilik, g‘am bo‘lsa, barbod.
Ochilgay she’riy rayhonlar chamanda,
Muhabbat g‘unchasi barg yozgay anda.
Azizim yig‘lamang, tiralaldi qilbim,
Meni sizdan judo qilmoq bilankim.
Judo qilmoqchilar fikrim qalamdan,
Bu hech mumkin emas, bormen, yozarmen.
Qalam bilan alarga go‘r qazirmen,
Azizim, Obidam, ko‘ngil hushimsiz.
Yozar chog‘imda hamrohim, hushimsiz,
Olarmen shavqu zavq ijodingizdan.
Bo‘lib shod sizning iste’dodingizdan,
Hamisha siz bilan men Ofarinim,
Qilolmaydir judo bizlarni hech kim,
Azizim yig‘lamang, to men hayotmen!
Judo qilmoqchi bo‘lganlarga yotmen.

Obida: (ashula)

Yorug‘ jahon shu bugun ko‘zga zim-ziyo ko‘rinur
Bugungi to‘yu o‘yin-kulgu ham azo ko‘rinur.
Halokatimga zamon, o‘ylasam rizo ko‘rinur.

Muqimiy:

Jabru jafolarki, yetar menga dam-badam,
Ranj uzra ranj ko‘rdim, alam ustiga alam,
Daftar qilurg‘a, bitkali ojiz erur qalam.
Kundan-kun osha ortsu sitam, bu nechuk sitam,
Bechora bu Muqimiy g‘ulomingga ofarin.

Obida:

Bukun siz aytgan o‘shal Ofarin emas, ustoz,
Musiybat ostida rost qomati duto ko‘rinur.

Muqimiy:

Haqiqat istaganlar bo‘ldilar xor,

Kimki muttahamdur, yurtga sarkor.
Kim elning qayg‘usin chekdi, yutar qon,
Olib to‘rdan o‘rin, ig‘vo-yu bo‘xtan.
O‘zi dono, pulsiz bo‘lsa xordir,
Agar u, faylasuf, bir nonga zordir...
Judolik, ayrılıq, hijron chamani
Yurakda qatma-qat armon zamoni...

2. Muqimiy monologi

Muqimiy. Ajabo!...

(Shoshib, konvertni ochadi, tez ko‘z yogurtiradi va ovoz bilan o‘qiy boshlaydi).

Assalom, mehribon ahli diyorlar,
Assalom, qadrdon axboblar, yorlar.
Birodar Muqimiy ham Kuzmich hakim,
Mandan salom aytинг, yo‘qlar bo‘lsa kim.
Nozik tab ulfatlar, xonanda do‘sstar,
Suhbatorolikda bekamu ko‘sstar.
Yodimga tushganda goh-goh vatanim,
Ilon chaqqan kabi to‘lg‘anar tanim.
Tark etib yunonni, yo‘llar bosdim mo‘l,
Qoldilar yo‘limda Rumu Istambul,
Bu yerda u yerda ortiqdir fig‘on,
Davr suradi sulton Abdulhamid xon.
G‘arib qalbim toshdi nola ham zori,
Gadolik rastasi, ochlik bozori.
Kezdim g‘aribona Basra, Xalab, Shom
G‘amga g‘am ulandi, bo‘lmasdan tamom.
Jazoir issig‘i tang qildi holim,
Ketdi Xo‘qanddag‘i boqqa xayolim,
Arab cho‘ponini ko‘rdim, zor mahzun,
Har arab ko‘zimga ko‘rindi Majnun.
Hindiston cho‘llarin men tanho kezdim.
Hindlar holin ko‘rib, bag‘rimni ezdim.
G‘urbatda eshitib to‘tilar sasin,
Esladim, sog‘indim do‘sstar yallasin.
Men demay, g‘urbatda talx yutib qonlar,
Hamdamim bo‘lganda hindu dehqonlar,
Qorni och, yalang‘och, darbadar, xarob,
Ko‘rdimu, men qildim bag‘rimni kabob
Ingliz zulmidan qadlari kamon,
Ona yurt – Hindiston ularga zindon.
Yalang‘och tanlarda ter tomchi-tomchi,

Ingliz boyining qo‘lida qamchi.
Ishlatar hayvondek, urar behuda,
Og‘ir yuk tashiydi xalq to‘da-to‘da.
Qo‘sildim ularga, yurdim darbadar,
Quyosh tig‘ urgandan, oqshomga qadar.
Yo‘l oldim Xo‘stanga, mardona sifat,
Charchamay yo‘l kezib qayda deb – Tibat.
Xo‘tanning dashtidan esganda sabo,
Tortar edi meni, zo‘r ohangrabo.
Keldim o‘z yurtimga devor darmiyon,
Bulbuldek, Yorkentga qurdim oshiyon,
Xindlar donosi, faylasuf shoir,
Vatandan badarg‘a mendek musofir,
Ingliz zulmidan bezgan tajalli
Men bilan uchrashib, topdi tasallli:
– «Mast she’ri Furqatimu sarxush az axloqi u.
E tajalli bodom mo, juz gulob omiz nest».
Vatanim ko‘zimdan ketmasdan nari,
Termuldim uzoqdan men Xo‘qand sari.
Bemorlik tanamda yuzlangan soat,
Do‘stim Tajalliga qildim vasiyat:
– Men o‘lsam, qabrimga ekinglar qamish,
Mening tuprog‘imdan topib parvarish,
Qamishlar o‘ssinu, undan nay bo‘lsin,
Choponlar og‘zida tinmay chalinsin,
Har yerda ahvolim qilsin hikoya,
Dilda armonlarim, ko‘p benihoY.
(Xatga tikilib to‘lqinlanadi va asta so‘zlana ketadi).
Biroq holing o‘qib, ortiq achindim,
Bezib bundan, qochib ketgan edingkim,
Duchor bo‘lding borib, zulm dahshatiga.
Quloq solsam xatingning hasratiga.
Og‘irliliklarni bu, qildi hikoya,
Topolmay lahzam oromga soya,
Qavartmishdir oyog‘ing bosgan izlar,
G‘amingni orttirib, u inglizlar,
Qilibsan ketganingga ming pushaymon,
Topolmabsan hanuz dardingga darmon.
Muqimiy bo‘ldimu men bunda qoldim,
Gohi bor bo‘ldimu gohi yo‘qoldim.
Biyobonim menga guyoki gulzor,
Oyoqqa botmagay bossam, tikonlar.
Qorong‘i qishlarim ham navbahorim,

Kechalar har tarzda shomu nahorim.

Ajab ermaski, kunlar boqsa bizga,

Erib qor, shildirab suv oqsa bizga.

Zinat Fatxullin

YOSHLIKDA BERGAN KO'NGIL
(Musiqali dramadan parcha)

Mirza va To'lqinoy dialogi

Mirza: Iye, vopervoy, o'zimdan boshqa hech kim qolmabdi-ku. Yashavora! Kimning aravasiga o'tirsang, shuning kuyini kuylaysan, deganday Qo'zivoyning mashinasiga minib olib obedni esdan chiqarib qo'yibman.

To'lqinoy: Salom, Mirza aka!

Mirza: Iye, sizmisiz, To'lqinoy, qanday shamol? Vopervoy, juda qiziq bo'ldiku, kechirasiz...

To'lqinoy: Fermaga ketayotgan edim, ayangiz mana shuni yo'l ustida berib o'ting, dedilar, issig'ida yeb oling, Mirza aka!

Mirza: Oh o'rgilay o'zimning g'amxo'rimdan? Qani endi har kuni shunday kelib kelib tursalar... boshim osmonga yetar ediku! Ha, aytganday, vopervoy, bu yerga kelganizingizni ayangiz ko'rib qolmadilarmi?

To'lqinoy: Ayam! Ayamlar kelyaptilar dedingizmi?

Mirza: A? Xudo urdi. Qani? E... hech kim yo'q-ku.

To'lqinoy: O'zingiz nuqul vahimaning o'zi bo'psiz-ey.

Mirza: Yo'g'ye! Shunday bo'ldimi? Rostdan-a?

To'lqinoy: Shu yerga kelganimni ko'rsalar, toza baloga qolaman-a!

Mirza: Axir qanaqa ona o'zлari, vopervoy o'z qizlarining baxtimi istamasalar.

To'lqinoy: Mirza aravakashning nomini tilga olsang uydan haydalasan, deydilar.

Mirza: Ayangizga aytindan, Mirza akam aravakash emas, dongdor kolxoz raisining shofyori deng. Hozir, Nor akamning mashinasida paxta terayapti, ishiga qoyil qolmagan kishi yo'q deng. Ha!

To'lqinoy: Mirza aka.

Mirza: Labbay, akasi?

To'lqinoy: So'raganning aybi yo'q, aytinchchi, siz necha yoshga kirgansiz?

Mirza: Qani bo'lmasa siz ham aytinchchi, akasi qoqindiq, yigitlarning qirchillama payti necha yoshga kirganda bo'ladi?

To'lqinoy: 25 mi?

Mirza: Balandroq. Iya yosh bolaku.

To'lqinoy: 30 mi?

Mirza: Balanroq chiqing?

To'lqinoy: 35 mi?

Mirza: Sal balandroq?

To'lqinoy: Bo'lmasa 50 mi?

Mirza: Yo'q pastroq.

To'lqinoy: 45 mi?

Mirza: Yana pastroq.

To'lqinoy: 40 mi?

Mirza: Ha.

To'lqinoy: Voy, Mirza akam tushmagurey, hazilingizni odam mumday erib ketadi-Y.

Mirza: Oh, eriganingizga borman-da, akasi...

To'lqinoy: Voy, tilingiz mucha shirin, Mirza aka.

Mirza (kuylaydi):

Yorimsiz dildorimsiz, dardimga darmonimsiz.

Muhabbat gulzorida, asil vafodorimsiz.

To'lqinoy:

Gul bo'lmaydi tikansiz, dilga nashtar ekansiz,

Yigitlar ichida tanlaganim o'zingiz.

Mirza:

Bog' aylanib shaftoli, uchgan kimning kaptari,

Aytsam ado bo'lmaydi Siz To'lqinoy daftari.

To'lqinoy:

Tomni tepdim yo'l qildim,

Beqasamdan to'n tikdim,

Mirza akamning ishqida

Laxta-laxta qon yutdim.

Shukur Sa'dulla

VATAN ISHQI

(Musiqali dramadan parcha)

Subxonqul: (Narziga) Hafa ko'rinasan, sadag'ang ketay?

Zulfi: Choy ichasizmi, aya?

Subxonqul: Aytganday, choy qaynab turibdi. Bor, qizim damlab kel, Ayang choy ichsin.

Zulfi: Hozir. (Bo'sh choynakni olib, ayvonga qarab ketadi).

Subxon: Narzi... (Yostiq qo'yib) Bir oz cho'zil, charchagansan. Ishing og'ir... (Narzi yostiqqa suyanadi) Qizimizning bo'yi yetib qolibdi, ayasi, kuzga borib to'yini ham qilarmiz, deyman-a?

Narzi: Tavba. Muncha makkorlikni qayoqdan o'rgandingiz, dadasi?

Subxon: Nima deyapsan o'zing, sadag'ang ketay? Onada bo'lgan muhabbat otada bo'lmaydimi?

Narzi: Otalar har xil bo'ladi. (Zulfi choy olib keladi. Subxonqul choy quyib Narziga uzatadi).

Subxon: Quy, Narzi, ta'na qilaverma... (Zulfiga) Beri kel qizim. Axir, men seni deb, ayangni deb, Karimjonni deb jonini jabborga bergen otaman, kel.

Narzi: (birdan g'azablanib) Qizimga yondoshmang. Ochig'ini aytin, qayerdan keldingiz?

Subxon: Aqlingni yedingmi, Narzi?

Narzi: Ha, jabru-jafo tortib kelgan erim, bolalarimni otasi deb, sizga ishonib, aqlimni yedim. Esim qursin.

Zulfi: Ayajon!

Narzi: Siz bizlarni aldadlingiz, ilonday avrab uyimizga joylashdingiz.

Subxon: Qiynama meni, Narzi. Agar yana shunaqa gaplarni aytsang, yuragim tars yorilib ketadi.

Narzi: (qat'iy) Qayerdan keldingiz, deyapman?!

Subxon: Aytdim-ku, axir...

Narzi: Rostini aytin, aytmasangiz, ana katta yo'l! Chiqib keting, hozir keting, ko'zimga ko'rinnang! (Hovliga kirib kelgan Yormat ota oraga kirib, yo'lini to'sadi.

Yormat: Hoy, qizim, jinni bo'ldingmi? Bu nima qiliq, bo'yninga arqon tushmagur. Baxt kirgan uyni azaga aylantirmoqchimisan?

Narzi: Buningizning hujjatlari soxta, gaplari yolg'on... (Yig'laydi).

Yormat: Rostdan-a?

Narzi: Chegarachilardan anig'ini bilib keldim.

Yormat: (Subxonqulga) Ha, endi nima deysan, kuyov, ayt, qayoqdan kelding?

Subxon: Qochib kelganman.

Zulfi: Voy o'lmasam...

Yormat: Qayoqdan qochib kelding?

Narzi: Qayoqdan kelganimi aytarmidi. Buningizni dili qora, u bir o'qqa tashna.

Subxon: Ot, mana, ot! (Ko'ksini ohib) Bosmachilar temir qizdirib bosgan ko'ksimni ko'zlab ot!

(Musiqa, ashula).

Ko'p qiynama, azob berma
O'ksik yuragim qon bo'lmasin,
G'am chekmasin,
Bas qil, azizim.

Narzi:

Yorim desam yovim ekan,
Qiynalar dilim,
Xoin desam, seni hech ham
Kechirmas elim.

Subxonqul:

Kechirmsa mana ko'ksim,

Qutqar azobdan.
Ot! Meni ot!
Xotin, ot, ot!
To'ydim bu jondan!
Azoblardan, alamlardan
Ot, meni qutqar...

Uyg'un

PARVONA (Dramadan parcha)

O'tkir: Xo'sh, «Bahor» so'zi o'rniga ko'klam deb yozamiz, shabada o'rniga «yel» deb yozamiz... Yo'q, vazniga tushmaydi. «Sha-ba-da» «yel». Ikki bo'g'in kam. Ha topdim, «sho'x shamol» deb yozamiz. «Sha-ba-da» «sho'x shamol» baravar. Ana endi Dildor so'zini o'rniga Dilbar so'zini yozamiz, bo'g'ini ham ohangi ham bir, ma'nosi ham juda to'g'ri. «Dildor» – «Dilbar» yasha. Endi imzo chekamiz she'r tayyor. (O'tkuriy). (Yondiradi, kuydiradi, kul qiladi, qaramaysiz ashula aytadi).

(Ustiga adres yozayotganida Ma'rifat kiradi).

Ma'rifat: Men ketayapman, eshikni berkitib olasizmi?

O'tkir: Ochiq turaversin, keldi-ketdi ko'p. Eshik ochib yopaverib tinkam quriydi.

Ma'rifat: Ixtiyorungiz.

O'tkir: Shoshmang, ichkariga kiring.

Ma'rifat: Ichkarida nima qilaman?

O'tkir: Gap bor.

Ma'rifat: Gapingiz bo'lsa, shu yerda aytavering.

O'tkir: Abror aka hali ishdan qaytgani yo'q chamasi.

Ma'rifat: Yo'q, gapiravering vaqtim ziq!

O'tkir: Xat bersam pochtaga tashlab yuborasizmi?

Ma'rifat: Bera qoling.

O'tkir: Bilagingiz muncha yumshoq.

Ma'rifat: Bu nima qilganingiz, uyalmaysizmi?

O'tkir: Shuncha vaqtdan beri uyalib o'zimga jabr qilibman. Jonginam, ichkariga kiring!

Ma'rifat: Voy, voy esingiz joyidami?

O'tkir: Sizni ko'rganda o'zimni yo'qotib qo'yaman.

Ma'rifat: Bu gaplarni Abror akangiz eshitsa nima bo'ladi, bilasizmi?

O'tkir: Bilaman, hovliga olib chiqib bo'g'izlaydi yo daraxtga osadi. Axir siz meni bo'g'izlatib qo'ymassiz, nima xushomad gunohmi?

Ma'rifat: Kimga xushomad qilayotganingizni bilasizmi?

O'tkir: Siz hali yoshsiz. O'yin-kulgini yaxshi ko'radigan oq bilak lo'mbillagan ayolsiz. Abror aka esa yoshini yashab qo'ygan odam.

Ma'rifat: Ko'p vaysamang, bu gap shu yerda qolsin. Agar Nazokat bilsa-a-a...

O'tkir: Uyimiz buzilib ketadi, uyimizni buzmassiz.

Ma'rifat: Tavba kutilmagan hodisa.

O'tkir: Ammo men kutaman, bugun bo'lmasa, ertaga mana shu oq bilakni menga o'zingiz kelib ushlatasiz. Kutaman, jonginam!

(Ma'rifat chiqib ketadi).

O'tkir: Xatni olmaysizmi?

Ma'rifat: E, xating ordona qolsin. Qirchiningdan qiyilgur.

O'tkir: Yuragiga g'ul-g'ula solib qo'ydim! Endi o'ylagani-o'yagan. Meni o'ylaydi. Ayollarni qalbini ochadigan kalit xushomad, ta'rifu-tavsif, hamdu-sano.

(Yulduz kirib keladi)

Yulduz: Salom.

O'tkir: Keling-keling.

Yulduz: Nazokat yo'qmilar?

O'tkir: O'tiring. Nazokat hozir kelib qoladilar.

Yulduz: Bo'lmasa keyinroq kelarman.

O'tkir: Yo'q-yo'q, unaqasi ketmaydi. Hozir keladi, telefon qildi.

Yulduz: Qandaydir noqulayroq.

O'tkir: Hecham noqulayligi yo'q. Qiziq, shu topda sizni o'ylab turgandim.

Yulduz: Meni-ya?

O'tkir: Manavindan jindakkina iching, juda ajoyib vino «Oq Muskat» Qrimniki.

Yulduz: Rahmat.

O'tkir: Oling, hech bo'lmasa bir qultum iching. Salomatligingizga.

Yulduz: Juda shirin vino ekan.

O'tkir: Hu bu juda ajoyib. Jahon vistavkalaridan necha marta oltin medal olgan, qani uzumdan oling.

Yulduz: Rahmat.

O'tkir: Anchadan beri sizga bir gapni aytmoqchi bo'lib yuribman. Aytolmayapman.

Yulduz: Nima gap?

O'tkir: Juda nozik gap, balki so'zlarimga ishonmassiz, balki ustimdan kularsiz, balki ranjirsiz.

Yulduz: O'ylaymanki meni ranjitadigan gap aytmassiz?

O'tkir: To'xtang Yulduzzon avval bir xirgoyi qilib beray. Xoh ishoning. Xoh ishonmang, baribir aytishga majburman. Ortiq saqlab turolmayman.

Yondiradi, kuydiradi, kul qiladi (ashulanı aytadi) Qaramaysiz.

Yulduz: Ha, nima edi aytaya qoling?

O'tkir: Bu haligi uchrashuvdan boshlandi.

Yulduz: Qaysi uchrashuvdan.

O'tkir: Shu hovlida ikki oy burun siz bilan uchrushdik-ku, o'shandan beri yonaman. Yulduz emas, oy ekansiz, go'zallikka boy ekansiz degan edim o'shanda. Esingizdam?

Yulduz: Bu qanday bexayolik?

O'tkir: Sevish bexayolik emas.

Yulduz: Necha kishini sevasiz?

O'tkir: Faqat sizni.

Yulduz: Nazokatnichi?

O'tkir: Avval sevardim, sizni uchratmasdan avval.

Yulduz: Shunga ishonadi deb o'ylaysizmi?

O'tkir: Ishonmasligingiz mumkin. Shuning uchun ham ko'pdan beri sizga aytolmay keldim. Ammo baribir aytishim kerak. Judolikka ortiq chiday olmayman. (Jonginam, azizim, yolg'izim, hayotim, tirikligim).

Yulduz: Dod solaman.

O'tkir: Mayli dod soling, mayli haqorat qiling. Mayli meni odamlar oldida sharmanda kiling. Baribir sizni sevaman, sevgimdan voz kechmayman.

Yulduz: Qo'yvoring.

O'tkir: Avval so'zlarimni tinglang.

Yulduz: Yetar, bas.

O'tkir: Oxirgacha tinglang.

Yulduz: Toqatim yo'q.

O'tkir: Mayli xohlasangiz yuzimga gapiring, mayli xohlasangiz o'ldiring, mayli. Taqdirim sizni qo'lingizda. Ammo so'zlarimni oxirgacha tinglang. Men baxtsizman, meni ishim doim teskari keladi. Omadim hech ham yurishmaydi.

Yulduz: Qisqaroq qiling.

O'tkir: Ha, Nazokatni kurortda uchratib sevib qolganim rost. Uylandim buyam rost. Lekin sizni ko'rdimu, avvalgidan, Nazokatga bo'lgan sevgimdan ming chandoq kuchliroq sevgini otashiga duch keldim, bu otash meni yondiradi, kul qiladi.

Yulduz: Ishonadigan gap emas.

O'tkir: Nazokatni qo'yib sizga uylansam ishonasizmi?

(Yulduz shapaloq tortadi).

Hamid Olimjon

MUQANNA

(Tarixiy dramadan parcha)

Bir gulxan qil, voldayı muhtaram,
Bir o't yoqki, yorisin yelu olam.
Muozga ayt, qichqiribdi bemahal!
Muozga ayt, bu xalq taslim bo'lmaydi!
Muozga ayt, bu xalq aslo o'lmaydi.
Yana aytki, o'lib ham sob bo'lmaydi.

Yana aytki, kurashib jangda o'lmak,
Muoz bilan yashashdan afzal, beshak.
Yana aytki, Muozga bo'lguncha qul,
Ming afzaldir bo'lmoqlik bir hovuch kul!
Bor, bora ber, ko'nglimga solagin g'ash.
Bor, bora ber, qiliching bilan gaplash.
Mening onam shu tuproqda tug'ilgan,
Bobolarim shu tuproqqa ko'milgan.
Shu tuproqda kindigimning qoni bor,
Shu tuproqda avlodimning qoni bor.
Shundan ketib bo'layinmi muttaham?
Bir qarich yer topilmasmi menga ham?
G'amga botgan elim yig'lab qolsinmi?
Xoin deya qichqirsinmi avlodlar?
Quvlasimmi meni daryolar, dodlar?
Yo'q. Aslo yo'q. Bu aytganing men emas!
Jon saqlashga chaqirmagan meni pas!
Bir boshimga yuz ming balo kelsa ham
Shu tuproqdan siljimayman bir qadam.
Bir minut ham ajralmayman elimdan,
O'lganda ham chekinmayman yerimdan.
Bir o't yoqki, volidayi muhtaram.
Bir o't yoqki, yorisin yerusi olam.
Xalqqa aytning, men aslo o'lganim yo'q.
Yov qo'liga talim ham bo'lganim yo'q.
Men eliminning yuragida yashayman.
Erk deganning tilagida yashayman.
Qullik bilan turolmayman bir yerda,
Dushman bilan yotolmayman bir go'rda.
Xalq tangrini axtarganda men unga
Hurriyatning olloholini keltirdim,
Yo'l boshlovchi bir dohiyni keltirdim
Va ko'rsatdim ozodlikning zo'r rohin,
Guloyindek muhabbatning olloholin.
Bu kun sizni chaqiradi u jangga,
Hujum et deb yurtni bosgan dushmanga
Qalbingizda nafrat o'ti yonsin deb,
Nafrat o'ti yov qoniga qonsin der.
O, Guloyin, yodimdasan bir umr,
Eslaganda ko'zlarimda ortar nur.
Sen ishq kabi abadiysan, ey sanam,
Ozodlikdek mangu yasharman men ham.
Yana ko'rmoq bo'lganlarga yuzimni,

Quloq soling, tanitayin o'zimni:
 Ochilar u g'alabaning tongida,
 Jongga kirgan odamlarning ongida.
 Yana meni ko'rmakka zor bo'lganlar,
 Kulartakin va g'irdakka boqsinlar,
 Yana kimki, vatan uchun jang qilsa,
 Yana kimki, yov holini tang qilsa,
 Yana kimki, yovni quvsat vatan
 Mening chehram ko'rindi o'shandan.
 Olovni yoq, volidayi muhtaram,
 Olovni yoq, yorisin yero olam.
 Bukun men ham olovga qo'shilaman,
 Bukun men ham mangulik o't bo'laman.
 Nafrat o'ti kabi yonib qonlarga
 Qo'shilaman million-million jonlarga.
 Yovni jondan yomon ko'riganligim rost,
 Bundan so'ngra nomimni qo'ying, qasos!

Vilyam Shekspir

ROMEO VA JULYETTA
(Dramadan parcha)

Julyetta: Vidolashdik! Uchrashuvni xudo biladi. Tomirimni buramokda sovuq bir dahshat. U hayotning issig'ini muzlatayapti. Chaqirayin ularni men: yupantirsinlar. Enagajon! – Yo'q nimaga! Men o'zim yakka bu sahnada achinarli rolimni o'ynay. Kel shisha! Uxlatmasa sendagi doru mabodo men majbur bo'lsam erga chiqishga?! Yo'q sira yo'q! Bu kuymaydi mana bunisi! (pichoqni chiqarib qo'yadi) Balki meni o'ldirgani rohib makr ila bu shishada zahar bergan. Yo'q shunday bo'lsa shu nikohning uvollari uning bo'yniga: Romeoga meni nikoh qilgan o'zi-ku... Havotirman ammo shunday bo'limasa kerak: U vijdonli avliyodir elning ko'zida lekin barvaqt uyg'onsam-u, ammo o'sha chog'. Menga kelib yetolmasa aziz Romeo o'z vaqtida eltolmasa meni. – Bu dahshat! O'sha sassiq sag'anada bo'g'ilib qolsam o'lib ketsam kelmasdanoq aziz Romeom! Mabodo men tirik qolsam o'zga xatar bor: Men o'ylayman o'lim hamda qaro zulmatni. Men o'ylayman sag'ananing vahimasini. U yuz yillab oilamga go'riston bo'lgan. Qo'yilgandir bobolarning suyagi unda... Kechagina unga mehmon kelgandir Tibalt Qonli jasad chirimoqda oq kafan ichra derlar tunda o'sha yerda ma'lum soatda paydo bo'lib yurar ekan mudhish arvochlari... Agarda men nolalardan sassiq xidlardan odamzodni jinni qilgan vahimalardan uyg'onsamu o'sha onda tentirab ketsam! Bobolarning suyagini qo'g'irchoq qilsam yechib olsam u so'yilgan Tibalt kafanini yo bobolar suyagini hassaday qo'llab jinnilarcha yanchib qo'ysam badbaxt kallamni hozir menga ko'rinxmokda Tibaltning ruhi. U qasos deb Romeoni izlab yuribdi. Tibalt to'xta! Romeo boq hozir boraman sening uchun ichyapman!

**MIRZO ULUG'BEK
(Dramadan parcha)**

Shu – qirq yillik andishaga alamli yakun.
Ketib qoldi zamondan diyonat, rostlik.
Mudhish bir jar yoqasida turmish mamlakat.
Zulmatli tun qo'nayotir yurtning ufqiga.
Bobo Temur, omonating saqlayolmadik.
Avlodlaring chiqib qoldi g'oyat noqobil.
Bobo Temur, tirigingda o'zing va so'zing
Ulkanlikda sig'mas edi shu yer yuziga.
Endi nega maydalandi Temur urug'i.
Endi nega razillashdi hokimlar ruhi.
Endi nega mirzolarning ko'zлari ojiz,
Qulog'i kar, idroki bo'sh, iroda kuchsiz,
Yov nayzasin ko'kragimga o'qtaldi yovuz,
Bu yov sening evarangdir, g'oyat benomus.
Mash'al sekin o'chib boradi.
Men u yovni ko'kragimda parvarish etdim.
O'g'il dedim, nuqsonlarin undan bekitdim.
Yaxshi so'zning urug'idan yaxshilik kutdim.
Tarbiyada talabchanlik shartin unutdim.
Xo'p mehribon ota bo'ldim, shafqatl shulton.
Ma'rifatning dushmanlari misoli shayton.
Vasvasalab qitiqladi uming tomirin.
Shonparastlik, takabburlik kekin, g'ururin.
Otalarining musibati shundaki, ular
Farzandlarin boridan ham yaxshi deb o'ylar.
Maslahat ber, menga bobo!
(Qabr yoniga o'tiradi.)
G'oyat muhtojman!
Men, o'smirlik chog'larimda panding esimda.
Ikkilanmay sen har kimga yo'l-yo'riq berib,
Buyurarding, jazolarding yoki silarding.
Bu kulfatli zamonda bergin maslahat,
Tag'in lashkar, tag'in jangu, yaroq-aslaha!
Oxiratga qadar shumi, sultonlar ishi?
Temuriylar manlayiga bitilgan shumi?
Tomirimda garchi yurar Temurning qoni,
Ammo menda Temurbekning shaddodligi yo'q.
Men hech qanday tahlikadan hayiqmayman, yo'q.

Men o'limni hokim emas qul, deb sanayman.
Uni falak ovchisining ko'ppagi deyman.
Turkistonda garchi menga teng keladigan
Mergan yo'g'u, ammo urush ta'bimga yoqmas.
Jang, ma'raka, odam qirish, safarda yurish.
Barakatning bog'larini kesib kuydirish –
Sening sevgan nabirangga, menga iztirob.
Bobo Temur, bu jumboqqa o'zing ber javob:
Shohlar burchi yashatmoqmi yoki o'limmi?
Quvvat nima? Muruvvatmi yoki zulmmi?

Umarjon Ismoilov

RUSTAM
(Dramadan pacha)

1. Rustam dardi

Eh,
Men oy nurini o'g'irlasam,
Oy kun nurini o'g'irlagan ekan.
Dunyodagi bor ishning butun hammasi.
Bir-biriga bog'langan bir ulug' ekan.
Bu o'yinlar, kulgilar, zardoblar bilan
Sharoblarga qo'shilib suzilar ekan.
Gunohlarni to'ldirib kosalar bilan
Kayfi safo yo'lida ichilar ekan.
Garchi o'g'ri bo'lsa ham mana shu odam,
Bir otaning ko'zini oq-qorasidir,
Garchi shu qiz fohisha bo'lsa, albatta –
Bir odamning singlisi yoki qizidir.
To'g'ri-to'g'ri, bu yer ham, u yer ham, ko'zim,
Hammasi ham bir qafas, bir go'r, bir zindon
Shu qafasning ichida yo o'lish kerak,
YO sindirib qafasni saqlash kerak jon!
Sening qora amirkon shahlo ko'zlarining,
Oq shohidek kelishgan nafis yuzlarining,
Anor donalaridek shirin so'zlarining
Yuragimning tagiga zahar soldilar,
Yuragimda cho'g' bo'lib yotgan olovni,
Yolqinlatib, qulf urib, ko'kka ko'tarib,
Alangasin jahonga sochib soldilar.
Mening ko'nglim muhabbat uchun yaralmay,
Qayg'u-hasratlar uchun yaralgan ekan,
Avlodimning ichida qaysi bittasi,

Qayg‘u degan nasldan taralgan ekan?!
Menga endi bitta do‘st topib berdilar,
Faqtgina do‘st emas, xotinim bo‘ldi,
Bir ko‘krakdan sut emgan qon-qarindoshim
Quchog‘imda ko‘z suzib buraldi, kului.
Men singlimni bag‘rimga bosib quchoqlab,
Mastlik ila ko‘ksimda og‘ushlar qildim,
Ko‘kragimni mijig‘lab, labini tishlab,
Aysh-ishrat otiga suvora qildim!
Ey xudo nima uchun dunyoda boyu, kambag‘al?!

Yer yuzida nohaqlik, razillik, zulm,
Nima uchun muttaham, o‘g‘ri, fohisha?
Qurbon, o‘lim, na uchun pul ila pora?!

Nima qilay bir otam xor bo‘lib o‘ldi,
Onam bo‘lsa ochidan cho‘p kabi so‘ldi,
Qarindosh-urug‘larim sarson-sargardon,
Birin o‘tga tutdilar, birini suvgan,
Yana birini fahshlarga sudrab eltdilar,
Nomusiga tajovuz qildilar uning.
Sharmandazor ichiga tashlab ketdilar,
Endi unga din dushman, xudo ham dushman.
Ota-on, qarindosh-urug‘lar dushman,
Boylar dushman, eshonlar, hoqonlar dushman,
Butun yerning yuzida odamlar dushman,
Ayting, uni bu holga kim soldi o‘zi?
Kim soldi-yu baloga kim oldi o‘zi?!

Farmon! Qaydasan shayton!!! Olib bor,
Endi do‘zaxingga olib bor.
Bilib qo‘y, endi mendan qochib qutulolmaysan.
Endi men mahshargoh tomoshasini ko‘rsataman.
Dajjal! Dajjal! Dajjal!

2. Rustam monologi

Kosani to‘ldiring ayting alyorni
Shu pulning, shu qulning sog‘ligi uchun
Aysh qilib yigitlar bilan
Majlisda qizlarning borligi uchun.
Ichaylik shu pulning salobatiga
Pul ko‘p zo‘r, azamat, pahlavon bir kuch
Agar pul bo‘lmasa butun dunyoda,
Odam yo‘q, turmush yo‘q, hatto yashash puch
Pul bo‘lsa, pul berib bazm olasan,
Pul bo‘lsa, pul berib imon olasan,
Bazm pul, vijdon pul, xotinlar ham pul

Shariat, qoshi ko‘z, shirin so‘z ham pul
 Jonlar pul, tanlar pul, ko‘kraklar ham pul
 Hattoki muhabbat, yuraklar ham pul
 Bilmadim, xudoning o‘zi dunyoni
 Yaratsa, pulni ham o‘ylaganmidi?
 Shu pulning o‘zidan kuchli ekanin
 Xudoning o‘zi ham bilganmi edi,
 Pul bo‘lsa, pul uchun tizni cho‘ksalar,
 Pul bo‘lsa, pul uchun yerni o‘psalar
 Pul bo‘lsa, pul uchun odamni so‘yib
 Qonidan ko‘chaga suvlar sepsalar
 Ayting-chi? Kim kuchlik xudomi yo pul?
 Minglarni darbadar, sargardon qilgan
 Ayting-chi, bu jonlar qizlarmi yo tul?
 Bir marta ochilmay gul kabi so‘lgan,
 Ichaylik qo‘zini qo‘ydan ajratib
 Bolani otadan ajratgan uchun
 Ichaylik singilni ona qo‘ynidan,
 Ajratib faxshlarga irg‘itgan uchun,
 Ichaylik og‘aga singilni qo‘shib
 Singilni sharmanda qilgani uchun
 Begunoh, beaql, mas’um jonlarning
 Qo‘lma-qo‘l gul kabi yurgani uchun
 Ichaylik, ichaylik, bu aroqlarni,
 Kosani to‘ldirib so‘zning poshshoxon,
 Kattiqrok qichqiring alyor bo‘lsin deb,
 Ichamiz kosasida mayli bo‘lsin qon.

Xurshid

LAYLI VA MAJNUN
(Musiqali dramadan parcha)

Majnun:

Ey dasht eli sohib e’tibori,
 Ey himmati yetti iqlimga jori.
 Qavmi arab erdi zeri dasting,
 Mendan yetishibdir bu shikasting.
 Ham ko‘ngling o‘lib g‘amimda noshod.
 Ham umring o‘lib ishimda barbod.
 Sham’ istading uy qilishga ravshan

Ondon kuyib uy misoli xirmon.
Bu g‘amda nechik tirik bo‘lay voy,
Uzringni ne til bilan qilay voy,
Avf et ota, lutf ayla gunohim,
Pok ruhingni ayla uzrohonim.
(onasining qabriga)
Ey jonima kaba’i muqaddas,
Uzringni tilim ado qilolmas.
Ka’bamni qilib harob har doim,
Soldim senga iztirob har dam.
Mehrimni ko‘ngilga aylading yor,
Qilding beshigimga qo‘lni tumor.
Bu nav’ tilak bilan ki nogoh,
Zulm aylasa senga charhi kin xoh.
Qul yanglig‘ o‘g‘ullig‘ingni qilsam,
O‘g‘ul kabib qullig‘ingni qilsam,
Lekin tunu kun judolig‘ etdim,
Bilmaslig‘u bevafolig‘ etdim.
Bechora man etdi naylagayman,
Dardimga ne chora aylagayman?!

Ka’bai ona, senga yolvorurman,
Avf aylamog‘ing umid qilurman
Hijron tuning vafosiga jon bo‘ldi beqaror,
Bo‘ldi sirim butun jahon ahliga oshkor,
El etdi ta’nalar bilan ozorim ixtiyor,
Motam jafozar bilan ko‘nglim o‘ldi tor-mor.
Yo‘q bag‘rimga qiluvchi davolar bilan mador.
Bitta firoq jabrini tortmoqqa toqatim,
G‘am birla mahv o‘ldi qarorim halovatim
Oxir egildi g‘am yuki ostida qomatim,

Yor eshigi makonimu vasl erdi hojatim.
Ammo yor o‘zga bazmi bilan mastu baxtiyor.

Layli:

Ey hasta tanimda totli bir ruh,
Ey g‘am, qo‘lida asiru majruh,
Mushtoqi jamol eding hamisha.
Mushtoqi visol eding hamisha,
To‘xtat biroz oh ila fig‘oning,
Men Layliman orzuyi joning.

Majnun:

Sen Layli emassan, ey parivash,
Qo'y, aylama ko'nglim yana g'ash,
Layli uni ahdini sindirmas,
Ag'yor ila ayshu bazm qurmas.
Ikkimizi otasining rizosi,
Qildi bizi qayg'u mutbalosi.
Navfalga sening otang qilib zo'r
Ibn Salom ila menga bir go'r.
Yozmish esa bizga bo'yla taqdir,
Hech kim bera olmas oni tag'yir.
Navfadan xalos o'lub esang shod,
Men Ibn salom qo'lidan ozod.

Layli:
Qaysim, quvon endi.

Majnun:
Layli sendan,
Qanday umid aylayin yetimman.
Yo'q menga ko'mak beruvchi dilhoh.

Layli:
Qayda ota-onang?

Majnun:
O'idi.

Layli:
Oh!
Balki menga hazil etib gapirding?

Majnun:
Yolg'on deganim ko'ribmi erding?
Budir – bu ota-onam mozori,
Hukm etdi ajal bularga jori.

Layli:
Ming dod, falak, jafolaringdan,
Tokaygacha zulmu jabr etarsan.
Tun, bas, charxing ila ez vujudim,
Ko'klarga ko'tar keraksa dudim.

Majnun:

Layli!

Layli:

Ey tangri, qani adolating, oh!
Ishq ahliga shulmi shavkating, oh!
Yorimning ota-onasi o'lmish,
Go'yo bu musibatlar menga bo'lmish.

Majnun:

Layli, qo'y, ey Layli, yig'lama bas,
Faryodlar endi foyda bermas.

Layli:

Somon kabi sovrilibman, ey voh!
Bug'doy kabi qovrilibman, ey voh! (o'ladi).

Izzat Sulton, Uyg'un

**ALISHER NAVOIY
(Dramadan parcha)**

Guli:

Nechun tug'ding meni, baxti qaroni?
Baloga mubtalo, motamsaroni?
Muruvvat bilmagan kunlar uchunmi?
Jafokash, beraxm tunlar uchunmi?

Xosiyat:

Onang o'lsun bolam, qanday qilay men,
Tug'ibmenki seni, baxting tilaymen.

Guli:

Unut baxt so'zini og'zingga olma!
Xayol u biz uchun qo'y dog'da qolma?
Firibgar, bevafo bir qush erur baxt,
Qo'nar joyi aning qon sachragana axt.
Xarob ul zolim, ey baxtingga la'nat!
Zulm shohi razil taxtingga la'nat!

Qulmuhammad:

Tilingga berma erk.

Guli:

Kessin, tilimni!

Xosiyat:

Qizim, kul qilmagin ojiz dilimni.

Guli:

Agar istar esa boshimni olsun,
Tananmi burdalab o'tlarga solsun.
Bu birlan marhamat qilgay menga shoh,
Xalos etgay meni kulfatdan e voh!
Jafoye zulm ila kuni buncha bo'lg'ay.

Qunduz:

Kishi gar ko'ksini yuz pora qilsun
Falakning zulmiga ne chora qilsun.

Qulmuhammad:

Qizim, taqdir ekan, taqdirga tan ber,
Itoat qilmagan oxirida g'am yer.

Guli:

Falak... taqdir... qazo... Oh qandayin nom.
Zahar-zaqqum quyib ich, deb tutar jom.
Falakning har ishi zulm ila nayrang.
Yorug' olamni, u, qilmish menga tang.
Saodat bog'ini zulm etdi barbod.
Falakning javridin, ozoridin dod!

Qulmuhammad:

Qizim, unday esa, yo'q deb javob ber.

Guli:

Yo'q, aslo! Bo'lmasin qurban Alisher!
Qo'ying, el bulbuli boz sayrasun oz!
Qo'ying, yurt baxtini madh aylagan soz!
Vaqtsiz sinmasin Shohona ijod.
Tugalmay qolmasin... Men qayda? Hayhot,
Men oddiy bir kishi, u elga boshdur.
Agar men sham' esam u bir quyoshdir
Aning chun mayliga qurban bo'lay men,
Balo shamshiriga qalqon bo'lay men.

Vilyam Shekspir

QIYIQ QIZNING QUYLISHI (Dramadan parcha)

Katarina: Uyatsiz! Qoshingni chimirma ortiq,
Va qo‘pol, g‘azabli qarashing bilan,
Kishilar dilini qilmagin siyoh.
G‘azab hazon qilar husningni sovuq
Hazon qilganidek ko‘m-ko‘m chamanni
Olib ketganiday kurtakni shamol,
Nom ing ham o‘chadi, hech yerda, hech vaqt,
Hech kimga kerakmas qovog‘ing sening.
Deydilar, achchig‘i xotin kishining
Loyqagan, siniqqan, chiroyi o‘chgan,
Bo‘tana chashmaning suviga tengmi.
Bir xo‘plam ichmaydi hech kimsa undan,
Har qanday cho‘llagan bo‘lsada ham shaksiz.
Er-sening sohibing, tirikliging
Va eng katta davlating.
Sen uyda issiq va rohatda yashab bemalol,
Bilmaysan xatar-u, xalokat nima.
Bu vaqt seni deb ering tinchimas,
Suvdam, quruqda kecha-yu, kunduz,
Olishar dovulu, qahraton bilan
Va yolg‘iz muhabbat istagi sendan,
Bir lutfu karamu, yolg‘iz itoat,
Arzimas mukofot ming azobiga!
Minnatdor bo‘lganday shohga fuqaro
Xotin ham o‘zining eriga shunday
Agar u zahardir, o‘jardir yomon.
Itoat qilmasa eriga halol,
O‘z hukmdoriga xiyonat qilgan,
Isyonkor mal’undan nima farqi bor?
Uyatga qo‘ydingiz meni xotinlar!
Tiz cho‘kib, sulh so‘rash o‘rniga,
Bunda jang qilib yuribsiz.
Itoat bilan mulozamat qilmoq joyida esa
Uyalmay hokimlik qilasiz talab
Zaifligingiz, nozikligingiz,
Notavonligingiz mashaqqatlarga,
Tanu fikr bilan va idrok bilan
Itoatkorlikning guvohimasmi?
Eh, ayanch, besabr, ojiz bandalar!
Men ham sizga o‘xshab takabbur edim.

Ulguday gerdagan, dumog'dor, qaysar,
Dardga dard olardi, o'nga o'n mendan.
Endi men angladim, otganlarimiz
Uq emas, nohtavon o'q ekan, xolos.
Zaiflikda ekan kuchimiz faqat.
O'zgalar rolini qo'yaylik endi!
Bosh eging erlarning oyoqlariga
Erim nima desa tayyormen shu zum,
Ado etmoq uchun xotinlik burchim.

Vilyam Shekspir

YULIY SEZAR
(Tragediyadan parcha)

1. Marul monologi

Dabdabasi nima ekan?
Nima berdi Rimga u?
Orqasidan keladimi zanjirlangan asirlar,
Bezab zafar aravasin dovruiq, tantana bilan?
Yo'q, siz Rimning shafqat bilmas xalqi hissiz kesaksiz!
Hissizlikda qoyalarning toshidan xam battarsiz.
Pompey yoddan chiqdimi, xo'sh, ayting, axir necha bor,
Minoralar, derazalar, devorlarga, tomlarga,
Hatto baland mo'rilarga chiqib olib kun bo'yi,
Poylagansiz ko'ramiz deb, o'sha ulug' Pompeyning
Dovruq solib o'tishimi shu Rim ko'chalaridan.
Ko'rgan oni hashamatli aravasin Pompeyning
Chuvvos solib baqirgansiz, titratguday olamni,
Na'rangizning to'lqinlari urilganda qirg'oqqa
Tibr kabi daryoni ham sola olgan larzaga.
Endi bayram libosiga o'ralibsiz hammangiz!
Endi, Pompey qonlaridan kechib o'tgan odamning
Yo'llariga gullar sochib bayram qilmoqchisizlar.
Yo'qol hammang uy-uyinga!
Uyga borib, sharmandalar, tavba qiling tiz cho'kib,
Sizdek rasvo, yaxshilikni bilmaganlar boshiga
Yana qahru g'azabini yog'dirmasin xudolar!

2. Antoniy monologi

To'kish uchun tayyorlaning ko'zingizda yosh bo'lsa.
Manov plash hammangizga tanish. Mening yodimda
Birinchi bor Sezar uni chodirida kiygani:
Yoshi oqshom payti edi; nerviyarlarni shu kuni

Yuliy Sezar yenggan edi. Kay Kassining xanjari
Xuddi mana bu yeridagi teshib o'tibdi, qarang!
Ko'ring, yovuz Kassiy qanday katta teshik teshibdi!
Manov yerga xanjar urgan uning aziz Bruti!
U la'nati xanjarini tortib olgan mahalda,
Sezar qoni tig' izidan tashqariga otilib
Chiqqan ekan, mana ko'ring, go'yo chiqib eshikka,
Nahot Brut shunga dag'al taqillatsa, deb uni
Tekshirmoqchi bo'lgan kabi, axir Brut Sezarga
Bir farishta edi-ku; o, Sezar uni naqadar
Sevganini hammangiz ham bilardingiz, xudolar!
Mana, endi, zarbalarning eng dag'ali, eng zo'ri
Mark Brutning zarbi bo'pti, mana ko'ring, do'stlarim.
Ulug' Sezar Mark Brutning xanjarini ko'rganda,
Ko'rnamaklik xoinlarning zarbidan ham og'irroq
Zarba berdi unga, buyuk yurak bunga chidolmay
Pora-pora bo'ldi, Sezar splash bilan yuzini
Yopib Pompey haykalining oyog'ida jon berdi,
Tanasida Pompey qoni oqar ekan tirqirab.
Birodarlar, bu halokat ko'p dahshatli halokat!
Siz bilan biz, hammamiz ham Sezar bilan bir qator
Halokatga uchraganmiz, qonli xiyonatlarga
Ustimidzdan o'z hukmini yurgizishga yo'l berib
Ha, nimaga yosh to'kasiz? Alam qoplab oldimi?
Bu shafqatli yuraklarning bebaho ko'z yoshlari!
Mana bizning Sezarimiz; Qarang uning o'ziga,
Qiyma-qiyima qilgan uni xiyonatning xanjari!

3. Yuliy Sezar shuhratparastmidi?

Do'star, aziz rimliklar
So'zlarimga qulq soling!
Men shubhasiz, Sezarni
Maqtash uchun emas, balki ko'mish uchun kelganman.
O'zlaridan ko'proq yashar odamlarning gunohi;
Xizmatlarin esa ko'p vaqt birga qo'shib ko'mamiz.
Sezarni ham, mayli, xuddi shunday qila qolaylik.
Sofdil Brut sizga uni shuhratparast deb aytdi;
Agar shunday bo'lsa, bu ko'p og'ir gunoh va Sezar
Juda og'ir jazolandi shu gunohga yarasha.
Men Brut ham boshqalarning ruxsatiga binoan,
Axir Brut – juda sofdir, oliyanob odam-ku,
Boshqalar ham, o, hammasi oliyanob kishilar,
Motam nutqi so'zlab, hurmat qilmoqchiman Sezarni.

Yuliy Sezar menga sodiq va haqqoniy do'st edi,
 Ammo Brut shuhratparast deb hisoblar u zotni,
 Brut esa – juda sofdir, olijanob bir odam.
 O'zi bilan birga Sezar ko'plab asir keltirdi,
 Va ularga tovon olib xazinani boyitdi.
 Uning shuhratparastligi shundan iboratmidi?
 Agar gado nola cheksa, Yuliy Sezar yig'lardi,
 Bunchalik bo'sh bo'laolmaydi hech vaqt shuhratparastlar.
 Ammo Brut shuhratparast deb hisoblar Sezarni,
 Brut esa g'oyat sofdir, olijanob bir odam.
 Hamma ko'rgan, Luperkaliy bayramida men unga
 Uch marotaba toj keltirdim, Sezar esa uch gal ham
 Tojni olmay rad etganda – shuhratparastlikdanmi?
 Ammo Brut shuhratparast deb hisoblar Sezarni,
 Brut esa, so'zsiz, sofdir, olijanob odamdir.
 Men bu gapni Brut bilan munozara qilgani
 Aytayotganim yo'q, faqat, bilganimni gapirdim.
 Bejiz emas uning bizga g'oyat qimmat bo'lishi:
 Qani aytинг, yig'lamaslik uchun qanday sabab bor?
 0, sen idrok! Hayvonlarga qochib ketding chamasi,
 Telba bo'lib o'z aqlidan adashibdi odamlar.
 Kechiringlar. Mening jonim – Sezar yotgan tobutda,
 Men o'zimga kelmoq uchun jum bo'lishim lozimdir.

4. Brut monologi

Tinchlik saqlang, men so'zimni tamom qilgunga qadar.
 Rimliklar, hamshaharlar va do'stdar!
 Men o'zimni oqlamoqchiman, qulq soling.
 So'zlarimni tinglash uchun tinchlik saqlang.

Vijdnom haqqi, menga inoning va menga inonmoq uchun vijdnomimni hurmat qiling. Mening haqimda o'z bilganlaringizcha hukm yuriting va yaxshi hukamo bo'lish uchun aqlingizni qattiq ishga soling. Agar bu majlisda Sezarni astoydil sevgan biror odam bo'lsa, menga unga Brut Sezarni sendan kam sevmas edi deb aytta olaman. Va agar u mendan, axir Brut, qanday qilib Sezarga bosh ko'tardi deb so'rasa, beradigan javobim tayyor:

Men Sezarni kam sevganligimdan emas, balki, Rimni ko'proq yaxshi ko'rganligimdan isyon ko'tardim. Xo'sh, siz nimani afzal ko'rар edingiz – Sezar yashasa-yu, siz hammangiz qullarcha o'lsangiz afzal bo'larmidi yoki Sezar o'lsayu siz hammangiz ozod odamlar bo'lib yashasangiz afzal bo'larmidi?

Sezar meni sevardi – men unga yig'layman; u baxtiyor edi – men uning uchun shodman; u dovyurak edi – men uni hurmat qilaman; ammo u shuhratparast edi – men uni o'ldirdim. Shunday qilib ko'z yoshi – uning sevgisi, shodlik – uning

baxti, hurmat – uning dovyurakligi, o'lim esa – uning shuhratparastligidir. Orangizda qul bo'lishni istagan biror olchoq bormi? Agar unday odam bo'lsa, nomini aytsin, chunki men uni xafa qildim. Bu yerda rimli bo'lishni istamagan biron ta befarosat bormi? Agar bor bo'lsa ismini aytsin, negaki men uni xafa qildim. Orangizda, o'z vatanini sevmaydigan biror tuban kishi bormi? Bor bo'lsa nomini aytsin; men uni xafa qildim. – Javob kutaman.

Nasrullo Qobul

**NA MALAKMAN NA FARISHTA
(Musiqali dramadan parcha)**

1. Mashrab monologi

Yorug' kunni zimiston deyish mumkin
Mahroi Kabrni bo'ston deyish mumkin,
Agar Biron yurt xuvorisi bo'Imasa,
Unday elni mngba'd el deyish qiyin.
Ellik to'rt yil yolg'on Dunyo bag'rida
«Ollo akbar», deb yashadim qasddan.
Jonomga farog'at topmay yig'ladim,
Shamolda to'zg'idim bamisli barxan
Riyozat yo'liga urdim o'zimni.
Olloham jomolini undan izladim.
Tangrimni qalbimga solgan so'zni,
Tilimga ko'chirdim, rostin so'zladim.
Xonavayron bo'lgan ojiz jismimda
Yo'q edi g'iybat-u hasad, xiyonat,
«Telba» deb, ortimdan ma'lomat qilgan
Zohidlar zulmiga ayladim toqat.
Chidadim, chidayman toki qiyomat
Qadar chidayman-da chekib nadomat.
Zimmamga yuklangan muqaddas yumush
Ko'ngillarda iymon chirog'in yoqish.
Bas-ki, to insonlar kamolin ko'rsam.
Menga o'zga ilinj zinhor kerakmas...
Nechundir vujudim titradi yomon.
Qo'rquv borligimda o'rmalab kirdi.
Jovdirab qibladan so'rayman hayron.
«Nahot safarimning so'nggi ko'rindi?»
Zulmkor ajalning chayir panjası,
Bo'g'zimga chang solib jonimni olsa,
Nahotki, dunyoning jamiyki kasi,
Yig'lamoq o'rniga ursa qah-qaha?!...
Demak, bu dor menga atab tikilgan.

Zamon keldi qani osilib dorga,
Devona boshimni sirtmoqqa solay.
Azaldan, toabad menga bo‘ysinmay.
Ma‘lumot qildirgan telba tanamni
Dorda qiy nab, ho‘rlab o‘chimni olay.
(Mashrab dor sirtmog‘ini bo‘yniga soladi.)
Zor-zor qaqqash titrama.
Ne keladi qo‘lingdan
To‘lgan bo‘lsa paymona,
Dadil bo‘l, mard, tanti bo‘l.
Ajal ro‘baru kelsa
Bo‘lma yana hayrona.
Men shaxidiy iliqliman
O‘lsam kafanga chulg‘amang
Ul qizil qon birla qo‘ynim
To‘lduroyin dermisan

2. Maxmudxon va Mashrab dialogi

Maxmudxon

Xo‘sh kelibsiz yurtga devona.

Mashrab

Sen gunohga botasan ey xon.

Maxmudxon

Mening uchun g‘am chekmang taqsir
O‘zingiga qayg‘uring hozir.

Joningiz qil uzra turibdi.
Hazil bo‘ling, bo‘lmang so‘zamol.
Og‘zingizdan chiqqan kufr so‘z yo un.
Nochor holingiz qilgaydur zabun.

Mashrab

Jonim qil uchiga osgan senmisan,
Shunday deb o‘ylasang xato qilasan.

Maxmudxon

Men o‘sha qilni uzishim mumkin.

Mashrab

Senday nodonni ko‘rmagan gardun,
So‘zlaring kulgili, fikrlashing jun.

Yana bir yanglishding ey sho'rlik faqir,
Kim qil ossa, o'sha uzadi axir.

Maxmudxon

Yoqamga bosh tortib g'azabim yutdim,
Bu gal mayli o'tdim gunohingizdan.
Ortiq bardoshimni sinamang hech ham,
Har holda xoqonman «nodon» bo'lsam ham.

Mashrab

Kekkayaber, keril, qilma andisha,
Maqtangil, rutbangni qilaber pesha.
Sendek go'l sultonni ko'rмаган jahon,
Manman bo'lsang sendan qoladi nishon.
G'azabing kelsa hech chidama, gumroh,
Chidashdan qahrini sochgan yaxshiroq.

Maxmudxon

Zaxarxanda so'zni bas qiling taqsir.
Ulamolar hukmidan xabardormisiz?

Mashrab

Aytchi, «Meni qachon qatl qilasan»?

Maxmudxon

Osiylik-la nechun qaytdingiz dindan?

Mashrab

Mulohaza qilib so'ra o'zingdan,
Voz kechish mumkinmi quyoshdan, kundan.

Maxmudxon

Asli sizdaylarni sazoyi qilib,
Yuzingizga qazon kuyasin surtib.
Jallodning qo'liga topshirmoq darkor,
Chunki sizdaylardan na biron naf bor.
Qilmishingiz dinga keltirib zavol,
Siz pok e'tiqodni etasiz paymol...

Mashrab

Bu g'alat lutfingizdan qaddim bo'ldi dol.
Nimada ayblaysan meni hukmdor?

Maxmudxon
Nechun mullalarga berasiz ozor?

Mashrab
Iymoni sustlarga, qilganman g‘azab,
Devona gapiga qulq sol bir gal,
Savodsiz peshvodon kurkattovuq afzal.

Maxmudxon
Siz kofur bo‘lgan Shayx Daroniy misoli,
«Farishta huzurimga keladi» debsiz?

Mashrab
Farishtalar kelmay iblis kelsinmi?

Maxmudxon
«Payg‘ambar misoli merojga chiqdim»,
Degan uydirmangiz shirk keltirish-ku.

Mashrab
Meroj ko‘tarilish shak keltirishmas,
Merojni bilmaslik eng buyuk shirkdir.

Maxmudxon
«Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq nimadir,
Ibrohimdan qolgan ul eski do‘konni na qilay»,
Sizning she’ringizmi? Bu-kufr emasmi?

Mashrab
Bo‘lmasa engingda shohona kiyim,
Sening kimligingni aniqlash qiyin.
Kimga sig‘inasan ey nobakor «oqilu dono»?
Sajdagohing ollohami yo toshdan tiklangan bino?

Maxmudxon
Nega haqiqatdan bo‘lib masuvo,
Mansurdek xudolik qilasiz davo?

Mashrab
«Analhaqq» ma’nosini anglashing dushvor.
Maxmudxon
Anglating qilmasangiz or.

Mashrab

Hamma narsa, yulduz, oy, quyosh, odam,
Olloh zuhuridan iborat olam.
Go‘yo olloh – quyosh, jamiyki jonzot,
Uning nurlarining zarrasi – hayot.
Zarraning quyoshdan uzilgan payti,
O‘lim go‘yo zarra asliga qaytdi.
Xudo o‘z qudratin etib namoyish,
Dunyoni mukammal qilib yaratmish.
Demak, olam olloh jilvasi ekan,
Men ham xudoning bir zarrasidirman.

Maxmudxon

Taqsim, din ahlining qahriga qolmang,
Shakkoklik qilish siz uchun loyiqmas,
Bu ahvolda juda qattiq kuyasiz,
Kufr so‘z aytishni qachon bos qilasiz!

Mashrab

Sultonlar insonni aldamagan kun,
Fohisha malakdek pok bo‘lsa bir tun.
Bolalar ko‘zidan oqmasa ko‘z yosh,
Gadoning uyida pishsa har kun Osh.
O‘g‘ri to‘g‘rilikning yo‘liga kirsa,
Qotil jinoyatdan pushaymon qilsa.
Tovbu deb qurbanin opichlab yursa,
So‘qir odam Dunyo jilvasin ko‘rsa.
Kar odam eshitsa sozanda kuyini...

Maxmudxon

Bas qiling!

Mashrab

Xo‘p, endi jallodni chaqir!

Maxmudxon

Taqsim, sizni etmayman qatl,
Sizga ruxsat ketaversiz.
Faqat sizga yolg‘iz o‘tinchim,
Balxga boshqa qadam bosmang. Bas! (Ketadi)

Aleksandr Pushkin

**QIZG‘ANCHIQ RITSAR
(Pyesadan parcha)**

Baron (yerto'la)
Makkor fohishaning domiga tushgan,
YO bir ahmoq xotin aldagán yigit –
Visol oqshomini qay hilda kutsa,
Men ham xuddi shunday kutdim kun bo'yi.
Sirli yer to'lamga, bu jozibador,
Sandiqlar yoniga tushish paytimni.
Qanday baxtiyor kun! Men bu kun yana
Jamg'argan bir siqim oltin – pulimni
Oltinchi sandiqqa solaman. To'g'ri –
Ko'p emas (sandiqa ham to'limgan hali),
Ammo asta-sekin ortar xazina.
Rivoyatda borki, bir zamon bir shoh
Uzoqdan siqimlab tuproq tashishib,
Yeriga tikka bog' barpo qilgannish.
Shu balanddan dengiz va kemalarni,
Yashil vodiylarni, oq chodirlarni
Zavq bilan qilar kan kunda tomosha.
Xuddi shunday men ham bu yerto'lamga
Har kuni keltirib bir siqim xiroj
Bir tog' yaratdimki, cho'qqilaridan
Menga qaram bo'lgan dunyo ko'rur.
Menga kim qaram-mas? Iblis singari
Jahonga hukmimni yurgizolaman;
Istasam, ko'shiqlar barpo qilaman;
Istasam, bu so'lim bog'larimaro
Bazm safo qurar hur qizlari ham,
Boj, sovg'a ko'tarib kelar parilar,
Erkin daho menga qul bo'lar hatto,
Adl-muruvvat ham, bedar mehnat ham
Kutadi tiz cho'kib ehsonlarimni.
Hayt desam, qarshimda qonli jinoyat
Bukilib hukmimga qilar itoat,
Tovonimni yalar, o'qir ko'zimda
Hukm – irodamning nishonasini,
Hamma menga qaram, men-chi, hech kimga,
Men hamma tilakdan ustunman, tinchman.
Men o'z qudratimni bilaman! – Yetar
Men uchun shu basdir.....

Vilyam Shekspir

HAMLET

(Tragediyadan parcha)

1. Hamlet monologi

Mana qarab ko'ringiz: ikki surat.
Suratlarga solinmish og'a va ini.
Buni qarang: qanchalik, joziba, ko'rkan,
Zevspeshona, sochlari Apollonvori,
Qarashlari Marsniki singari mag'rur,
Osmonning elchisi Merkuriy kabi
Ulug'vorlik va savlat bu kishida jam.
Bu kishida jam bo'lgan har bir xislatga
Biron tangri bosmishdur go'yo o'z muhrin.
Bu biringchi eringiz, chinakam inson,
A – bu bo'lsa, ikkinchi eringiz, go'yo
Toza boshqoq yonida qurt bosgan boshqoq.
Ko'zingiz qayda edi? Tog' yaylovidan
Tushib shunday xashakka xo'ra bo'libsiz.
Ko'zlarigiz bormidi? Bu-ku ishq emas.
Yoshingizga yetganda odamlar endi –
Kalla bilan yashaydi, yelsiz, bo'ronsiz,
Ammo bu Oliy zotni shunday badzotga
Alishtirgan kallaning mag'zi qayerda?
Siz o'lik tan emassiz, qimirlaysiz-ku.
Ammo sizning tuyg'ular g'aflatda yotgan.
Hech bir kimsa shunchalik yanglishmas edi.
Kishi alahlasa ham shuncha bir farqning
Ma'nisiga albatta yetmasdan qolmas.
Bo'lmasa qaysi shayton sizni aldadi?
Kishi ko'r yo kar bo'lsa, sezgisiz bo'lsa,
O'shanda ham bu qadar yanglishmas edi.
Sen qaydasan, ey hayo? Vasvasa, shayton
Bevaning ham shahvatin qo'zg'ata olsa
Qanday talab qilaylik qizlardan hayo?
Bu fe'lingiz zamona kelinlariga,
G'oyat yomon namuna bo'lg'usi, xonim!

2. Qolmoq yo o'lmoq

Tirik qolmoq yo o'lmoq? Shudir masala!
Qaysi biri bulardan bizga munosib?
Shu dilozor falakning tahqirlariga
Shikoyatsiz – shikvasiz chidab turmoqmi?
Yo'qsa, unga rad badal berib qo'zg'almoq,
Qurol olib yo yengmoq, yo vahv bo'lmoqmi?

O'lish... unutilish. Masala tamom.
Tanimizga o'ralgan ming-ming tashvishning
Zanjirin ilol-abad uzadi o'lim.
Zotan dilning azamat armoni shu-ku!
O'lmoq – g'aflat tushida uxlamoq demak.
Tushlar! Qanday tushlar u? Tushlar emish-a?
Dunyo tuyg'ularidan tikilgan libos
Go'rda yechib olingen bo'lsa, u holda
O'liklar uyqusiga kirarmi tushlar?
Mana, hamma sirlarning hikmati shunda!
Mana, bizning hayotda g'aamlarimizning
Muhlatin yildan yilga cho'zayotgan sir.
Yo'qsa, shu kiborlarning jaholatiga,
Hokimlarning jabriga, soxta kibriga.
Shu munofiq muhitning ayyorlariga,
Biroviga hasrat ham qilolmaslikka,
Muhabbatning xoru zor ezilishiga,
Mardaklarning ko'zida har qanday himmat
Anoyiliy sanalib toptalishiga
Butun bu razolatga kim chidardi, kim?
Vaholanki, xanjarning bitta zarbasi
Bu mujmal tugunlarni yechar ko'p oson.
O'limdan so'ng, u yoqda nelar bo'lg'usi?
U qanday, bir diyorki, unga borgan ko'p,
Ammo xanuz qaytولган biron yo'lchi yo'q?
Bu vahima rom etar irodamizni,
Noma'lum bir diyorga qochishdan ko'ra –
Bizga tanish baloga bo'lamiz rozi!...
Yo'qsa tirikchilikning ziri – borida
Holsirab yurmoqlikka kim ko'nardi, kim?
Bas, fikrimiz shu taxlit qo'rkoqlashadi,
Va aqlning boshi berk ko'chalarida –
So'lib ketar bizdagi jasorat guli.
Ko'p umidli, qanotli niyatlarimiz
Hadeb, nuqul orqaga siltanib qolib
Barbod bo'layotirlar. Endi bas, yetar! –
Ofeliya, Quvonchim! Gunohlarimga –
O'z duongda kechirim tila, ey pari!

VI. MUSIQALI KOMPOZITSIYALAR

ONANI MADH ETUVCHI MUSIQALI KOMPAZITSIYA

Eng bebafo va hamisha beminnat tarqatiladigan bir xazina bor. Bu ona mehri!

Bormikan onadek aziz, shirin so‘z,
U bir quyosh bo‘lsa, farzand bir yulduz,
Farzand bir guldir, ona bir bo‘ston
Shuning uchun jahon guliston.

Ayol deganda, ko‘z oldimizda avvalom bor aziz va mukarram Ona siyemosmi namoyon bo‘ladi. Barchamizni, yuragi ostida o‘stirib dunyoga keltirgan, oq yuvib, oq tarab voyaga yetkazgan, o‘zining oq suti, mehr-muhabbati bilan

qalblarimizga olijanob insoniy tuyg‘ularni singdirgan munis onalarimizga har qancha ta’zim qilsak, ularni har qancha ulug‘lasak arziyi, albatta. Azim poytaxtimiz Toshkent shahrining bosh maydonida qad ko‘targan, o‘zida baxtiyor ona siyomasini mujassam etgan, ezzuli monumenti deb nom berilganligi qalbimiz to‘rida ayol-onas zotiga bo‘ladigan chuqur hurmat-ehtirom, ta’zim va tashakkurimizning yorqin ifodasidir.

Baxtimizga Onalarimiz hamisha omon bo‘lsin.

Dushan Fayziy

ONAJON

Onajon!
Bu galgi yurak so‘zimni –
Senga bag‘ishladim senga azizam
Yo‘q, yo‘q so‘zim emas, balki o‘zimni,
Senga bag‘ishladim senga azizam .
Sen meni yaratding rahmat onajon!
Hadya etding meni yorug‘ dunyoga yaratding.
Qalbingdan bag‘ishlading jon,
Ko‘zimni to‘ldirding nuri ziyoga.
Qancha so‘qmoqlardan o‘tding yetaklab,
Oshno qilding meni hayotga, elga.
Ba‘zan izlaringdan yurdim emaklab
Sen boshlading meni insoniy yo‘lga.
Ba‘zan sen parvona men chiroq bo‘ldim
Sen chiroq bo‘lganda, bo‘ldim parvona
Koyisang – yig‘ladim, erkolasang – kuldim,
Shu zayl bag‘ringda ulg‘aydim ona!
Onajon!
Yelkamda qarzim ko‘p senda
Bir parcha et edim, sen qilding odam
Ammo, sening sira qarzing yo‘q menda
Sendan oldim aqlni, zakovatni ham
Derlarki – onaning ko‘ngli bolada
Nafas ololmaydi ona farzandsiz
Derlarki – bolaning ko‘ngli dalada
Nafas olarmikan farzand onasiz?
Ming kulluq! Olamni tanitding menga
Aqli seroblikda daryo ekansiz,
Bag‘ri keng ufq dunyo ekansiz!
Qaniydi
Tabiat qo‘lidan kelsa
Abadiy etolsa sening umringni
Roziydim onajon, iloji bo‘lsa

Senga qo'shib bersa mening umrimni,
Bir kechalik allang hurmati uchun
Yuz yillik umrimni bag'ishlasam kam
Ko'chirsam
Qalbingda qalbimni kuchin -
Qarzim uzilmasdan qolur shunda ham
Mabodo,
Bo'lsaydim zo'r haykaltarosh,
Senga yuragimdan yasardim haykal.
YO agar bo'lsaydim mohir bir naqqosh,
Surating chizardim berib ming sayqal.
Oralab qolibdi sochlaringga oq
Ol mening sochlaringga qoralarini
Tishlaring tushibdi, xo'rsinma biroq
Ol mening tishlaringga saralarini
Xiralashib qolibdi ko'zlariningda nur,
Ko'zlarim nurini olgin, mehribon.
Roziman, xizmating qilsam bir umr,
Yuragim qo'rini olgin onajon.
Sen bunga haqlisan ey nuridiydam!
Shukur qilay dunyoda onam boriga.

Hoji Abdulla Orif

**ONA
Hikmat sadolari**

Ka'ba qopqasida turgan, ey posbon,
Avval onalarning ochgin yo'llarin.
Onalar poyiga tiz cho'kkon o'shal on,
Tavof qil, ko'zga sur, o'pgil qo'llarin.

Hojar onamizning nidosi sabab,
Ka'bada ko'z ochgan obi zamzam ham.
Bir umr talpin mish onaga qarab,
Ne-ne payg'ambarlar, ko'zlarida nam.

Qavyomini ranjitib qo'y mayin ammo,
Tobut yasab kelgan er zoti doim.
Onalar bag'riga faqat beshik jo,
Hayotbaxsh allalar aytgan muloyim.

SHo'rlik odamzotning toleyi uchun
Eng avval onalar qilsin ibodat

Zora gunohlardan pok bo‘gay ochun
Onalar o‘tinchı topib ijobat.

Ka’ba qopqasida turgan, ey posbon
Avval onalarning ochgin yo‘llarin.
Onalar poyiga tiz cho‘kkan o‘shal on
Tavof qil, ko‘zga sur, o‘pgil qo‘llarin.

E’tibor Oxunova

OYIMLAR

Sizni o‘ray mushki anbar rayhonlarga,
Ta’rif aylay tog‘u toshlar sayhonlarga,
Ey yoronlar, jabr etmangiz siz jonlarga
Bir holingiz tatsada jahonlarga.

Siz olamning, oroyishi, mohi aylar,
Sochlaringiz to‘lqinida oqar soylar,
Shoh bo‘lsam... Sizga qurardim zar saroylar,
Poyingizga bosh qo‘ysin deb shoh gadolar.

Beshigingiz allaladi Boburlarni,
O‘ylaringiz ulg‘aytirdi Temurlarni,
Ardog‘in yaratdi ish g‘urularni,
Qabohatni qarg‘ab, alqab sururlarni.

Ayoldur, uylarimiz sarishtasi,
Sarishtasi kamdur nuri farishtasi,
Ul mehrning, muhabbatning jon rishtasi,
Ular andarman iroqi, gul kashtasi.

To ‘lan Nizom

ONAM SURATI

Bugun yana termulaman, Onajon,
Sen tomonga intilaman, Onajon,
Aytgil, endi ne qilaman, Onajon,
Ne o‘tganin men bilaman, Onajon,
Sado chiqmas, sog‘inaman, surat jim.

Ko‘z yoshim suv, bog‘ unar chaman-chaman.
Oq suting, deb ilhomimni ichaman,
Sen Turkiston, Ona-Yer, Ona-Vatan,
O‘zingdadir, o‘zing bergenjou tan,

Bosh qo‘yaman, sog‘inaman, surat jim.

Mahmud Toirov

NOLA

Momo, havo, momojonim, sen onamni asragin,
Men do‘lvorni chiroq bilgin parvonamni asragin,
Yetmish ikki tomirimda noxush tuyg‘u titragay,
Momo havo, momojonim, sen onamni asragin.

Jovdiragan yulduzchalar xayollarim olgaydir,
Nahot onam bir kun kelib yulduz bo‘lib qolgaydir,
Ko‘rgizmagan mehrim mening yurak bag‘rim o‘rtaydir,
Momo havo, momojonim, sen onamni asragin.

Sochining har tolasidan ming bir azob qaraydi,
Tongni onamni sochin emas, azoblarin tayraydi,
Kech kirgan bu aqlim mening armon bo‘lib ingraydi,
Momo havo, momojonim, sen onamni asragin.

O‘ylar tunlar uyqu bermas armon chaqar meni ham,
Yuragimda ko‘zlarimga mehr qalqar meni ham,
Yomon demas har kun yuz bor onam alqar meni ham,
Momo havo, momojonim, sen onamni asragin.

To ‘lan Nizom

ONAMA-A...

Sendan o‘zga mehribonni ko‘rmadim,
Sensiz yorug‘ bu jahonni ko‘rmadim,

Sendan buyuk or-vijdonni ko‘rmadim,
Sensiz to‘kis yer-osmonni ko‘rmadim,
Bugun yana yodga tushgan onam-a.

Ko‘rishamiz, bolam, qiyomatda deb,
Yig‘layverma, bo‘tam, nadomatda deb,
Sen yakkasan, yasha diyonatda deb,
Umring o‘tkaz halol, ibodatda deb,
Bildirmasdan mendan qochgan onam-a.

Ulushing bor, dasturxonda, o'zing yo'q,
Ko'z oldimda surating bor, o'zing yo'q,
Ko'zlarimga qarab turgan ko'zing yo'q,
Yig'lamagan o'g'ling hamda qizing yo'q,
Ro'zg'orimda shamday o'chgan onam-a.

Ko'rganiningda bo'lar edi shu alam!
Dunyo ishi shundoq ekan, biri kam,
Shu boisdan yig'lab o'tar el-olam,
Armonlaring mana men tutgan qalam,
Shoir bo'lib qiynab jo'shgan onam-a.

Yaratgansan piri imonim bo'lib,
Qaratgansan tabib insonim bo'lib,
Yaratgansan bog'u bo'stonim bo'lib,
Sayratgansan ulug' turonim bo'lib,
O'zbekiston kabi quchgan onam-a.

Mamadiyor Xo'shmatov

ONA

Baloyi qazolar yog'ilsa boshga,
Do'st yor zahar solsa men ichgan oshga.
Yosh boshim urilsa devorga toshga,
Kim ham jon koyitar onamdan boshqa.

O'zimni tig'larga ming marta urdim,
Xudoyim asradi ko'p balo ko'rdim.
Ig'vo toshlariga nishondir ko'ksim,
Kim jon koyitar onamdan boshqa.

Sarbon toliqqandir cho'l ichra karvon,
Duch keldi qaroqchi galalar har on.
Balki mening qabrim bo'imas hech qachon,
Kim ham jon koyitar onamdan boshqa.

Jarlikka qulasam bir kun may ichib,
O'q yegan burgutday qolsam gar tinchib.
Bilaman har kimga kerak o'z tinchib,
Kim ham jon koyitdi onamdan boshqa.

Ey o‘g‘lon onang bor shoxsan kaming yo‘q,
Do‘sstar davrasida shodsan g‘amimg yo‘q.
Onang o‘tgandan so‘ng shodon daming yo‘q,
Kim ham jon koyitar onagdan boshqa.

Sirojiddin Sayyid

VATAN ABADIY

Bahrayn suvlarga chaydim yuzimni,
Nasimlar esdilar iliq arobiy,
Bir osmon to‘ldirib keldi ko‘ksumni,
Vatan qolar ekan, Vatan abadiy.

Ne zotlar o‘tdilar Vatandan ayro,
Sevinchi savdoyu sog‘inchi sahro,
Ko‘ksumni to‘ldirib keldi bir daryo,
Vatan qolar ekan, Vatan abadiy.

Bobo qirlarlagi bir xos yo tikan,
Shu ham kimlargadir zo‘r armon ekan.
Ko‘p ekan zar topib, zor bo‘lib yurgan,
Vatan qolar ekan, Vatan abadiy.

Kim axir bu dahri dundan o‘tmagay,
Kim axir bir kuni aso tutmagay,
Tandan jon ketar, lek Vatan ketmagay,
Vatan qolar ekan Vatan abadiy.

Ayb emas avvaliy va yo soniyimiz,
Agarchi insonmiz vale foniymiz,
Barchamiz ushbu kun Turkistoniyimiz,
Vatan qolar ekan, Vatan abadiy.

Asta barg to‘kmoqda zarhal og‘ochlar,
Umr go‘yo to‘lar boju xirojlar,
Kelib ketar ekan qancha sirojlar,
Vatan qolar ekan, Vatan adabiy.

Sirojiddin Sayyid

ONAJON

Shu yorug‘ dunyoda shukurona aytSAM,
Avvalo men sizni qilajakman yod.

Tushganda boshimga malomat va g‘am,
Sizni esga solar shundoq ham xayot.

Aziz ayyomlaru begin kunlarda,
Tavof etadurman men sizni birdek.
Meyoru had ayon hamma narsada,
Lekin ehtiromim mening bilmas chek.

Axir mehrdan ham ne bor ulug‘roq,
Yog‘duga chulg‘ar u qalbdagi unni,
Sizga sadoqatda ko‘raman har choq,
Men o‘z umrimdagi teran mazmunni.
Onajon yashadim demasman mutloq
Sizni yod etmayin o‘tkargan kunni.

Mirpo ‘lat Mirza

ONAJON

Qara to‘rt tomoning tog‘lar purviqor,
Shifobaxsh maskan bu lojuvard havo.
Bas mening ko‘nglimni yayratmas zinhor,
Onamning qadami yetmagan navo.

Qara bu bo‘lolmas hovuch-hovuch nur,
Undan ichgan tanda kubor yetmagay,
Mening uchun qondak mo‘tabar bo‘lar,
Axir onam undan bir bor totmagan.

Qara bu ne shukuh porlar tubida,
Yol tarab yugurar yovvoyi soylar,
Faqat yuragingda sening qadar ham,
Senga jo‘ndir mudam bu ko‘rk chiroylar.
Oh netay ko‘nglimga berolmas malham
Onamning nazari tushmagan joylar.

ONANI HURMAT QILING

Onani hurmat qiling ko‘nglida g‘am bo‘lmasun,
Qalbiga g‘ashlik tushib ko‘zлari nam bo‘lmasun.
Rasvoi olam bo‘lib hijron o‘tida yoqmang,
Jondan aziz boshlari el aro ham bo‘lmasun.

Onani o‘zga bilib hech qachon sir saqlamang,
Oqibat bir kun kelib ona mulzam bo‘lmasun.
Yoringizni ishqini ko‘rmangiz undan baland,
Onalik mehri ketib yerga mahram bo‘lmasun.

Onani hurmat qiling kimsa yo‘q undan ulug‘,
Xaqqiga aylang duo bir umr kam bo‘lmasun.

Sulton Rasuliy

ONAJON

Jismu jon birla hayot menga berding onajon,
Ko‘rma g‘am dunyo yuzida deb turarding onajon.

Goh sevib, goh erkalab kuylar to‘qiysan allalab,
O‘ylabon hargiz meni kam bo‘lma derding onajon.

Uxlasam qo‘ndirmayin gard sen oromim buzmading,
Doimo baxtimni istab sog‘liq tilarding onajon.

Bil bugun ona qizing el ichra topdi e’tibor,
Sen mudom boshim silab mehring berarding onajon.

Bir umr madhingni kuylaydi farzanding mehribon,
Chunki sen eng mo‘tabar qalbimda mangu onajon.

Mahmud Toirov

VOJIB

Bolam, qulog‘ingga olgin so‘zimni,
Minnat qilmagayman topgan tuzimni,
Yorug‘ ko‘rgim kelar bosgan izimni,
Unutma, so‘z bor bol kabi ajib,
Duo olganlarning duosi vojib.

Mayli ko‘p oshama, luqmang oz bo‘lsin,
Nomardga duch kelsang qadding g‘oz bo‘lsin,
Tiz cho‘ksang poyingda joynamoz bo‘lsin,
Duo olganlarning duosi vojib.

Qadim gap, dunyoga mehmonmiz biz ham,

Mezboni rizq bergen yaratgan egam,
Undan nasib bo'lsa gar fazlu karam,
Iloh ichra, el ichra bo'lgansan najib,
Duo olganlarning duosi vojib.

Tuproqning tilini toshdan so'rmasin,
Qaldirg'och qadrini qoshdan so'rmasin,
Bilmasang, o'zingdan yoshdan so'rmasin,
Nuroni chehralar turar dil ochib,
Duo olganlarning duosi vojib.

Xato o'tgan hatto Odam Atodan,
Boshingga tushganin ko'rgin xudodan,
Ortingdan aytilgan har bir duodan,
Mahmud qabri ichra yotar nur sochib,
Duo olganlarning duosi vojib!

Mahmud Toirov

MEN OFTOBGA ALISHMAGAN AYOLLAR

Tomirimni tirnar ko'hna savollar,
Yuragimda gullar shirin xayollar,
Ey, siz o'zbekoyim, oftobjamollar,
Men oftobga alishmagan ayollar.

Millatning ertasi, millatning nasli,
Siz atir nafasli, siz rayhon isli,

Ketmas bo'lib kelgan bahorsiz asli,
Men oftobga alishmagan ayollar.

O'zbekiy ohang bor kulgularida,
Durni talpintirar yog'dularida,
Orom orolanar tuyg'ularida,
Men oftobga alishmagan ayollar.

Sizlar borsiz, so'zimizda sado bor,
Sizlar borsiz, ishq ahlida gado bor,
Sizlar borsiz, ming bir dardga davo bor,
Men oftobga alishmagan ayollar.

Oftob ojiz asli onam oldida.
Bibixonim yuragimning yodida,

Siz yashaysiz Mohlaroyim dodida,
Men oftobga olishmagan ayollar.

Gulni uzsam tuguncha qo‘lim gullaydi,
Men sizga yetguncha yo‘lim gullaydi,
Poyingda o‘lsam o‘lim gullaydi,
Men oftobga alishmagan ayollar.

Mahmud Toirov

AYOL BORKI ODAMZOD NASLI

Ayol e’zoz uchun yaralgan zotdir,
Ayolga ehtirom yarashar asli,
Bir og‘iz shirin so‘z unga najotdir,
Ayol bor baxtiyor odamzot nasli.

Ayol bag‘ringdagi baxting bekasi,
Dunyoga tabassum bergen ham ayol,
Jannat iforidir ayol nafasi,
Termulib dardingni tergan ham ayol.

Dunyo hofizlarin shox qo‘shiqlari,
Ona allasining uvog‘icha yo‘q,
Bahor saralagan ming turfa g‘uncha,
Bir go‘zal sanamning dudog‘icha yo‘q.

Yigitlar tiz cho‘kkan guldek ostona,
Kulgusi qo‘ng‘iroq qizlar poyidir,
Ayol bor er zoti yashar mastona,
Nainki mastona, goh savdoyidir.

Ayolni ojiza deyavermang ko‘p,
Ayolsiz erkak ham, dunyo ham ojiz,
Poklanmoq bo‘lganlar kelingiz to‘p-to‘p,
Onangiz poyiga cho‘kavering tez.

Ayol e’zoz uchun yaralgan zotdir,
Ayolga ehtirom yarashar asli,
Bir og‘iz shirin so‘z unga najotdir,
Ayol bor baxtiyor odamzot nasli.

Mahmud Toirov

ONA

Mehringiz bulog‘i ummonga o‘xshar,
So‘zingiz suhani luqmonga o‘xshar,
Jon ona, ko‘rmasam, ko‘zlarim qaqshar,
Ko‘zim chirog‘ida parvonam mening.

Sizga qiyos o‘qdir, qiyoslar ojiz,
Bitti ne, o‘n bo‘lsa quyoshlar ojiz,
Ko‘nglimming gavhari nurlangan hargiz,
Bu mulki borliqda yagonam mening.

Oppoq sochlaringiz tog‘larga ro‘mol,
Dilingiz muattar rayhonga xayol,
Tilingizdan tomar baxt, iqbol, kamol,
Kamolimni ko‘rib mastonam mening.

Izimdan bir shirin duo o‘qilsa,
Ko‘zimdan yo‘limga quvonch to‘kilsa,
Ziyoga yo‘g‘rilgan bir she’r to‘qilsa,
Onam duodadir – jon onam mening.

Onajon, ne qildim men qirdan oshib,
Hamon mehringizni ketaman tashib,
Dilim to‘lib borar ko‘zimdan toshib,
Axir o‘lchangan-ku, umrim ham mening.

Subhi sabo bo‘lib sochingiz silay,
Umri fido bo‘lib, umringiz tilay,
Ona, ko‘zingizda quyoshday kulay,
Bosh ursam Makkamsiz, Madinam mening.

Mahmud Toirov

AYOL

Sadoqat bog‘ida ungan chechaklar,
Yulduzlar yuzidan tomgan ertaklar,
Buloqlar ko‘zida kulgan tilaklar,
Jannat farishtasi emasmi ayol!

Bog‘larga bahorni yetaklab kelgan,
Farzandi qoshida oy bo‘lib to‘lgan,
Ilk aytgan qo‘shig‘i allalar bo‘lgan,
Jonimiz rishtasi emasmi ayol!

Laylining labidan tomgan vafoda,
Kumushning ko‘zida suzgan hayoda,
Mohim Mohlaroyim chekkan jafoda,
Muhabbat mevasi emasmi, ayol!

Ko‘zin qorasida mehri belanchak,
Lutfin ardog‘ida sehri bor beshak,
Qay mardning ohusi turon kelinchak,
Oshiqning ginasi emasmi ayol!

Tishlangan juft nonda ko‘z yoshlari qon,
Oh qirqta jonining hammasi giryon,
Ellik yil shahidin yo‘qlagan juvon,
Vafoning siynasi emasmi ayol!

Ko‘nglin olmaganim, ko‘kda hilolim,
Ming bora kechirgan mening malolim,
Onam, nuridiydam mehri zilolim,
Tangrining tuhfasi emasmi ayol?!

Mahmud Toirov

ONA RIZOSI

Niyati ziyyarat sayidi olam,
Qay kuni qabristonga kirganda birrov,
Bir qabr yonidan o‘tayotgan dam,
Eshitdi, oh urib go‘rida birov.

«Olovga aylan mish har urgan ohim,
Ostimda olov vah, ustimda olov,
Dodimni eshitmas, olampanohim,
O‘ng yonimda olov, so‘limda olov»!

Ortiga qaytdi-da, Muhammad shu dam,
Buyurdi Makkanning ahli jomiga:
– Qabristonga borib har bitta odam,
O‘tirsin tegishli qabr yoniga.

Qarasa nolali qabrga yaqin,
CHo‘k tushib o‘tirmish mushtipar kampir.
So‘radi payg‘ambar sarvari oqil:
– Bu senga kim bo‘lar, onaxon gapir?

O‘g‘lim dedi ona, bunday farzanddan,
Lekin men bezorman oh, Rasululloh!
Rasululloh ham so‘radi yaratgandan:
– Pardani ko‘targin, yo qodir Ollo!

Parda ko‘tarildi va ko‘rdi ona,
Olov bilan to‘lgan o‘g‘li mozori,
Yosh emas ko‘zidan oqizib qon-a...
Yaratganga uchdi onaning zori.

– Bor Xudoyo, karamim keng Xudoyo...
Shuncha azoblarda qolmishmi bolam!
Mehring darig‘ tutma, boqqil qiyoy,.
Roziman men undan, rozi bo‘l sen ham!

Olov so‘ndi shu on o‘g‘lon qabrida,
Ona rizosi bu, Ollo karami,
Do‘zax olovi bor ona qahrida,
Unutmang mehrida jannat malhami.

Mirtemir

ONA

Olamga botirlar armug‘on etgan sen ona,
Olamga shoirlar armug‘on etgan sen ona,
Alisherga alla aytib uxlatgan sen ona.
Og‘ushida Bobur kamolga yetgan sen ona.
Torobiyni og‘ir jangga jo‘natgan sen ona,
Dohiyalar beshigini bedor tebratgan sen ona,
Yig‘lasa, dunyoni raso titratgan sen ona,
Kulgisi saodat parvarish etgan sen ona.
Sherday o‘g‘illarni yo‘llading jangga sen ona,
Onaday oshiq yo‘q, ona Vatanga jon ona.
Onalarning oyog‘i ostidadir,
Ravzai jannatu jonon bog‘i,
Ravza bog‘in visolin istar esang,
O‘p onalar oyog‘ini tuprog‘in.

INSONIYLIK, MEHR-MURUVVAT VA TINCHLIKSEVARLIK MAVZUSIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY KOMPOZITSIYA

Insoniyat tarixi urushlar tarixidan iborat. Ertaklarda – urush. Bostonlarda – urush. Kitoblarda – urush. Kinolarda – urush. Tabaqalar – urushi.

Fuqarolar urushi. Mamlakatlar urushi. Jahon urushi...

Ikkinchiji jahon urushi ellik million odamning uvoliga qoldi.

Shundan yigirma millioni sovet kishilari edi. Eng aziz, eng asl kishilarimiz. Qolaversa, urush faqat okopdagi jangchilarning joniga chang solib qolmadi. Minglab chaqirim naridagi odamlarni ham sinovdan o'tkazdi. Negaki, biz bir xonadon a'zolarimiz. Mushkul damlarda imonini, insonligini saqlab qolgan otanalarimiz, aka-opalarimizning hayoti bugungi dorilomon zamonda bizga o'rnak bo'ladi.

Urushda g'olib, podshoh g'olib, qo'shin g'olib, davlat g'olib tuzum bo'lishi mumkin. Ammo g'olib odam bo'lmaydi. Negaki, urush odamni odam o'ldirishga majbur qiladi. O'tkir Hoshimov (daftар hoshiyasidagi bitiklar).

Shuhrat Rizayev

SAHNA MA'NAVİYATI

Arastu monologi. Davlatlar o'rtasiga tushgan mojoro jahon ichiga tushgan to'fonchadur, zero bundan jahon ahli vayron bo'lur. Urush bu to'fongina emas, balo dengizining chayqamog'i, jahon ahlining qonli suv ostida qolmog'i demakdir. Bu paytda jahondagi bor mamlakatlardan osoyishtalik yo'qoladi.

Urush, bu – dovul! Dovulgina emas, g'am va anduhning selidir. Undan butun dunyo xalqlariga kulfat va alam yetadi. Urush kunlari oshnolar begonalashdi, bir xonadonda yashagan odamlardan hamxonalik yo'qoldi. Xaloyiq ko'zini fitna gardi qoplab olsa, bechora xalq ur-yiqit orasida o'zini yo'qotadi. Urush balosi xalq boshiga qirg'inlik va vatangadolik soladi. Noahilchilik, murosasizlik avj olaversa, xalq bu ko'rgiliklar ostida toptalaveradi.

Sulton Akbariy

YER – INSON BOG'I

Jahon xalqlari,
O'tni o'chiring,
Tinchlik she'rlarini
Oqqa ko'chiring.
Daf'bo'lsin urush,
Qon yalanmasin.
Olam badbursh
Telbalanmasin
Jonga tegdi o'q,
Ayrilma dog'i.
Ofatga yo'l yo'q,
Yer – inson bog'i

Uyg'un

VATAN HAQIDA QO'SHIQ

Vatan-onas so'zi naqadar laziz!
 Sensan har narsadan mo'tabar aziz,
 Hurmatingni saqlar har bir o'g'il, qiz.
 Muqaddas, mo'tabar ulug' Vatanim
 Sharaflar, shonlarga to'liq Vatanim,
 O'lsam ayrlimasman quchoqlaringdan.

Abdulla Oripov

O'zbekning peshonasi po'latdan yaratmishdir,
 Yumushini malomat, zaxmatdan yaratmishdir.
 Bir so'z bilan aytganda mehnatdan yaratmishdir,
 Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.
 Tinglasang, tunganmaslik afsonasi bor bu el,
 Sarkardasi, shoiri, taronasi bor bu el,
 Ming oqilga arzirlik devonasi bor bu el,
 Faqatgina xalq yashar, faqatgina qolur xalq.

Xabibiy

Yashnagan, gul-gul ochilgan O'zbekistonni ko'ring,
 Xushhavo, xushbahra, ko'm-ko'k bog' bo'stonni ko'ring.

Mirpo'lat Mirzo

Bu dunyoda chamanlar ko'p,
 Bu dunyoda vatanlar ko'p.
 Bu dunyoda yashnar gullar,
 Barchasida yayrar dillar.
 Mening uchun aziz bo'ston,
 O'zbekiston! O'zbekiston!
 Yo'ling yorug' yo'llarga tutash,
 Yuzingda,
 Ko'zingda,
 Dilingda quyosh.
 Xazon bo'ima hech qachon
 O'zbekiston! O'zbekiston!

Sulton Akbariy

Vatan, ishonchim maxkam,
 Misralarim badastur.
 Xayolingda imsli sham

Yonib batmoq havasdur.

ONA YURT

Ona yurt,
Mastona yurt,
Gulxona yurt,
Hamhona yurt,
Koshona yurt,
Parvona yurt,
Mardona yurt.

Sobir Abdullo

MAVLONO MUQIMIY (Badiiy lavhalar)

Musiqiy kuy

To'y kuni ham yaqinlashib qolgan, hujraga yor-do'stlar kelib, kuyovni qutlug'lashmoqdalar. Muqimiying cho'kkani ruhini do'st-dushman oldida baland ko'tarib, ustoz domla Xalil, Miyon Sotiboldixon maslahati bilan to'yga tayyorgarlik ko'rmoqda edi. Ertaga to'y degan kuni ertalab to'yxonaning ikki yon qo'shnilarini bamaslahat to'yxonaga devor buzib, yo'l ochdilar.

Mirzaxo'ja aka hayron bo'lgan edi, ikkala qo'shni bir xilda izoh berishdi:

To'yingizni davomi biznikida bo'ladi! Joy yetishmay qolsa bu yon qo'shni devorni ham buza beramiz!...

Besh hovli fonuslar shu'lasidan munavvar, har hovli har toifa mehmonlar bilan to'lgan, qiy-chuvlar orasida musiqa, childirma va ashulalar avji falakka yetmoqda.

Ko'cha o'rtalariga gulxan yoqilib, gulxan atrofini bolalar o'rabi olgan.

Zavqiy, Obidjon, Soli chakalak Usmonxo'ja Zoriy, Yormuxammad Yoriy kabi Muqimiying do'stlari bel bog'lab to'yxona eshigi oldida mehmon kutmoqdalar.

Uzoqdan soz bilan qo'shiq aytib yana bir to'da mehmonlar kelishdi.

Musiqqa

Eng oldinda tanbur chertib, yalla aytayotgan lobar yigit, Marg'ilondan kelib turib qolib, shirin ovoz usta Komiljon edi.

Yalla

Boshqa mehmonlar, kosiblar, dasturxonqa qaramay yalla boshladilar.

Maqom ashula

Bazmda usta Komiljoni shirali, qo'ng'iroq tovushi alohida ajralib turar edi. Komiljon Muqimiyning «Kim desun» kuyini (g'azalini) kuylay boshladi.

Muqimiyy

Soyadir menki, boqmas oftobim kim desun,
Bora-bora ketdi qadrim, intixobim kim desun...

Butun mahalla she'riyat sayliga aylangan, Muqimiyy, Furqat, Zavqiy yozgan ajoyib g'azallar kuylanar edi.

Muqimiyy g'azallari

Navbahor ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar,
Suhbat aylaylik kelinglar, jo'ralar, o'rtoqlar.
Xush bu mahfilda tiriklik ulfatu ahbob ila,
O'ynishib, goha tabiatni qilaylik chog'lar.
Bog' aro ham sen kabi sarvi xiromon bormukin
Yuzlari gul, sochi sunbul, zulfi rayhon bormukin.
Hur paykar, to'tidek shirin takallum, xushsuxan,
Tishlari dur, lablari la'li badaxshon bormukin.

Emdi sandek, jono, jonon qaydadur,
Ko'rib gul yuzingni bog'da bandadur,
Saqlay ishqing toki jonio tandardur,
O'zim har joydaman, ko'nglim sandadur.

Aqli hush uchdi boshimdan ey pari, devonaman,
Bir iloje qil, el ichra bo'lmayin afsonaman.

Surma qo'y may muncha ham jono qarodur ko'zla
Har biri jon qasdig'a boqqan balodur ko'zlarin.

Qizlar qo'shig'i

Mehring o'ti nogoh tushdi jonlarga,
Parvoym yo'q zarra xonu monlarga,
Lola yanglig' to'lib bag'rim qonlarga,
O'zim har joydaman, ko'nglim sandadur.

Ichkarida qiz-juvonlar childirma chalib, qo'shiq aytmoqdalar. Kuyov uchun bir to'n va bir do'ppigina qilingani ma'lum edi. Muqimiyy yigit bo'lib, surp ko'ylak-lozimni, yangi kavush-mahsini, shohi qiyiqni endi ko'rmoqda!

Bular shoir uchun faqat orzu bo'lib tuyular edi-yu, hech kimga izhor etmas edi.

Yor-yor kuyylanadi

To‘y oxirlab, domla halil ustozi fotiha o‘qib, o‘z tilagini ayta boshladi. Ijodlaringiz bilan, avlodlaringiz bilan xalq muhabbatiga sazovor bo‘linglar, bu ajoyib she’riyat ahlining to‘yi xalqning to‘yiga qo‘silib ketsin! Xotin-qizlar, qiy-chuv, yor-yorlar ostida, kelinni kuyov yoniga o‘tqazdilar

«Hay-hay o‘lan, jon o‘lano, to‘ydir bu kun,
Hayyor-yora, to‘ydir bu kun.
Ikki yurak topishar kundir bu kun,
Hayyor-yora kundir bu kun...»

To‘yga yig‘ilgan soddadil kishilar bularning qo‘sha qarishlarini tavajju qilib tarqaldilar.

Omon Xalil

OYDIN TUNLAR (Qissadan parcha)

Nazar boboning hovlisida nikoh to‘yi. Qishloq ahli nazar boboning qavm-qarindoshlari to‘plangan. Ichkari-tashqari nuqradek toza hamma narsa joy-joyida orasta. Ichkari hovli ham gayjum. Qizlar davra tutib, bazm qilishyapti. (Musiqa, aytshuvlar kuyylanadi).

Kimdir o‘yin to‘lqiniga Bodom opani surib yubordi. U oldiniga hazilomuz o‘ynagan bo‘lsa-da, keyinroq shunday o‘ynab ketdiki, hamma qiyqirab chapak chalib yubordi. Yoshlik zavqi nogoh jo‘sh urdi shekilli, u mayin yo‘rg‘alab, barmoqlarini qarsillatar, qoshlarini chimirar, yanoqlari qizarib, bo‘rtib ketgan edi.

– Nima jin urdi seni, – dedi kayvoni davrani yorib kirib, – besh pul berib o‘ynatib, o‘n pul berib to‘xtatolmaysan, deb seni aysa bo‘larkan... Bas qil endi, qudalar kutib qolishdi.

- Hoy qizimning to‘yida yayrab o‘ynamasam, qachon o‘ynayman.
- Nevara to‘yida o‘ynning xumoridan chiqasan. Qani, yur...

Dugonalari chekka uyda Dilshodni yasantirishyapti. Sochini qirqkokil qilib, orqasiga tashlar ekan, bir dugonasi hazillashdi.

– Shunday mayda o‘rdimki, kuyov to‘ra yuzigni ko‘rish uchun qancha urinmasinlar, bari bir topolmaydilar...

– Dilshodxon baxtli ekan, – dedi yana biri gapga aralashib, – o‘z tengiga tegayapti.

Dilshodxon dugonalarining tegashakligidan qizarar, unga kelinchaklarga xos libos kiygizishdi, boshiga oq harir ro‘mol yopib, chimildiqqa boshlashdi.

Tashqari hovli odamlar bilan liq to‘la. Hamma kuyov kelishini sabrsizlik bilan kutmoqda. Gulxan, o‘tin ham tayyor. Bir vaqt uzoqdan mash‘al ko‘rindi. Hamma tashqariga otildi, qiyqirib shovqin solishdi.

Birinchi gulxan yoqildi. Darvoza oldidagi keng maydonda ikkinchi gulxan ham gurillab yondi. Uning shu'lasi keng davrani yoritdi. Hammaning ko'zi kuyovda. Uning boshida oq salla, ustida olacha to'n, oyoqda kavkazcha etik, keng yag'rinli, quyuq payvasta qoshli, oq yuzli, chiroli yigit... Ikki tomonidan ikki kuyov-nakar qo'ltilqlab olishgan. O'rta bo'yli, soqoli mosh-guruch bir dehqon o'yinga tushib ketdi. Uning o'yini o'ziga mos, muqomlari, tabassumlari shunday yarashiqli ediki, hamma beixtiyor suqlanib boqardi. U qoshlarini chimirar, barmoqlarini qirsilatar, yelkalarini silkitib, yoshlardek chaqqon aylanardi. U raqs sur'atini bir oz sustlashtirdi-da, yangroq ovoz bilan lapar ayta boshladi.

Qoshing qiyolasanmi,
Choynak piyolasanmi.
Akangga ko'p qaraysan,
Mandan uyolasanmi?

U laparni aytib bo'lar-bo'lmas, yoshlар o'rtaga tushib, aytishuv davom etib ketdi.

Laparlar

Qoshing qorami, qunduz,
Kecha boraymi, kunduz,
Kecha borsam alomat,
Kunduz borsam qiyomat.

Men boray, borgunimcha,
Yengimni solgumimcha,
Yengimni solgan joyda,
Ochilibdi gul g'uncha.

To'y oqsoqoli mehmonlari mehmonxonaga taklif etdi. Hovli sahma chodir bilan o'ralgan. Doira basma-bas chalinmoqda. Raqqosalar noz karashma bilan o'yinga tushib, shoh tashlashadi. Bir payt davraga yosh bir yigitcha kirib, qayroq o'ziniga tushib ketdi. Kelinchaklar undan yuzlarini yashirishdi, lekin, ko'p o'tmay, chuvvos ko'tarildi:

- Yuzingni ochib, o'yinni tomosha qil, u o'zimizning kayvoni buvi-ku.
- Voy yo'rg'alashlarini qarang...

Yigitchaning sabza mo'ylovi o'ziga yarashib tushgan. Boshida qashqarcha telpak, ustida to'n, belini shoyi qiyiq bilan sirib bog'lagan. U qayroq o'zinini shunday qoyillatib o'ynardiki, atrofdan tahsin sadolari yog'ilardi. U davradan chiqarkan, o'rtaga erkak-ayol tushishdi.

Ayol:

Bo'ldingiz boyga yetim,
Qildingiz ish betinim.

Qarab kun-tun yo‘lizga,
Bo‘ldi za’faron betim.

Eri:

Solib kel menga chilim,
Yuragim asli tilim.
Undan zo‘rg‘a qutuldim,
Tushmasin endi yo‘lim.

Laparlар aytildi

1. «Qoshing qaro» – Yigit va qiz.
2. «Kel-kel deganda kelmading» – Yigit va qiz.
3. «O‘zi bilsa bilsin».
4. «Shundanmikin» – Qiz va yigit.
5. «Osmona uchirdim» – Yigit va qiz.

Har tomondan «Yashang!», «Kam bo‘lmang», «Ofarin» degan ovozlar yangradi. Kayvonining «Kuyov keldi, qubba o‘qilmoqchi» degan xabari uyinnng beliga tepdi. Sozandalar bazmini taqqa to‘xtatishdi. Qudalar qo‘zg‘alib, qubba o‘qilayotgan uy sari yura boshladilar. Qubba o‘qilgach qizlar va ayollar, yor-yor atyib kelinni kuyovnikiga kuzatib ketdilar.

Qoshin qaro

Qoshingni qaro deydilar,
Qoraqosh ukam ey yor-yor.
Ko‘rsat qoshingni men bir ko‘ray,
Jonim ukam ey yor-yor.

Qoshimni ko‘rib nima qilasiz,
Siz akajonim yor-yor.
Qaldirg‘ochning qanotini,
Ko‘rmabmidingiz yor-yor.

Kel deganda kelmading

Kel, kel deganda kelmading
Oshiqligimni bilmading.
Bilib nazarga ilmading,
Bor boraver men bormayman
O‘zgani men yor demayman.
Bunchalar ham xunik o‘zing,
O‘zingdan ham xunik ko‘zing,
Bor boraver men bormayman,
O‘zgani men yor demayman.
Yoqib ketdi bu qilmishing,

Shirin so'zu yaxshi ishing,
Yuragimga o't yoqishing,
Bor, bor dema men boramayman,
O'zgani men yor demayman.

O'zi bilsa bilsin

Gul tagidan gul chiqadi shohchalab,
Mani yorim gaplashmaydi o'pkalab.
Gaplashmasa gaplashmasa,
Gaplashmasin o'pkalab.
O'zim borib gaplashaman o'pkalab.
O'zi bilsa bilsin, o'zga bilmasin,
Sevishimni g'animlar, aslo sezmasin.

Shundanmikan

Yoshligimda o'smalarni ey,
Ko'p qo'yibmikanman voy ko'p,
Qo'yibmikanmanman.
Qoshkinamning qaroligi ey,
Shundanmikin, voy shundanmikin,
Shundanmikin, voy shundanmikin.
Yoshligimda qora mayizni ko'p yebmikanman,
Voy ko'p yebmikanman,
Tilginamning shirinligi ey shundanmikan,
Voy shundanmikan,
Shundanmikan, voy shundanmikan.
Yoshligimda surmalarni ey ko'p suribmikanman,
Voy ko'p suribmikanman,
Ko'zginamning charosligi ey shundanmikin,
Voy shundanmikin,
Shundanmikin, voy shundanmikin.

Aytishuv

Osmono uchurdim uchar g'ozimni,
Izidan yubordim xumor volimni.
Og'am bo'lib ko'tarmaysiz nozimni
Og'a mani na gunohim bor edi,
Sabab nadur chaqirganda kelmaysiz.

Egninga kiyibsan chiroyli po'stin,
Har kim o'z elinda salomat bo'lsin.

Bir arzim bor sizga aymoqchi edim
Toza yor tutibsiz muborak bo'lsin.

Orqa sochim jumalagin tortasiz,
Qayga borsam uyg'a bor deb aytasiz.
Bormiy-bormiy bir boruvudim o'yingizga,
Tong otguncha xurraq otib yotasiz.

Xayriddin Saloh

NA'MATAK

Olislardan bo'y ko'rsatib imlagan tog'lar,
Ovozimni necha bora tinglagan tog'lar,
Novvotirang cho'qqilaru jilvangiz bilan,
Savam-savam qorlaringiz, zirvangiz bilan
Chorlayapsiz o'zingizga og'angizni,
Avj pardada kuylay endi qo'shig'ingizni.
Sizga keldim, rubobimni ham ola keldim,
Yo'l-yo'lakay qo'shiq aytdim, soz chala keldim.
Yana bitta qo'shig'im bor, ismi «Na'matak»,
Bu qo'shiqda kuylanadi ikki sof yurak.
Tog' boshida bir tup yashil na'matak ko'rdim,
U shamolda chayqalardi, termulib turdim.
Shunday nafis, shunday go'zal shohu shabbasi
Barglarini o'ynar yengil tog' shabadasi,
Olislardan boqib deysan olcha, olumi?
Yoxud toqqa olu izlab chiqqan suluvmi?
Yaqin bordim, ko'ngli bir oz xasta ko'rindi.
Unchalik ham yuksakdamas, pastda ko'rindi.
Istagim shu: tirmashsammi tog'ning toshiga
Chiqqa qolsam na'matakning shunda qoshiga.
So'qmoq oshdim, dara oshdim, qoyalar oshdim,
Qancha o'ngir, qancha pillapoyalar oshdim.
Olg'a yurib, men yuksakka intilgan sari,
Na'matakchi, yana baland qochardi nari.
Shoshilardim panohiga yetib olay, deb,
Gullariga, barg shoxiga nazar solay deb.
Ammo barin tutqazmasdi sira na'matak,
O'chakishgan kabi mendan chekinar yuksak.
Huzuriga yetib bordim uning nihoyat,
Dedim: – Yuksak yuksaklarda o'sibsan g'oyat.
Bunchalar ham odamlardan ketmasang yiroq,
Shunda birdan so'zlarimni men tugatmayoq,

Sochin yoyib, boshin egib asta na'matak,
Barglarini shivirlatib so'yladi ertak.
Yo'q, ertakmas u kechmishdan jonli hikoY.
O'zi jonli ammo... ammo qonli hikoya:
Oh, bilsayding ne savdolar kechdi boshimdan,
Ne mas'ud kun, ne g'avg'olar kechdi boshimdan.
Odamlarga yaqin edim bir zamon juda,
Kunlarim ham o'tar edi tinch va osuda.
Chayqalib hush shamollarning belanchagida
O'sar edim gullar ochib tog' etagida.
Pastimda soy, tepamda-chi azamat qoya,
Bo'ronlardan qilar edi meni himoY.
Yo'l oshganlar dam olardi bir dam soyamda,
Mildir-mildir qo'shbulog'im qaynab poyimda,
Suvlаридан uzatardi har o'tkinchiga,
Oh, qo'shbuloq, qatralari o'xshar injuga.
Har kun oqshom Murod bilan suluv Sanamjon
Mening xilvat panohimni eshitib makon kuylashardi:
– Oh, na'matak,
Suluv na'matak,
Sen bor dilga hech kim solmas,
Panohingda dam olamiz.
Har kuni oqshom,
Yel esganda shivirlashing,
Dillarga orom.
Hali bizga kulib boqar
Yorqin kelajak.
Albat baxtu iqbolimiz
Xandon kulajak.
Qalbimizda to'lqin urgan
Dilkash na'matak,
Sen shovullab kuylab turgin,
Bor bo'l na'matak!!!
– Gullarimdan terishardi etagu etak,
Yon-verimda to'plashardi lolayu chechak.
Qo'shbuloqda yuzlarini yuvar edilar,
Qo'shbuloqda o'zlarini ko'rар edilar.
Qo'sh dudoqlar to'yib bo'sa olishar edi,
Ba'zi tunlar tongga qadar qolishar edi.
Lekin, afsus visol dami bormadi uzoq,
Pok sevgining yo'llariga qo'yildi tuzoq.
Qiz otasi voqe�an bo'ldi-yu voqif
Bir kun oqshom huzurimga keldi tutoqib.

Ko'rsa, qizi o'tirardi sevgani bilan:
– Hali senmi yuzim yerga qaratadigan?
Deya bo'g'di kelib qizning giribonidan,
– So'yla, qanday chiqib ketding onang yonidan?
He... uyatsiz, ibosi yo'q, ablah sharmanda,
Keksa otang qartayib shu yoshga yetganda
Ta'na, dashnom eshitsinmi yaqin-yiroqdan?
Yoki boshim olib ketay butkul qishloqdan?
Tik boqdi-yu otasiga yolbordi Sanam,
Yurakdag'i maddasini xo'p yordi Sanam:
– Oh, dadajon, so'zingizdan dil qiyima-qiyima,
Mening qilgan aybim nima, gunohim nima?
Tengu to'shim topib jordan sevganim aybmi?
Hamqishlog'im Murodjonni deganim aybmi?
– Bas qil! Tag'in, uyalmasdan «sevgi» deydi-ya,
Ikkovingni jahannamga qilayki qiY.
O'sha bilan qo'shmozor bo'l, esi past, ahmoq.
Ayblaringni yopsin, yorab bir ketmon tuproq.
-Dada buncha so'zlarimga qaraysiz loqayd?
– So'nggi so'zim: yaxshilikcha bu yo'lingdan qayt!
Mana men ham o'z onangni sevib olmadim,
Ishq yo'lida «oh» chekmadim ham dod solmadi.
Ming shukurkim yashayapmiz hammadan a'lo,
Qarshimizda ip esholmas Majnunu Laylo.
– Qaysi ota o'z farzandin shuncha qiyaydi?
– Bas! Yo'lingdan qaytasanmi yo yo'qmi, daydi?
– Yo'q, qaytmayman Murod mening gulgun hayotim,
Murod bilan birga bo'lmoq maqsad-murodim!
Ota halok etdi shu kun Sanamni e voh!
Shu qir guvoh, shu tog' guvoh, daralar guvoh,
Qon yig'ladi o'sha kecha tog'da shalola.
Qon yig'ladi gulu g'uncha, bag'ri qon lola.
Qon yig'ladi daraxtdagi har bitta yaproq.
Qon yig'ladi toshlar ichra sizgan qo'shbuloq,
Qon yig'ladi adir oshgan, qir oshgan yellar,
O'sha kecha o'z yo'lidan adashgan yellar.
Qon yig'ladi sharqiragan pastdagi soy ham,
Visol chog'i yarqiragan ko'kdagi oy ham.
Ko'z yosh to'kdi cho'qqi uzra to'p-to'p sur bulut.
Ko'z yosh to'kdi ohularu lochin, sor-burgut.
Ko'z yosh to'kdi qiya to'shda o'sgan do'lona.
Ko'z yosh to'kdi nav-nihollar yelda sallona.
Ko'z yosh to'kdi Sanamjonning dugonalari

Singillari, onalari, hamhonalar...
Qora rangda edi ular boshda ular ro'jası.
Butun qishloq motam tutdi o'sha kechasi.
Murod bo'lsa yor hajrida zor qaşhab qoldi,
Telbasaro, devonaga u o'xshab qoldi.
Har yog'imga sachrab ketdi qizning xunidan,
Mevalarim qizilligi sababi shundan...
Qotil birdan menga qarab o'shqira ketdi:
«Senmi hali, – deya qaynab do'q ura ketdi,
Panohingda yigit qizni ardoqlaguvchi,
Har narsadan xabardoru sir saqlaguvchi.
Hozir kesib tashlamasam, boshqalar tag'in
Sening xilvat panohingda qovushar tayin».«
G'azab bilan menga qarab og'ir yo'taldi,
Chopmoq bo'lib oyboltasin baland ko'tardi.
Vaqt o'tkazmay tez kirdimu yerning qa'riga
Yorib chiqdim o'sha lahza qoya bag'ridan.
Oysanamjon dafn etildi qaro tuproqqa,
Uning ruhin olib chiqdim men yuksak toqqa.
Garchi yor-la qovusholmay alamda qoldi,
Lekin ezgu umidlari baland-da qoldi.
Hali-hali menga boqib olisdan Murod
Sanamjonni eslay-eslay chekadi faryod:
– Jon yoronlar tog' boshida
Na'matak ko'rdim.
Ishq yo'lida, yor yo'lida
Ko'p sarak bo'ldim.
Nigohimni uzolmayman.
Hech na'matakdan.
Go'yo sevgan yorim bo'lib
Boqar yuksakdan.
Unga boqsam yodga tushar
Visol choqlari.
Sanamjonning g'uncha yanglig'
Qo'sh dudoqlari.
Yo'q, nigohim uzolmayman
Men na'matakdan.
Yorim bo'lib qaragandek
Menga yuksakdan.
Qiz labidan uchmay qolgan kulgi hurmati,
Ochilmasdan payhon bo'lgan sevgi hurmati,
Oydin kecha, oltin bo'sa, visol hurmati,
O'sha pari, o'sha sohibjamol hurmati

Yigit-qizlar ziyoratga kelar har bahor,
 Gullarimdan terib ketar ular har bahor...
 Shamol essa yaproqlarim navo chaladi,
 Mevalarim ming bir dardga davo bo‘ladi...»
 So‘zlarini tugatdi-yu, og‘ir xo‘rsindi,
 Dedim unga: – na’matakjon, dovullar tindi.
 Bog‘ tinchidi, tog‘ tinchidi, tinchidi zamon,
 Ellar xushnud, dillar xushnud, yurt dorilomon.
 Yur ketaylik endi do’stim pastga – quyiga,
 Gar istasang ekib qo‘yay anhor bo‘yiga.
 Yo‘qsa, o‘rning bo‘lur gulshan bog‘im to‘rida,
 O‘tirayin chiroyingga boqib so‘rida.
 So‘zlarimga bildirdi u qat’iy e’tiroz:
 – Boshlarimda ming xil qushlar etishsa parvoz.
 Quyosh ilk bor yog‘dusini menga baxsh etsa,
 Poyimda-chi, butun borliq kulsa, raqs etsa,
 Pastda netay? Yo‘q, o‘smayman unda soyada,
 Mayli qizga haykal bo‘lib qolay qoyada!

Xotima

Na’matakning so‘zlaridan lol bo‘lib qoldim,
 Ortga qaytdim, uning gapin dostoniga soldim.
 Ko‘p o‘tmasdalan tark ayladim qorli tog‘larni,
 Daralarni, qoyalarni qir o‘tloqlarni...
 Barcha ko‘rgan-bilganlarni unutmoq mumkin.
 Faqatgina na’matakni unutish qiyin.
 Garchi uning aytganlari qadim afsona,
 Lekin o‘zi haqiqatga yaqin tarona!

Hamid Olimjon

ZAYNAB VA OMON (Poemadan parcha)

So‘ylab beray Zaynab va Omon
 Sevgisidan bir yangi doston.
 Bir zo‘r otash, bir zo‘r alanga
 Iikki qalbga tutashgani ros,
 Bir sevgikim, jon berar tanga,
 Ham Zaynabu Omonlarga xos.
 Bu sevgida yo‘l boshlar vafo,
 Ham vafoni yashirmas jafo:
 Bunda aslo qora tun yo‘qdir,
 Bunda motamsaro kun yo‘qdir.
 Xazon qilmas Zaynabni zamon

Va otashda o'rtanmas Omon,
Tushi emas, balki o'ngida,
Dildorini ko'rар begumon.
Bir qissakim, buning so'ngida
Sevishganlar topishgusidir,
Jonlar jonga yopishgusidir.
Shod o'tadi Zaynab kunlari,
Ko'ngli bahor ko'kiday toza.
Ko'qda uchgan qushlarning bari
Shodligidan olar andoza.
U yashaydi, besitam, bezor,
U bilmaydi qayg'uni, g'amni,
Oyoqlari ostiga bahor
To'shab qo'ygan alvon gilamni.
Shudir bahor, ochilgan lola,
Shudir dilni qiynagan nola:
Shudir sabza, binafsha ko'klam,
Shudir qizning boshidagi g'am.
Shudir atir sochuvchi ra'no,
Shudir achchiq va shirin ma'no;
Shudir etgan qiz ko'ksini oq.
Va yigitning ko'kragini tog'.
Zaynabning ham toza, osuda,
Dog' ko'rmagan ma'sum qalbida
Sevgi yaproq yozib qolibdi
Va fikriga g'avg'o solibdi.
Ko'ngil qushi talpinib qoldi,
Yuragidan o't yonib qoldi.
Ko'p yigitga tushadi ko'zi,
Lekin shunga hayronki o'zi,
Ko'ngil faqat Omonni deydi;
Shu yurakni, shu jonni deydi.
«Sensan, Omon, uyqusiz tunlar
Yuragimni olgan alanga,
Sen fikrimni cho'lg'ading kunlar,
Sen lahcha o't tashladning tanga.
Koshki seni ko'rmagay edim,
Tushmagaydi ko'zga otashing,
Yashar edim betashvish va jim,
Yuragimni yondirmas g'ashing.
Quyosh botdi, bir to'da qizlar,
G'am bilmagan kunlar yulduzlar,
Ovoz qo'yib qo'shiq aytadi.

Zaynab bilan xushchaqchaq Huri,
Adol bilan yallachi Nuri,
Asal bilan o'yinchi Sora,
Surma bilan quvnoq Ruxsora,
Sarvi bilan dutorchi Gulnor,
Qunduz bilan Suqsur va Anor
Birga-birga qaytadi xandon
Birga chaqchaq qiladi chandon.
Hali Zaynab chaqaloq kunlar,
Boshga tushdi chigal tugunlar:
Ona uyi odamga to'ldi,
U Sobirga nishona bo'ldi
Uch-to'rt xotin go'dak Sobirni
Olib kelib ochdilar sirmi,
Zaynab bilan Sobirni maqtab
Va ikkovni bir-birga atab,
Dasturxonda sindirdilar non
Va fotiha ko'tarib shu on
Targaldilar...
Yillar o'tdi, faqir xonadon
Muhtojlikka taslim etdi jon,
Va oila tutday to'kildi.
Zaynab qoldi bechora yakka,
Kimsa kelmas unga ko'makka.
Na ota ona qoldi,
Na bir kulba, na xona qoldi;
Na bir panoh, na bir oshiyon,
Na bir g'amxo'r, na bir mehribon,
Na bir sirdosh, na bir yo'ldosh,
Na bir o'rtoq, na bir qayg'udosh...
Hech kimsasiz yo'q edi, yolg'iz
Tutqun bo'lib qolgan edi qiz.
Qiz beradi taqdiriga tan,
Anor xola kulbasi — vatan.
Xufton yotib, azonda turar,
Erta-yu kech eshik shipirar.
Mashaqqatda o'tadi kuni,
Holdan ketib sho'rlik qiz tuni
Yarim karaxt mudrar, yarim och,
Usti boshi yirtiq-yalang'och.
Kun kechirar, ishlar tinmayin,
Qayg'u to'la ovozi mayin
Qizning g'amgin holin anglatar,

Qiz ichida og‘ir dard yotar.
Zaynab endi o‘z asrorini,
Armonini, istak, zorini
Opasiga etib oshkora,
Qilmoqchilar dardiga chora.
Faqat netib, qaysi yuz bilan,
Qaysi hayo, qaysi ko‘z bilan
Opasining yuziga qarar?
Tili so‘zga qandayin borar?
Uyat o‘ti yonib yuzida,
Bir iztirob ziyrak ko‘zida,
Yolg‘iz Huri sari talpinar,
Uni eslab yuragi tinar.
Chunki Huri Zaynabning butun
Asrоридан то‘ла xabardor,
Chunki uning bilan kunu-tun
Birga, bo‘lar, har narsaki bor,
Zaynab unga so‘ylar, saqlamas,
Hech bir narsa yo‘q Huri bilmas.
Hatto Omon bilan ham uni,
Tanushtirgan shu Huri edi.
Yerda ekan ko‘zining nuri,
Zaynab hamon jim, faqat
Huri davom etar savol-javobda,
Jaranglaydi chalg‘isi tobda:
«To‘g‘ri, opa, senga ham qiyin,
Birovga so‘z bergandan keyin
Uddasidan chiqmoq yaxshidir,
Andishaning sababi budir:
Zaynabning ham tanlagani bor
Opa, faqat, qizishma zinhor!
U Omonni sevib qolibdi,
Sevib qolib, va’da olibdi.
Opa, bu ish qizning haqqidir,
Andishamning sababi budir.
Bunda yo‘qdir hech qanday gunoh,
Zo‘rlik bilan tegib, so‘ngra oh,
Tortganning hech foydasi bo‘lmas.
Qiz ham odam, u bir mol emas,
So‘zda turmoq qiz uchun ham farz.
Odamgarlik qiz uchun ham qarz.
Poymol qilib bo‘lurmi buni?
Qaysi nomard istagay shuni?»

Zaynab turar, qora ko‘zidan
Jovdiragan yoshi tirqirar,
Qoni qochib oppoq yuzidan
Talvasada ko‘kragi urar.
Xuri jimdir. Zaynab bepoyon
Alamini qilgili bayon
Bir chimrandi, silkindi boshi,
So‘z boshladi, ko‘zida yoshi.
Sobir ko‘zi tushdi eshikka,
Qizlar tomon qo‘zg‘aldi tikka.
Ota-onha qotib qoldilar.
Taajubga botib qoldilar.
Zaynab sekin so‘zga kirishdi,
Hikoyaning boshidan tushdi:
«Sobir, yolg‘iz senga suyandim,
Eshit meni, bir o‘tda yondim.
Boshim uzra sindi og‘ir tosh,
Seni deya qavmu qarindosh
Ixtiyorum olgan ekanlar,
Va kishanga solgan ekanlar.
Men Omonga ko‘ngil beruvdim,
To o‘lguncha o‘shani devdim.
Sevganimni bilib omonni,
Oqizdilar bag‘rimdan qonni.
Malomatga tomon ko‘mildim,
Haqoratdan go‘yoki o‘ldim.
Yetsang deya dodimga zora,
Izlab keldim o‘zingga chora.
Qutqar meni, keldim o‘zingga,
Muhtojdirman sening so‘zingga».
Sobir tamom hayratda qoldi,
Bir iztirob, bir dardda qoldi.
O‘rtandi-yu achindi joni,
Joni emas butun jahoni.
«Qarindoshlar yig‘sinlar esin,
Shu choqqacha inson sezgisin.
O‘yin, mazax bo‘lgani basdir.
Endi dunyo bozor emasdир.
Endi odam quldek sotilmas,
Endi odam o‘tga otilmas.
Endi unga qafas bo‘lmas jon,
Endi dunyo bo‘limgay zindon.
Endi odam istar bo‘lsa yor,

O‘z sevganin qilsin ixtiyor.
Mening ham bir suygan gulim bor,
Mening ham bir o‘z bulbulim bor.
Bor, azizim, yosh ko‘ngling to‘lsin,
Bor, suyganing o‘zingga bo‘lsin».
Shu kuniyoq butun qishloqqa,
Qishloqdagi el birla xalqqa
Bu mojaro bo‘ldi ovoza.
So‘ylardilar Zaynab holidan
So‘ylardilar Sobir folidan.
So‘ylardilar ertangi to‘ydan
To‘y kechasi aytilar kuydan.
Hur qizlarni oqlar edilar,
Bir ehtirom saqlar edilar,
Kolxozdagi katta ravotda,
Bir alomat shovqin bor edi.
Qutlab Zaynab, Omon to‘yini,
Hamma xursand kelar edilar.
Bir alomat to‘y bo‘larini
Hamma yaxshi bilar edilar.
To‘rga katta gilam soldilar,
O‘yinchilar kelib qoldilar.
Cholg‘uvchilar boshladilar soz,
Qo‘sishqchilar soldilar ovoz.
Halimaxon, Naziraxonlar,
Nozdimaxon, Karimaxonlar.
Qushday yengil uchar edilar.
Oq bulutday ko‘char edilar.
Oqshomgacha bo‘ldi tomosha,
Butun yurtga to‘ldi tomosha.
Kelin-kuyov Zaynab va Omon,
Boqardilar ma’sum har tomon.
Xursand edi behad ikki yor,
Xursand edi ikki baxtiyor.
Dugonalar va mehribonlar
Uzatdilar aytib yor-yor.
Olam sari sochib yangi ong
Sekin-sekin yorishardi tong.

SO'NGGI SO'Z O'RNIDA

Mazkur xrestomatiya bo‘lg‘usi aktyorlar, rejissyorlar, suxandonlar ijro mahoratida ijodiy jarayonlarni shakllantirish va mustahkamlash maqsadida tavsija etiladigan turli janrdagi hamma badiiy asarlarni qamrab olish va to‘plamga kiritish imkoniyatiga ega emas. Mustaqillikdan keyin yaratilayotgan yangi-yangi badiiy va publisistik adabiyotlar nashr qilinayotganligi ijobjiy holdir. Ish jarayonida ulardan ham keng foydalanayotgan esada, saralangan matnlarni to‘plash uchun jamlash jarayoni davom etishi tabiiy. Shuningdek, O‘zbekiston Davlat san’at instituti “Sahna nutqi” kafedrasи, A.Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti Sahna nutqi fani professor va o‘qituvchilarida namunali talabani har tomonlama tarbiyalashga qo‘l keladigan matnlar mavjudligini bilamiz. O‘z o‘rnida yana ko‘plab yetuk ijodkor mualliflarimizning asarlaridan foydalanishni e’tirof etishimiz maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

1. X.Begmatov. Devona Mashrab, 2005.
2. N.Ismoilov. Burgut tog‘da ulg‘ayadi, 2005.
3. A.Obidjon. Yigit edim o‘shanda, 2006.
4. Muhammad Ali. Amir Temur chamani, 2006.
5. M.Yusuf. Saylanma, 2005.
6. U.Azim. Kuz, 2001.
7. M.Tairov. Saylanma, 2002.
8. SH.Bo‘tayev. Hayot, 2000.
9. SH.Xolmirzayev. Saylanma, 2005.

10. M.Mirzo. Saylanma, 2004.
11. E.A'zam. Pakanuning oshiq ko'ngli, 2001.
12. M.Mansur. Judolik diyori. 2 jildlik, 2003.
13. M.Qoriyev. Oydin kechalar, 2005.
14. X.Do'stmuhammad. Beozor qushning qarg'ishi, 2006.
15. M.Xazratqulov. Ko'k kul, 2005.

ZORA ALIMDJONOVA

SAHNA NUTQI (XRESTOMATIYA)

*san'at va madaniyat institutlari
talabalari uchun o'quv qo'llanma*

*Nashrga tayyorlovchi:
D.Karabayeva*

*Kompyuterga teruvchi:
M.Shukurova*

Bosishga ruxsat berildi 2007 yil 10 sentabr. Bichimi 148X210. Bosma
tabog‘i 11,7. Ofset qog‘ozida. Adadi 300. Buyurtma №05.

O‘zbekiston Davlat san’at instituti Bosmaxonasida bosildi.
Toshkent shahar, Mirobod tumani, Mironshoh – 123.